Shartli reflektor xarakterdagi taʼsirlovchilar (bolani koʻrsatish, bola emizish bilan bir vaqtda qoʻllanilgan tovush taʼsirlovchilari) taʼsirida sutning koʻproq chiqishini L.N. Voskresenskiy aniqladi. Kuchli ruhiy hayajonlar taʼsirida sut chiqmay qolishi ham sut bezlarining funkstiyasi bosh miya poʻstlogʻiga bogʻliq ekanligidan guvohlik beradi.

Sut bezlaridagi sekrestiya prostessi qisqacha aytganda quyidagidan iborat. Ishlab turgan sut bezining epiteliy protoplazmasida yumaloq sut sharchalari hosil boʻlib keyin alveolalar boʻshligʻiga oʻtadi. Sut bezlari sekretining suyuq qismi qoning suyuq qismidan anchayin sizilib chiqmay, bez epiteliysida hosil boʻladi.

GINEKOLOGIK BEMORLARNI SUBʼEKTIV TEKSHIRISH USULLARI.

Ginekologik bemorlarni tekshirish soʻrab – surishtirishdan boshlanib, maʼlum reja asosida:

1. Pasport maʼlumotlari. Ayniksa, yoshga eʼtibor beriladi, chunki bolalik, karilik, homiladorlik, laktasion davrda amenoreya fiziologik, balogatga yetish davrda esa patologik xisoblanadiyu, jinsiy yetuk davrda qon ketishi, abort, mioma, yalligʻlanish va b. bilan karilikda qon ketishi esa yomon sifatli oʻsmalar bilan bogʻliq.

2. Shikoyatlari:

I menstrual funksiya boʻyicha: a) necha yoshligida 1-hayz sikli sodir boʻlgan va uning xarakteri (ogʻriq, qon yoʻqotish darajasi, davomiyligi); b) hayz sikli necha kunlik intervaldan keyin sodir boʻladi; v) hayz sikli tipi (3 yoki 4 haftalik sikl, daovmiyligi, qon yoʻqotish, ogʻriq va b.); g) jinsiy xayot boshlangach, tugʻruq va abortdan soʻng hayz sikli tipi uzgardimi; d) xozirgi kasalligida hayz sikli xarakteri uzgardimi; ye) oxirgi hayz sikli belgilanadi.

II Jinsiy funksiya:

1. jinsiy xayotning boshlanishishi;
2. jinsiy xissiyotlar;
3. jinsiy aktning buzilishi: ogʻriqli boʻlishi; bachadon ortiklari va chanoq pardasining yalligʻlanish, endometrioz, orqa parametrit, vulvovaginit, vaginizli (mbulbospongiosus ning spazmi) da va b. kuzatiladi;
4. Qonsentrativ vositalardan toʻgʻri va meʼyorida foydalanish.

III Tugʻish funksiyasi:

1. jinsiy xayot boshlangandan soʻng 1 – homiladorlik kachon sodir boʻlgan;
2. homiladorlik chastotasi, uning kechishi va oqibati;
3. tugʻruq va tugʻruqdan keyingi davrning kechishi;
4. oʻtkazilgan abortlar soni, xarakteri(tabiyy, sunʼiy);

IV Sekretor funksiyasi – qindan chiqadigan ajralma (fluor) ning manbai (korparal, bachadon boʻyni qin, vestibulyar); miqdori va sifati tekshiriladi.

V Eng asosiy ogʻriq simptomi – tashqi jinsiy aʼzolar kasalligida ogʻriq zararlangan soxada joylashadi. Ichki jinsiy organlar kasalliklaridan esa aniq lokalizatsiyaga emas, diffuz xaraterda boʻlib, qorin pastda, bel, dumgaza, toʻgʻri ichak, qin, son va b. soxalarga irradiisyalanadi. Ginekologik kasalliklarda teri sezuvchanligi yuqori zonalar: zaxarin – Geda zonolari boʻlib, ular X kukrakdan IV dumgaza segmentigacha tarkaladi.

VI kushni organlar (ayniqsa, siydik ajratish, ichak funksiyasining buzilishi) funksiyasini tekshirish.

VII Yashash va ishlash sharoitini.

Ginekologik bemorlarni tekshirish sistemasi.

Maqsad: jinsiy organlar va boshqa organlar sistemasining xolati va kasalliklarini aniqlash.

Bajariladi: ayolning butun organizmi tekshiriladi, chunki yuldosh kasalliklar bilan jinsiy organlar kasalliklari bog'liqligi patogenezi asoslash davolash taktikasini tanlash.

Ginekologik amaliyotda ishlatiladi:

1. Tibbiyotda umumiy qo'llaniladigan tekshirish usullari: Kuzdan kechirish palpatsiya, perkusiya, auskultatsiya va b.
2. Maxsus tekshirish usullari: qin orqali [ichki] va bimanual tekshirish, oynalar yordamida, zondlash va b.
3. Laborator tekshirish usullari.

Ginekologik bemorlarni umumiy tekshirish usullari.

Status praesens obiectivus Kuzga kurinadigan teri va shillik pardalarning rangparligi qon yo'qotilishi bilan bog'liq kasalliklar [fibromioma, hayz siklining buzilishi va b.] dan darak beradi. Bemorning umumiy ozishi [kaxeziya], yuzining rangparligi yoki kulrang tusda bo'lishi. Yomon sifatli o'smalarninguzok muddatli kechgan turlariga xarakterli skeletning raxitik deformatsiyasi tug'ruqdan keyingi jaroxatlar [okma, bachadon bo'yni va oraliqning yerilishi]ga olib kelishi mumkin. Ginekologik kasalliklarning rivojlanishida tashqi muxit nokulay faktorlarining muayyan qonstitutsional omillar bo'lganda yakkol namoen bo'ladi. Qonstitutsiyani baxolashda organizmning morfologik va funksional xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Infantil tip uchun kuyidagi belgilar xarakterli: o'rta yoki kam xollarda baland buyli, chanogi xamma ulchamlari bo'yicha toraygan, kukrak bezlari, tashqi va ichki organlari yaxshi rivojlanmagan, hayz sikli va detorodnaya [homiladorlik, tugish va abortlar] funksiyalari buzilgan bo'ladi.

Interseksual tip ikkilamchi jinsiy belgilarning tula differentsiallashganligi tufayli bu tipli ayollarning bo'yi baland, skeleti massiv, yelkasi va chanogi keng, chanogi shakl jixatdan erkaklarnikiga o'xshash, boldirlari bir-biriga tegmaydi. Tashqi jinsiy organlarda soch koplami kuchli rivojlangan, soch tuklarining usish xarakteri erkaklarga xos qorining ok chizigi bo'ylab qindik yunalishida usgan, oyoklarida va orqa chiqaruv teshigi atrofida xam soch tuklari ko'p bo'ladi. Shuningdek bu tipdagi ayollarda jinsiy organlar gipoplaziyasi, hayz siklining buzilishi, bepustlik, jinsiy indefferentlik kuzatiladi. Ba'zan infatilizm va interseksuallik belgilari birgalikda bo'lishi aniqlanadi.

Astenik tip uchun ulchamlarning uzunasiga kattalashishi, mushaklar tonusining pasayishi, skeleti, kukrak kafasi va ichki organlarining tuzilishida uziga xos xususiyatlar [yuragi kichik, aortasi tor, diafragma pastda tushishi, uzun ichak tutkishi va b.] ba'zan ichki organlarning pastga tushishi xarakterli. Astenik tipdagi ayollarda bachadon uta xarakatchan va orqaga bukilgan [flexio] xolatda bo'ladi. Ularda tug'ruqdan keyingi davrda [chanoq tubidagi mushaklar va boylam apparatining zaifligi tufayli] bachadon va qinning tushishi yuzaga keladi. Bu tipdagi ayollarda ob'ektiv uzgarishlar bulmasa xam, jinsiy sferasi tomonidan dumgazada og'riq, qorin pastida ogirlik xissi, hayz siklining og'riqli kechishi, kabziyatlar, ish kobiliyatining pasayishiga shikoyat qiladi.

Qorinni kuzdan kechirish - qorin xajmining kattalashishi va shaklining uzgarishi yirik o'smalar [mioma, kistoma va b.] eksudatli peritonit, bachadon ortiklarining yalliglanishi bilan birga bachadon naylarining xaltachali «o'smalari» [gidrosalpinks, piosalpinks] kelganda, tuxumdon absesslarida kuzatiladi. Assit va tuxumdon o'smalarida xam qorin kattalashadi. Kistomalarda qorin gumbazsimon, agar jinsiy organlari kasalliklari assit bilan kechsa, bemor gorizontol xolatda yetganda - qorin tekislangan bo'ladi; bachadon va qining chiqib kolishi yoki pastga tushganda qorin osilib turadi; qorin ok chizigi bo'ylab pigmentatsiyalar, homiladorlikdan keyingi chandiklar diagnostik axamiyatli.

Qorin palpatsiyasi siydik pufagi va to'g'ri ichak bushatilgandan keyin, bemor gorizontol xolatda yotqizilib oyogi son – chanoq va tizza bugimida bukilib (bu qorin mushaklarining bushashtiradi) korni paypaslanadi.

Palpatsiyada aniqlanadi:

- 1) qorin devoring xolati:
- 2) mushaklar tonusi, mushak ximoyasi, qorin to'g'ri mushaklarining diastaz; og'riqli soxalar; jinsiy organlardan chiqadigan yeki kichik chanoq bushligi chegarasidan tashqaridagi o'sma va infiltratlarning ulchami, shakli qonsistensiyasi, chegaralari, og'riq bor-yo'qligi, xarakatchanligi; «ballotirlanish» fenomeni aniqlanishi mumkin. Bachadon ortiklari va chanoq pardasining utkir yalliglanishida qorinning pastki bo'limida mushaklarning ixtiyorsiz taringlashishi (mushak ximoyasi) aniqlanib, ektopik homiladorlikda esa yuza palpatsiyada kuzatilmasligi mumkin.

Qorin perkussiyasi – jinsiy organlarining kasalliklarida hosil bo'lgan kasalliklarida hosil bo'lgan katta infiltrat va eksudat, shuningdek o'smalarning chegarasi va qonturlarini aniqlashga imqon beradi. Perkussiyada bemorning vaziyatini

uzgartirish: ektopik homiladorlikda qon kuyilganda, kistomalar devori yorilganda ajraladigan suyoqlik borligini kursatadi. Perkussiya parametrit va pelvioperitonitni differensial diagnostika qilishda ishlatiladi: parametritda infiltratning palpatsiya va perkussiya chegarasi to'g'ri keladi; pelvioperitonitda esa infiltrat yuzasiga ichak qovuzloklari yepishishi tufayli perkutor chegarasi palpator chegarasiga nisbatan kichik bo'ladi. Bundan tashqari, ichak qovuzloklarining qonglomerati va xam perkussiya qo'llaniladi.

Qorin auskultatsiyasi – ichaklar peristaltikasi va uning xarakteri homiladorlikning 5 oyidan keyingi muddatda homilaning xarakatlari va yurak tonlarini aniqlash mumkin. Masalan peritonitda ichaklar parezi tufayli peristaltika tuxtaydi; ogir ginekologik operatsiyalardan keyin ichaklar motorika funksiyasining buzilishi peristaltikaning susayishi; obturasion ileusda ichaklar tutilganligi sababli shovqinlar baland eshitiladi. Auskultatsiyada jinsiy organlar o'smalari (mioma, kistoma) va homiladorlik farklanadi.

1. Ginekologik bemorlarni maxsus tekshirish usullari.

I. Asosiy [shart bo'lgan]

2. Asosiy [shart bo'lmagan] – qo'shimcha diagnostik ma'lumotlarni olish maqsadida

Shart bo'lgan maxsus tekshurush usullari:

1. tashqi jinsiy organlarni kuzdan kechirish;
2. oynalar yordamida tekshirish;
3. qin orqali [ichki] tekshirish;
4. bimanual vagino – abdominal tekshirish.

Shart bo'lmagan maxsus tekshurush usullari:

- a) rektal va rekto-vaginal tekshirish;
- b) bachadonni zondlash;
- v) pulevie kiskichlar yordamida tekshirish;
- g) sitologik tekshirish usullari;
- d) bachadon shillik pardasini kirish;
- ye) biopsiya;
- j) probniy punksiya;
- z) pertubatio va hydrotubatio;
- i) rentgenokonstrast tekshirish usullari;
- k) siydik pufagi kateterizatsiyasi;
- l) endoskopik tekshirish usullari;
- m) probnie chrevosechenie (kesarcha kesish).

Shuningdek, ginekologik amaliyotda gistologik, bakteriologik, serologik, bioximik tekshirish, xamda kursatmaga asosan tibbiy ginekologik tekshiriladi.

Ginekologik tekshirishga bemorni tayirlash.

Bemorni tekshirish siydik pufagi va to'g'ri ichak bushatilgandan keyin gorizontol xolatda yetqizilib, oyoklari son-chanoq tizza bugimida buqiladi, bosh kismi bir oz kutariladi. Tekshirish jarayoni maxsus ginekologik kresloda olib boriladi.

Kvrsatma: maxsus ginekologik kreslo bo`lmaganda, oek ushlagichi bor kattik va baland kushetkadan foydalanish mumqin.

Tekshurushdan oldun albatta:

1. qin oynalari, kutargich, pinsetlar, surtma olish uchun instrumentlar, paxta, doka sterilizatsiya kilinadi.
2. rezina kulkoplar sterilizatsiyalanadi [ayniksa, suzak, rak, sil, trixomonadali kolpitli bemorlarni tekshirgandan so`ng];
3. kulni kulkopda suv bilan sovunlab yuvib, so`ngra dezinfeksiyalovchi eritmalar: [1:1000 sulema, 0,5% xloramin, 1 % lizol va b.] bilan ishlanadi.

Tashqi jinsiy a`zolari kuzdan kechirish

Kuyidagilar e`tiborga olinadi:

1. soch koplaminig usish darajasi va xarakteri [ayollarga xos (gorizontal yunalishda) , erkaklarga xos (vertikal yunalishda),
2. katta va kichik jinsiy lablarning rivojlanishi;
3. oraliq xolati [baland, past]
4. patologik jarayonlar: yalliglanish, o`sma, eroziya, kandiloma, okma, oraliq yorilgandan keyingi chandiklar va b.
5. jinsiy yoriqning xolati;
6. ayol kuchanganda bachadon va qin devorlarining tushishi
7. orqa chiqaruv teshigi [varikoz tugunchalar, yoriq, kandiloma, to`g`ri ichakdan shillik, yiring yoki qon ajralishi]

Kichik jinsiy lablarning yordamida uzoklashtirilib, vulva va qinga kirish yo`lida kuruladi:

- A) rangi [rangparligi, sianoz];
- B) sekret xarakteri;
- V) patalogik jaraenlar borligi [yalliglanish, kista, eroziya va b.];
- G) siydik chiqarish kanali tashqi teshigi va bartomeni bezi chiqaruv yullarining xolati [giperemiya, ajralmalar chikishi];
- D) qizlik pardasi shakli yoki uning qoldiqlari.

Oynalar yordamida tekshirish

Etaplar:

- 1 – tashqi jinsiy a`zolari kuzdan kechirish;
- 2 – oynalar yordamida tekshirish;
- 3 – qin orqali va bimanual tekshirish.

Shu tartibda tekshirilishi lozim, chunki qo`shimcha travmatizatsiya tufayli eroziya xarakteri uzgaradi.

Kursatmalar:


1. bachadon bo`yni va qinning kasalliklari: eroziya, polip, leykoplakiya, bachadon bo`yni, rak, kolpit, servisit, tuberkulez yara, travmalar va b.
 2. qizlarda tekshirish o`tkazilmaydi.
- Qin oynalari turlari: a) silindrik, b) darchali-Kusko; v) qoshiqsimon [plastinchatiy]

Silindrik oynalar kam ishlatiladi bachadon bo`yni kasalliklarini davolashda ishlatiladigan dori moddalaridan qin devorini izolyatsiya qilish maqsadida qo`llaniladi. Darchali [uzini ushlab turuvchi] oynalar ambulator amaliyotda va assistent bo`lmaganda foydalanilib, berk xolatda qin gumbazira kiritilib darchalari ochilganda bachadon bo`yni ochiladi. Oynani qindan asta-seqin chikarilganda qin devorlari kurinadi.



Bachadon bo`yni va qin devorlarini ko`rish uchun eng kulay qoshiqsimon oynalardir. Oyna yordamida oraliqni orqaga itarib, qinning orqa devori bo`ylab kiritiladi, so`ngra o`nga parallel ravishda yassi kutargich kiritilib qinning oldingi devori yuqoriga kutariladi. Bachadon bo`ynini yaxshirok ko`rish uchun yassi plastinchatiy oynalar xam kiritilishi mumqin.

Bunda anuklanadu:

1. bachadon bo`yni va qin shillik pardasi rangi;
2. sekret xarakteri;
3. barmok orqali tekshirishda kurinishi va ajralmalar



QIN OYNALARI YORDAMIDA TEKSHIRISH



QIN OYNALARI

3. bachadon bo`yni shakli va ulchami.
4. patologik jaraenlar [yallishlanish, travmalar, eroziya, o`sma, okma va b.]

Qin orqali [ichki] tekshirish.

Qin orqali tekshirish o`ng kulli kursatkich va o`rta barmoklar yordamida, leqin qin torligi [gipoplaziya, yoshi bog`liq atrofiya, tugmagan ayollar] da fakat 1 barmok bilan tekshiriladi. Barmokni kiritishdan oldin vulvani dezinfeksiyalovchi eritmalar xullangan tampon yoki steril paxta bilan artiladi. Chap kulning bosh va kursatkich barmok bilan jinsiy lablar bir-biridan uzoklashtiriladi. Kursatkich va o`rta barmok qinga kiritilib, bosh barmok simfizga, IV - V barmoklar kaftga bukilib asosiy falangalar tashqi tomoni oraliqqa takalib turadi.

1. Oraliq soxasidagi mushaklar xolati [kuchsizlanishi, atrofiya yoki gipotrofiya]
2. Vestibulyar bezlarning joylashuvi [kista, yalliglanish va b.]
3. Qin oldingi devori orqali uretra paypaslanadi [yalliglanish, og`riq, zichlashishi]
4. Qinning xajmi, burmalari, chuzilishi, patologik jarayonlar [infiltrat, chandik, stenoz, o`sma, rivojlanish nuksonlari]. Qin gumbazining chukurligi, kattikchanligi, og`riqligi [bachadon ortiklari, chanoq pardasi va klechatkaning yalliglanishida qin gumbazi og`riqli, rigidlashgan, burtib, chikkan; gipoplaziya va karilik atrofiyasida qin gumbazi tekislangan]

Bimanual [vagino-abdominal] tekshirish

Bunda o`ng kulning kursatkich va o`rta barmoklari qin gumbaziga kiritilib, bachadon bo`yni orqaga siljiriladi. Chap kul kafti qorin devori orqali bachadon tanasi paypaslanganda aniqlanadi:


1. Bachadon xolati: egilgan: [versio], bukilgan [flexio], gorizontal uk bo`ylab siljigan [positio], vertikal uk bo`ylab siljigan [elevatio, descensus, prolapsus].
2. Bachadon ulchamlari: normal, kichraygan [gipoplaziya, atrofiya] kattalashgan [homiladorlik, mioma va b.].
3. Bachadon shakli: normal [noksimon, tekislangan], dumalok [homiladorlik] noto`g`ri [o`sma, rivojlanish, anomaliyalari].
4. Qonsistensiyasi: odatdagi, yumshok [homiladorlik, fliktuatsiyalovchi gematometr, piometr], kattik [mioma].

5. Xarakatchanligi: normal, chegaralangan yoki yo`qolgan [o`sma, chandik], uta xarakatchan [bachadon tushishi].


6. Og`riqligi [yalliglanish, mioma tugunlaridagi ikkilamchi uzgarishlar].

Keyin tashqi va ichki barmoklar bachadon burchagidan chanoq yon devorlariga o`tkazilib, bachadon nayi [N= paypaslanmaydi], tuxumdon , bachadon boylamlari [N= paypaslanmaydi], chanoq, pardasi va kletchatkadagi patologik uzgarishlar aniqlanadi.

БИМАНУАЛ ВАГИНО – АБДОМИНАЛ ТЕКШИРИШ



РЕКТО – ABDOMINAL ТЕКШИРИШ



Bachadonni zondlash.

Kursatma: diagnostik [bachadon xolati, ulchami, bo`ynining uzunligi, bo`yin kanali o`tkazuvchanligi stenoz, atreziya va b]; davolash [bachadon shillik pardasini kirish, qin orqali kesarcha - kesish] maqsadida.

Texnikasi: stasionar sharoitda aseptika va antiseptika rioya kilingan xolda qinga oyna kiritib, pulevoy kiskich bilan bachadon bo`ynining oldingi labi ushlanadi. Bachadon antifleksiyasida metall zond tugmachasi oldinga retrofleksiyada orqaga yunalishda bachadon bushligi va bo`yin kanaliga kiritiladi.

Bachadon shillik pardasini kirish.

Kursatma: diagnostik [xavfli o`sma, endometriy sili, polipoz, hayz siklining buzilish sabablari], davolash [xirurgik gemostaz] maqsadida.

Kerakli asboblari:

1. qoshiqsimon qin oynalari;
2. pulevie kiskich;
3. bachadon zondi;
4. kengaytirgichlar.
5. qoshiqchalar [kyuretki] kirish uchun.

Texnikasi: qin oynalari kiritilgach, bachadon bo`yni oldingi labida pulevoy kiskich kuyilib, qinning orqa – yon gumbaziga 0,25 % li 80-100 % li novakain bilan anesteziya kilinadi. Zondlash orqali bachadon xolati va bushligining uzunligi aniqlanib, bachadon bo`yin kanali kengaytiriladi. (№24, №26) kengaytirgichlar bilan antefleksiya, refleksiyani inobatga olib, so`ngra kyuretkani bachadon bushligiga kiritib bachadon

tubidan, orqa, yon old devorlaridan ichki zevgacha kirib olinadi. Kirmani likopchaga solib, kuzdan kechirib, etiketkasiga bemor F.I.O bor 5% li formalin yoki 96% li spirt eritmasiga kirmani solinib laboratoriyaga gistologik tekshirish uchun yuboriladi.

Pertubatio (bachadon naylariga xavo yuborish)

Kursatma: diagnostik maqsadda bachadon nayining o'tkazuvchanligini tekshirish, ayniksa, bepustlikda.

Texnikasi: maxsus apparatura yordamida bachadon bushligiga 150 ml sim ustdagi bosimda xavo yuborib, monometrda kuzatiladi. Bachadon nayi o'tkazuvchanligining simptomlari;

A) qov ustida auskultatsiyada shovqin eshtilishi;

B) manometrda strelka pasayadi;

V) frenikus – simptom paydo bo'lishi mumkin.

Gidrotubatsiya

Kursatma: diagnostik va davolash maqsadida

Bachadon nayiga steril eritmalar [novakainli fiziologik eritma, antibakterial preparatlar va b.] apparat yordamida 150 – 180 ml sim ustda yuboriladi. Agar buzilgan bulsa, monometrda strelka kutariladi.

PEHTGEHOKOHTPAST TEKSHIRISH USULLARI.

Gisterosalpingografiya

Kursatma: bachadon nayi o'tkazuvchanligi qaysi kismida (ampulyar, istnik interstisial) bekilganligi sho'nga asoslanib bepustlikni xirurgik taktikasi tanlaniladi. Kontraktmetrografiya patologik uzgarishlarni

kursatadi. [Submikoz mioma, bachadon rivojlanishi nuksonlari va sinexiya va b.)

Texnikasi: bachadon bushligiga uning naqonechnigi orqali shpris yordamida

2-5 ml [bachadon ulchamiga mos] kontrast modda: yodotrast, yodolipol, yoki suvli eritmalar [diodon, diodrast, kardiotrast va b.] yuborilib, bemorning gorizontal xolatida rentgenografiya kilinadi, [shubxa tugilsa, 24 soatdan keyin kayta rentgenografiya bajariladi.

Agar naylar o'tkazuvchan bulsa, kontrast modda qorin bushligi [kichik chanoqda] aniqlanadi. Submukoz miomatoz tugunchalari yoki polip soxasida «tulishish deffekti» aniqlanadi.

Eslatma: hayz siklidan 8-10 kun utgach, yoki hayz siklining 2-fazasida metrosalpingografiya kilinadi.



Karshi kursatmalar: utkir va utkir osti yalliglanish kasalliklari, gonoreyali endometrit, eroziya, bachadon ichi va tashqari homiladorlik, bachadon shillik pardasini kirgandan keyin bajarilmaydi.

Endoskopik tekshirish usullari.


Kolposkopiya - shtativga fiksatsiyalangan va yorituvchi moslamali binokulyar yoki monokulyar lupa bo'lib, tekshiriladigan soxani 10-30 marta kattalashtiradi. **Kursatma:** bachadon bo'yni va qindagi o'sma, eroziya, leykoplakiya, kandilomatoz hosilalar va b, shuningdek bolalardagi bachadon bo'yni va qindagi yalliglanishli uzgarishlar. Qiz bolalarda bachadon bo'yni va qinni qizlik pardasidagi teshik orqali ingichka kateter kurinishida vagonoskop kiritiladi.

Kuldoskopiya - ayol chalkancha yotqizilib, oyogi son-chanoq va tizza bugimida bukilib, tashqi jinsiy organlar dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan artilib, bachadon bo'yni oynalar bilan ochilib, kiskichlar kuyilgach, qinning orqa gumbazi 0,25 % novakain eritmasi bilan anesteziya kilinadi. Keyin bemorni tizza tirsak xolatiga o'tkazilib, oynalar yordamida qinning orqa gumbazi ochiladi va bir oz kesilib, troakar orqali loperoskop urnatilib, bachadonning orqa yuzasi, tuxumdon va naylar xamda ulardagi patologik uzgarishlar aniqlanadi.

PULEVOY QISQICHLAR



GISTEROSALPINGOGRAFIYA



SITOLOGIK tekshirish.

Qindan olingan saklanmani buyum oynasiga olib, efir spirtli aralashma bilan fiksatsiya kilinib, gemotoksimin [15 min], 1 % eozinning suvli eritmasi bilan 2-3 minut buyaladi, va kuritiladi. Mikroskop ostida kurganda aniqlanadi:

1. Shoxlanuvchi xujayralara katta ulchamli, protoplazmasi kuchsiz buyalib, piknotik yadrosi bo`ladi. Bu tipdagi xujayralar tuxumdon siklining follikulyar fazasiga xarakterli.

2. Oraliq xujayralar o`rta ulchamli, yadrosi shoxlanuvchi xujayralarga nisbatan katta. Hayz siklining barcha fazalarida, ayniksa, lyutein fazada kuzatiladi.

3. Bazal yoki atrofik xujayralar kichik ulchamli yadrosi oraliq xujayraga nisbatan katta bo`lib, menopauza davrida va tuxumdonlarning yakkol gipofunksiyasida kuzatiladi.

Sitologik reksiyalarning kuyidagi tiplari bo`ladi:

I reaksiya - surtmada bazal [atrofik] xujayralar va leykotsitlar bo`lib, ekstrogen garmonlarining kesqin yetishmovchiligi bilan xarakterlanadi.

P reaksiya- bazal oraliq xujayralar va leykotsitlar bo`lib, estrogenlarning ma`lum darajada yetishmasligi bilan xarakterlanadi.

IP reaksiya - oraliq xujayralar ustunlik kilib, 1-2 bazal va parabazal xujayralar bo`lib, bir oz ekstrogen yetishmasligi bilan ifodalaniladi.


IV reksiya - shoxlanuvchi va oraliq xujayralar bor, bazal xujayralar va leykotsitlar yo`q- bu tuxumdon ekstrogen funksiyasi yaxshiligidan dalolat beradi. Bunda shoxlanuvchi va oraliq xujayralar orasidagi nisbat **KPI** kariopinnotik indeks deyilib, hayz siklining normal fazalarida turli, [%]larda bo`ladi. Shuningdek hayz sikli buzilishini xam kursatadi.

«**Korachik fenomeni**» tuxumdon siklining follikulyar fazasida bachadon bo`yin kanali bezlari shillik, tinik sekret bezlari ishlab chiqaradi. U ning miqdori ovulyatsiya fazasida eng chukkiga kutarilib, bachadon bo`yin kanalining tashqi teshigi 0,25-0,3 sm diametrgacha kengayadi. Qin oynalari yordamida bachadon bo`yni ochilganda, kanalining kengaygan teshigi «korachik» ni eslatadi. Lyutein fazada «korachik» fenomeni yuqoladi.

[bo`yinning tashqi teshigi torayib, shillik yo`q, «kuruk» bo`yin].

Homiladorlikning 1 – yarmida bu fenomen bulmaydi. [sarik tana progressiyasi tufayli], follikula persistensiyasida esa yakkol ifodalaniladi.

SITOLOGIK MATERIAL OLISH:



KRISTALIZATSIYA (ARBORIZATSIYA) SIMPTOMI



Kristallizatsiya [arborizatsiya] simptomi – bachadon boʻynining shillik sekreti buyum oynasiga 2-3 tomchi olinib, xavoda 10-15 minut kuritilgach, fiziologik eritmadan tomizilib, mikroskop ostida kuriladi. [koʻrish paytida Na Cl + musin = uzaro taʼsiri yuzaga keladi. Kristallizatsiya fenomeni follikulyar fazaning 5-7 kunidan boshlanib, ovulyatsiyada eng chukkiga yetadi. Shu **vaktda surtma paporotnik bargini** eslatadi. RASM Lyutein fazada esa **barg elementlari radial** yoki **xochsimon** joylashadi. Bu reksiya minstrual va germinativ funksiyani aniqlash va davolashda ishlatiladi.

Bazal [rental) temperaturani ulchash individual termometr yordamida uykudan keyin yoki tinch xolatda amalga oshiriladi. Normal hayz sikli follikulyar fazada $t=37$ s dan past ovulyatsiyadan oldin bir oz pasayib, lyutein fazada 0,4-0,6 s gacha kutariladi, hayz siklidan 1-2 kun oldin t yana pasayadi. Bu 2 **fazali xarorat** tuxumdon siklida follikulyar va lyutein fazaning ketma -ketligini kursatadi. Anovulyator [1 fazali] siklda xarorat egriligi monotonniy xarakterda boʻladi.

Amaliy mashgʻulot № 2: Normal hayz sikli va uning regulyatsiyasi. Hayz siklining buzilishi. Amenoreya. Gipomenstrual sindrom.

1.1. Taʼlim berish texnologiyasining modeli.

Mashgʻulot vaqti -5soat	Talabalar soni: 18
Mashgʻulot shakli	Amaliy mashgʻulot
Reja	Talabalarni Hhayz stikli buzilishini ning etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, uning asoratlari va ularning oldini olishda vrach taktikasi bilan tanishtirish. BDQK turli yoshdagi ayollarda turlicha boʻlishi va ularni zamonaviy davolash choralari, boshqa kasalliklar bilan taqqoslovchi tashxisni oʻrgatish mavzuning asosiy maqsadidir.
Mavzuning maqsadi: 1. Hayz stikli buzilishini yuzaga keltiruvchi patogen omillar haqida maʼlumot. 2. Hayz stikli buzilishini etiologiyasi va patogenezi. 3. Hayz stikli buzilishini tasnifi, klinik variantlari, boshqa kasalliklar bilan taqqoslovchi tashxislash. 4. Hayz stikli buzilishi ni tashxislash. 5. Hayz stikli buzilishini Davolash usullari (simptomatik davolash, umumiy davolash usullari, fizioterapevtik usullarni qoʻllash). 6. Davolashda gormonlarni qoʻllash. Kasalning yoshiga qarab preparatlarni tanlash. Gormonal gemostaz (estrogenlar bilan, progesteron bilan, estrogen va androgenlar bilan, estrogen va	

progesteron bilan). Stiklik gormonal terapiya.	
1. Bemor shikoyatlariga e`tibor berish. 2. Kasallik tarixini yig`ganda olingan ma`lumotlar. 3. Epidemiologik anamnez ma`lumotlarini aniqlash. II bosqich. Maqsad:	
Mavzuning vazifasi- - ; Hayz stikli buzilishini sabablarini 2. Hayz stikli buzilishini klassifikatsiyasini 3 Hayz stikli buzilishini. klinikasini 4. Hayz stikli buzilishini funkstional diagnostika testlarini 5. Hayz stikli buzilishini davolash prinstiplarini	
Ta`lim berish usullari	Ko`rgazmali, ma`ruza, suhbat
Ta`lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta`lim berish vositalari	kompyuter, multimedia, slaydlar, mavzuga oid bemorlar va boshqalar
Ta`lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og`zaki nazorat:savol-javob.

Amaliy mashg`ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta`lim beruvchi	Ta`lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	1. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 2. Talabalarni mashg`ulotga tayyorgarligini tekshiradi 3. Davomatni nazorat qiladi	
1. O`quv mashg`ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.Mavzu bo`yicha o`quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma`ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash 3. Fanni o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxatini ishlab chiqish	
2 – asosiy bosqich (55 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo`lib, mavzu bo`yicha savollarni beradi. 2. Ko`rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma`lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag`batlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga bo`linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
1- yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

Foydalanadigan interaktiv usullar

«O`rgimchak to`ri» o`yini.

1. Talabalar darsga tayyorlanishlari uchun bir oz vaqt beriladi.

2. Talabalar stol atrofida yig'iladilar.
3. Qatnashchilardan biri kalavani oladi va uchini ochib boshqa bir qatnashchiga beradi. Ipni ushlagan qatnashchiga savol beriladi.
4. Savolga to'liq va to'g'ri javob berayotganligi tekshirib turiladi.
5. Keyin kalavani uchi yana boshqa qatnashchilarga uzatilaverilib, o'rgimchak uyasi hosil bo'ladi.
6. Barcha qatnashchilar savollarga javob berib bo'lgach, kalavani uchi yana savol bergan talabaga qaytarib beriladi. Shunday tarzda o'yin yana qaytadan boshlanishi mumkin.


Ogohlantirish: Har bir talaba berayotgan savollarga to'liq va to'g'ri javob olishlari shart.

«Stol ustida ruchka» o'yini.

1. Assistent o'tilgan mavzu yuzasidan savol tuzadi (o'rtacha har bir talabaga 2-3 tadan).
2. Talabalar stol atrofida yig'iladi.
3. Stol o'rtasida ruchka qo'yiladi va soat strelkasi bo'yicha aylantiriladi.
4. Ruchka qaysi talabaga kelib to'xtasa, assistent o'sha talabaga savol beradi.
5. Savolga javob bergan talaba yana ruchkani aylantiradi va savollar tugagunicha o'yin davom ettiriladi.

MAVZU BAYONI

Ayollar yetuklik (balogat) davri davomida hayz kuradi. Hayz vaktida 50- 100 ml qon yuqoladi, bu qon ishorat reatsiyali bo'lib shilimshik modda kushilgan, kuykasiz, uziga xos xidli bo'lib deyarli kuyilmaydi. 60% ayollarda hayz ko'rish sikli 28 kunni, 10 –12% 30-35 kunni, 28% - 21 kunni tashqil etadi.




Hayz ko'rish siklining normal kechishiga relizing faktorlarning gonadotrop va tuxumdon gormonlarining roli katta. Yuqorida aytilganlardan birortasini ishlab chikarilishi buzilsa, hayz siklining buzilishga yoki umuman hayz kurmaslik yoki uzok qon ketishlarga olib keladi.

1960 yilda Pechenko kuyidagi klassifikatsiyani kiritgan:

- Amenoreya (birlamchi va ikkilamchi).
- Dismenoreya (birlamchi va ikkilamchi)
- Anovulyator hayz ko'rish sikli
- a) giperestrogenemiya belgilari bilan
- b) gipoestrogenemiya
- Morfologik anotomik uzgarishlar bo'lgan ginekologik qon ketishlar siklik qon ketishlar;
- asiklik qon ketishlar
- utqinchi qon ketishlar
- morfologik – anatomik uzgarishlarsiz ginekologik qon ketishlar (disfunktional qon ketish) siklik 2 fazali va anovulyator sikli.
- Vikor menstruatsiya.

AMENOREYA



Hayzning – menstruatsiyaning bulmasligi. Bu xolat doimo xam patologik xol emas, chunki ayol umrining ayrim davrlarida bu xolat fiziologik bo`lib xisoblanadi. Amenoreyaning quyidagi turlari tafovud kilinadi.


1. Birlamchi amenoreya – ayolning yashash davri davomida umuman hayz kurmasligi.
2. Ikkilamchi amenoreya - avval 3 oydan kam bo`lmagan ichida hayz kurmagan.

Chinakam amenoreya – tuxumdonda, bachadonda, gipotalamus – gipofizar sistemasida siklik uzgarishlar bulmasligi.

Yolgondakam – amenoreya – regulyar hayz ko`rishining, bachadonda, tuxumdonda, siklik uzgarishlar borligiga karamay, bulmasligi. Bu jinsiy organlar rivojlanishiga anomalik nuksonlar bo`lganda qinning atreziyasi yoki bo`lmaganda, bachadon tashqi teshigining usib, yopik bo`lganda qizlik pardasining umuman teshik bo`lmaganda uchraydi. Bunday amenoreya xirurgik yul bilan davolanadi.

Etiologik faktor bo`yicha chinakam amenoreya fiziologik va patologik bo`lib bulinadi.

75 % kukrak suti bilan bola emiradigan ayollarda 5 oydan – 2 yilgacha davom etadigan laktasion amenoreya kuzatiladi. Sut bezlari reseptorlari ta`sirlanishi natijasida nerv impulslari gipofizga yetib borib, LTG ishlab chiqarishini ko`paytiradi, bu uz navbatida sut bezining sekretor vazifasini oshirib gipofizning gonadotrop vazifasini tuxtatadi. Natijasida amenoreya xolati yuzaga keladi. Ayrim vaktida emizikli ayollarda anovulyator sikl bo`lishi kuzatiladi. Keksalik davrlarda tashqi va ichki jinsiy organlar atrofiyaga uchraydi va jinsiy bezlar ishlatilmasligi tufayli gonadotrop gormonlar ajralishi xam tuxtab qoladi. Birlamchi patologik amenoreya ko`prok bachadon va tuxumdon aploziyasi, umumiy infantilizm, chukur rivojlanmagan ayol organizmlarida uchraydi. Ogir kechgan infeksiyon kasalliklar (tuberkulyoz; malyariya) bolalikda noto`g`ri ovkatlanish, gipofizning giper – yoki gipofunksiyasi infantilizmga olib kelish mumqin.



Buyrak usti bezi, gipotalamus, gipofiz, kalqonsimon bez va ichki sekresiya bezlari vazifasining buzilishi, xromosomal uzgarishlar xam amenoreyaga olib keladi.

Ikkilamchi amenoreyaga umumiy va lokal faktorlar sabab bo`lishi mumqin. Bularga morfiy, simob, kalay bilan surunkali zaxarlanish, utkir yo`qumli kasalliklar, surunkali kasalliklar anomalija, kam – kusti ovkatlanish, ichki sekresiya bezlari funksiyasining buzilish, ayniksa yalliglanish. O`smalar, patologik tug`ruqdan keyingi davr tufayli gipofiz funksiyasining pasayishi kuchayadi.

Organlarning kasallanishiga karab markaziy va periferik genezli amenoreya ajratiladi. Markaziy genezli amenoreyaga gipotalamus – gipofiz va bosh miya po`stlog`ining funksiyalarining buzilishi tufayli vujudga keladi.

Gipotalamus zararlanishi natijasida amenoreya bolalikda xamda balogatga yetish davrida uchrashi mumqin. Oxirgi xolda birlamchi amenoreya genezi va gipogonadizm va semizlik bilan birga kechadi.

KIARI - FROMMELI SINDROMI.

Bu sindrom persistensiyali galaktoreya, amenoreya va jinsiy organlar gipotrofiyasini oshib borishi bilan xarakterlanadi. Etiologiya va patogenezini hozirgacha aniqlanmagan. Kasallik negizida gipotalamusning prolaktin tuxtatuvchi relizing – faktor (AKT-LG) biosintezini boshqaruvchi markazning zararlanishi natijasida LTG ning uzok vakt davomida ajralib turishi FSG ishlab chiqarishning kamaytiradi. Bu esa tuxumdonning esterogen sekresiyasini kamaytirib amenoreyaga sabab bo`ladi. Tashxis kuyish kiyin emas. Gormonal tekshirilgan, 17 – ketosteroidlar, ekskreksiyasi normada bo`lib FSG va esterogen gormonlarining ekskreksiyasi kamayganligini kursatadi. Kasallik o`smasababli bulsa, jarroxlik yo`li bilan yoki rengen nur orqali davolanadi. Kolgan xollarda davoni laktatsiya gormonlar yordamida tuxtatishga karatiladi. FSG – gonodotropin 60 YeD dan 10 – 20 kun, endonazal elektroforez 30 kun davomida, gipofiz oldingi bo`limi gipofunksiyasi gipofizar nanizm shaklida namoyon bo`lib, o`smay kolishi bilan xarakterlanadi. Gipofizar nanizm davosi bilan endokrinolog shugullanadi. Davo 1 – navbatda bo`yning usishiga karatilgan bo`lishi kerak.

SHIXAN SINDROMI.

Bu sindrom juda ko`p qon ketish bilan asoratlangan, tug`ruq va abortdan keyin rivojlanadi. Kasallikning sababi gipofizning qon tomirlari trombozi, spazm, emboliyasi va nekrozi xosdir. Bezning 2/3 kismi nekrozga uchrasa, Shixan sindromi kelib chiqadi. Gipofiz kismining qaysi kismi nekrozga uchraganiga karab kasallik belgilari aniq yoki kurimsiz bo`lishi mumqin. Kasallikning 1–belgilaridan biri laktatsiyaning bulmasligi yoki tez yo`qolishi, amenoreya.



Xolsizlik oshib borishi, adenomiya tana vaznining kamayib borishi kuzatiladi. 1 oydan so`ng jinsiy organlar gipotrofiyaga uchrab, qov va kultik osti chukurchasidagi soch tuqiladi. Ayrim xollarda boshdagi soch xam tuqilishi mumqin. LG va FSG sekresiyasi kamayib ketadi. Kasallikning kechki davrida gipofizar gormonlar ta`siri ostida barcha sekresiya bezlarining ishi buziladi. Davoni kasallik boshlanishidan boshlash kerak. Kam kustsiz yetarli darajada ovkat bilan birga gormonoterapiya olib borish kerak. Jinsiy bezlarning funksiyasini tiklash uchun esterogen va gestogenlar bilan o`tkaziladigan siklik terapiyadan foydalanish kerak. Buyrak usti bezi yetishmovchiligiga (kortizon 12, 5 – 20 mg xar kuni 20 kun davomida), gipoteriozda kortizon bilan birga tiroidin 0,015 gr 2 marta kuniga asta – seqinlik bilan dozasini 0: 05 – 2, 0 gacha oshirib borish mumqin. Gipofizning oldingi bulagi gormonlarni yetishmovchiligida kortikosteriod gormonlar (kortizon 12, 5 – 20 mg xar kuni 20 kun davomida, gipofizda kortizon bilan birga ishlatiladigan tiroidin 0,015 gr 2 marta xar kuni asta seqinlik bilan miqdorini 0,05 – 2 marta maxal marta ko`paytirish kerak). Gipofizning oldingi bulagi gormonlari ko`p ishlab chiqarish sababli kelib chikkan amenoreya akromegaliya va gigantizm uchraydi. Bunda STG ko`p ishlab chikariladi. Bu kasalliklar gipofiz oldingi bulagi o`smalarida, yalliglanish travmada uchraydi. Bu xollarda amenoreya usishi gormoni va gonodotrop gormonlar o`rtasida antogonizm borligi bilan boglanadi. Shuningdek, FSG ishlab chiqarishning kamayishi kuzatiladi.

Laborator tekshiruvlar 17 ketosteroid gormonlarning kamayganligini, uzok vakt kasallangan ayollarning qin surtmasida bazal xujayralarning ko`p bo`lishi aniqlanadi.

Davo endokrinologiya kasalxonasida o`tkaziladi. Gormonal davodan esterogen preparatlar 20-30

mg sutkasiga 5-6 marta xafta davomida kilinadi. Bu esa usishni tuxtadi. 8-10 kun davomida 5-7 kun oraliq bilan o'tkaziladigan kvatera usuli ko'prok rasional xisoblanadi. Isengo – Kushengo kasalligida (AKTG – giperproduksiyasi) gipotalamo – gipofizar oblastning zararlanishi giperkortisizmga olib keladi va amenoreya kuzatiladi. Ko'prok 20-40 yoshda patologik tug'ruqdan keyin uchraydi. Semizlik bo'lib ko'prok yuz va tana soxasida kuzatiladi, bosh ogrigi gepertoniya bo'lishi mumkin. Laborator tekshiruvlar 17 – ketosteriod va esterogenlarning normal kursatkichlarini aniqlaydi. AKTG yoki deksametazon kortizon bilan o'tkazilgan proba musbat chiqadi.

Davosi: endokrinologiya kasalxonasida o'tkazilib gipotalamus – gipofizar zonani rengen nur kilinadi. Gormonal dorilardan sintetik progestinlardan 1 tabletkadan 21 kun 7 kunli oraliq bilan 3-4 oy davomida gormonal amenoreyani, semizlikni kamaytiradigan parxez bilan kushib olib borish kerak. Perefirik genezda amenoreyada tuxumdon amenoreyasi kiradi.

TUXUMDON AMENOREYA SI.

Gipotalamus va gipofiz faoliyati saklanishiga karamay tuxumdonning gormonal faoliyati buzilsa, xam amenoreya bo'ladi. Agar tuxumdonda tugma nuksonlar bulsa yoki balogatga yetgo'nga qadar boshlansa, birlamchi ammenoreya yuzaga keladi, kattarok yoshda bulsa ikkilamchi amenoreya yuzaga keladi. Ayol somatik xujayralarida 2 ta jinsiy XX xromasomasi bo'lib, erkaklarda esa 4 xromosoma bo'ladi. Bu xromasomalardan biri bulmasa (XO) yoki ortikcha bulsa (XXX) xamda mozasizimda jinsiy rivojlanish buziladi. Ogiz bushligi shillik qavati surtmasida X xromatin tanalarini sanab bilish mumkin. Xromasoma soni xromatin soniga nisbatan 1 ga ko'p bo'ladi.

Jinsiy bezlar disgeneziyasida Shereshevskiy – Turner sindromi toza yoki aralash turda bo'lishi mumkin. Kasallik belgilari bola tugilgandan aniqlanib, past buyli, bochkasimon kukrak kafasi, kalta va keng bo'yin, ptoz, yuqori tanglayning baland bo'lishi, kukraklarning pastda joylashuvi kuzatiladi.

Jinsiy infantilizm yaxshi namoyon bo'lgan ikkilamchi jinsiy belgilar va sut bezlari yo'q, qin va bachadon rivojlanmagan, laborator tekshiruvlarda jinsiy xromatin yo'qligi, estrogen ekskresiyasi juda kam bo'lishi qin surtmasida atrofiya belgilari bo'lib bazal xujayralarning ko'p bo'lishi siydikda gonadotropin gormonlari ekskresiyasi baland ekanligi aniqlanadi.

Davosi: juda kiyin bo'lib, kasalning yoshi va kasallik turidan bog'liq.

Balogatga yetguncha davolash boshlansa, bo'ynining usishiga etibor berish kerak yoshi kattalarda ikkilamchi jinsiy organlarning rivojlanishi uchun esterogen gormonlar (mikrofolin 0,05 mg 20 kun 10 kunlik oraliq bilan, davolash kursi 6-8 oy) menstruatsiyadan keyin qon ketishi kuzatilsa, kvatera bo'yicha kasallik davolanadi.

Disgormonal tuxumdon amenoreyasi (genetik nuksonlar bilan bog'liq emas) tuxumdon to'qimasining bolalikda va xatto ona kornida shikastlanish tufayli bo'ladi. Homiladarning surunkali zaxarlanishi, bolalikda yo'qumli kasalliklar. Bu kasallarda bachadon gipoplastik, qin tor, katta va kichik uyatli lablar rivojlanmagan bo'ladi.

Laborator tekshiruvlar estrogenlarning kam bo'lib gonadotropin gormonlarning ko'p bo'lishi aniqlaydi. Bu xol estrogenlarning gipofizga tormozlovchi ta'siri bo'lganligi sabablidir. Gormonal probalardan FSG, probast manfiy, estrogenlar bilan proba musbat. Agar tuxumdon shikastlanishi, surunkali kasalliklar va zaxarlanish, sklerokistoz uzgarishlar, o'smalar natijasida bo'lib balogatga yetgandan keyin kelib chiksa ikkilamchi amenoreya bo'ladi. Hayz ko'rish funksiyasi asta – seqinlik bilan yuqoladi. Bu kasallarda ikkinchi jinsiy belgilari yuqori rivojlangan tashqi jinsiy organlar normada yoki gipotrofiyasi kuzatiladi. Agar tuxumdon gipofunksiyasi uzok vakt davom etsa, tashqi jinsiy organlar va sut bezlari gipoplaziyasi kuzatiladi. Ogir xollarda bachadon atrofiyasigi uchrab bosh aylanish, kaltirash, yurak urishi tezlashuvi, kuzatiladi.

Bolalikda rivojlangan gipogormonal amenoreyani balogatga yetguncha davolash kerak. Jinsiy organlar sut va sut bezlarining rivojlanishi uchun estrogenlar beriladi: kuniga 10000 YeD follikulin yoki estradiol 20 kun davomida 10 kun oraliq bilan 3-4 sikl. Bachadon va sut bezlari kattalashgach, Kvatera bo'yicha davolaniladi, 2-3 oy, 3-4 oyli oraliq bilan.

Agar kasallik balogatga yetgandan keyin rivojlansa estrogenlar bilan davolanmasdan, Kvatera bo'yicha davolash o'tkazish mumkin.

Gipergormonal tuxumdon amenoreyasi kam uchraydi va follikulinning uzok vakt davom etgan persistensiyasi tufayli bo'ladi. Bu xolda endometriy deskvamatsiyasi bulmaydigan laborator tekshirishlar estrogenlar miqdori oshganligini aniqlaydi. «Korachik» belgisi (+++) va «Paportnik» belgisi musbat, qindagi surtmada yuqori qavat xujayralari ko'p KDI va eozinofil kursatgichlari yuqori. Amenoreyaning bu turida progesteron 5- 10 mgdan 3-5 kun davomida beriladi.

BACHADON AMENOREYASI.

Amenoreya bu 16-45 yoshli ayollarda olti oy mobaynida menstruatsiyaning bo'lmasligiga aytiladi. Amenoreya birlamchi va ikkilamchi bo'ladi.

Birlamchi amenoreya – bu ayolning umuman hayz ko'rmaganda bo'ladi. Amenoreya reproduktiv sistemaning qaysi kismi zararlanishiga karab serebral gipotalamik, gipofizar, buyrak usti bezi, tuxumdon, bachadoniga bo'linadi.

Siklik uzgarishlar.

- 1). Qon miqdorining uzgarishi.
 - b) gipermenoreya – ko'p miqdorda qon ajralishi.
 - v) gipomenoreya – kam qon ajralishi.
- 2). Hayz davomiyligining buzilish.
 - a) polimenoreya – uzok davom etadigan
 - b) olimenoreya – kiska davom etadigan
- 3). Hayz ritmining buzilishi.
 - a) protomenoreya – tez – tez hayz ko'rishi.
 - b) opsomenoreya – kam hayz ko'rish.

III. Anovulyator bachadon qon ketishlari.

IV. Algomenoreya.

Amenoreyaning kelib chikishi bo'yicha:

Chin amenoreya

- a) fiziologik amenoreya
- b) patologik amenoreya

Soxta amenoreya.

Vaktli bo'yicha:

Birlamchi amenoreya

Ikkilamchi amenoreya

- a) neyropsixogen faktorlar.
- b) ichki jinsiy bezlar funksiyasining buzilishi.
- v) infeksiyon kasalliklar.
- g) ginekologik kasalliklar.
- d) nurlanishlar.

Birlamchi amenoreyaning klinik formalar:

1. Jinsiy rivojlanish belgilari bo'lmasligi
 2. Jinsiy balogatga yetishning to'xtashi
 3. Virelizatsiya simptomi
 4. Normal ayol fenotipli amenoreya
- Tetstikulyar feminizatsiya sindromi

Normal ayol fenotipli amenoreya formasiga kiradi. Bemorlar kareotipi 46xU.

Klinikasi: Bemorlar fenotipi xuddi ayollardek, ko'krak bezlari normal rivojlangan. Tashqi jinsiy a'zolar ayol tipi bo'yicha leqin qin oxiri berk bo'lib tugaydi. Doim kalta gonadlar 3/1 kism bemorlarda

qorin bo'shligida 3/1 kismda chov kanalida ko'pincha ularda chov churrasi uchraydi. Chunki ular o'zida urugdonni saklaydi. Kolgan 3/1 kism bemorlarda urugdonlar katta jinsiy lablar ichida joylashgan.

Diagnostikada UZI laparoskopiya katta rol o'ynaydi.

Davolash operativ testikula olib tashlanadi. Operatsiya o'sish va ikkilamchi jinsiy belgilar rivojlanishi tugagandan keyin 16-18 yoshdan kilinadi. Keyinchalik siklik gormonoterapiya o'tkaziladi. Ikkilamchi amenoreya klassifikatsiyasi:

I. Pitsogen aminoreya

II. Gipotalamik forma 1. Tana vaznini yo'kotish xisobidagi amenoreya

III. Gipotalamo-gipofizar turi.

1. Giperprolaktinemiya

a) funksional

b) organik

2. Gipogonadatrop amenoreya

3. Tug'ruqdan keyingi gipopituitarizm (Shiyana sindromi)

IV. Buyrak usti formasi

1. Postpubertat adrogenital sindrom

2. Virilizirlovchi buyrak usti bezi o'smasi

V. Tuxumdon formasi

1. Tuxumdon charchash sindromi

2. Tuxumdon reflaktor sindromi

3. Tuxumdon virilizatsiya o'smalari

VI. Bachadon formasi

1. Bachadon ichi sinexiyalari (Asherman sindromi)

2. Spesifik endometrit

Giperprolaktinemiya – gipofizning oldingi kismida prolaktik hosil bo'lishining oshishi va qondagi miqdorning oshishiga aytiladi.

Fiziologik va patologik turlari mavjud.

Fiziologik giperprolaktinemiya homiladorlik, laktatsiya vaktida bo'ladi.

Patologik giperprolaktinemiya gipotalamus – gipofiz sistemasida anatomik yoki funksional buzilishlar tufayli yuzaga keladi.

Funksional giperprolaktinemiyaning asosiy sabablari:

1. Gipotalamusdagi dafamenerjik struktura disfunktsiyasi va dofamin hosil bo'lishning kamayishi, prolaktin hosil bo'lishning asosiy ingibitoridir.

2. Gipotireoz

3. Uzoq vakt davomida dori preparatlar kabul qilish.

Klinikasi gallaktoriya anovulyatsiya lyutein faza yetishmovchiligi noregulyar menstrual sikl amenoreya bepustlik bo'lishi.

Gipoteriozdan keyin rivojlangan giperprolaktinemiya senezdik, tez charchash, psixik reaksiyaning sekinlashuvi, kabziyat, uykuhanlik, teri ko'rishi, tirnok sinuvchan bo'lib qoladi.

Organik giperprolaktinemiya gipofizning prolaktin sintez kiluvchi o'smalari – prolaktinoma tufayli yuzaga keladi. Klinikasi amenoreya laktoriya, bepustlik, ko'rishning pasayishi.

Diagnostika rentgenografiya, qondagi prolaktin miqdorini oshishini diagnoz ko'yishni osonlashtiradi. Normada prolaktin 3000 m YeD/l, giperprolaktinemiya 3000-4000 m YeD/l. Davolash o'smalar bo'lsa, xirurgik va nur bilan davolash. Funksional giperprolaktinemiya parodel (bromkripten) klomifen xoriogenik gonadotropin buyuriladi. Gipoteriozda tireoid gormonlar triyodteranin, teriodin, tuxumdonni charchash sindromi. Patologik simptomlar kompleksi bo'lib, 38 yoshgacha bo'lgan ayollarda uchrab vaktidan oldin klimaks menopauza kam deyiladi.

Klinikasi hayzning to'xtashi ko'p qon kelishi, terlash, taxikardiya, ish kobiliyatining pasayishi tez charchash uykuhanlik buzilishi. Diagnostika, gineklogik tekshiruv, UZI da bachadon va tuxumdon

o'Ichamining kichrayganligi aniqlanadi. Laparoskopik tekshirganda tipik pastmenopauzal "Burmali" ko'rinishga ega bo'ladi.

Gistologik tekshirganda folekulyar to'kimani aniqlab bo'lmaydi. qonda LT va FSG 5-10 barobar oshgan, estrogenlar pasaygan. Davolash siklik gormonoterapiya.

Tuxumdon rezistentligi sindromi

Amenoreya, bepushtlik bilan kasallangan 35 yoshgacha bo'lgan ayollarda uchrab endrogen va ekzogen gonadotropinlar ta'siriga refraktirligi bilan xarakterlanadi. Klinikasi amenoreya, qonda estrodiol miqdori normaning pastki chegarasida gonadotropinlar oshgan, ko'krak bezlari, tashqi va ichki jinsiy a'zolar gipoplaziyaga uchramagan. Davolash sikli gormonoterapiya maqsad: tuxumdon gormonlarini oshirish, estrogen, gestogen terapiya.

ALGODISMENOREYA

Dismenoreya bu hayz ko'rishning buzilishi. Hayz ko'rish buzilishini juda ko'p uchraydigan turi bo'lib, xar xil shaklda namoyon bo'ladi.

Og'riq hayz ko'rishgacha boshlanib, to 1 – kunigacha bo'lib, og'riq utmas, chuziluvchan, juda kattik tutkanokli darajada seziladi. Ko'pincha ko'ngil aynish, kusish, sulak okish, ko'p terlovchi, bosh ogrigi kuzatiladi

Bu og'riqli menstruatsiya 2 xil bo'ladi:

a) birlamchi

b) ikkilamchi

Birlamchi algodismenoreya menarxedan bir yarim yil keyin ya'ni ovulyator sikl izga tushganidan keyin yuzaga keladi. Ikkilamchi algodismenoreya ginekologik kasalliklar natijasida yuzaga kelgan bo'lsa,

birlamchi algodismenoreya klinikasi: og'riq, menstruatsiyadan bir necha soat oldin boshlanib, xurujsimon xarakterga ega bo'lib, qorinning pastkiismi lokalizatsiyalanadi. Ko'pincha astenik galda tuzilishiga ega bo'lgan qizlar kasallanadi. Bosh og'riqi, kusish, kaltirash kuzatiladi.

Davolash: prostoglandinlar sintezini tormozlovchi preparatlar, Kaprosiya, metindol, brufin, aspirin. Novokain bilan kuyosh chigali soxasiga elektroforez qilish mumkin. Ikkilamchi algodismenoreya.

Sabablari: endometrioiz yalliglanish kasalliklari, rivojlanish anomalialari, mioma, bachadon ichi spirali.

Davosi: etiotrop ya'ni, sabablarga karab davolanadi.

Bunday xolatning 1/3 kismida kuzatuvchilarning ta'kidlashlaricha, gipotalamus – gipofiz – tuxumdon sistemasining faoliyati uzgarmagan bo'ladi. Yalliglanish, ogir shikastli tug'ruq va abortlar, bachadon ichiga yod kiritilishidan endometriy birinchi shikastlanadi. Agar endometriy shikastlanish balogatga yetmagan bulsa birlamchi, keyin rivojlansa, ikkilamchi amenoreya bo'ladi. Bachadon amenoreyasi tuxumdon uz vazifasini bajarishga karamay hayz bulmasligi bilan xarakterlanadi. Bunday kasallarda jinsiy va somatik organlari rivojlanishi nuksonlari bulmaydi. Klinik – laborator tekshirishlar siklning 2 – fazali ekanini esterogenlar va pregiandioli ekskresiyasi koidasiga muvofik uzgarib, bazal xararat 2- fazali ekanini tasdiklaydi. Bachadon amenoreyasi gipotalamus – gipofiz – tuxumdon sistemi vazifasi saklashga xam, kasallikning endometriy zararlanganligi tufayli uzok davom etish tuxumdon va gipofizning ikkilamchi yetishmovchiligiga sabab bo'ladi. Kasallikni aniqlashda bachadon shillik qavati kirindisini tekshirish kerak. Shundagina bachadon xolati xakida spes. yo'qumli kasallik – sil, bor yo'qligi xakida uylash kerak. Xamma xollarda tulik rivojlanmagan shillik qavat kirib olinadi. Bachadon ichida sinexiyalar bulsa estrogen gormonlardan joyida tabletka yordamida davolanadi.

Birlamchi va ikkilamchi algomenoreya tafovut kilinadi. Birlamchi algomenoreyada jinsiy organlarda organiq uzgarishlar bulmaydi, ko'prok tugmagan ayollarda uchraydi. Ikkilamchi algomenoreyaning sababi patologik ginekologik kasalliklardir. (endometrioiz, o'smalar, sklerokistoz).

Etiologiyasi: nerv sistemasining funksional buzilishi. Ko'prok labil, gipertoniya, nerv sistemi ayollarda kuzatilish sababi ularda og'riqqa sezuvchanlik darajasi past bo'ladi.

Qonning bachadon bushligidan chikishiga karishalik bulsa (bachadon bo`yni tor bulsa, ichki bushligida chandikli torayish bulsa).

Algomenoreya yalliglanish, o`smalar, endometriozi, jinsiy organlarning joylashishi anomaliyasida kuzatiladi.

Miometreyning funksional kismi menstruatsiya vaktida ajralmay kolib pereponka shaklida bo`lib, fermentiv uzgarishga uchramaydi. Bunday qavatning kattik og`riq bilan bo`ladi.

Davosi: og`riqni kamaytirishga karatilgan bo`lishi kerak. Ikkilamchi algomenoreyada asosiy kasallikni davolash zarur.

Birlamchi amenoreyada asosiy markaziy nerv sistemasining funksiyasining barkarorlashtirish, to`g`ri xayot tarzini olib borish, yaxshi ovkatlanish, kerak. Infantilizm bulsa umumiy axvolini yaxshilovchi loy bilan davolash. Vagino - abdominal diametriya, kichik dozada esterogenlar siklning 1-fazasida. Xozirgi kunda spazmolitiklar: nosh-pa, atropin, lidokain, liden, trankvilizatorlar, trioksazin, andaksin tavsiya kilinmokda. Bunday patologiyada giperfollikulinemullanganligi sababli sarik tanagacha gormonlari (progesteron 5 mgdan xar kuni 5-7 kun hayz kurguncha beriladi, agar bachadon gipoplastik bulsa follikulin umumiy dozasi 10° - 200 mln. YeD kilinadi. Peroral 1 mgdan menstruatsiyaning 1 yarmida dietilsinilbastrol kilinadi. Esterogenlar gipofizning gonodotrop funksiyasini tuxtatib anovulyator og`riqsiz qon ketishga sabab bo`ladi.

PREDMENSTRUAL SINDROM.

Gipomenstrual sindrom kam miqdorda (gipomenoreya) va kiska vakt mobaynida (opsigomenoreya) onda – sonda (opsomenoreya) hayz ko`rish.

Etiologiyasi: Tuxumdonlar gipofunksiyasi.

Davosi: Kvater usulida davo.

Menorragiya ko`p miqdorda (gipermenoreya), uzok vakt davomida (polimenoreya) qon ketishga aytiladi.

Etiologiyasi:

1. Nerv sistemasidagi buzilishlar natijasida kelib chiqadigan tuxumdon gipofunksiyasi.
2. Kichik chanoqda qon dimlanishi.
3. Ginekologik kasalliklar (mioma, yalliglanish kasalligi).

Anovulyator (bir fazali) qon ketishlar – ovulyatsiya sodir bulmaydi va sarik tana hosil bulmaydi.

Etiologiyasi: 1. Folekulla persistensiyasi.

2. Folekulla atreziyasi.

Davolash: 1. Yoshlarda urinbosar gormonal davo.

2. Klimakterik yoshda bachadon ichini tozalash.

Ayrim ayollarda normal (ovulyator hayz ko`rish siklida) hayz ko`rishdan oldin kuyidagi uzgarishlar kuzatiladi: uzini yomon xis qilish, gipertoniya, xolsizlik, sut bezlarining menstruatsiyadan keyin yuqoladi. Predmenstrual sindromni sarik tana funksiyasi kamayishi, antidiuretik gormonning ko`p ishlab chiqarishi, nerv sistemasining labilligi bilan boglanadi.

Davosi: umumiy axvolini yaxshilovchi muolajalar: (fizkultura, sport, suv muolajalari, sedativ dorilar) beriladi. Progesteron 5-10 mgdan 6-8 kun xar kuni siklning II yarmida, siydik xaydovchi dorilar tavsiya kilinadi.

SIKLIK BUZILISHLAR.

Gipomenstrual sindrom tuxumdon gipofunksiyasi, kuchsiz, kalta, kam bo`lganligi sababli (xar 6-8 xaftada) menstruatsiyaga sabab bo`ladi.

Jinsiy gormonlarning yetishmovchiligi bachadon qon aylanishining yetishmovchiligiga olib keladi va endometriyda bo`ladigan siklik uzgarishlarning tulik bulmasligiga sababchidir.

Gipomentruatsiya sust, kuchsiz, kalta – oligomenoreya, kech va juda kam – opsomenoreya deb ataladi.

Tuxumdon faoliyatini kamaytiruvchi xamma shart – sharoitlar gipomenstruatsiya sindromi uchun zamin bo`ladi.

Etiologiyasi: infantilizm, rivojlanish nuksoni, utkir va surunkali yo`qumli kasalliklar, zaxarlanish, ichki bezlar faoliyatining uzgarishi. Ayrim vaktlarda balogatga yetish va klimakterik davrda uchrashi mumkin.

Gipomenstrual sindrom - birlamchi – hayz ko`rish boshlanish bilan bulsa, ikkilamchi - avval normal xolda bo`lib keyinchalik kamayib, kiskarib sustlashsa turlarga bulinadi.

I- GS – infantilizmida uchrasa.

II- GS – endogen organlar kasalliklarida, yo`qumli va surunkali kasalliklarda uchraydi.

Davosi: agar bepustlik, og`riqli menstruatsiya bulmasa, umumiy yaxshilovchi muolaja – (rasional ovkatlanish, yengil mexnat va dam olish).

II – GS da asosiy sabab bo`lgan kasallikni davolash kerak. Agar yaxshi natija bulmasa, Sherbak bo`yicha vorotnik, diatermiya, loy bilan davolash, kichik chanoq organlarida qon aylanishini kuchaytiruvchi muolajalardan qilish kerak. Menstrual sikli fazasiga karab, kichik dozada jinsiy gormonlar 1000-5000 YeD dan esterogen (10-12 kun davomida II – fazasida progesteron 5-10 mgdan 6-8 kun davomida) beriladi. Agar GS sababi sil bulsa gormonal davo qilishdan oldin maxsus davo kilinadi.

MENORRAGIYA.

Hayz kurilganda qon ketishning tugashi bachadon muskullari kiskarib, qon tomirlari teshigining yopilishi xamda jaroxat yuzasining epitelizatsiya sabablidir.

Demak bachadon kiskarishini va regeneratsiyasini xodisalarini tuzuvchi xamma shart – sharoitlar qon ketishning ko`payib menstruatsiyaning chuzilishiga olib keladi.

Menorragiya sabablari turlicha:

1. Nerv sistemasi menstruatsiya faoliyati, kam – kusti ovkatlanish, infantilizm modda almashinuvining buzilishi, tuxumdon gipofunksiyasini chakiradi.
2. Yoshga bog`liq bo`lgan tuxumdon gipofunksiyasi sababli bo`lgan menorragiya, balogatga yetguncha va klimakterik davrida.
3. Kichik chanoq organlari qon tomirlarida qon aylanishi buzilishi, qon kasalliklarida, qon kuyilish sistemasining buzilishlarida, S – gipo vitaminozida, infeksiyasida, zaxarlanishda.
4. Ginekologik kasalliklarda: bachadon miomasida, bachadon yalliglanishda endometrioza.
5. Bachadon joylashuvining anomaliyalarida, ko`p tugish sababli bachadon tonusi sustligi.

Davo: avvalo menorragiya sabab bo`lgan kasallikni bartaraf etish.

Bunda yalliglanishga karshi, yo`qumli, yurak – qon – tomirlari kasalliklariga karshi davo tavsiya kilinadi. Agar menorragiya mioma sababli bulsa va juda ko`p qon yo`qotilsa jarroxlik yo`li bilan davolanadi. Tuxumdon gipofunksiyasi va infantilizmida esa jinsiy gormonlar kullash mumkin. Gormonoterapiya boshlashdan oldin menorragiyaning boshqa sababli – o`sma, yalliglanish va boshqa sabablarini e`tirof qilish kerak. Simptomatik terapiya, qon kuyish, temir moddalari dorilar, qon ketishni tuxtatish va uterotonik ta`sir kiluvchi (ergotan 1 mg 2-3 maxal stiptiqin 1 tab. 3 maxal, suvli kalampir ekstrakti 30 –40 tomchidan berib) boriladi. Juda kattik og`riqda gifototsin, pitiutrin in`eksiyasi kilinadi.

Amaliy mashg`ulot № 3: Disfunktsional bachadon qon ketishlar

1. Mashg`ulot o`tkazish joyi, jixozlanishi

Mashg`ulot vaqti -5soat	Talabalar soni: 18
Mashg`ulot shakli	Amaliy mashg`ulot
Reja	Talabalarni BDQK ning etiologiyasi, patogenezini, klinikasi, uning

	asoratlari va ularning oldini olishda vrach taktikasi bilan tanishtirish. BDQK turli yoshdagi ayollarda turlicha bo'lishi va ularni zamonaviy davolash choralari, boshqa kasalliklar bilan taqqoslovchi tashxisni o'rgatish mavzuning asosiy maqsadidir
Mavzuning maqsadi: 7. - Bachadondan disfunktsional qon ketishi haqida tushuncha, uni uchrash tezligi, xarakteri va xususiyati. 8. Hayz stikli buzilishini yuzaga keltiruvchi patogen omillar haqida ma'lumot. 9. BDQK etiologiyasi va patogenezi. 10. BDQK tasnifi, klinik variantlari, boshqa kasalliklar bilan taqqoslovchi tashxislash. 11. BDQK ni tashxislash. 12. Davolash usullari (simptomatik davolash, umumiy davolash usullari, fizioterapevtik usullarni qo'llash). 13. Davolashda gormonlarni qo'llash. Kasalning yoshiga qarab preparatlarni tanlash. Gormonal gemostaz (estrogenlar bilan, progesteron bilan, estrogen va androgenlar bilan, estrogen va progesteron bilan). Stiklik gormonal terapiya. 14. Davolashda jarrohlik usullarni qo'llash, o'nga ko'rsatmalar. 15. Yuvenil qon ketishi haqida tushuncha. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tekshirish usullari va davolash..	
Mavzuning vazifasi - 1. BDK sabablarini 2. klassifikatsiyasini 3. klinikasini 4. funktsional diagnostika testlarini 5. davolash prinsiplarini	
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali, ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	kompyuter, multimedia, slaydlar, mavzuga oid bemorlar va boshqalar
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

1.2. amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	4. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi. 5. Talabalarni mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi 6. Davomatni nazorat qiladi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalaniladi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar

	3. Slaydlar, multimediyalardan foydalaniladi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi. 2. Mustaqil ish beradi. 3. Uyga vazifa beradi.	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

Foydalanadigan interaktiv usullar

«O'rgimchak to'ri» o'yini.

1. Talabalar darsga tayyorlanishlari uchun bir oz vaqt beriladi.
2. Talabalar stol atrofida yig'iladilar.
 1. Qatnashchilardan biri kalavani oladi va uchini ochib boshqa bir qatnashchiga beradi. Ipni ushlagan qatnashchiga savol beriladi.
 2. Savolga to'liq va to'g'ri javob berayotganligi tekshirib turiladi. Keyin kalavani uchi yana boshqa qatnashchilarga uzatilaverilib, o'rgimchak uyasi hosil bo'ladi.
 3. Barcha qatnashchilar savollarga javob berib bo'lgach, kalavani uchi yana savol bergan talabaga qaytarib beriladi. Shunday tarzda o'yin yana qaytadan boshlanishi mumkin.

Ogohlantirish: Har bir talaba berayotgan savollarga to'liq va to'g'ri javob olishlari shart.

«Stol ustida ruchka» o'yini.

1. Assistent o'tilgan mavzu yuzasidan savol tuzadi (o'rtacha har bir talabaga 2-3 tadan).
2. Talabalar stol atrofida yig'iladi.
3. Stol o'rtasida ruchka qo'yiladi va soat strelkasi bo'yicha aylantiriladi.
4. Ruchka qaysi talabaga kelib to'xtasa, assistent o'sha talabaga savol beradi.
5. Savolga javob bergan talaba yana ruchkani aylantiradi va savollar tugaguncha o'yin davom ettiriladi.

BACHADONDAN DISFUNKSIONAL QON KETISHI (BDQK)

Disfunktsional qon ketishi deb, ayol jinsiy a'zolarida organik o'zgarishlar bo'lmay, balki tuxumdonlar gormonal faoliyatining buzilishi, gonadotrop gormonlar ishlashining buzilishi tufayli yuzaga kelgan jarayonga aytiladi. Bu holatda endometriyda doimo morfologik o'zgarishlar kuzatiladi. BDQK ginekologik kasalliklarning 10 – 15 % ni tashqil etadi va turli yoshdagi ayollarda, xatto qizlarda yuvenil qon ketishi, tug'ruq yoshidagi ayollarda, menopauzadan oldin va klimakterik yoshda xam kuzatiladi.

Ayol organizmida hayz stiklining kechishi juda murakkab biologik hodisa bo'lib, uning asosida bosh miya po'stloq qismi - gipotalamus – gipofiz – tuxumdon – bachadon sistemasining bir – biriga ta'siri natijasidagi jarayon yotadi. Bu 5 ta halqa o'zaro bog'langan bo'lib, ulardan biri tushib qolganida hayz stiklining buzilishi kuzatiladi. Hayz stikli buzilishining ko'rinishlaridan biri bachadondan disfunktsional qon ketishidir.

BDQK yuzaga keltiradigan bir qancha omillar mavjud:

1. Markaziy nerv sistemasining buzilishi – asab zo'riqishi, stress omillari, aqliy va jismoniy zo'riqish, jarohatlanish.
2. O'tkir va surunkali infekstiyalar (gripp, surunkali tonzillit, revmatizm, sil).
3. Jinsiy a'zolarining surunkali yallig'lanish jarayonlari.
4. Ichki sekrestiya bezlari xastaliklari.
5. Ba'zi dorilarni muntazam ichish oqibatida (neyroleptiklar).

BDQK asosan ayollarning 3 davrida, balog'atga etganda, 20-25% xollarda «etilish» davrida va klimakterik davrida, ya'ni organizmning «so'nish» davrida 50-60% xollarda uchraydi.

Yuqorida ko'rsatilgan omillar ta'sirida bir-biri bilan uzviy bog'langan halqalardan birining funkstional o'zgarishi kuzatiladi, bu esa o'z navbatida tuxumdonlar faoliyatining buzilishiga olib keladi:

- a) Ovulyastiya buzilishiga .
 - b) Sariq tana rivojlanishi II fazasining va progesteron ishlab chiqarishning boshlanmasligi.
 - v) Ayol organizmiga faqat estrogenlarning uzoq ta'sir etishi.
- Shu o'zgarishlarga ko'ra BDQK ni quyidagicha tasniflash mumkin:

BDQK TASNIFI:

1. Anovulyator qon ketishi:
 - a) follikullar atreziyasi tipida.
 - b) follikullar persistenstiyasi tipida.
2. Ovulyator qon ketishi:
 - a) Follikulin fazasining qisqarishi.
 - b) Lyutein fazasining uzayishi.
 - v) Lyutein fazasining qisqarishi.

Ayollarni yoshga qarab tasniflash:

1. Yuvenil qon ketishi.
2. Tug'ruq yoshidagi ayollarda DKK
3. Klimakterik premenopauzada qon ketishi.

Follikul etilishining buzilishi 2 tipda kuzatiladi.

Follikulning uzoq persistenstiyasi – etilgan 1-2 katta follikul bir qancha vaqtgacha yorilmasdan turadi va estrogenning aktiv fraktsiyalarini chiqara boshlaydi. Organizmda estrogen gormonlar darajasining yuqoriligi aniqlanadi. Bu gormonlar ta'sirida bachadonda nafaqat proliferastiya jarayoni, balki giperplaziya, polipoz, kistoz holatlari ham kuzatiladi. Boshqa a'zo va sistemalarda xam o'zgarishlar kuzatiladi. Bu holat ko'pincha tug'ruq yoshidagi ayollarda ko'proq kuzatiladi.

Follikulning atreziya holati – bunda follikul etilishi oxiriga etmay, balki kichik yoki katta follikul darajasida to'xtaydi va orqaga rivojlanish holati kuzatiladi.

Giperplaziyaga uchragan endometriyda qon tomirlarining o'sib ketishi va kengayishi kuzatiladi. Estrogenlarning doimiy ta'sirida qon tomirlar yupqalashib, mo'rt bo'lib qoladi, ularning tonusi o'zgarib , qisilish yoki kengayish holatlari kuzatiladi. Bu endometriyda qon aylanishning buzilishiga, qon talash xolatlari va bu erda nekrozlarni yuzaga keltiradi. Nekrozlar uzilib qon ketishiga sabab bo'ladi. qon ketish holatlari ko'pincha hayz stiklining buzilishi, hayzning to'xtab qolishidan yuzaga keladi. qon ketish darajasiga qarab (uzoq yoki qisqa) atreziya yoki persistenstiya holatini aniqlash mumkin.

Persistenstiya holatida qon ketishi ko'proq, leqin qisqa vaqt ichida kuzatiladi, follikul atreziyasida esa - kamroq qon ketib, uzoq vaqtgacha cho'zilishi kuzatiladi. Har ikkala holatda ham qon ketishi ayolni kamqonlik kasalligiga olib kelishi mumkin.

BDQK ni tashxislash.

Bachadondan disfunkstional qon ketgan ayollarda umumiy ko'rinish o'zgarmaydi, ko'pincha ayolda hayz 2-3 oy to'xtab, keyin biroz qon surkala boshlaydi, keyin kuchayib ketadi. Qon ketishi hayz muddatidan o'tgach boshlanadi.

Qin yoki ichak-qin orqali tekshirilganda bachadonning biroz kattalashganligi, sharsimon va yumshoqlanganligi aniqlanadi. Follikulning qaysi tipda o'zgarganligini aniqlash uchun funkstional diagnostika testlari qo'llaniladi.

Tashxis qo'yihda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- 1) aniq yig'ilgan anamnez (bepushtlik, homila tashlash hollari).
- 2) umumiy va qin orqali bimanual tekshirish.
- 3) gisteroskopiya
- 4) exoskopiya

- 5) endometriyni tekshirish (endometriy biopsiyasi, diagnostik qirish metodi, endometriy aspirastiyasi).
- 6) qon analizi.
 - a) qonda XG ni aniqlash
 - b) trombositlar miqdorini aniqlash.
 - v) leykositlar formulasini aniqlash.
- 7) gormonlar miqdorini tekshirish usullari
- 8) funkstional diagnostika testlari.

Yakuniy tashxis endometriyni gistologik tekshirish natijalari olingandan keyin

(bezsimon – kistali giperplaziya) qo'yiladi.

BDKKni quyidagi kasalliklar bilan qiyosiy tashxislash mumkin:

- qon kasalliklari bilan: gemorragik diatez, trombositopeniya, gemofiliya.
- bachadon miomasi
- tuxumdonlar o'smalari
- polipozlar
- rak kasalliklari (bachadon tanasi va bo'yni raki)
- plastentar polip
- adenokarstinoma
- homiladorlikning vaqtidan ilgari to'xtashi, abortlar
- bachadondan tashqari homiladorlik
- adenomioz va boshqalar.

BDQKni davolash.

Bemorning yoshi, kasallikning kelib chiqish sabablari, patogenezi va boshqa a'zolar faoliyatining izdan chiqqanlik darajasini xisobga olib, har taraflama kompleks davolash tadbirlari qo'llaniladi. Davolashning asosiy tamoyillari: bemorning umumiy ahvolini yaxshilash, qon ketishini to'xtatish, uning takrorlanishining oldini olish, tuxumdon faoliyatini va gipotalamo-gipofiz-tuxumdon-bachadonning o'zaro buzilgan munosabatlarini tiklashdan iborat. Klimakterik davrda yoki menopauzaga yaqin bo'lganda tuxumdon faoliyatini sun'iy vositalar orqali so'ndirish masalasi qo'yiladi.

BDQK ni davolashda umumiy aholni yaxshilovchi , simptomatik davolash, gormonlarni qo'llash va jarrohlik usullari qo'llaniladi.

Umumiy davolashda kasalga salbiy ta'sir etuvchi omillarni yo'qotish, aqliy va jismoniy jihatdan dam oldirish, bularni yo'lga qo'yishda preparatlardan:biopassit,notta va fizioterapevtik usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, endonazal elektroforez vitamin V1 bilan yoki elektroforez brom va kalstiy bilan Sherbak yoqasi ko'rinishida qo'yiladi. Bachadon bo'ynini elektrostimullash usullaridan bachadon-gipofiz refleksini qo'zg'atishga yordam beradi.

Simptomatik davolash – bachadonni qisqartiruvchi vositalarni qo'llash (oksitostin va boshqalar), qon to'xtatuvchi vositalar (kalstiy xlorid, vikasol, distinon), kamqonlikka qarshi vositalar (globeks, tardiferon,aktiferrin,ferrum–lek tabletkalari), vitaminlar (S, E, V guruxi,duovit.pregnovit.oligovit) qo'llaniladi.

O'simliklardan tayyorlangan mastodinon, remens dorilarini ham tavsiya etish mumkin.

Davolashning asosini gormonlar yordamida davolash tashqil etadi va u ikki xil xususiyatga ega – gemostatik va tuxumdonlar faoliyatini tartibga solish.

Gormonal gemostaz – yosh qizlarda va tug'ish yoshidagi ayollarda qon ketishini to'xtatish maqsadida qo'llaniladi (ko'pincha bachadonni diagnostik qirish usulidan keyin).

1. Estrogenlarni qo'llash. Qon to'xtatish maqsadida follikulyar gormon ishlatilib u bachadon shilliq qavati regenerastiyasini tezlashtiradi. Gipofizda FSGning ortiqcha ishlab chiqarishini kamaytirib, FSG va LGlarning o'zaro munosabatini normallashtiradi. Estrogenlar 3-4 kun davomida nisbatan katta dozada beriladi. Follikulin 10000 tb har bir soatda 4-6 marta qon to'xtaguncha yuboriladi (umumiy doza 60000 tb). Odatda 6 soat ichida qon oqishi to'xtaydi. Sxema bo'yicha: keyingi har

bir kunda 10000tb kamaytiriladi (masalan , 2 - kunda 5 marta X 10000tb m/i, 3 kun – N4 , 4 kun – N3, 5 kun – N2, 6 kundan to 15 ko`ngacha N1, keyin 16 – 25 kunlarda progesteron 2,5% - 10 ml kunora N5 m/i yuboriladi.

2. Etinilestradiol 0,05 mg dan sutkasiga 3-4 marta keyingi kun 2-3 marta kamaytirilib, qon to`xtagach 2 - kundan boshlab 6-8 kun progesteron 15mg yuboriladi yoki norkolut, dyufaston 1 tabletka 1 mahal beriladi.
3. Estrogenlar va progesteron birgalikda sintetik progestinlar ko`rinishida qo`llanildi (Trikvilar, mikrogenon, non- avlon va boshqalar). 10 kun davomida qo`llaniladi. 1kun 1 tabletkadan xar bir soat davomida kuniga 5-6 tabletkagacha qon to`xtaguncha. 2-i kundan 1 tabletkadan kamaytirilib to sutkada 1 tabletkagacha kamaytiriladi. 1 tabletkadan 21 – 28 ko`ngacha ichiladi. Asosiy maqsad gipofizning gonadotrop faoliyatini to`xtatishdir.

Yuvenil qon ketishida xorionik gonadotropin 4 hayz stikli davomida 1 oy 1500 tb dan mushak orasiga , 12 dan 15 ko`ngacha, 2 oy 1000tbdan , 3- oy 500tb dan mushak orasiga yuboriladi. Sintetik progestinlar 1tabletkadan hayzning 5 - kundan 25 - kunigacha 3 oy mobaynida beriladi.

SIKLIK GORMONAL TERAPIYA follikullar atreziyasi kuzatilganda va estrogenlar etishmovchiligida hamma yoshdagi ayollarda qo`llaniladi.

Estrogenlar 10000 tb dan mushak orasiga (yoki mikrofolin til tagiga) hayz stiklining 6-8, 10-12 - kunlari yuboriladi, 14-16-18 -kunlari estrogen progesteron bilan birgalikda 10 mg yuboriladi. 20 - kundan boshlab progesteron 10 mg dan 6-8 kun yuboriladi. Bunday davolash 3-4 hayz stikli davomida olib boriladi.

Klimakterik davrda , 48 – 50 yoshdan keyin yuzaga kelgan BDQKda tuxumdonlar faoliyatini to`xtatish, androgenlarni qo`llash yo`li bilan olib boriladi. Bu maqsadda testosteron propionat 5% 1ml mushak orasiga 5 ta in`eksti hr kuni , 5 tasini kun ora , 5 tasini har 2 kunda 1 oy ichida yuborish taklif etiladi. Kurs dozasi 750 mg.

Androgenlarni qo`llashga qarshi ko`rsatmalar: gipertrixoz, gipertoniya kasalligi, jigar xastaliklari.

Bachadondan disfunktsional qon ketganda qo`llaniladigan zarur choralardan biri bachadon bo`shlig`ini diagnostika maqsadida qirishdir. Bunda nafaqat tashxis qo`yish, balki qon ketishini to`xtatishga ham erishiladi. Bu metodni qo`llash yosh qizlarda oxirgi chora bo`lsa , 30-40 yoshdagi ayollarda birinchi bo`lib qo`llaniladigan choradir. Agar gistologik tekshiruvda rak oldi xolatlari kuzatilsa

(atipik giperplaziya, adenomatoz poliplar proliferatsiya bilan) unda jarrohlik usulini qo`llash zarur.

Jarrohlik usulini qo`llashga ko`rsatmalar:

1. Adenokarstina.
2. Adenomatoz yoki endometriyning atipik giperplaziyasi .
3. Atipik giperplaziya mioma bilan qo`shilib kelsa, yoki tuxumdonlar kattalashgan bo`lsa.
4. Takrorlanuvchi endometriyning bez - kistozli giperplaziyasi .
5. Qo`llanilgan davolash choralaridan foyda bo`lmasa va qon ketish hayot uchun xavf tug`dirs.

Katta yoshdagi ayollarda – klimakterik qon ketishi kuzatilganda bachadon endometriysini kirish usulidan keyin tarkibida estrogen bo`lgan preparatlar tavsiya etilmaydi, chunki ular yurak - tomirlar faoliyatini , jigarning surunkali xastaliklarini, o`t pufagi kasalliklarini qo`zg`atishi, qon bosimini ko`tarishi, giperxolesterinemiya, giperglikemiya holatlarini chaqirishi mumkin. Bu yoshdagi ayollarga toza gestogenlar va androgenlar tavsiya etiladi:

1. 17 -0 OPK 125 - 250 mg bachadon qirishdan keyin 14, 17 ,21 kun va 4-6 oy ichida hayzning shu kunlari yoki haftada 2 marta 6 oy davomida - 48 yoshdan oshgan ayollarga tavsiya etilib, hayz xolatini to`xtatadi.
2. Norkolyut 5-10 mg hayzning 5 dan 25 kunigacha 4 – 6 oy davomida.
3. Omnadren – 250 yoki Sustanon – 250 1 ml dan 1 oyda 1 marta 3-4 oy ichida, so`ng metiltestosteron 5-10 mg dan til ostiga 1-2 oy davomida ichiladi.

4. Keyingi yillarda 40 yoshdan boshlab sof gestogenlardan: femoston, dyufaston keng qo'llanilmoqda.
5. Gormonal davolashga qarshi ko'rsatmalar bo'lsa, u holatda gomeopatik dori vositalaridan remens tavsiya qilinadi, ba'zan rentgenkastrastiyani qo'llash mumkin.

BDQK PROFILAKTIKASI.

Disfunktsional qon ketishining oldini olish choralari juda muhim va ko'p qirralidir:

- barcha genital va ekstragenital kasalliklarni davolash
- qiz bolalarni yoshligidan boshlab sog'lomlashtirish ishlarini olib borish, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanirish, to'g'ri ovqatlantirish, o'qish, dam olish.
- Jinsiy hayot gigienasiga rioya qilish va boshqalar.

BDKKning oldini olish, o'z vaqtida to'g'ri davolash, keyinchalik turli onkologik kasalliklarni oldini olish.

YuVENIL QON KETISHI (YuQK).

Yuvenil qon ketishi balogat yoshiga etgan qizlarda bachadondan astiklik qon ketishi bo'lib, bu holat ginekologik kasalliklarning 10% ni tashqil etadi.

ETIOLOGIYA SI VA PATOGENEZI.

Kasallik polietiologikdir, asosan o'tkir va surunkali infektsion kasalliklar (angina, surunkali tonzillit, gripp, revmatizm, pnevmoniya), noto'g'ri ovqatlanish (gipovitaminozlar), ko'ngilsiz voqealar – ruhiy tavgmalar, charchash hollari va boshqalar sabab bo'ladi. Bunda endogen va ekzogen omillar ontogenez davrida gipotalamus xujayralarining resteptor faoliyatiga ta'sir etishiga ko'ra uning markazining ta'sirchanligi oshadi. Gipotalamus buholda gipofizga to'liq ta'sir ko'rsata olmaydi, gonadotrop gormoni kam ajraladi. Bu o'z navbatida tuxumdonda follikullar etilishiga ta'sir etib, anovulyastiyani yuzaga keltiradi. YuQK da anovulyastiyaning o'ziga xos turi, follikullar atreziyasi (yorilmay qolishi) yoki kistaga aylanib qolishi kuzatiladi.

Estrogenlar uzoq vaqt davomida, progesteron oz miqdorda ajraladi. Bu hol endometriyda proliferastiya xolatini keltirib chiqaradi. Giperplaziya yuzaga kelib, bez-kistali o'zgarishlar yuz beradi. Bu hol qon–tomirlar o'zgarishiga, nekroz xolatiga va qon ketish holatini yuzaga keltiradi.

KLINIKASI. Ko'p miqdorda , uzoq (7 kun va undan ko'p) qon ketishi bilan xarakterlanadi. Ko'pincha hayz stikli to'xtab qolgandan keyin (1,5 – 6 oy) qon ketib, qizni kamqonlik kasaligiga olib kelishi mumkin.

Astiklik qon ketishi menarxe vaqtidan boshlanishi yoki menarxedan 1,5 – 2 yil keyin, biron infektsion kasallikdan keyin, aqliy jismoniy charchash tufayli yuzaga keladi. 87% hollarda endometriyda giperplastik o'zgarishlarni, adenomatoz va atipik giperplaziya xolatlarini ko'rish mumkin, shifokor bunday holatlarga e'tiborli bo'lishi kerak.

YuQK klinikasi qancha miqdorda qon yo'qotganligiga bog'liq: tez charchash, xolsizlik, ishtaxaning yo'qligi, bosh og'rishi , yurakni vaqti vaqti bilan og'rish hollari kuzatiladi. Qon analizida tromositlar miqdorining o'zgarganligi , fibrinogen qonstentastiyasi pasayishi, qonning ivish qobiliyati pasayishi kuzatiladi.

YuQKda tekshirish usullari:

1. Bazal (tuo'g'ri ichak) haroratni o'lchash.
2. UTT o'tkazish.
3. To'g'ri ichak orqali tekshirish.
4. Umumiy qon va trombositlar sonini tekshirish.
5. Qonda progesteron miqdorini tekshirish.
6. Gonadotrop gormonlar (FSG, LG) qonstentastiyasini aniqlash.

DIFFERENSIAL TASHXIS.

Bachadondan qon ketishi bir qancha boshqa kasalliklardaham kuzatilib, buning differensial tashxisida quyidagi patologik holatlarni e'tiborga olish kerak bo'ladi:

1. Tuxumdonning granulyoz hujayrali va mezodermal o'smalari, tekoma , disgerminoma.
2. Bachadon va qindagi xavfli o'smalar (mioma, rak).

3. Jinsiy a'zolar sili
4. Gemorragik diatez
5. Trombositopeniya (Verlgof kasalligi).
6. Gemofiliya S (qiz bolalarda X omilning etishmasligi natijasida qonning ivishi ancha sust bo'ladi).
7. Angiogemofiliya Villebrand – Yurgens kasalligi – bunda qon ivishida ishtirok etuvchi VIII omil bo'lmagani uchun qon ketishi uzoq davom etadi.
8. Kapillyarlar toksik va allergik o'zgarganda.
9. Bo'qoq bezi, buyrak usti bezi, dienstefal patologiya.

DAVOLASH.

Bachadondan YuQKni davolash usullari shu patologik xolatni vujudga keltirgan sabablarni aniqlab, shu asosda davo choralarini qo'llashdan iborat. Bu har bir bemorni chuqur o'rganishni talab qiladi. Davolashni asosan ikki bosqichga bo'lish mumkin:

- qon ketishini to'xtatish;
- hayz stiklini tartibga solish;

Agar kasalxonaga murojaat qilgan qiz bolada o'tkir kamqonlik belgilari kuzatilsa: arterial qon bosimi pasaygan, taxikardiya, xolsizlik, gemoglobin miqdori 70 g/litrdan past bo'lsa, gematokrit 20% - bu holda SZP 300-400 ml, ifezol va qon o'rnini bosuvchi eritmalar (stabizol, refortan) quyish zarur, keyin gormonal gemostaz usuli va stiklik yoki sintetik progestin bilan terapiya o'tkaziladi.

“Bachadonda disfunktsional qon ketish”

Maqsad: talabalarga bemorni ob'ektiv va sub'ektiv ma'lumotlarga asosan diagnoz qo'yish, kasallik og'irlik darajasini baholash va davolash taktikasini tanlashni o'rgatish.

Ta'minlanish: qin ko'zgulari, ginekologik kreslo, probirka, qirg'ich, bachadon zondi, steril qo'lqop, qisqich.

1. Ayol ginekologik kresloda oyoqlarini chanoq-son va tizza bo'g'imlarida bukib yotadi.
2. Shikoyatlari: jinsiy yo'llaridan ko'p kun va ko'p miqdorda qon ketishiga.
3. Kasallik anamnezi: asta-sekin boshlanadi, hayz to'xtagandan keyin.
4. Hayot anamnezi: hayz kelishi 14 yoshdan, 3-4 kun, har 28 kunda, jinsiy hayoti 19 yoshdan, ginekologik kasalliklari - surunkali adneksit. Irsiyatga moyilligi yo'q, zararli odatlari yo'q. Oxirgi hayz 1,5 oy avval bo'lgan.
5. Umumiy ko'ruv: bemorning ahvoli qoniqarli, teri qoplamlari oqish, taxikardiya, gipotoniya.
6. Qorni kuruvda: oddiy shaklda, paypaslanganda og'riqsiz.
7. Dastlabki diagnoz: shikoyatlari, hayot va kasallik anamnezi hamda lokal status va ob'ektiv ma'lumotlarga asoslanib qo'yiladi.
Qonning umumiy analizi: gemoglobin, eritrostit va trombosit miqdorining kamayishi.
Ko'zgularida ko'ruv: qin shilliq qavati va bachadon bo'ynida toza qonli ajralma ko'rinadi.
Qin orqali ko'ruv: bachadon tanasi biroz kattalashgan, bachadon ortiqlari o'zgarishsiz.
Gistologik tekshiruv: endometriy bezli-kistasimon giperplaziyasi.
8. Klinik diagnozni qo'yish va asoslash: dastlabki diagnoz va klinik – instrumental tekshiruvlarga asoslanib qo'yiladi.
9. Asoratlari: kamqonlik, bachadon miomasi, bachadon endometriozi, qon ketish.
10. Differentsial diagnostika: Verlgof kasalligi, bachadon miomasi, endometriozi, abortlar, tuxumdon gormonal-faol o'smalari, bachadon bo'yni va tanasi raki, bachadondan tashqari homiladorlik, xorionepitelioma.
11. Operativ davolash:
Bachadon bo'shlig'ini diagnostik va davolash maqsadida qirish.
Morfologik o'zgargan endometriyni olib tashlash
Jarroxlikdan keyingi davrda:
Gormonal korrektsiya

- Kasallik qaytalanishini oldini olish
 Organizmning buzilgan faoliyatini tiklash
 Reabilitastion terapiya
 12. Profilaktika: bachadon ortiqlari yallig'lanishini aniqlash va davolash. EGKni davolash.

Amaliy ko'nikma. BDQK klinikasini va tashxislashni bilishi, kasalni tekshirishni, tashxisni differenstiastiya qilishni, to'g'ri davolash usulini tanlashni, operativ davolashga ko'rsatmani va shoshilinch yordam choralarini tanlashni bilishi kerak. Dori vositalarining (qon tuxtaturvchi, og'rik qoldiruvchi) restseptlarini yozishni bilish kerak.

Bachadon bo'shlig'ini diagnostik qirish texnikasi

Maqsad: endometriy holati diagnostikasi, bachadon bo'shlig'idan homila qismlari va endometriyni olib tashlash.

Ko'rsatma: bachadondan disfunkstional qon ketishlar, bachadon miomasi, endometriy fon va rak oldi kasalliklari, abort.

Ta'minlanishi: ginekologik kreslo, 70%li etil spirti, qin ko'zgusi, qisqichlar, bachadon zondi, qirg'ichlar, fiziologik eritma, formalin.

Qadamlar:

1. Ayol ginekologik kresloda oyog'ini tizza va chanoq-son bo'g'imlarida bukilgan holatda yotadi, bimanual tekshiruvda bachadon holati aniqlanadi.
2. Lidokain, novokain yoki tomirga kalipsol yuborib og'riqsizlantiriladi.
3. Tashqi jinsiy a'zolar va qinni 70 gradusli etil spirti bilan artiladi.
4. Qinga ko'zgular kiritilib, bachadon bo'yni ochiladi va bachadon bo'yni tashqi bo'g'izi 70 gradusli spirt bilan artib tozalanadi.
5. Bachadon bo'yni oldinigi labiga qisqich qo'yiladi.
6. Bachadon zondi yordamida bachadon bo'shlig'i uzunligi o'lchanadi.
7. Qirg'ichlar bilan bachadon bo'shlig'ini, bazal qavatini jaroxatlamasdan qirib olinadi.
8. Olingan qirmani fiziologik eritmada yuvib idishga formalin solib gistologik tekshiruvga yuboriladi.
9. Qisqichlar olinib stervikal kanal va qin spirtda artilib ko'zgular chiqarib olinadi.
10. Ayolni katalkada palataga o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulot №4: **Homiladorlikning birinchi yarmida qon ketishlar**

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -5soat	Talabalar soni: 18
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashgulot
Reja	Homiladorlikni birinchi yarmida qon ketishlarini sabablaridan bir xisoblangan bachadondan tashqari homiladorlikni uz vaqtida aniqlash va to'g'ri davolash ayolda roy berishi mumqin bo'lgan asoratlarni oldini olish va reproduktiv salomatligini saqlab qolish imqoniyatini beradi. Umumiy amaliyot shifoqorini amaliyotida ko'p uchraydigan bu asoratlarni albatta yaxshi organishi darkor.
Mavzuning maqsadi: - Bachadondan tashqari homiladorlikni keltirib chiqaruvchi sabablar,	

-klinik kechishi, -o'z vaqtida aniqlash, - boshqa kasalliklardan farqlash, -davolash, -davolashdan keyingi sog'lomlashtirish tadbirlari va oldini olish choralari bilan talabalarni tanishtirish.	
Mavzuning vazifasi-; 1. Bachadondan tashqari homiladorlik etiologiyasi va patogenezini 2. Rivojlanayotgan va tuxtagan bachadondan tashqari homiladorlikni klinik kechishi. 3. Diagnostika va dif.diagnostikasi 4. Davolash prinsiplari 5. Bachadondan tashqari homiladorlik asoratlari. 6. Trofoblastik kasallik etiopatogenezi, klinikasini 7. Diagnostika va differensial diagnostika metodlari 8. Dispanser kuzatuv va kontrastepsiya prinsiplari.	
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali, ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	kompyuter, multimedia, slaydlar, mavzuga oid bemorlar va boshqalar
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

1.2. amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	7. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi. 8. Talabalarni mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi 9. Davomatni nazorat qiladi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Fanni o'rganishda faoydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalaniladi. 3. Slaydlar, multimediyalardan foydalaniladi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi. 2. Mustaqil ish beradi. 3. Uyga vazifa beradi.	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

Talabalar egallashi zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar:

1. Ektopik homiladorlikni aniqlash uchun insterumental tekshirish metodida klinik tekshirish.
2. Klinik tashxisni aniqlash.
3. Uz vaqtida gospitalizatsiya qilish.
4. Homiladorlik kartasini tuldirish.
5. Analiz va insterumental tekshirish metod natijalarini taxlil qilish.
6. Reabilitastion tadbirlari.

Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	10. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi 11. Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi 12. Davomatni nazorat qiladi	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish	
2 – asosiy bosqich (55 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, multimedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
2- yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

Foydalanadigan interaktiv usullar

«O'rgimchak to'ri» o'yini.

1. Talabalar darsga tayyorlanishlari uchun bir oz vaqt beriladi.
2. Talabalar stol atrofida yig'iladilar.
3. Qatnashchilardan biri kalavani oladi va uchini ochib boshqa bir qatnashchiga beradi. Ipni ushlagan qatnashchiga savol beriladi.
4. Savolga to'liq va to'g'ri javob berayotganligi tekshirib turiladi. Keyin kalavani uchi yana boshqa qatnashchilarga uzatilaverilib, o'rgimchak uyasi hosil bo'ladi.
5. Barcha qatnashchilar savollarga javob berib bo'lgach, kalavani uchi yana savol bergan talabaga qaytarib beriladi. Shunday tarzda o'yin yana qaytadan boshlanishi mumkin.

Ogohlantirish: Har bir talaba berayotgan savollarga to'liq va to'g'ri javob olishlari shart.

«Stol ustida ruchka» o'yini.

1. Assistent o'tilgan mavzu yuzasidan savol tuzadi (o'rtacha har bir talabaga 2-3 tadan).
2. Talabalar stol atrofida yig'iladi.
3. Stol o'rtasida ruchka qo'yiladi va soat strelkasi bo'yicha aylantiriladi.
4. Ruchka qaysi talabaga kelib to'xtasa, assistent o'sha talabaga savol beradi.

5. Savolga javob bergan talaba yana ruchkani aylantiradi va savollar tugagunicha o'yin davom ettiriladi.

«Auksion» o'yini

6. Talabalar darsga tayyorlanishlari uchun bir oz vaqt beriladi.
7. Talabalar stol atrofida yig'iladilar.
8. Qatnashchilardan biri kalavani oladi va uchini ochib boshqa bir qatnashchiga beradi. Ipni ushlagan qatnashchiga savol beriladi.
9. Savolga to'liq va to'g'ri javob berayotganligi tekshirib turiladi. Keyin kalavani uchi yana boshqa qatnashchilarga uzatilaverilib, o'rgimchak uyasi hosil bo'ladi.
10. Barcha qatnashchilar savollarga javob berib bo'lgach, kalavani uchi yana savol bergan talabaga qaytarib beriladi. Shunday tarzda o'yin yana qaytadan boshlanishi mumkin.

Ogohlantirish: Har bir talaba berayotgan savollarga to'liq va to'g'ri javob olishlari shart.

Vaziyatli masalalar:

Masala .

35 yoshli ayol tez yordam bilan ogir axvolda kasalxonaga keltirildi. Tomir urishi 120 marta, AK/B 30/40. oxirgi hayz kurgan kunini eslolmaydi.

Anamnezida: 1 ta tug'ruq, bir marotaba abort kilgan. Uzini homilador deb xisoblamaydi. 3 soat oldin birdaniga kuchli og'riq qorin pastida paydo bo'lgan va orqa chiqaruv teshigi soxasiga tarkalgan, 2 marta xushini yo'qotgan. Ob'ektiv: Umumiy axvoli ogir. Teri va kurinadigan shillik parda ok rangda. Tili kuruk. Qorin oldi devori taranglashgani uchun, qorinni chukur paypaslab bulmaydi. SHetqin- Blyumberg simptomi musbat.

Qin orqali kurganda: qin tukkan ayollarga xos. Bachadon bo'yni kukimtir. Bachadon bugzi yopik. Bachadon tanasi normadan kattalashgan. Og'riqli. Qin gumbazi kiskargan. Og'riqli. Qin orqa gumbazi osilgan. Ajralma shillik qonsimon, kam miqdorda.

1 Sizning taktikangiz.

- Tuxumdon apopleksiyasi.
- Appendisit
- Bachadon ortiklarining yalliglanishi.
- 12 barmok ichak yarasi.
- Buzilgan bachadondan tashqarida rivojlangan homiladorlik.

2. Qaysi kasalliklar bilan takkoslaysiz:

- Anafilaktik shok
- Tuxumdon apopleksiyasi
- Spastik kolit
- Surunkali gastritning kuzishi.
- Paroproktit

3. Shu kasallikni keltirib chiqaruvchi sababalar:

- Surunkali adneksit
- Bachadon bo'yni eroziyasi
- Bachadon disfunktsional qon ketishlari.
- Gastrit
- Kolit

4. Nimaga asoslanib, tashxis kuyiladi.

- Ob'ektiv kurik.
- Qin orqali ko'rish
- Kolposkopiya
- Qin orqa gumbazi punksiyasi
- To'g'ri ichak orqali tekshirish

5. Qo`shimcha tekshirish usullari:

- Rektomanoskopiya
- Kichik chanoq a'zolarini ultratovush orqali tekshirish
- Qin surtmasi sitologiyasi
- Sistoskopiya
- Gisterosalpingografiya

6. Vrach taktikasi:

- Tez jarroxlik usuli bilan tubektomiya
- Reanimasion muolaja
- Bachadon ekstratsiyasi
- Bachadon va uning ortiklari bilan qin usti amputatsiyasi
- Rejali jarroxlik operatsiyasiga tayyorlash.

MAVZU BAYONI

Homiladorlikning birinchi yarmida qon ketishlar gospitalizatsiyaning eng asosiy sabablaridan biridir. Homiladorlik vaktida qon ketish juda ko`p sabablar oqibatida kelib chikishi mumkin. Tug`ruqgacha qon ketishlar sabablari:

- Abortlar oqibatida qon ketishlar.
- Bachadondan tashqari homiladorlik
- Trofoblastik kasallik.

Homiladorlikning 22 xaftasidan to bola tugilganigacha qon ketishlar tug`ruqgacha qon ketishlar deyiladi. 22 xaftagacha qon ketishlar homiladorlikni erta davri qon ketishlari sifatida aniqlanadi va sabablari bir xil bo`lishi mumkin, leqin eng ahamiyatli sabablari homiladorlikning uz-uzidan yoki sun`iy tuxtatishi (abort).

Abort turlari

Kriteriylari	Abort turlari
Muddatiga karab	Erta (14 xaf.), kechki (14 - 22 xaf.)
Kursatmasiga karab	Sotsial, tibbiy
Sababiga karab	Uz-uzidan, sun`iy stasionarda, kriminal
Klinikasiga karab	Xavf soluvchi, boshlangan, yuldagi abort
Homila tuxumi qoldiqlariga karab	Chala, tulik
Infeksiyasiga karab	Infisirlangan, infisirlanmagan
Infeksii tarkalishiga karab	Asoratsiz infisirlangan, asoratli infisirlangan, septik

Homiladorlikning erta davrida qon ketishi xavf soluvchi yoki tugallangan abort simptomlari bilan kechadi. Homiladorlikning erta yo`qotilishini aniqlash va kayd etish maqsadida turli xil terminlar ishlatiladi: ularning ko`pchiligi eskirgan va patofiziologiyaning zamonaviy tushunchalari kiritilgo`ngacha qadar yuzaga kelgan.

1. Spontan abort - Homiladorlikning dastlabki 20 xafta ichida yo`qotilishi.
2. Erta spontan abort - 12 xaftada yoki undan xam erta gestasion muddatda yuzaga keladigan spontan abort.
3. Xavf soluvchi abort - bachadondan qon ketishi yo`q, homiladorlik birinchi yarmi xoxlagan vaktida xurujsimon og`riqlar kelib chiqadi, bachadon bo`yni yopik.
4. Tugallanmagan abort - homila tulik emas, balki qisman chikish xolati.
5. Jadallashgan abort - bachadon bo`yni ochik, leqin to`qima chikmaydi.

6. Kechikkan abort (rivojlanmayotgan homiladorlik) - homila yoki embrion bir necha hafta davomida ulik, leqin xech kanday to`qima ajralmagan. Bachadon bo`yni yopik. Bu pasientlarda bachadon ulchami kattalashmasligi va embrion yurako`rishi aniqlanmaydi.

7. Septik abort - infeksiya tushgan tugallanmagan abort.

8. Buchmaygan tuxum - aniqlangan gestasion xalta va plasengar to`qima bo`lishiga karamasdan embrion rivojlanishdan tuxtagan. Bu xolat asosan UZI yordamida diagnostika kilinadi.

9. Subxorionik qon ketish - UZI da xorion va bachadon devori o`rtasida qon yigilganligi aniqlanadi.

10. Desidua - homiladorlik endometriti ko`pincha bola tashlash bir kismi sifatida keladi. Kachonki, desedua intakt ajralsa *desedual slepok* deyiladi va ektopik homiladorlik xakida xabar beradi.

Patofiziologiya

Xamma spontan abortlarning yarmi trisomiya, triploidiya yoki monosomiya singari katga genetik aiomaliyalar oqibatida kelib chiqadi. Spontan abort shuningdek, bachadon anomaliyalari, ona dietilstilbestrola ta`siri, leyomioma, bachadon bo`yni xolati. lyutein faza defekti natijasida progesteron deffisiti singari ichki faktorlar va immunologik faktorlarga bog`liq. Tashqi atrof faktorlarga: tamaki, alkogol, kokoin kabul qilishi, radiatsiya, infeksiya va professional ximiyaviy va ekologik ta`sirlar kiradi. Ona yoshi kattalashgan sari abortlar chastotasi oshib boradi.

Klinika.

Boshlangich stadiyada homiladorlik amenoreya homiladorlikning tipik simptomlari va homiladorlikka musbat test natijasida aniqlanadi.

Abortda asosiy belgilar, vaginal qon ketishlar, qorinning pastki kismida xurujsimon og`riqlar paydo bo`lishi xoriogonik gonodotrapin miqdori pasayishi xisoblanadi.

Qon ketish bilan kechgan homiladorlikning taxminan yarmi yo`qotiladi, homiladorlik saklab kolingan kismiga esa asoratlar va yomon oqibatlar kelib chikish xavfi qon ketishsiz kechgan homiladorliklarga nisbatan yuqori bo`ladi. Tulik bo`lmagan abortlar ko`p miqdorda qon yo`qotilganda turli xil ogirlik darajasidagi postgemorogik shoklar asoratlanishi mumqin.

Diagnostika:

Diagnoz bimanual tekshirish (bachadon ulchamlari, bachadon bo`yini xolati, bachadon bo`yini kanali ochilishi, qonli ajralmalar yoki to`qima xarakteri) bazal temperaturani ulchash (bazal temperatura pasayadi) UTTda tekshirish, xoriogonik gonodotropin testlarini aniqlash asosida kuyiladi. Klinik belgilar bo`yicha diagnozni aniqlab bulmasa ultratovush tekshirish kerak. Kachonki pasient temperaturasi yuqori bulsa, yoki bachadon va bachadon ortiklari soxasida kuchli og`riq yoki peritonit belgilari bulsa, septik abortga gumon qilish kerak.



Uz - uzidan (ixtiyorsiz) abort va tug`ruq sabablarini aniqlash muxim axamiyatga ega. Tulik yigilgan anamnez kerakli ma`lumotlarni berishi mumqin. Ularni doimiy va ginekologik kuchirishlar, shuningdek kompleks klinika - laborator tekshirishlar bilan tuldirish kerak.

Anamnez va kuzdan kechirish yordamida umumiy rivojlanishning orqada kolishi, ichki sekresiya bezlarining ayrim funksional yetishmovchiligi, bachadon bo`yni funksiyasi yetishmovchiligi, boshidan o`tkazgan infeksiyon kasalliklar to`g`risida ma`lumotga ega bo`lishi mumqin. Klinik laborator tekshirishlar natijasida homiladorlikni tuxtatilish sababi sifatida garmonal yetishmovchilikning aniqlash mumqin. Siydikda pregnandiol (sutkalik ekskresiyasi 5 mldan kam) va ekstrogenlar ekskresiyasi davolashni garmonal usullarini kullash uchun asos bo`ladi.

Homilani ona kornida ulishi xollarida estriol ekskresiyasi 10 martaga pasayishi aniqlangan diagnostik test bo`lib xizmat qilishi mumkin.

Davolash.

Homiladorlikni tuta olmaslik bilan kasallangan bemorlarni davolashga kirishishda vrach xamma vakt shuni esdan chikarmasligi kerakki, bu ayollarning kariyb barchasida ruxiy muvozanat buzilgan.

Shuning uchun tibbiyot xodimi suzlari kun xollarda bemor nerv psixik muvozanati normallasuvi uchun tayinlangan dori vositalar kompleksidan kura ko`prok yordam beradi. Bu kategoriyadagi bemorlarga vrach yaxshi muomala bilan birga qo`shimcha ravishda trankvilizator dori vositalari tayinlash axamiyatga molik. Homilani saklashni muxim omillaridan biri bu rejimga rioya qilish.

Davolashni nomedikamentoz usullarimi keng kullash kerak: bular yotok rejimi, fizioterapiya, psixoterapiya, refleksoterapiya.

I-trimestrda homiladorlik uzulish xavfi tugilganda sababidan kat'iy nazar davolash kompleks bo`lishi kerak: 1. Yotok rejim

2. Psixoterapiya, sedativ vositalar: pustrnik nastoykasi (15,0:200.0) 1 osh qoshiq 3 maxal, valeriana otvori (20.0 x 200.0) 1 osh qoshiq 3 maxal, tazepam 0.01 g dan sutkasiga 2 maxal, seduksen 0.005 g 1-2 maxal sutkasiga.

3. Spazmolitik terapiya: no-shpa 0.04 g dan 3 maxal sutkasiga, papaverin bilan shamchalar 0.02 g dan 3-4 maxal sutkasiga, baralgin 2 ml mushak orasiga.

4. Xavf sabablari, garmonal kursatkichlar, KBI miqdori homiladorlik muddatiga bog`liq patogenetik asoslangan terapiya.

Dori vositalar 1 dozasi klinik laborator kursatkichlar nazorati asosida tanlanadi.

5. Nomedikamentoz va fizioterapevtik davolash usullari: iglorefleksoterapiya, endonazal galvanizatsiya, elektroanalgiya.

Tuxumdon gipofunksiyasi genetal infantilizm, bachadon rivojlanish nuksonlari bor ayollarda garmonal davoni homiladorlikni 6 xaftasidan dufaston kichik dozalaridan sutkasiga 10 mg dan boshlash kerak.

XG ekskresiyasi past bulsa xoriogonin 750 - 1000 YeD dan xaftasiga 2 marta mushak orasiga kilinadi. Garmonal preparatlar dozasini organizm garmonal status kursad-kichlariga asoslanib tanlash kerak. Agar KPI yuqori, bachadon bo`yin kanalida shilimshik ko`p miqdorda (korachik fenomeni +++) bulsa ekstrojenlar dozasini kamaytirish yoki gestogenlar (turinal, progesteron, dyufaston) dozasini oshirish kerak.

Bachadon kattalashishi homiladorlik muddatidan orqaga kolganda va qin devori kuruk bo`lganda ekstrojenlar terapiyasini kuchaytirish kerak.

Bu kategoriyadagi bemorlarga garmonal terapiyani 15-16 xaftagacha plasenta rivojlanishi tugallanmagunigacha davom ettirish kerak. Homiladorlik uzulishi belgilari bo`lmaganda, shuningdek garmonal parametrlar normallasganda garmonal terapiyani homiladorlikni bundan erga muddatlarda xam tuxtatish mumkin. Homiladorlikning kechki muddatlarida garmonlar kullash maqsadga muvofik emas.

Buyrak usti bezi genezli giperandrogeniyada glyo`qokartikoidlar (deksamitazon, prednizalon) bilan garmonal terapiya patogenetik asoslangan xisoblanadi. Davolashni homiladorlik bulmasdan oldin boshlash kerak. Garmon dozasini 17-KE ekskresiyasi nazorati ostida individual tanlash kerak. Glyo`qokartikoid terapiya ovulyatsiya normallasuvi va endometriyning sekreter transformatsiyani ta`minlaydi. Deksemetazon kabul qilish fonida ketosteroidlar ekskresiyasi o`rta normativ kursatkichlar atrofida bo`lishi kerak. Homiladorlikda 17-KE ekskresiyasi oshgan xollarda garmon 0.5 mg yoki 0.375 mg (3/4 tab) dozada beriladi. Davolashning analizlar nazorati ostida olib boriladi.


Giperandogeniya klinik belgilari bo`lmaganda 17- KB ekskresiyasi yuqori miqdori bir martalik oshishi, glyo`qokartikoidlar terapiya tayinlash uchun asos bula olmaydi. Kiska muddatda (2-3 kundan keyin) tekshirishni takrorlash kerak va agar siydikda ketostreoidlar miqdori yuqori bulsa, garmonal terapiya tayinlanadi. Buyrak usti bezi giperandrogeniyasi bor bemorlarda tuxumdonlarning gipofunksiyasi, homiladorlikning erta muddatlarida 5-6 xafta deksometazon (prednizalon terapiyasini mikrofollin bilan

birga kullash mumkin qo`shilib kelgan progesteron yetishmovchiligi aniqlanganda turinal sutkasiga 1-2 tabletkadan berish mumkin.

Garmonal terapiya bilan bir vaktida spazmatiklar tayinlash va fetoplasentar yetishmovchilik profilaktikasiga karatilgan davo o`tkazish maqsadga muvofik.

Jadallashgan abort tulik bo`lmagan va tulik abortda homila tuxumi qoldiqlarini va qon laxtalarini instrumental olib tashlash kerak.

ABORT TEXNIKASI



Infeksiyalangan abortda homila tuxumi qoldiqlarini antibakterial terapiya fonida olib tashlash maqsadga muvofik. Septik abortda davolash prinsiplari xuddi tug`ruqdan keyingi septik infeksiyani davolash prinsiplaridek.

Rivojlanmaetgan homiladorlikda I- trimestrda ulgan homila tuxumi instrumental olib tashlanadi. Tugallanmagan abortda uzok kutish asoratlar (DVS, infeksiyalanish) rivojlanishi mumqinligi munosabati bilan maqsadga muvofik emas.

Ektopik homiladorlik

Ektopik homiladorlik – bu bachadondan tashqari, ko`pincha fallopiy naylaridagi homiladorlik. Ektopik homiladorlik kachonki uruglangan zigota bachadoniga yetib kelmasdan boshqa joyda ko`pincha fallopiy naylarining ayrim kismilarida implantatsiya bo`lganda yuzaga keladi.

Ektopik homiladorlik uchun xavfli omillar kuyidagilarni uz ichiga oladi:

- Anamnezida bachadon naylaridagi operatsiyalar shu jumladan bachadon naylarini boglash va yoki ularni boglashdan keyin reanostomoz.
- Kontrasepsiya – BIS
- Anamnezida ilgari xam ektopik homiladorlik bo`lganligi. Dastlab ektopik homiladorlik bachadon ichi homiladorligidan fark kilmaydi.

Bemorda amenoreya bo`lishi mumqin, u uzini homilador deb xis qilishi mumqin va homiladorlikka testlar pozitiv bo`ladi. Leqin keyinchalik homiladorlik naylarining chuzilishi va qon tomirlar eroziyalanishi oqibatida tuxtaydi.

Shu vaktndan boshlab plasenta va sarik tana susaya boshlaydi va garmonlar miqdori tushadi. Shu vaktgacha sarik tana progesteroni yordamida saqlanib turgan desidua endometriyasi suna boradi va qon ketish boshlanadi. Desidua bitta katta bulak shaklida chiqadi.

Plasenta ishlab chiqaradigan XG bu vaktida uzgarmaydi yoki pasayadi. Homiladorlik nay devori orqali va yaqinda joylashgan qon tomirlari orqali invazyialanishi mumqin, qorin ichi qon ketishi kelib chikishi mumqin, yoki qon ketishi profuz kam miqdorda bo`lishi mumqin.

Ektopik homiladorlikning bir necha xil variatsiyalari mavjud. Bularga uz - uzidan regressiya, nay oxirida abort, surunkali gemotoma shakllanishi, xattoki uruglangan tuxum xujayraning boshqa joyga reimplantatsiya natijasida abdominal xomidorlik yuzaga kelishi mumqin.

Belgilari va simptomlari.

Og`riq va vaginal qon ketish ektopik homiladorlikning uziga xos belgilari va simptomlari. Og`riq kariyb universal, asosan qorinni pastki kismida va ko`prok jaroxat joylashgan tomonda. Qon ketishi xam tez-tez kiska amenoreya davridan keyin kelib chiqadi. Vaginal bachadon ortiklarini kattalashganini, og`riqliligini aniqlash mumqin.




Ayrim xollarda bu kartinani normal bachadon homiladorligi yumshok sarik tanasi bilan chalkashtirish mumkin. Qorin ichiga qon kuyo`lishi natijasida gemoperitonit belgilari, shok, gipotenziya belgilari kelib chikishi mumkin.

Diagnostika.

Laborator testlar ahamiyatli bo`lishi mumkin: Nv, Ht pasayishi qon zardobida XG pasayishi bachadondan tashqari homiladorlik tuxtagani, oshishi esa rivojlanuvchi bachadondan tashqari homiladorlikdan dalolat beradi. Diagnostika UZI juda foydali, transvaginal skanerlash transabdominalga nisbatan katta diagnostik ahamiyatga ega. Yana bir diagnostik test -kuldotsintez. Bunda orqa devor punksiya kilinib, punktat xarakteri aniqlanadi. Punktatda Ht kursatkichi 15% dan ko`pligi aktiv intraperitoneal qon ketishidan dalolat beradi.

Diagnostika laparoskopiya oltin standart bo`lib xisoblanadi va ayniksa, qorin ichiga qon ketishga gumon kilinganda muxim ahamiyatga ega va bir vaktning uchida xirurgik korreksiya qilish mumkin.

ORQA GUMBAZ PUNKSIYASI



Davolash.

Xozirgi kunda ektopik homiladorlikda kuyidagi davo rejasida foydalaniladi:

- Kutish
- Medikomentoz
- Abdominal xirurgik
- Laparoskopik

Nay homiladorligi bo`lgan ko`pchilik ayollarda laparoskopik xirurgik eng samarali xisoblanadi.

Kutish yoki medikamentoz davo kuyidagi kriteriyalar bo`yicha saralangan gemodinamik stabil ayollarda qo`llaniladi:

- Og`riqlar va qon ketish minimal
- Pasient kuzatish uchun ishonchli
- Nay yorilishi uchun asosning yo`qligi
- XG miqdori ming YeD/ml bo`lishi yoki uni tushishi
- Ektopik yoki ortik massasi 3 sm dan kichik yoki aniqlanmaydi
- Embrion yurak urishi yo`qligi

Kachonki homiladorlikning aniq lokalizatsiyasining aniqlash iloji bulmasa, kutish taktikasini qo`llaniladi.

Kyuretaj va bachadon bo`yni dilatatsiyasi - bu buzilgan ektopik homiladorlikni tashlashni ajratuvchi yagona testdir. Bu invaziv test kullanilishi mumkin yoki klinik sharoit kancha talab kilsa shuncha kechiktirish mumkin.

Metotreksat - folat kislota antagonisti bilan medikomentoz terapiya to`g`ri ajratilgan pasientlar uchun makbul yuldir.

Pasientlarni ajratish metotreksat terapiyasi samaradorligining muxim elementi.

Ishlatiladigan kriteriyalar yigindisi:

- Stabil xayotiy, belgilar va simptomatologiya darajasi past.
- Metotreksat terapiyaga karshi kursatmalar yo`qligi (normal jigar fermentlari va trombositlar miqdori)
- Buzilmagan ektopik homiladorlik
- Embrion yurak faoliyati yo`qligi
- Ektopik massa 4 sm yoki undan kichik
- XG miqdori 5000 ml YeD/ml dan tushishi

Bir martalik dozalangan mushak orasiga kiritish asosan 1 mg/kg xisobidan xisoblanadi. Zardobda XG ni aniqlash davolashning 4- 7 kunida o`tkaziladi va ksyinchalik xar hafta to uning miqdori 5 ml YeD/ml bulguncha aniqlanadi va 3- 4 haftani uz ichiga olishi mumqin. Zardobda progesteron XG' bilan birga aniqlanadi va uning 1,5 mg/ml gacha pasayishi ijobiy yakun sifatida kabul kilinadi. Va bu 2-3 hafta orasida yuzaga keladi.

E. X. da metotreksat bilan medikamentoz davolashning sxemasi

Davo sutkalari	Davolash va diagnostik tadbirlar
0	Qonning umumiy taxlili, trombositlar, AST, kreatinning, qon guruxi va rezus faktorini aniqlash.
1	Metotreksat 50 mg/m2 mushak orasiga (1 mg/kg)
2-3	Kuzatuv
4	XG
7	XG – agar XG miqdori 4-kundagi miqdoridan 15 % ga kamaygan bulsa, metotreksat usha doza beriladi.
	Agar XG miqdori 15% dan ko`prok kamys, hafta aro analiz o`tkaziladi XG yo`qolguncha (4 hafta). Davo boshlangandan 4 hafta so`ng UTT kaytariladi

Xirurgik davo - uzok yillar davomida ektopik homiladorlikni davolashning asosi bo`lib kelmokda. Uning uzi qonservativ va eksterpativga bulinadi. Qonservativda nay saklab kolinadi, eksterpativda esa nay olib tashlanadi. Buning uzi laparotomiya va laparoskopiya yordamida. kilinadi va pasient, operator tajribasi, maxalliy standartlar va imqoniyatlardan kelib chiqiladi. Xirurgik davo zarurligini kursatuvchi kriteriyalar kuyidagilar:

- Pasient nostabil xayotiy belgilar yoki ichki qon ketish belgilari
- Ishonchsiz nazorat
- Metotreksat terapiyasiga kandaydir karshi kursatma

Xirurgik operatsiya xajmi zararlangan bachadon nayini olib tashlash yoki uni homiladorlikdan xoli kilgandan keyin plastik operatsiya bo`lishi mumqin. Qon ketish xajmi va shokni ogirlik darajasiga karab shokga karshi chora- tadbirlar va tezda OTSK ni tuldirish kerak.

Mavzu: Bachadondan tashqari homiladorlik etiologiyasi va patogenezi, klinikasi, diagnostikasi va differentsial diagnostikasi. Profilaktikasi va reabilitastiyasi.

BACHADONDAN TASHQARI HOMILADORLIK

Uruglangan tuxum hujayra odatda bachadon nayi orqali bachadon bo`shligiga tushib, uning tana qismi shilliq qavatiga o`rnashadi va shu joyda rivojlana boshlaydi. U bachadondan tashqriga payvandlansa, bachadondan tashqari homiladorlik vujudga keladi.

Bachadondan tashqari homiladorlik ayol hayotini xavf ostida qoldiradigan ogir kasallikdir. Homila bachadondan tashqarida uning o`sib rivojlanishi uchun yetarli sharoit yo`qligidan u o`zi o`rnashgan a`zoni yemiradi, qon tomirlari buzilib, ayol qorin bo`shligiga ko`p miqdorda qon oqadi. Oqayotgan qonning shu erda to`planishi esa ayol hayotini xavf ostida qoldiradi, natijada gemorragik shok ro`y berishi ko`pincha zudlik bilan tibbiy yordam ko`rsatishni talab qiladi.

Bachadondan tashqari homiladorlikning asosiy klinik belgilarini umumiy amaliyot shifokorlarining bilib qo'yishlari juda muxim. Chunki ular bunday ogir asorat bilan kasallangan ayollarni o'z vaqtida vrachga yuborib, ularning haytini saqlab qolishga o'z hissalarini qo'shgan bo'ladilar.

Bachadondan tashqari homiladorlik 5-8% hollarda uchraydi. Ayrim vaqtlarda urugangan tuxum hujayra nayga, tuxumdonga(0,1-0,2%), qorin pardasiga(0,2-0,4%), qorin bo'shligidagi turli a'zolarga payvandlanishi mumkin. Bachadondan tashqari homiladorlik ko'pincha bachadon naylarida joylashadi(98-99%).

Homila bachadon nayining har xil joyida: ampulyar, istmik va interstistial (bachadon devoriga kirib turgan) qismlarida joylashishi mumkin. Nayning istmik (o'rta) qismida homila ko'proq (49,6%), ampulyar qismida ozroq (40,3%), interstistial qismida eng kam (9,45%) uchraydi (Gryaznova I.M. 1980)

Ko'pincha bachadon nayining surunkali yalliglanishi naydagi homiladorlikka sabab bo'ladi. Yalliglanish natijasida bachadon nayi devorlarining bir-biriga yopishib qolishidan tashqari, uning bo'shligi torayadi hamda nayning qisqarish qobiliyati sustlashadi. Natijada uruglangan tuxum hujayra bachadonga o'ta olmaydi yoki o'tishga ulgurmay, nay bo'shligiga yopishadi va shu joyda taraqqiy eta boshlaydi. Bunday ayollarning hayot tarzini so'ralganda ular ilgari sun'iy abort qildirgan, o'z-o'zidan bola tashlagan, birlamchi yoki ikkilamchi befarzand, umumiy organizmi yoki jinsiy a'zolari chala rivojlangan (infantilizm) bo'lib chiqadi.

Bachadondan tashqari homiladorlik (gr.extranterina) yoki o'z o'rnida joylashmagan homiladorlik deb, uruglangan tuxumning bachadondan tashqari-homilaning tugilishi uchun tabiiy yo'llardan tashqarida joylashishiga aytiladi.

Tasnifi:

A.Uruglangan tuxumning joylashishiga ko'ra:

- 1.Qorin bo'shligidagi homiladorlik: a) birlamchi ,b) ikkilamchi
- 2.Bachadon nayidagi homiladorlik (gr.extra uter tubarria)
 - a) Interstistial qismida joylashishi (9,15%)
 - b) Istmik qismida joylashishi (49,6%)
 - v) Istmiko-ampulyar qismida joylashishi
 - g) ampulyar qismida joylashishi (40,3%)
 - d) fimbrial qismida joylashishi
- 3.Tuxumdondagi homiladorlik (gr.ovariialis)
4. Bachadondan tashqari homiladorlikning boshqa shakllari:
 - a) bachadon bo'ynida joylashishi
 - b) aralash joylashishi (masalan;tuxumdon -fimbrial qismida joylashishi).
 - v) bachadonning rudimentar shoxlarida joylashishi.
 - g) boylamlar orasida joylashishi.
 - d) bachadon tutqichlarida joylashishi.

B. Bachadon nayidagi homiladorlikning klinik kechishiga ko'ra:

1. Bachadon nayidagi o'sib boruvchi (uzilmagan) homiladorlik
2. Bachadon nayidagi uzilgan homiladorlik:
 - a) bachadon nayining yorilishi.
 - b) naydagi abort.

Etiologiyasi va patogenezi

Fiziologik sharoitda uruglangan tuxum hech qanday to'siqsiz bachadon naylari orqali bachadon bo'shligiga o'tadi. Me'yorda trofoblast tuxum bachadon bo'shligiga tushgandan keyin hosil bo'lishi kerak. (trofoblast tuxumning ma'lum bir joyda o'rtnashib, mahkamlashib olishida asosiy o'rinni egallaydi). Agar trofoblast tuxumning bachadon bo'shligiga tushishidan oldin paydo bo'lsa, bachadondan tashqari homiladorlik kelib chiqadi.

Bachadondan tashqari homiladorlikning eng ko'p uchraydigan shakli naydagi homiladorlikdir. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- 1.Yalliglanish jarayonlari.
- 2.Jinsiy a'zolarining noto'gri rivojlanishi (infantilizm).
- 3.Bachadon naylarining kistalari yoki xavfsiz o'smalari.
- 4.Nay endometriozi.
- 5.Bachadon nayi atrofidagi chandiqli jarayonlar.
- 6.Uruglangan tuxum hujayra migrastiyasi.

Ko'pchilik ayollarda saris tana ektopik homiladorlik joylashishining qarama-qarshi tomonidagi tuxumdonda topiladi.

a) tashqi migrastiyada (masalan, o'ng tuxumdonidan chap bachadon nayiga qorin bo'shligi orqali o'tadi yoki aksincha) blastostista kattalashib ketib nayning ingichka bo'yin oldi qismidan o'ta olmay qoladi.

b) ichki migrastiyada esa uruglangan tuxum hujayra bachadon orqali qarama-qarshi tomondagi nayga o'tadi.

- 7.Haddan tashqari ruhiy zo'riqishlar.

Bunda "tuxumni qabul qilish mexanizmi" buzilib nay muskullarini uzoq vaqt spazmiga va antiperistaltikasiga olib keladi. Natijada tuxumning naydan transportirovka qilinishi sekinlashadi va bachadondan tashqari homiladorlik yuzaga keladi (gormonlar muvozanati buziladi).

Yalliglanish jarayonlari bo'lganda nay shilliq qavatlarini shishib, fibroz va chandiqli o'zgarishlar paydo bo'ladi. Nay ichi torayadi, kiprikchali epiteliya xarakati buziladi. Nay harakati sekinlashib uruglangan tuxum hujayra turib qoladi va shu erda rivojlanadi.

Infantilizm ham naylar ingichka uzun bo'lib, uruglangan tuxum hujayrani o'tkazib bera olmaydi. Neyrogumoral boshqarilish ham buziladi.

Klinik kechishi

Bachadon nayidagi o'sib boruvchi (uzilmagan) homiladorlik.

Erta davrlarida normal homiladorlikka o'xshab ketadi. Anamnezida yalliglanish jarayoni yoki uzoq vaqt bepushlik bo'lgani aniqlanadi. Birinchi haftalarda bachadon homiladorlik muddatiga mos keladi. Keyinchalik esa muddatidan orqada qolib boradi. Bachadon noxsimon shaklda bo'ladi. Bachadon ortiqlari sohasida yumshoq, ogriqli, kolbasasimon shaklda hosila aniqlanadi. U harakatchan bo'ladi. Qin orqali orqa gumbazga kirib bachadon bo'yni bir oz oldinga (qovga) ko'tarilsa, ogriq seziladi. Ayol stasionarga yetkazilib qattiq nazorat qilinadi. Odatda o'suvchi homiladorlik 2-3 oylik muddatida aniq paypaslanadi, bachadon yon tomonida yumshoq uzunchoq hosila aniqlanib, qin yon gumbazlari sohasida pulsatsiya beradi. Hosila kattaligi 4 haftalik muddatda qush tuxumidek kattalikda bo'ladi. Kech muddatlarida qin gumbazlari orqali homila qismlari va uning harakatini aniqlash mumkin. Hozirgi vaqtda UTTda aniqlanadi hamda laparoskopiya orqali aniqlab davolash mumkin.

Nay 4-6 haftaligida, ba'zi paytlari 2-3haftaligida yoriladi. Yorilishiga sabab nay shilliq qavatining distenduvlanishi, bachadonnikiga qaraganda sust bo'ladi, u funktsional va bazal qavatga bo'linmaydi, shilliq osti qavatining ham yo'q, mushak qavatini ham bachadonnikiga qaraganda sust rivojlangan. Shunga ko'ra hujayra trofoblasti va xorion vassinkasi nay devoriga tez o'sib kiradi va uning butunligini buzadi. Agar nay yuqoriga yarim aylanasidan yorilsa, homila tuxumi chiqib erqin qorin bo'shligiga quyiladi. Agar pastki yarim aylanasidan yorilsa, homila tuxumi va gematoma bachadonning keng boylami varaqalari orasida bo'ladi. Nay yorilganda homila tuxumi qorin bo'shligida bo'lsa, "o'tkir qorin" belgilari paydo bo'ladi: anemizatsiya, hushidan ketish, bosh aylanishi, qorinda kuchli og'riq, shok belgilari-qon bosimining pasayishi, holsizlik kuzatiladi.

Agar nay yorilganda bachadonning keng boylamiga qon quyilsa, anemiya, shok, qorindagi og'riq belgilari sust rivojlangan bo'ladi. Yig'ilgan qon (qorin bo'shligiga yoki nay ichida) so'rilib laxta hosil qiladi va bu ichki a'zolarining qorin pardasi, ichaklar, charvi, siydik pufagi bilan qisib qo'yadi, shuning natijasida qorinda og'riq, algomenoreya, bepushlik belgilari paydo bo'ladi. Ba'zan xavfli o'smaga (xorionepitelioma) olib kelishi mumkin.

Asosiy belgilari

Qorin va qov soxasida kuchli og'riq bo'lishi, og'riqning elka, kurak, to'g'ri ichakka berilishi va sovuq ter bosib, hushidan ketishdir. Ob'ektiv ko'rilganda qon bosimi pasayadi, puls tezlashgan, teri va shilliq qavatlari oqaradi. Qorin paypaslanganda og'riqli, qorin mushaklari bir oz taranglashgan, leqin nafas olishda ishtirok etadi, perkussiya qilinganda qorinda erqin suyuqlik bo'lgani uchun to'mtoq tovush eshitiladi.

Qin orqali tekshirilganda bachadon bir oz kattalashgan, yumshoqroq, odatdagidan xarakatchan ("suzuvchi bachadon"), bachadon ortiqlari shishgan, orqa gumbaz bo'rtib chiqqan va paypaslaganda kuchli og'riqli ("Duglas qichqirig'i") bo'ladi. Bachadon bo'ynini oldinga surib ko'rilganda kuchli og'riq seziladi ("Prust belgisi")

Bu belgilardan tashqari, nayning yorilishiga professor A.A. Kogan tomonidan aniqlangan quyidagi 2 ta belgi xarakterlidir:

1. Qalpoqcha belgisi - ayolni bosh tomoni biroz ko'tarilgan xolatda qin orqali tekshirilganda qinga kirgizilgan barmoqlar ustiga orqa gumbaz qalpoqchaga o'xshab kiyilib keladi.

2. To'siq belgisi - qin orqali ikki qo'llab tekshirilganda tashqi va ichki barmoqlar bir-biri bilan tytashadi, barmoqlar tortilganda esa yana shu sohada hosila paydo bo'ladi (bu suyuq qonning harakatlanishidir).

Bachadon nayidagi uzilgan homiladorlikning "nay aborti" turi (41-rasm)

Bunda nayning infundibulyar yoki ampulyar qismida joylashgan tuxum hujayra nay devoridan ko'chadi va nayning qisqarishi natijasida qon quyqalari bilan o'raladi va qorin bo'shlig'iga chiqadi. Nay abortini aniqlash biroz qiyinchilik tug'diradi. Bachadon bo'shlig'idan uning o'ziga o'xshagan to'qima parchasi (slepok matki) chiqsa, tashxis qo'yish biroz engillashadi. Shu sababli bemorni tekshirganda qindan olingan laxtalarni sinchiklab tekshirish lozim. Ko'zdan kechirganda ko'z sklerasining sarg'imtirtusga kirishi ichki qon ketishidan darak beradi. Homila tuxumi asta-sekin ko'chib, kichik bo'laklarni o'z ichiga olsa va ayni vaqtda ko'p qon quyilmasa, nay devori bilan homila tuxumi o'rni orasiga qon to'planadi. Shuning oqibatida ko'pincha nay voronkasi sohasida yallig'lanish jarayoni kelib chiqadi, so'ngra nayning abdominal uchi bitib ketadi. Shu tariqa o'rnidan ko'chgan homila tuxumi endi taraqqiy etolmay nobud bo'ladi. Nayga quyilgan qon bora-bora ivib laxta hosil bo'ladi, bu laxta ivib biriktiruvchi to'qima bilan o'rala boshlaydi, natijada qoplangan qon gematosalpihx va peritubar gematoma vujudga keladi. Nay abortida nayning abdominal teshigi orqali kichik chanoq bo'shlig'iga talaygina qon quyilsa, bu qon Duglas bo'shlig'ida to'planib bachadon orqasidagi qonli o'smani hosil qiladi. Bunday hollarda ichki tekshirish o'tkazilsa, quyidagilar aniqlanadi: qin orqa gumbazi bo'rtgan, bachadon yuqoriga va oldinga surilgan, bachadon orqasidagi o'sma yumshoq qonsistenstiyali, elastik, harakatsiz, yuqorgi chegarasi yopiq bo'ladi.

Qorin pasti perkussiya qilinsa perkutor chegara palpastiyada aniqlanadigan chegaraga mos kelmay, 2-4 sm pastroqda bo'ladi. Buning sababi shuki, bachadon orqasidagi qonli o'sma ustida ichak qovuzloqlari bir-biriga yopishib turadi, bular perkutor timpaniq tovush beradi.

Demak, nay abortiga Malinovskiy belgilari: hayzning kechikishi, qorin pastida bir tomondagi to'lg'oqsimon og'riq, qonli ajralma kelishi xarakterlidir. Bemor qisqa vaqt hushidan ketadi. Qin orqali tekshirganda bachadon yumshoq, biroz kattalashgan, bir tomonlama bachadon ortiqlari sohasida o'smasimon hosila paypaslanadi va gumbazlar orqali qon tomirlar pulsastiyasi aniqlanadi. Bachadonni oldinga va yuqoriga surganda paydo bo'ladigan og'riq nay yorilganiga nisbatan sustroq bo'ladi. Bachadon bo'shlig'idan destidual pardalar chiqib turadi.

Bachadondan tashqari homiladorlikni aniqlash usullari

1. Anamnez (surunkali yallig'lanish jarayonlarining borligi, sun'iy abortlar, tug'ruq asoratlari va h. k.) 90% hollarda anamnez orqali tashxis qo'yish mumkin.

2. Umumiy tekshirish natijalari:

-Hayzning kechikishi.

- Homiladorlik belgilari bo'lishi.
- Qorinda og'riqning bir tomonlama (frenikus belgisi) to'lg'oqsimon bo'lishi,og'riqni qov sohasidan elkaga, kurakka, to'g'ri ichakka o'tishi.
- Hushdan ketish,shok,kollaps belgilari (teri va shilliq qavatlarining oqarib ketishi ,qon bosimining pasayishi ,tomir urishi tezlashishi va h.k)
- Tashqi va ichki qon ketish belgilari (kamqonlik rivojlanishi)
- Qorin pardasining ta'sirlanish belgilari rivojlanishi, qorin paypaslanganda og'riq sezilishi va mushaklari taranglashgan,perkussiya qilinganda qorin bo'shlig'ida erqin qon yig'ilishi sababli perkutor tovushining bo'g'iqlashishi .
- 3. Qin orqali tekshirilganda :
- Qin shilliq qavatlari oqargan ,to'q qoramtir qon bilan qoplangin .Bachadon bo'ynining qin qismi biroz ko'kimtir bo'ladi. Bachadon bo'yni kanalidan destidual to'qimalar bilan aralashgan xolda to'q qoramtir qon kelib turadi(oz miqdorda).Bachadon noksimon shaklda bo'lib, biroz yumshagan bo'ladi.Bachadon bo'yni oldinga surilsa, kuchli og'riq beradi .Bachadon ortiqlari sohasida bir tomonlama shish aniqlanadi. Qin gumbazi bo'rtib chiqqan bo'lib, juda og'riqli .("Duglas qichqirig'i"), qalpoqcha, to'siq belgilarining musbat bo'lishi kuzatiladi.
- 4.Ul'tra tovush orqali tekshirish
- Ko'pincha bachadon nayidagi rivojlanib boruvchi (uzilmagan) homiladorlikni aniqlashda katta yordam beradi.
- 5.Orqa gumbaz punkstiyasi
- 6.Laparoskopiya.
- 7.Endometriyni gistologik tekshirish.

BACHADONDAN TASHQARI HOMILADORLIKNING QIYoSIY TASHXISI

Quyidagi kasalliklardan farqlash lozim:

- 1.Bachadondagi homiladorlikdan bo'ladigan abort (1-tablista).
- 2.O'tkir appendisit (2-tablista).
- 3.Bachadon ortiqlarining yallig'lanishi (3-tablista).
- 4.Tuxumdon apopleksiyasi.
- 5.O'sma oyoqchalarining buralib qolishi.
- 6.O'tkir pelvioperitonit.
- 7.Oshqozon yarasining perforastiyasi.
- 8.Ichak tutilishi.

1-jadval

NAY ABORTI	BACHADON ABORTI	BACHADONDAN TASHQARI HOMILADORLIK	O'TKIR APPENDISIT	NAY yorilishi	BACHADON ORTIQLARINING YALLIG'LANISHI
1. Homiladorlikning buzilishi 4-6 haftalarda yuz beradi. 2. Og'riq	1.8-12 xaftalarda yuzberadi 2. Og'riq to'lg'oqsimon	1.Homiladorlik shish belgisi kam rivojlangan. 2.Qorin	1.Homiladorlik belgilari yo'q ko'ngil aynishi,qusish bo'ladi. Og'riqlar kuchli bo'lmaydi,tana	1. Hayz 3-5 xaftagacha kechiqadi. 2.Homiladorlik subektiv bel	1. Ha yz kechikishi yo'q 2.Homiladorlik belgilari yo'q. 3. ajralma

to'lg'oqsimon bo'lib, bir tomonlama, chov sohasida bo'ladi. Og'riq kuchli boshlanib, shok, kollaps, hushdan ketish va qorin pardaning ta'sirlanish belgilari bilan namoyon bo'ladi. 3. Tashqi qon ketish oz miqdorda, ajralma ranggi to'q qoramtir bo'lib pardalar ajraladi. Ajralma odatda og'riq boshlanganidan keyin ajraladi. 4. Kamqonlik darajasi tashqi qon ketish miqdoriga mos kelmaydi. 5. Destidual parda butun yoki bo'lakchalar holida ajralib chiqadi. Agar ajralib chiqqan to'qima stakandagi suvga solinib yorug'likda ko'rilsa, mayda suzib yuruvchi vorsinkalar ko'rinmaydi. 6. Bachadon noksimon shaklda bo'la-	bo'lib, qorin pastida, dumg'aza sohasida bo'ladi. Og'riq to'lg'oqka o'xshab seqin muntazam boshlanib, keyin kuchaya boradi. 3. Tashqi qon ketish ko'p miqdorda och, qizg'ish rangda, ko'pincha qon laxta-lari bo'ladi, qon og'riqlar boshlanishidan oldin keladi. 4. Mos keladi. 5. Plastentar to'qima ajraladi, vorsinkalari bo'ladi. 6. Bachadon sharsimon shaklda bo'lib, hajmi homiladorlik muddatiga mos keladi. Bachadon bo'ynida abort bo'lsa, bachadon ballon shaklida bo'lib, bachadon tanasi bachadon bo'yniga qalpoq singari kirib turadi. Tashqi	oldi devorining taranglashish belgisi kam rivojlangan. 3. Tana ranggi oqargan, lablari, timoqlari ko'kargan, hushidan ketgan. 4. Qonda ikkilamchi anemiya belgilari ko'riladi. 5. Bachadon kattalashgan, orqa gumbaz bo'rtgan, yon gumbazlari orqali o'smasimon hosila aniq lanadi, kam harakatchan, o'smasimon hosila pastroqda joylashadi 6. EChT uzgarmaydi 7. Orqa gumbaz punkstiya kilinganda suyo'q qon olinadi. 8. Destidual parda kuchadi, ajraladi.	harorati ko'tariladi. 2. O'ng tomonda qorin devorining taranglashi sh belgisi (Q) 3. Shyotqin-Blyumberg, Rovzing belgilari (Q), Frenikus belgisi bo'lmaydi 4. Leykostitoz. 5. Bachadon va ortiqlari normada. Gumbazlar erqin. Infiltrat yuqoriroqda. Qin orqali infiltratni aniqlash qiyin va u bachadon harakatchan harakatchan ligini chegaralab qo'ymaydi. 6. EChT oshadi. 7. Orqa gmbaz punkstiya kilinganda qon olinmaydi. 8. Destidual parda ajralmaydi.	gilari bo'ladi. 3. Og'riq o'tkir boshlanib, bemorhushidan ketadi 4. Frenikus belgisi bo'ladi. 5. Qorin paypaslanganda homila dorlik tomon og'riqli, qorin biroz shishgan va tarnglashgan bo'ladi 6. Bachadon hajmi biroz kattalashadi. 7. Bachadon surib ko'rilganda biroz og'riqli. 8. Bachadon naylari xamirsmon qonsistenstiyali va kattalashgan 9. To'q qizil qonli ajralma bo'ladi 10. Orqa gumbaz punkstiya qilinib, qon olinadi 11. Homiladorlikka immunologik reaksiyalar (Q) bo'ladi 12. qonda biroz lekostitoz, SOE sal oshgan bo'lishi mumkin	bo'lmaydi Og'riq asta-seqin boshlanib, doimiy xarakterga ega bo'ladi, bemor hushidan ketmaydi. 4. Frenikus belgisi bo'lmaydi 5. Qorin taranglashgan, chukur paypaslanganda ikki tomonlama og'riqli 6. Bachadon hajmi o'zgarmagan 7. Bachadon surib ko'rilganda kuchli og'riq beradi 8. Ikki tomonlama bachadon naylari kattalashgan (ko'pincha). 9. Qonli. 10. Punkstiya da orqa gumbazdan seroz suyuqlik olinadi 11. (-) bo'ladi 12. Kuchli lekostitoz, SOE oshgan 13. Umumiy intoksikatsiya belgilari
--	---	---	---	---	---

di, xajmi homiladorlik muddati- ga mos kelmaydi. Bacha don tashqi bo'g'zi yopiq bo'ladi.	bo'g'iz ochiq bo'ladi.			13. Intoksikatsiya belgilari bo'lmaydi 14. Yalliglanish ga qarshi davo naf bermaydi .	bo'ladi. 14. Yalliglanish ga qarshi davo naf beradi.
---	---------------------------	--	--	---	---

TUXUMDON APOPLEKSIYA SIDA-juda kuchli og'riqlar , shok belgisi bo'lmaydi. Bachadondan qon ketishi xam kuzatilmaydi. Tuxumdon apopleksiyasi ovulyatsiya vaqtida yuzaga keladi.

O'SMA OYOQCHARINING BURALIB QOLISHI-asosiy belgisi og'riqdir, leqin hushdan ketish ,shok kuzatilmaydi. Anemiya belgilari bo'lmaydi. Qin orqali tekshirilganda bachadondan aloxida ravishda o'sma aniqlanadi.

O'TKIR PELVIOPERITONIT-bo'nga qarama- qarshi ravishda bachadondan tashqari nay homiladorligida anemiya, subnormal tana xarorati, qorin oldingi devorining nafasda ishtirok etishi , yaqqol bo'lmagan Shetqin-Blyumberg belgisi kuzatiladi.

OSHQOZON YARASI PEROFORASIYA SI-epigastral sohada o'tkir og'riq, anamnezida gastrit, yara kasalligi borligi muxim rol o'ynaydi.

Asosiy o'rinda shok belgilari turadi. Bachadondan tashqari homiladorlikda esa kamqonlik belgilari turadi.

ICHAK TUTILISHI- bachadondan tashqari homiladorlikning o'xshash belgilari: og'riq bo'lishi, meteorizm va qorin devorining rezistentligi, el chiqmasligidir. Ichak tutilishida o'tkir kamqonlik belgilari bo'lmaydi, ich kelmasligi, el chiqmasligi, qusish asosiy o'rin egallaydi. Ichak tutilishida Valdeyer , Spasokukostkiy belgilari (Q3) bo'ladi. Rentgenologik tekshirganda Kloyber kosachalari topilishi ichak tutilishi uchun xosdir.

Davolash.

Asosan operativ davolanadi. Ingalyastion narkoz beriladi va relaksantlar qilinadi yoki spinal anesteziya qo'llaniladi.

Operatsiya quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Qorin bo'shlig'ini ochish (laparotomiya) Pastki o'rta laparotomiya (qovdan qindikkacha uzunasiga) yoki qov ustidan ko'ndalang kesim qilinadi.

2. Homiladorlik tufayli zararlangan nay operatsion jarohat yuzasiga chiqariladi.

3. Zararlangan nay olib tashlanadi (salpingoektomiya) agar tuxumdon xam zararlangan bo'lsa, salpingoovarietomiya qilinadi. Qorin bo'shlig'iga yig'ilgan qon olib tashlanadi.

4. Peritonizatsiya qilinadi (yumaloq boylam bilan) va operatsion jarohat qavatma-qavat tiqiladi.

Bu davolash usuli ko'pincha naydagi uzilgan homiladorlikda qilinadi.

Bachadon nayidagi o'sib boruvchi (uzilmagan) homiladorlikda quyidagi amaliyotlar qilinishi mumkin:

Salpingostomiya – bachadon nayi uzunasiga kesilib, homila tuxumi olib tashlanadi. Leqin homila tuxumi olib tashlangandan keyin salpingostoma yopilmaydi.

--Bachadon naylarining segmentar rezektsiyasi.

Bunda nayning homila tuxumi joylashgan qismi kesib olib tashlanadi va ikkala kesilgan qismi ulanadi (anastomoz). Nay ichida kateter qoldiriladi. Nay o'tkazuvchanligi tekshiriladi. Bu usul ko'pincha ikki marta ektopik homiladorlik o'tkazilayotgan ayollarda qilinadi. Bunday ayol homiladorlikni normal o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi, bola tug'ish funktsiyasi saqlanib qoladi.

-- Tuxum xujayra nayning ampulyar va fimbriya qismida joylansa, ampyatsiya qilinib nay stomplastikasi qilinadi.

--Operativ laparoskopiya orqali ham qisman yoki total salpingoektomiya qilish mumkin. Bu usulning afzalligi shundaki, bemor tezda oldingi xayotiga qaytadi, operatsiya davomiyligi operatsiyadan keyingi davr va stasionarda yotish muddatlari kamayadi.

Ayni vaqtda gemorragik shokka qarshi tezkor choralar ko'riladi. Bemorga plazma, eritrostitar modda va qon o'rnini bosuvchi suyuqliqlar quyiladi

(stabizol, poliglyuqin, jelatinol, kristalloid eritmalar). Antibakterial desensibillovchi (dimedrol, suprastin, tavegil, pipolfen), yallig'lanishga qarshi, umumiy quvvatlantiruvchi muolajalar o'tkaziladi.

Sog'lomlashtirish tadbirlari

Ektopik homiladorlikni o'tkazgan bemorlar dispanser nazoratida bo'ladilar. Operatsiyadan keyin 4-5 kunda nospestifik terapiya: umumiy quvvatlantiruvchi, gemostimullovchi, desensibilizatsiyalovchi, fizioterapevtik muolajalar boshlanadi. 5-6 oy mobaynida 3 ta kurs sog'lomlashtirish muolajalari o'tkaziladi: operatsiyadan keyin 5 kun dikloran 2,0 m/o, elektroforez (kaliy yod bilan) qorin- dumg'aza sohasiga quyiladi Jinsiy a'zoldan qon kelish to'xtagandan keyin (6-kunidan 14-kunigacha) davolash gidrotubastiyasi (ifizollg, 25 mg gidrokortizon, 0,5 % novokain) o'tkaziladi Dori asta- seqin yuboriladi . Gidrotubastiya fizioterapiya bilan birga qo'shib olib boriladi: birinchi davolash kursida kaliy yod bilan elektroforez , ikkinchi kursida dikloran plyus gel, lidaza bilan ultratovush , uchinchi kursida dikloran plyus gel yoki lidaza bilan elektroforez o'tkaziladi.

Keyin ayolga 6 oy mobaynida kontrastepstiya maqsadida sintetik progestinlar buyuriladi sanatoriy kurortlarda davolanish tavsiyaqilinadi

Oldini olish

Ektopik homiladorlikning oldini olish homilaning ona qornida rivojlanishidan tortib uni bolalik va jinsiy etilish davrlarida normal rivojlanishiga ahamiyat berishdan boshlanadi. Bu davrda infantilizmni o'z vaqtida aniqlab, uni davolash imqonini beradi. Abortlarga qarshi kurashish (kasalxonadan tashqarida qilinadigan abortlar) yallig'lanish jarayonlarini va boshqa bachadondan tashqari homiladorlikka olib keluvchi kasalliklarni o'z vaqtida aniqlab, davolash ektopik homiladorlikning oldini olishning eng asosiy sharti hisoblanadi.

Trofoblastik kasallik.

Gestasion trofoblastik kasallik yoki yelbugoz 3 ta asosiy formasi bor:

- Tulik yelbugoz
- Qisman yelbugoz
- Residivlovchi yelbugoz va rivojlanib metastatik xorionepiteliomaga aylanishi mumkin.

Bu homiladorlikning 1-trimestrida qon ketish sababi sifatida kam uchraydi va boshqa sabab tasdiqlanmagan xolda dif. diaqnoz maqsadida kurib chiqiladi. Tulik yelbugoz homila yo'q va plasentar proliferatsiyadan iborat plasenta vorsinkalari shishgan va uzum shingilini eslatadi. Tulik yelbugozlarning ko'pchiligi 46 XX xromasoma tullamiga ega va ota tomonidan o'tadi. Ko'pincha 2 ta faktor trofoblastik kasallikka mmoyillik qiladi:

- Reproktiv xatning oxirida homiladorlik (40 - 45yoshdan yuqori)
- Anamnezida yelbugoz bo'lishi

Klinik namoyon bo'lishi:

- I yoki erta II trimestrlarda vaginal qon ketish. Uzum shingilini eslatuvchi pufakchalar kachonki homiladorlik II trimestrta utganida ajraladi.
- XG miqdori gestatsiya muddatiga mos miqdordan yuqori
- Bachadon gestasion muddatga nisbatan katta
- Tuxtatib bulmaydigan kayt qilish, gipertenziya erga gestasion muddatdagi homiladorlik oqibatida kelib chiqadi.
- Teka-lyutein kislotalari natijasida tuxumdon kattalashishi Diagnostika yuqoridagi belgilarga asoslanadi. Erta diagnostika uchun yuqori gumon kursatkichi bo'lishi kerak. UZI diagnostikaning asosiy standarti

xisoblamadi. Unda bachadon ichida homila yo`qligi va ko`plab pufakli bushliklar kurinadi. Ko`pincha kattalashgan kistoz tuxumdon aniqlanadi.

Davolash.

Bachadon bushligidan yelbugoz elementlarni darhol evakuatsiya qilish va keyin 6 oy davomida XG seriyali monitoringi o`tkazish.

Agar XG uzgarmasa yoki oshsa residivga gumon qilish mumkin va metotreksat bilan ximiya terapiya ni boshlash kerak. Teka-lyutein ovarial kistalar davolashni talab etmaydi va pufak to`qimasni evakuatsiya kilgandan keyin surilib ketadi. Yelbugoz bo`lgan ayollarning taxminan 20% da residiv uchraydi va miometriyga usib kirish yoki agressiv metastatik formalarida bo`lishi mumkin.

Yelbugoznn bartaraf etgandan so`ng bemorlarni olib borish taktikasi.

Yelbugozni bartaraf etgandan so`ng metostazlar invaziv yelbugoz va xorionepitelioma rivojlanishi oldini olish maqsadida stasionar sharoitida profilaktik ximiyaterapiya kursi o`tkazish maqsadga muvofik.

Bu ximiyaterapiyaga kursatmalar:

1. Xorion epiteliy yakkol prolifsratsiyasi va anaplaziyasi
2. Yelbugozni bartaraf etgandan so`ng XG titri progressiv pasayishi kuzatilmaslgi.
3. XGni dinamikada aniqlash uchun imqoniyat bulmasligi: chet joyda yashash tibbiyot muassasi yo`qligi.

Profilaktik ximiyaterapiya maqsadida qo`llaniladi:

1. Metotreksat kurs davo uchun 120 mg intensiv (uzluksiz) yoki uzlukli usulda. Intensiv usulda 20 mg dan xar kun 6 kun davomida, uzluklida 20 ml dan xar 2-3 kunda xammasi 6 marta.
2. Aktimidin «D» vena ichiga 120 mg/kg davo kuni 5 kun.

Bemor 1 ning dispanser nazorati 2 yil davomida olib boriladi. Xar gal bemor kelganda umumiy kuzdan kechirish, genitaliy, sut bezlarini kuzdan kechirish va surgichlardan ajrilmalarni tekshirish, siydikda XG ni aniqlash. Genitaliyni kuzdan kechirganda ajratma xarakterini qin va bachadon bo`yini shillik qavati rangiga, bachadon bo`yini va tanasi qonsistensiyasiga, bachadon va tuxumdonlar ulchamiga e`tibor berish kerak. Dispanser nazoratidagi bemorlarni tekshirish muddati yelbugozni bartaraf etgandan so`ng 2, 4, 6, 8, 12 haftalar, so`ng 1 yil davomida oyiga bir marta, keyin esa 3 oyda bir marta.

Elbugozdan keyin kelib chikishi mumkin bo`lgan xorionepitelioma simptomlari.

1. XG ga musbat reaksiyalarning uzok persistensiyasi yoki bundan xam yomon manfiy reaksiyalardan so`ng yana kayta musbat reaksiya kelib chikishi.
2. Kirishdan keyin davom etadigan yoki bir muddat tanaffusidan keyin kelib chiqadigan xar xil intensivlikdagi oketishlar.
3. Bachadon subinvalyusiyasi.
4. Yelbugoz baptapaf etilgandan so`ng embrion elementlari saqlanib kolishi va lyutein kistalari rivojlanishi.

Rivojlanayotgan xorionepnteliomaga gumon kilinganda:

1. XG miqdorini aniqlash.
2. Metastazlarni aniqlash maqsadida kukrak kafasi rentgenografiyasi.
3. Bachadon bushligini diagnostik kirish va olingan to`qimani gistologik tekshirish. Xorionepitelioma gistologik inkor kilinganda, leqin musbat reaksiyada ularni xar 10-15 kunda takrorlash kerak.

Musbat natijalar olinganda yoki XG titri oshganda - laparotomiya, chunki bunday xollarda xorionepiteliomani interstisial yoki subseroz lokalizatsiyasini inkor kilib bulmaydi.

Dispanser nazorati davomida bemorlarga homiladorlikdan saklanish tavsiya etiladi. Shu davr mobaynida homiladorlik yuzaga kelsa, kaynatilgan siydik, bilan XG ga reaksiya, kukrak kafasi rentgenografiyasi, bachadon ulchamlarini homiladorlik muddatiga mos kelishini kuzatish o`tkazilishi kerak. Tug`ruqda qon ketish profilaktikasi kayta qisman yelbugozni inkor qilish uchun kuzdan kechirish, tug`ruq yaxshi utganda dispanser bemorlar nazoratdan olinadi.

Kasallik prognozi.

Yelbugozni bartaraf etgandan so'ng kuyidagi klinik belgilar prognostik ahamiyatga ega:

- Kasallik davomiyligi oxirgi normal menstruatsiya, bachadon ulchamlari, qonli ajralmalar paydo bo'lishi, XG miqdoridan aniqlanadi.
- Prognozlash uchun muxim ahamiyatga ega test-immunologik reaksiyalar
- dinitroxlорbenzol bilan proba va rozetka hosil bo'lish reaksiyasi xisoblanadi.

Adabiyotlarda bemor va turmush urtogi qon guruxi A-0 va 0-A bulsa yomon oqibatga olib keladi degan fikrlar bor.

Elbugozda ulim 10%-12% ulim qon ketishdan, septik asoratlardan va xorion epiteliomadan yuzaga kelada.

Amaliy mashg'ulot №5

Ayollar jinsiy a'zolari spеsifik va nospеsifik yallig'lanish kasalliklari.

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -5soat	Talabalar soni: 18
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Reja	jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar ginekologiyada dolzarb muammolardan bo'lib hisoblanadi. Ularni zamonaviy tashhislash va davolash, juftliklarni sog'lomlashtirish va homiladorlik, tug'ruq asoratlarning oldini olishga imqon beradi.
Mavzuning maqsadi: Havfli omillarni ishlab chiqishni bilish, o'z vaqtida tashhislash, tekshirish usullari hamda jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarni Jahon sog'liqni saqlash tashqilotining tasnifiga muvofiq kasalliklar, ularning belgilari, kelib chiqish sabablari, yuqish yo'llari, zamonaviy aniqlash va davolash usullari, oldini olish chora-tadbirlari oldini olish bo'yicha tadbirlarni o'tkazishni, juftliklarda fertillikni aniqlashning oson va qulay usullarini qo'llashga o'rgatish. Mutaxassislikga qiziqish, insonparvarlik, ma'suliyat hissiyotlarini shakllantirish; O'z bilim darajasini kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash talabalarni fikrlash qobiliyatini, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish; Mavzuni o'rganish borasida talabalarni ijodiy yondoshishga yo'llash	
Mavzuning vazifasi -; Ayollarda fertillik buzulishiga olib keladigan asosiy etiologik omillarni ishlab chiqish; ayollar va erkaklar infeksiyasining turli shakllarida klinik belgilari va laborator analizlarni taxlil qilish bo'yicha bilimlarni shakllantirish; ularni tashhislash uchun zamonaviy tekshirish usullarini qo'llash, juftliklarni o'z vaqtida mutaxassislashgan markaz va maslaxatxonalarga yo'llash tamoyillari bo'yicha bilimlarni ishlab chiqish; juftliklarni davolashda zamonaviy davolash usullaridan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarni ishlab chiqish; ayollar va erkaklar infeksiyalarni kelib chiqishning oldini olish tadbirlarini muxokama qilish.	
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali, ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	kompyuter, multimedia, slaydlar, mavzuga oid bemorlar va boshqalar

Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

1.2. amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	13. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi. 14. Talabalarni mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi 15. Davomatni nazorat qiladi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Fanni o'rganishda faoydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalaniladi. 3. Slaydlar, multimediyalardan foydalaniladi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi. 2. Mustaqil ish beradi. 3. Uyga vazifa beradi.	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

Talabalar egallashi zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar

- ayollar va erkaklar jinsiy a'zolar anatomiyasi va fiziologiyasi:
jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarni omillarini,
klinik belgilarini, tashhislash usullari,
davolash tamoyillari, samarani baholash mezonlari,
oqibati va extimolli asoratlari, oldin olish yo'llari.
- ✓ jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarni havfli guruhlarini aniqlash va ularda profilaktik chora tadbirlarni olib borishi kerak;
 - ✓ Shikoyatlari, analizi, umumiy klinik va ginekologik tekshirish asosida fertillik bu'zilishining tahminiy tashhisini qo'yish;
 - ✓ jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarni turli shakllari o'rtasida taqqoslama tashhis o'tkazish

«Stol ustida ruchka» o'yini.

1. Assistent o'tilgan mavzu yuzasidan savol tuzadi (o'rtacha har bir talabaga 2-3 tadan).
2. Talabalar stol atrofida yig'iladi.
3. Stol o'rtasida ruchka qo'yiladi va soat strelkasi bo'yicha aylantiriladi.
4. Ruchka qaysi talabaga kelib to'xtasa, assistent o'sha talabaga savol beradi.
5. Savolga javob bergan talaba yana ruchkani aylantiradi va savollar tugagunicha o'yin davom ettiriladi.

MAVZU BAYONI
JINSIY YO'L ORQALI YUQADIGAN KASALLIKLAR
(JYOYO`Q)

Ilgari tanosil kasalliklari deb nomlanuvchi atama yaqindan boshlab jinsiy uo'l orqali yuqadigan kasalliklar (JYOYO`q) deb ataladigan bo'ldi

JYOYO`Q guruhiga asosan jinsiy aloqa vositasida o'tadigan: yuqumli kasalliklar kiradi. Hozirgi paytda yuqumli kasalliklar orasida JYOYO`q juda keng tarqalgan bo'lib, ko'pgina mamlakatlarda ijtimoiy muammolar keltirib chiqarmoqda. Ilgarilar tanosil kasalliklariga; asosan 5 ta yuqumli kasalliklar ya'ni, so'zak, zaxm, shankroid, tanosil limfogranulyomasi va qov granulyomasi kiritilgan bo'lsa, ularning soni hozirgi kunda; Jahon - Sog'liqni saqlash tashqiloti tasnifiga ko'ra 20 dan oshib ketdi. Ular qatoriga OITS, trixomoniaz, xlamidioz va boshqa ko'plab kasalliklar ham qo'shildi.

Jahon sog'liqni saqlash tashqilotining tasnifiga muvofiq JYOYO`q ga quyidagilar kiradi:

Bakterial vaginoz

Kandidoz

Trixomoniaz

Gepatit V

Genital herpes

Zaxm

So'zak

Chov granulyomasi

Ichak infeksiyalari

Tanosil limfogranulyomasi

Qov biti

Qontagioz mollusk

Gonokokksiz uretrit

O'tkir uretral sindrom uoki sistit

Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi. (OITS)

Intraepitelial servikal neoplaziya

Urogenital xlamidioz

Sitomegalovirus infeksiyalari

Qo'tir

Shankroid

Kichik chanoq a'zolarining yallig'lanish kasalliklari

Kasallik keltirib chiqaruvchi etiologik omillarga asosan viruslar, bakteriyalar, sodda mikroorganizmlar, parazitlar kiradi.

JYOYO`qning dastlabki ko'zga tashlanadigan belgilaridan erkaklarda uretrit, ayollarda servitsit, vaginit, jinsiy a'zoldagi yaralar, o'tkir uchli qondilomalar, immun xususiyatning pasayishi va boshqalar.

Ikkilamchi belgilariga epididimit, chanoq a'zolari yallig'lanish kasalliklari (CHAYAK), o'tkir uretritlar kiradi. Ko'pchilik hollarda JYOYO`qni bir xil mikroorganizm chaqirishi mumkin, ba'zan esa bir necha qo'zg'atuvchilar chaqirgan holatlar ham uchraydi.

Jahonning turli mamlakatlarida JYOYO`Qni keltirib chiqaruvchi etiologik omillar ularning turli mintaqada turlicha virulentligiga (kasallik chaqirish qobiliyatiga) qarab har xil bo'lishi mumkin. Masalan: G'arb mamlakatlarida ko'proq sodda viruslar keltirib chiqaradigan jinsiy a'zolar yaralari, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa OITS, xlamidioz kabi kasalliklar ko'p uchraydi.

Markaziy Osiyo mintaqasida vaginozlar, servitsitlar va bachadon bo'yni intraepitelial neoplaziyasi (eroziyasi) jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarning xarakterli xillari bo'lib hisoblanadi, ularning kelib chiqishida bir necha mikrob shtammlari o'rin to'tadi.

Keyingi vaqtlarda JYOYO`Qning oldini olish va samarali davolashdagi qiyinchiliklarga antibiotiklar ta'siriga chidamli bo'lib qolgan mikroorganizm shtammlarining ko'payib borishi sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari 5 xil kasalliklarga qarshi emlovchi zardoblar ishlab chiqilmaganligi, kasallikni o'z vaqtida aniqlab, davolash uchun meditsina xodimlarining malakalari ham unchalik yetarli emasligi kasallikning tezlik bilan tarqalib ketishiga sabab bo'lmoqda.

JYOYO`Qlar o'zidan keyin jiddiy asoratlar qoldirishi bilan ham xavflidir. Bunday asoratlardan kichik chanoq a'zolarining yallig'lanishi, bachadon naylarining ikki tomonlama o'tkazuvchanligining buzilishi, bachadondan tashqari homiladorlik, bepushtlik, zaxmda tug'ma asoratlar, kasallikni boshqa juftlarga yuqtirish kabilar.

JYOYO`Q ning epidemiologiyasi.

JYOYO`Qlar xavfi yuqori bo'lgan guruhga 25 yoshgacha bo'lganlar, shaharda hamda noqulay ijtimoiy-iqtisodiy muhitda yashovchi shaxslar kiradi. Bundan tashqari boshqa guruhga uzoq borish qiyin bo'lgan qishloq va tumanlarda meditsina xizmati va muhofaza ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan mintaqada yashovchi shaxslar, ko'chmanchi kabilalar, emigrantlar kiradi.

JYOYO`Qni aniqlash (diagnostikasi)ning muhim jihatlari.

JSST tomonidan bu kasalliklarni tekshirib, diagnozini aniqlash va davolash-profilaktik ishlar yuzasidan maxsus protokol tavsiya etilgan. Sho`nga ko'ra dastlabki diagnostik, profilaktik tadbirlar sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inlarida (qishloq va shahar vrachlik punktlari, poliklinikalar)da amalga oshirilishi lozim. Buning uchun oddiy usul bilan uretra va qin ajralmalarini fiziologik eritmaga aralashtirib, hamda ikkinchi usul shunday ajralmalardan surtma tayyorlab gramm usulida bo'yab mikroskopiya qilish.

Oddiy mikroskop yordamida trixomoniaz. kandidoz va bakterial vaginoz chaqiruvchi mikroorganizmlarini aniqlash mumkin. So'zak, xlamidioz, zaxm kasalliklariga tekshirish uchun maxsus jihozlangan laboratoriya sharoiti yaratilishi kerak, bu tekshirish usullarini qishloq sharoitida amalga oshirish imqoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun laboratoriya tekshirishini o'tkazish imqoniyati cheklangan muassasalarda har bir bemorni klinik jihatdan tekshirib chiqishga to'g'ri keladi.

Kasallikning dastlabki simptomlariga qarab diagnozni aniqlash mumkin bo'ladi. Leqin bunda bir nechta jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarning simptomlari bir-biriga o'xshashligi, kasallikni bir nechta mikroorganizmlar (qo'zg'atuvchilar) chaqirishi mumqinligi inobatga olinishi lozim. Bu haqida kasalliklarga alohida ta'rif berilganda tanishasiz.

Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarni samarali tekshirish va davolash uchun kasallik xavfi yuqori bo'lgan guruhga tegishli shaxslarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shuning bilan birgalikda JYOYO`qni mazkur mintaqada qaysi turi ko'proq uchrashi, bu haqida tegishli davolash-profilaktik muassasalaridan yetarlicha statistik ma'lumotlarga ega bo'lishning ham ahamiyati kattadir. Barcha aholini bir yo'la tekshirish iloji bo'lmaganligi sababli tibbiyot muassasalariga (urolog, akusher-ginekolog, dermato-venerolog va xokazo) murojaat yetuvchi aholi qatlamini JYOYO`qlarga tekshirish salmoqli diagnostik imqoniyat yaratadi.

Buning uchun tibbiyot xodimlari quyidagilarni bilishlari kerak:

- qanday hatti harakatlar inson uchun xatarli bo'lishi mumqinligini;
- JYOYO`Q ning simptomlarini;
- aholi yashash joylarida JYOYO`Qning qaysi turi ko'proq uchrayotganligi haqida ma'lumotni;
- JYOYO`Q bor deb gumon qilingan kishini atroflicha tekshirib ko'rish va o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra o'nga baho bera olish;
- JYOYO`qni aniqlashda jinsiy juftlar bilan (ayniqsa xotin-qizlar) bilan suhbatlar uyushtirib, kerak bo'lsa anonim so'rovlar o'tkazib quyidagi diagnostik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plash shifokorlar ishini bir muncha yengillashtiradi.

Sizda qindan ajralmalar kelib turadigan vaqt bo'ladimi?

So'nggi yillar mobaynida jinsiy jihatdan qandaydir o'zgarish, jinsiy a'zolarida yara, terisi zararlangan hollar kuzatilganmi?

Jinsiy juftingiz keyingi 3 oy davomida jinsiy a'zolar kasalligi, siydik yo'llaridan ajralma kelishi yoki qovdagi bezlarning shishganligi sababli davolanganmi? Davolangan bo'lsa qanday kasallik yuzasidan davolangan?

Juftingiz boshqalar bilan jinsiy aloqa qilishi mumkinmi?

Kasbingiz (haydovchilik, harbiy xizmatda bo'lish) JYOYO`Q sizda yoki juftingizga paydo bo'lish xavfini tug'diradimi?

O'zingizda JYOYO`Q bor deb gumonsiraysizmi? Mijozlar bu savollarga to'g'ri javob qaytarsalar tibbiyot xodimlari tomonidan kasallikni aniqlashga yaqindan yordam beradi.

Tibbiyot xodimlari mijozlarga maslahat berishda JYOYO`qdan to'la davolanmasa yoki tibbiy yordamga o'z vaqtida murojaat qilmasa bu kasalliklar inson salomatligi uchun jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumqinligiga e'tiborni qaratishlari lozim. JYOYO`q ning oqibati quyidagi asoratlarga olib kelishi mumqin.

Kichik chanoq a'zolarining yallig'lanishi tufayli bachadondan tashqari homiladorlikka;

Bachadon bo'yni raqining rivojlanishiga (bachadon bo'yni eroziyasi);

Jinsiy a'zolaridan surunkali ajralmalar kelib turishiga (xlamidioz, urogenital infeksiyalar bo'lganda);

Kichik chanoq sohasida-surunkali, ayollarni muntazam ravishda qiynab turadigan og'riqlar paydo bolishi;

Hayz siklida o'zgarishlar bo'lishi (og'riqli hayz, gipermenstrual sindrom);

Bepushtlik. So'zakdan davolangan 20-30% erkaklar va yallig'lanishdan davolanmagan 55-85% ayollar bepusht bo'lib qoladilar;

JYOYO`Qning ko'payishi OITS xavfini kuchaytiradi. Bundan tashqari jinsiy a'zolar infeksiyasi homilador ayollarda homiladorlik patologiyasi ro'y berishiga olib kelishi mumqin (homilaning o'z-o'zidan tushishi, muddatidan oldin tug'ish, homila infeksiyasi). Bunday ayollardan tug'ilgan chaqaloqlar ko'pincha toksik-septik kasalliklarga moyil bo'ladi (pnevmoniya, sepsis), markaziy asab tizimining, ko'zning zararlanishi kabi illatlarga duchor bo'lishi kuzatiladi. Shu sababli tibbiy xodimlar kasalliklarni har qanday sharoitda (uzoq qishloqlarda, davolash muassasalarining birlamchi zvenolarida), ayniqsa kasallikning aholi o'rtasida keng tarqalgan turlarini o'z vaqtida aniqlashi davolash chora-tadbirlarini ko'rsatishlari lozimligini e'tiborga olib JYOYO`qning ko'r uchraydigan turlari haqida atroflicha ma'lumot beriladi.

Bakterial vaginoz

Klinikasi - qindan ko'p miqdorda baliq hidiga o'xshash badbo'y hidli ajralma keladi.

Yuqish yili-jinsiy yo'ldan tashqari qontakt yo'li bilan, ichki kiyim-kechak, parvarishlash jismlari orqali ham yuqishi mumqin.

Diagnostikasi - qindan, siydik kanalidan surtma olib, gramm usulida bo'yab, mikroskopiya qilinganda ko'rish maydonida ko'plab qin epiteliyalarining bakteriyalar qurshovida bo'lishi, qinda ishqorli muhit bo'lishi va ajralmadan baliq hidi kelib turishi bakterial vaginozdan dalolat beradi.

Davolash - Metranidazol (ornifloks, orgil, ornidazol) tabletkalarini 7 kun davomida 400-500 mg 2 mahal ichiladi. **Klamok 1000mg** yoki Ampitsillin sulbaktam 1,5 g dan 4 mahal ichiladi.

Kasallik homiladorlik davriga to'g'ri kelsa, **Azit (Azitromicin)** antibiotikdan 250 mg dan kuniga 2 marta 7 kun davomida ichiladi.

mahalliy davo- **Cloneks** cremi surtishga 2 maxal, **Bioselak saps**-6 kun yoki **Uaginorm-C-10** kun vaginal qo'yiladi.

Kandidoz (Achtqi infeksiyasi)

Klinikasi - ayollarda qindan suzmasimon oq rangli ajralma kelishi, qin yoki tashqi jinsiy a'zolarining qichishi, erkaklarda esa qichishadigan balanopastit bo'lishi.

Yuqish yo'li - xuddi bakterial vaginoz singari.

Diagnostikasi - kasallik simptomlariga asoslanadi hamda qindan surtma olib, tuzli eritma tomizilib, mikroskop ostida ko'rilganda achitqi zamburug'larini ko'rish mumkin.

Davolash - ayollarda mahalliy davo qilinadi. Zamburug'larga qarshi **Flyudar**-100 ml 1 maxal venaga, yoki Flukanazol-100ml, Micosist 100ml yoki Futsis100ml 1 kun; Rofluzol-100mg 2 hafta davomida tibbiy birlikdagi tabletkadan har kuni kechqurun ichish, 7 kun davomida qinga **kloneks** mazidan tampon qo'yish va **mikotran** shamchalari, **poliginaks** -6 kun qo'yiladi.

Eraklarda kandidozli balanit bo'lganda kasal joyga gentsian violet eritmasi yoki **kloneks** ,Futsis kremi surtib, kasallik belgilari yo'qolguncha davolanadi.

Oxirgi etapda yana mahalliy davo- **Bioselak saps**-6 kun yoki Uaginorm-C-10 kun vaginal qo'yiladi.

Trixomoniaz

Kasallikni xivchinlilar sinfiga kiruvchi, sodda mikroorganizm-qin trixomanadalari chaqiradi. Kasallik jinsiy aloqa yo'li bilan yuqadi.

Klinikasi - kasallikning xususiyatlaridan, uning simptomlari hamisha ham yorqin ko'zga tashlanavermaydi.

O'tkir trixomonizda ayollarda qindan ko'piksimon, yashil tusli, badbo'y hidli suyuq ajralma keladi. Qinda va vulvada qattiq qichish bo'lishi mumkin. Ob'ektiv tekshirib ko'rilganda qin shilliq pardasi giperemiyasi, shishi, qinda trixomoniaz to'grisida xulosa qilishga undaydi.

Eraklarda uretradan ajralma kelishi va qichishi kuzatiladi.

Diagnostikasi - kasallikning belgilariga qarab, hamda qindan kelayotgan ajralmadan tirik tomchi, ya'ni ajralma ustiga fiziologik eritma qo'shilib, undan bir tomchi olinadi, jism oynachasiga tomizilib, qoplagich oynacha yopilib, mikroskop tagida qo'yilganda harakatlanib yurgan xivchinlari, dumi va yadrosi bo'lgan trixomonoslar topilishi trixomoniaz kasalligi ekanligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari qin ajralmasini jism oynachasiga yupqa qilib surib, surtma tayyorlanadi va metilin ko'ki yoki gemotoksilin - iozin bilan bo'yab, keyin mikroskopda ko'rilsa trixomonos topilishi mumkin. Eng ishonchli usul ozuqa muhitga qindan olingan ajralma eqiladi va uning kulturasi o'stiriladi, agarda ozuqa muhitida trixomonos o'sib chiqsa, shubhasiz trixomoniaz ekanligi ma'lum bo'ladi.

Eraklarda ham uretraning ajralmasi olib tekshiriladi. Ba'zan siydikni sentrifuga qilib, undagi cho'kmadan mikroskopda tekshirib ko'rilganda ham trixomonos topilishi mumkin, bu esa trixomoniaz kasalligi haqida dalolat beradi.

Ushbu kasallik diagnostikasida imqon qadar er va xotin bir vaqtda tekshirilsa yaxshi diagnostik samara beradi.

Davosi - trixomoniaz bilan kasallangan bemorlar 1 kun davomida kuniga 2 mahal 500 mg dan metranidazol (ornifloks, tinidazol) tabletkasidan, **Balgil** 100 ml 1 maxal, **Siproksin-500mg** 2 maxal, **Floksan** 400 mg 1maxal, ichishni va bir vaqtning o'zida qinga ham shamchalar qo'yishi yaxshi davolovchi samara beradi.

Maxalliy –**micotran**-1200mg 1 marta vaginal 1 kun, song **poliginaks**-6 kun **bioselac**-6 vaginal qo'yiladi.

Odatda davolash kursi 14 kundan keyin takrorlanishi maqsadga muvofiqdir.

Er va xotinni birgalikda davolansa yaxshi davolash natijasiga erishish mumkin.

So'zak

Kasallikni gramm manfiy, Neyser diplokokki-gonokokklar chaqiradi.

Tarqalishi. So'zak JYOYO`Qning keng tarqalgan turi hisoblanadi. Ba'zi bir xil taraqqiy etayotgan mamlakatlar aholisining 20% gacha so'zak bilan kasallanganligi sir emas. Hattoki Afrika mamlakatlarida tug'ilyotgan chaqaloqlarning 2-4% da tug'ma oftalmoblenoreya kasalligi uchraydi.

Klinikasi. Ayollarda kasallik endigina boshlanib kelayotganida 70% hollarda klinik alomatlar ko'zga tashlanmasligi, yashirin avj olib boraverishi mumkin. O'nga xos bolgan xususiyatlardan qindan yiringli ajralmalar kelishi, siyish paytida og'riq va achishish (dizuriya) paydo bo'lishi; uretrit belgilari bilan boshlanadi. So'zakning o'tkir darajasida bemorlarni dizuriya qattiq bezovta qilishi, qindan yiringli ajralma ko'plab kelishi, jinsiy a'zolarida og'riq bo'lishi kuzatiladi, hatto tana harorati ko'tarilishi mumkin. Kasallik vaqtida aniqlanib, davolanmasa kichik chanoq a'zolarining yallig'lanishiga-endometrit, salpingit, salpingooforit, pelvioperitonit kabi kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin. Natijada ichki jinsiy a'zolarida bitishmalar paydo bo'lishiga olib keladi va oqibatda ayollar bepusht bo'lib qolishi mumkin.

Erkklarda so'zak yuqqandan keyin dastlabki 12-72 soat davomida birdan boshlanadi. Asosiy belgilari dizuriya va uretradan yiringli ajralma kelishi. Tanosil a'zolarida og'riq paydo bo'lishi bilan karakterlidir. Vaqtida davolanmasa, kasallik asorat berib, epididimit, uretra absessi va uning o'rnida keyinchalik chandiq hosil bo'lib, bitib qolishi (striktura) va oxir oqibatda erkaklar bepusht bo'lib qolishi mumkin.

Diagnostikasi. Ayollarda qin, bachadon bo'yni kanali, uretra va to'g'ri ichakdan (erkaklarda uretradan) surtma olib, uni maxsus laboratoriyada bakterioskopiya (mikroskopda ko'rish) yoki ajralmani maxsus ozuqali muhitga ekilib, unda gonokokklarni o'stirish bakteriologik yo'l bilan kasallik qo'zg'atuvchisi aniqlanadi.

Bakterioskopiya har hujayra ichida loviya shaklidagi, bir biriga qarab ikkitadan joylashgan diplokokklarni ko'rish mumkin. Bu esa kasallikning aniq diagnostik asosi hisoblanadi.

Surunkali so'zakni poliklinika, xotin-qizlar maslahatxonalari sharoitida maxsus provakatsiya (sun'iy ravishda kasallik xurujini chaqarish)-biologik, fiziologik, kimyoviy, termik usullar yordamida kasallikni aniqlash mumkin. Bu haqida ginekologiya kitobida yetarlicha ma'lumot berilgan.

Davolash. O'tkir so'zakni davolashda 500 mg miqdorda **siproksin**, 2 maxal ichiladi. Bundan tashqari mukammalroq davolash uchun 80 mg trimetoprim 400 mg sulfametoksazil (Biseptol 480, Septrim, Bakrim, Oripim), 3 kun davomida 10 tabletka ichiladi. 1000 mg seftriakson (rotsefin, suprasef); 2 gr spyoktinomitsin yoki 2 gr kanamitsin muskul orasiga in'eksiya qilinadi.

Kasallikni davolashda albatta er-xotin jinsiy juftlar birgalikda davolanadi. Ularning davolanganlik kriteriyalari aniqlangandan keyingina nazoratdan chiqariladi.

Xlamidioz

Xlamidioz cheamydia trachomatis nomli odam mikoplazmasi chaqiradi.

Kasallik jinsiy aloqa yo'li bilan yuqadi.

Klinikasi - hamisha ham aniq simptomlari ko'zga tashlanavermaydi, ayniqsa jinsiy aloqa yo'li bilan ichki jinsiy a'zolariga o'tsa kasallik belgilari ma'lum bo'lmasligi mumkin. Unday bemorlar faqat ginekologik tekshiruv vaqtida bachadon, bachadon bo'yni kanalidan yiring aralash ajralma kelishi va bachadon bo'yni salga qonaydigan bo'lib qolishi xlamidioz to'g'risida o'ylashga majbur qiladi.

Erkklarda xlamidiya infeksiyasi 50% hollarda gonokokksiz uretritlarga sabab bo'ladi.

Ularda dizuriya, tez-tez siyish, siydik yo'llaridan shilimshiq-yiringli ajralma keladi. Ayollarda kasallik belgilari servitsit, endometrit yoki vaginit (kolpit) kabi jinsiy yo'llardan shilimshiq-yiringli ajralma kelishi, og'riqli bo'lishi, achishish kabi alomatlar seziladi.

Diagnostikasi - xlamidioz ko'pincha jinsiy a'zolar yallig'lanish kasalliklarini, so'zakni aniqlash maqsadida bakteriologik tekshirishlar o'tkazilganda xlamidiyalar topilishiga qarab aniqlanadi. Odatda qindan, bachadon bo'yni kanalidan, bachadondan yiringli chiqindilar kelganda albatta xlamidiozga ham surtma olib

o'stirish, kasallikning diagnostikasi va uning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Mikroskopiyada, bakteriologik tekshirishda cheamydia trachomatis topilishi kasallikning aniq diagnostikasi hisoblanadi.

Davolash - 7 kun davomida kuniga 2 marta 100 mg doksilan ichiladi, umumiy dozasi 2 g ga yetishi kerak, Tetratsiklin 500 mg dan 4 marta 7 kun davomida ichiladi yoki eritromitsin 500 mg dan 4 marta 7 kun davomida, sulfafurazol 500 mg dan 4 marta 10 kun, **Azimitsin** 250mg 4 marta 7 kun davomida ichiladi.

Maxalliy –vagimilt № 6 1 marta vaginal 6 kun, song bioselac-6 vaginal qo'yiladi.

Odatda davolash kursi 14 kundan keyin takrorlanishi maqsadga muvofiqdir.

Er va xotinni birgalikda davolansa yaxshi davolash natijasiga erishish mumkin.

Genital herpes

Genital herpesni qo'zg'atuvchi-oddiy herpes virusi bo'lib, virus tarkibida DNK si bo'ladi. Viruslar ikki turga bo'linadi. Birinchi turi asosan lab, ko'z, burun kabi a'zolarining teri va shilliq pardalarini zararlaydi. Ikkinchi tur herpes viruslari jinsiy a'zolarida kasallik chaqiradi.

Klinikasi - herpesning mahalliy belgilari jinsiy a'zolarida (qin, bachadon bo'yni) uretra va oraliqda ko'zga tashlanadi. Ular alohida-alohida yoki ko'plab qichishadigan pufakchalar hosil bo'lishi, zararlangan joyning qizarishi, shilliq pardalarning shishishi bilan harakterlanadi. Keyinchalik pufakchalar yoriladi, ular o'rnida og'riqli yaralar paydo bo'ladi, yaralar 2-4 haftada chandiqlik hosil qilmasdan bitib ketishi mumkin. Ba'zan u joyga ikkilamchi infeksiya tushishi oqibatida uzoq muddat bitmaydigan chandiqlar hosil qiladigan yaralar paydo bo'lishi mumkin. (**RASM-1**)

Diagnostikasi - agarda herpesga xos klinik belgilar rivojlansa diagnostikasi unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Anamnezi, shikoyati va ob'ektiv tekshirish natijalariga qarab diagnozi aniqlanadi. Aniq diagnostikasi bakteriologik tekshiruv natijasida herpes chaqiruvchi virus topilishiga asoslanadi.

Davolash - 7 kun davomida kuniga 5 marta 200 mgdan Atsiklovir yoki **Ulkaril** 800 mg, (Zoviraks, Famvir va boshqalar) doramisin-3000000 1 tab 2 maxal ichiladi yoki **Azimitsin** 250mg 4 marta 7 kun davomida ichiladi.

Orttirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS)

Orttirilgan immun tanqisligi sindromi tez tarqaluvchi jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasallik hisoblanadi.

OITS birinchi bo'lib 1981 yilda qayd etilgan. Uni keltirib chiqaruvchi virus-1983 yilda aniqlangan, odam immun tanqisligi virusi (OIV-VICH) hisoblanadi.

Kasallikning tarqalganlik darajasi. dunyoning ko'pgina mintaqalaridan olingan ma'lumotlar haqiqatga unchalik yaqin bo'lmasada, butun jahon sog'liqni saqlash tashqilotining axborotlariga ko'ra ko'pgina mamlakatlarda bu kasallik keng tarqalmoqda, hattoki haqiqiy epidemiya holati sodir bo'lmoqda.

OITSning oqibati asosiy e'tiborni o'ziga qaratmoqda, chunki bu kasallik asosan yosh kishilarda va inson umrining sermahsul davriga to'g'ri keladi. AKGD, Braziliya OITS keng tarqalgan, Buyo'q Britaniya, Meksika kasallik o'rtacha darajada tarqalgan mamlakatlar hisoblanadi.

Odam immun tanqisligi virusi YuIV) ning tarqalishi.

OITS OIV infeksiyasi chaqiradigan keng qamrovli kasallikdir. OIV inson organizmi immun tuzilishini zararlovchi infeksiya bo'lib, u asosan oq qon tanachalarida ishlab chiqariladigan T-limfotsitlarini yemiradi. OIV tinch osuda holatidan faollikka o'tish xususiyatiga ega. Ayniqsa jinsiy yo'l orqali yuqadigan kasalliklar OIVning faollashuviga sabab bo'ladi.

Inson organizmi qancha uzoq vaqt davomida infeksiyalanib yursa, uning immun tizimining zararlanish ehtimoli shuncha ko'proq bo'ladi va turli xil kasalliklarning, jumladan xavfli o'smalarning ko'payishiga olib keladi. OIVni yuqtirgan kishilarning qariyb 50% 10 yil ichida OITS kasalligiga duchor bo'ladilar. OITS kasalligi bilan og'rikan bemorlarning 50% 18 oy ichida, 80% esa uch yil davomida hayotdan ko'z

yumishlari qayd etilgan. Afrika mamlakatlarida bu ko'rsatkich yana ham qisqaroq, sababi ularda kasallik kech aniqlanadi va tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi va o'nga erishish qiyinroq bo'lganligi uchun.

Epidemiologiyasi.

OIV ni yuqtirganlar soni JSST ma'lumotlariga ko'ra 10 mlngacha kishini tashqil etadi. 1990 yilda esa ularning soni 100 mlndan oshgan bo'lishiga qaramasdan 1998 yilda JSST tomonidan dunyoning 135 dan ko'proq mamlakatlarida 120000 dan ortiq holatlarda OITS qayd etilgan. Ammo haqiqiy kasallanganlar soni bu raqamdan ancha ko'p bo'lishi ehtimoldan xoli emas.: Chunki ko'pgina mamlakatlarda kasallik diagnostikasidagi qiyinchiliklar bo'nga sabab bo'lishi mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlar orasida Braziliya va Markaziy Afrika mamlakatlarida kasallik ko'p tarqalgan. AKGLda 1988 yilda 73000 dan ziyod kasallik qayd etilgan bo'lib, uning 56%i olamdan ko'z yumganlar. OITS bilan kasallanganlarning 70% AKGD zimmasiga to'g'ri keladi. Yevropada Shveytsariya, Daniya, Fransiya va Belgiyada OITS shu mintaqadagi boshqa mamlakatlardagidan ko'proq uchraydi.

Osiyo mamlakatlarida OIV yuqtirgan kishilar haqida ma'lumotlar kam, lekin keyingi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarida, jumladan O'zbekistonda ham OIV ni yuqtirgan kishilar va OITS bilan kasallangan bemorlar qayd etila boshladi.

JSST kasallik tarqalishining quyidagicha variantlarini tavsiya etadi.

I-variant. Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Janubiy Amerikaning ba'zi bir mintaqalariga xos bo'lib, bu mamlakatlarda 80% hollarda OITS gomoseksualist erkaklarda, narkomanlarda (narkotik moddalarni vena ichiga qabul qiladiganlarda) qayd etilgan.

variant. Afrika qita'si mamlakatlari va Janubiy Amerikaning ba'zi mintaqalariga xos. Bu mamlakatlarda OITS kasalligi geteroseksualistlar orasida uchraydi. Uning 25% 20-40 yoshli aholi o'rtasida. Asosan foxishalarning 90% OIV ni yuqtirib olgan. Infeksiyaning asosiy manbai ko'p kishi bilan jinsiy aloqada bo'lish va JYOYO`qlar hisoblanadi.

variant. Sharqiy Yevropa, Osiyo mamlakatlari va Janubiy Amerikaning qishloq tumanlariga xos bo'lib, bu yerlarga kasallik yaqin yillar davomida kirib kelgan. Bu mintaqalarda kasallikning tarqalishi keyingi yillarda aholining chet mamlakatlarga turli sabablarga ko'ra borib kelishlari, ular orasida foxishabozlikning rivojlanishi, kasallikni yuqtirib kelib, boshqalarga yuqtirishlari asosiy sabab bo'lmoqda.

Kasallikning o'tish yo'llari.

Jinsiy aloqa yo'li.

Erkaklar orasida tarqalishi asosan gomoseksualistlarda uchraydi. Erkaklardan ayollarga, ayollardan erkaklarga kasallik jinsiy yo'l orqali yuqadi. 95% hollarda kasallik jinsiy yo'l bilan yuqadi.

Parenteral yo'l.

Qon va qon o'rnini bosuvchi vositalarni qon tomiri ichiga quyilganda. Narkomanlar tomonidan ishlatilgan ignalar bilan takror in'ektsiya qilinganda.

Stomatologiya, jarrohlik amaliyotida tibbiy xodimlarining bexosdan jarohatlanishi oqibatida kasallik yuqadi.

Perinatal yo'l.

Homila ona qornida paytida yoki tug'ruq paytida hamda tug'ilgandan keyin emizish davrida kasallikni yuqtirishi mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra kasallangan onalardan bolalariga kasallikning yuqishi yuqori darajada bo'lishi aniqlangan. O'smirlarda asosan jinsiy aloqa yo'li va parenteral yo'l bilan yuqadi.

OIVni qonda, so'lakda, spermada, qin chiqindisida, siydikda va najasda bakteriologik tekshirishlar natijasida ajratib olishga muvaffaq bo'lindi. Asosan OIV qondagi limfotsit, monotsitlarda, sperma va qin chiqindilarida jon saqlashi ma'lum.

Profilaktikasi.

Hozirgi davrda OIV yuqtirishdan saqlanish OITS epidemiyasining oldini olishning yagona yo'li hisoblanadi.

OITSga qarshi kurashning asosiy hal qiluvchi jihatlaridan biri bu xavfsiz jinsiy aloqa vositalarini targ'ibot qilish va JYOYO`qning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik. Bo`nga keng jamoatchilikni jalb qilgan holda maktablarning yuqori sinf o'quvchilari, litsey-kollej o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalari barcha pedagogik va tibbiyot xodimlarining kuchi bilan keng jamoatchilik orasida kasallikning oldini olish chora-tadbirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish, o'quvchi-o'smirlar bilan o'quv maskanlarida maxsus darslar tashqil qilish maqsadga muvofiqdir.

Kasallikni keltirib chiqaruvchi omillar ma'lum bo'lganda, ya'ni kasallik xavfi bo'lgan shaxslar bilan jinsiy aloqada bo'lmaslik, prezervativlardan foydalanish, narkomaniyaga qarshi kurash, turli xil in'ektsiyalardan o'zini tiyish ham kasallik profilaktikasining asosiy ustunlari hisoblanadi.

Klinik ko'rinishi.

OIV bilan zararlangan insonlarda virus tashuvchanlik (tarqatish.) xususiyati umrining oxiragacha davom etadi. Aksariyat hollarda kasallik ma'lum bir belgilersiz boshlanadi. Bu holat uzoq yillar davom etishi mumkin. Infeksiya odam organizmiga qanchalik uzoq ta'sir etsa, shunchalik immun tizimni ko'proq zararlaydi. Kasallik belgilarining rivojlanib borishini quyidagicha to'rt toifaga ajratish mumkin:

Infeksiyaning boshlang'ich bosqichi. Aksariyat hollarda kasallikni yuqtirgan mijozlar hech narsadan shikoyat qilishmaydilar. Onda-sonda bemorlar isitmasining oshishi, darmonsizlik, charchoq va muskullarda og'riqdan shikoyat qilishlari mumkin.- Odatda zararlanishdan 12-14 hafta o'tgandan keyin qonda o'zgarishlar - antitelalar paydo bo'la boshlaydi. Ba'zan esa 6 oylar o'tgandan keyin ham maxsus antitelalar topilmasligi mumkin.

OIVni klinik belgilersiz tarqalish bosqichi. OIVni yuqtirgan kishilarda kasallik belgilari namoyon bo'lmasa ham ular kasallik tarqatuvchi bo'lib yuradilar. Bu bosqichda organizm immun tizimi zararlanganligini aniqlash imqoniyati bo'ladi.

OITS bilan bog'liq bo'lgan belgilarning rivojlanish bosqichi. Bu bosqichda keng tarqalgan limfa bezlarining kattalashuvi kuzatiladi. Bunda ba'zan isitma ko'tariladi, ba'zan tana harorati oshmasligi mumkin. Leqin kechqurunlar terlash, ich ketish, ozish, horg'inlik, og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida, qinda kandidozga xos o'zgarishlar kuzatiladi. Bu holat bir yil va undan ko'proq cho'zilishi mumkin.

OITS rivojlanish bosqichi. Ular quyidagilardan iborat:

odam organizmida immun tizimi tekshirilganda immun tanqisligi aniqlanishi;

immun tanqislik holatining organizmdagi boshqa o'zgarishlar bilan bog'liq emasligi (ya'ni, dori vositalarini qo'llash, xavfli o'smalar borligi va boshqa holatlardan qat'iy nazar);

v) limfa tizimining OIV infeksiyasi bilan bo'g'liq bo'lgan xavfli kasalliklar aniq ko'zga tashlanishi. O`nga qo'shimcha tarzda meningit, markaziy nerv tizimining toksoplazmozi, pnevmoniya, tuberkulyoz, herpes, kandidoz kabi kasalliklar avj olishi;

g) ensefalopatiya sindromi yuzaga chiqishi;

organizmdan OIV ning ajralib chiqishi;

kasallikning laboratoriya tekshirish yo'li bilan tasdiqlanishi.

Diagnostikasi.

Organizmda OIV ga antitela borligini aniqlash maqsadida laboratoriya tahlili o'tkaziladi. Kasallikning I-II bosqichlari diagnostikasi uchun laboratoriya tekshirish yagona usul hisoblanadi. Kasal kishi bilan qontaktda bo'lgandan keyin organizmda o'rtacha 12 haftalardan keyin OIV ga qarshi antitela ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi barcha viloyatlarida OITSga qarshi kurash markazlari faoliyat ko'rsatadi va ular qoshida maxsus laboratoriyalar mavjud bo'lib, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan va OITS ni laboratoriya usulida aniqlash imqoniyatiga ega.

OITSni klinik manzarasiga qarab uning III-IV bosqichlarida faqatgina yuqumli kasalliklar mutaxassisleri aniqlashi mumkin, agarda mijozda quyidagi belgilar aniq ko'zga tashlansa:

tana vaznining 10% dan ko'proq miqdorda ozishi;

bir oydan uzoqroq muddatda surunkali ich ketishi;

v) bir oydan ko'proq davom etayotgan doimiy ravishdagi isitma;

g) doimiy davom etib kelayotgan va bir oydan ortiq cho'zilgan yo'tal;

terida toshmalar keng tarqalgan;

og'iz bo'shlig'i shilliq qavati yoki qinda kandidoz;

j) limfa bezlari faoliyati buzilishining keng tarqalishi.

Yuqorida qayd etilgan klinik belgilar paydo bo'lishiga qarab malakali mutaxassislar OITSning III-IV bosqichini aniqlashlari mumkin. Eng ishonchli diagnostik usul sifatida albatta OIVni laboratoriya tekshirishi yo'li bilan aniqlash kasallik to'g'risida ishonchli ma'lumot beradi.

Davolash.

Bugungi kunga qadar OITSni davolashning ya'ni, OIVga qarshi antivirus preparatlarini qo'llashning aniq bir usuli ma'lum emas, leqin hozirga qadar bu mudhish kasallikni davolashning samarali usullari hamda immun tizimini qo'llab- quvvatlovchi dorivor vositalar ustida doimiy ravishda izlanishlar davom etmoqda. Shuning uchun ham kasallikni davolashdan ko'ra uning oldini olish ancha osonroqdir. Shu maqsadda quyidagi tavsiyalarga amal qilinsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

OIV bilan zararlangan yoki uning xavfi bo'lgan kishilar bilan jinsiy aloqadan o'zini tiyish.

Hayotda faqat bitta jinsiy juft bilan yashash.

Tartibsiz jinsiy hayotda bo'lgan mijozdan o'zini chetga olish.

Jinsiy aloqa paytida prezervativlardan foydalanish.

Mabodo OIV bilan zararlangan kishilar bo'lsa, infeksiyani boshqalarga yuqtirmaslik maqsadida quyidagilarga amal qilish lozim:

Turli xil kasalliklardan o'zini asrash. Chunki har turli yuqumli kasalliklar immun tizimini ishdan chiqarishi, organizmni toliqtirishini unutmang.

Mabodo biror bir juft bilan jinsiy aloqada bo'lishni rejalashtirsangiz, o'zingizda OIV borligi haqida juftingizni ogohlantiring.

3.Donorlik qoni, spermasi va transplantatsiya uchun organ va to'qimalarni berishdan o'zingizni saqlang.

4.Meditsina yordami uchun albatta murojaat eting.

OITS ni davolashning o'ta murakkabligini inobatga olgan holda barcha tibbiy xodimlar, maktab-maorif tizimi, keng jamoatchilik birgalikda kasallikning oldini olish, JIONJning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, o'smirlar, yosh yigit-qizlar orasida keng qamrovli sanitariya-maorif: va profilaktika ishlarini olib borish, alkogolizm narkomaniyaga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarziga amal qilish asr vabosiga aylanayotgan mudhish kasalliklarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Ayollar jinsiy a'zolarining yalliglanish kasalliklari.

Xotin – qizlar jinsiy organlarning yalliglanish protsesslari davolash va oldini olish ayollar sogligini saklashda muxim rol uynaydi. Ilmiy tasdiklangan to'g'ri tashqil kilingan davo profilaktik yerdam kasal bo'lgan ayollarning ish faoliyatiga, sotsial va oila xaetiga va ularning generativ funksiyasiga e'tiborli ta'sir etadi.

Uchrashishi: jinsiy organlar yalliglanishi xamma ginekologik kasallarning 60 - 65 % tashqil etib, ularning 30 % stasionar sharoitda davolanadi. Yalliglanish kasalliklarining usishi axoli migratsiyasinng ko'payishi urbanizatsiya, prostitutsiyaning ko'payishiga bog'liqdir.

VOZ (1982) ma'lumotiga karaganda jinsiy organlar yalliglanishi umumiy axolining 1 % tashqil etib, axolining seksual aktivligi sonining 3 % ni tashqil etadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda AKSh va Yevropada salpingit 15 – 39 yoshli ayollarda xar 1000 tadan 10 – 13 uchraydi, 75 % ayollar 25 yeshdan kam, shulardan 75 % tugmaganlardir. Xlomidin sababli bo'lgan yalliglanish 15 – 19 yoshli qizlarda 16 %, 25 – 19 yoshlarda 6 % va 30 yoshli 2,5 % ni tashqil etadi.

Mikoplazmalar, uroplazmalar 20 yoshgacha bo'lgan ayollarda ko'p yalliglanishga sabab bo'ladi. 30 yoshdan ortiklarida kasallik sababi anaerob mikroorganizmlardir. Utkir yalliglanish protsesslari 20 – 24 yoshgacha bo'lgan gruppada, 25 – 30 yoshda surunkali yalliglanish protsesslari va ularning asoratlari ko'p uchraydi. (bepushtlik, ektopik homiladorlik).

Jinsiy a'zolar yalliglanishida jinsiy organlar idial mikroflorasi muxim rol uynaydi. Jinsiy traktining ma'lum uchastkasida normada ma'lum mikroflora yashaydi. Qin mikroflorasi kuyidagilardan iborat:

iaeksimon flora: anaerob va asosan aerob, gemolitik va negemolitik streptokokklar, interekokklar, gemolitik streptokokklar. Klebbsiela, enterebakteriyalar, proteus turidagilar, ichak taekchalari kam uchraydi. Zamburuglar (kandidalar) uchraydi.

Patogen mikroflora uchrashishi patologik protsessdan darak bermaydi. Agarda utkir yalliglanish belgisi bulmasa. Qin mikroflorasiga endogen faktorlarning ta'siri bor. Estrogen ko'payishi bilan uning ta'sirida glikogen va musin hosil bo'lishi ko'payadi. Qin devori vaskulirazatsiya ko'payib patogen mikrofloraning viruentligini oshiradi. Aeroblar miqdori hayz oldidan kamayadi, bu gormonal uzgarishga bog'liqdir.

Qin mikroflorasiga ekzogen ta'sirlar ximik, termik bo'lib bular qinni yuvishda ta'sir qiladi. B. Larsen (1988) jinsiy traktining pastki kismida joylashgan mikroflora yuqoriga xam utishi mumqin deb xisoblaydi. Ularning viruentligini aniqlash uchun kuyidagilarni aniqlash kerak.

mikroorganizmni fagotsitozdek ximoyalovchi kobik bor yeki yo'qligidir.

Ekzo – endotoksinlar ajralishidan

Ekstraxujayra fermentlar (kollagenaza, gialourinadaza, elastaza) ishlab chikishdan. Jinsiy yullarda doimiy uchraydigan mikroorganizmlar ma'lum sharoitda firulent bo'lishi yalliglanish protsesslarida ishtirok etishi mumqin. Ularning aktivlanishiga va yalliglanishiga ishtirok etishiga yul kuymovchi fiziologik ximoya mexanizmlari bo'lib ularga: - tuxumdon gormonlari ta'sirida epiteliy yuzasi xujayralarining deskvamatsiyasi va sitolizi.

Nespsifik antimikrob mexanizmlar makroag va leykotsitlar yerdamida fagotsitoz.

Immun mexanizmlar: T–limfasitlar, immunoglobulinlar, komplement sistemasi, ular zamburuglaridan, viruslardan ximoya qiladi.

Jinsiy sistemaning yuqori kismi uchun uning pastki kismi servikanal va endometriyaning ximoya mexanizmlari axamiyatga ega. Servikal kanaldagi shillik (shillik proba) barer xossasiga ega bo'lib jinsiy traktning tepa va pastki kisini ajratib turadi. Bu shillikda antibakterial moddalar bo'lib, ulardan lizotsim plazmadagi miqdordan 100 marta ko'pdir. Bundan tashqari unda ichak taekchasiga va gonokokka, salmonellaga karshi antitelalar mavjud. Bachadon barer funksiyasi hayz paytida kuchib turuvchi endometriya bajaradi. Hayz paytida bazal qavatida infiltratsiyalangan leykotsitlar bajaradi. Qon bilan boy ta'minlangan bachadon gumoral ximoya faktori bilan ta'minlaydi.

Infeksiyaning tarkalish yullari: Infeksion agentlarining jinsiy organlar yuqori bo'limiga utishi spermatozoidlar, trixomonadlar yerdamida passiv transport xolda yeki gematogen limfogen yul bilan ruy beradi.

Gonokokklarning sperma orqali utishi axamiyatga ega. Spermatozoidlar yuzi manfiy zaryadga ega bo'lib, uziga xos mikroorganizmlar uchun reseptor bo'lib ularni biriktirib oladi va ularni jinsiy organlarning yuqori kismiga o'tadi. Trixomonadlar xam infeksiyani olib o'tadi. Infeksiyaning jinsiy organlarning yuqorigi kismiga utishi bachadon ichi protseduralaridan keyin xam bo'lishi mumqin. (zondlash, GSG, gidrotubatsiya, operatsiyalar, abort, VMS). VMK bor ayollarda yalliglanish protsesslari 4 marta ko'p uchraydi. Tugmagan ayollarda yalliglanish va uning asorati 6-8 marta bepushtlik uchraydi. VMK da yalliglanish paydo bo'lishida kontraseptiv atrofida yalliglanish reaksiyasi bo'lishi,

endometriyaning eroziyasi, fibrinolitik aktivlikning oshishida prostoglandinlarning ko'payishi ahamiyatga ega. VMK iplari orqali mikroflora bachadon ichiga tushadi.

(1981 y) VMK si olinganda uni bakterial kulturasini tekshirib unda gonokokk gemolitik streptokokk, ichak taekchasi va boshqa mikroorganizmlar uchrashini kuzatganlar. VMK kuyilganda 2 sutkadan so'ng mikroblar turi bachadonda ko'payishi kuzatilgan. Jinsiy a'zolar yalliglanishi VMK dan so'ng 3-9 marta ko'p, boshqa kontraseptiv ishlatilganga karaganda. Gormonal kontraseptivlar yalliglanish reaksiyasini kamaytiradi. Yalliglanishga karshi ta'siri servikal shillik xarakteriga bog'liq bo'lib, u mikroorganizmi bor spermani o'tkazishga yul kuymaydi.

Medisina abortining ko'p uchraydigan asoratidan biri yalliglanish protsessidir. Yalliglanish birinchi 5 kunda boshlanadi. U 2-3 xaftadan keyin boshlanishi mumqin. Agar servikal kanadda patogen mikroflora bulsa, yalliglanishga risk oshadi. Tug'ruqdan so'nggi infeksiya xam yalliglanishning asosiy sababchisidir. Yalliglanishning rivojlanishiga va uning uzok davom etishiga organizmning urganuvchi reaksiyasining yetishmasligiga olib keladi. U perinatal davrda (tugma endokrin, modda almashinuvi va boshqa buzilishlar, bolalik, pubertant yoshida) infeksiyon kasalliklar, yetilgan yeshda (neyroendokrin buzilishlar, umumiy va ginekologik kasalliklar) ovkatlanish, yomon yashash sharoitlari, sovuk kotish, stresslar, tashqi va ichki faktorlar buziladi.

Jinsiy organlar pastki kismidagi yalliglanish protsesslari. Uning sabablari: kandida, trixomonioz, xlamidin, viruslar, streptokokklar.

V U L V I T.

Ayollarda reproduktiv yoshda vulvit, kolpit, servisit, endometritdan so'ng paydo bo'lib, unda infeksiya ajralmalar orqali vulvaga tushadi. Birlamchi vulvit gigienaga rioya kilmaganda, ekstragenital kasalliklar (kandli diabet, semizlik) ximik, mexanik (kichish) ta'siridan paydo bo'ladi. Vulvit utkir stadiyada giperemiya, shish, seroz yiringli ajralma koplanishi bilan xarakterlanadi. Sub'ektiv shikoyati og'riq, achish, umumiy bexollik. Surunkali stadiyada: giperemiya, shish, eksudatsiya kamayadi va vakti – vakti bilan ko'payadi.

Davosi: vannalar, antibakterial davo, ekstragenital kasallikni davolash.

K O L P I T

Reproduktiv yeshdagi ayollarda uchraydi. Sababi, trixomonada, kandida, viruslar, sitomaliya virusi, shartli patogen mikroblar, stafilokokk, streptokokk, entereokokk, protei, gemofilli va boshqa taekchalar. Kasallikning utkir davrida giperemiya, shish, eksudatsiya, seroz yiringli ajralma bo'lishi bilan xarakterlanadi. Kasallar og'riqqa kichishiga, achishiga shikoyat qiladi. Kasal ogir kechsa tana xarorati kutariladi, axvoli ogirlashab uykusi buziladi. Surunkali kolpitga fakat yiringli ajralma saklanadi.

Diagnostikasi: anamnez, shikoyati, kurik yerdam beradi, bakteriologik, bakteriskopik tekshirish mikrobnini aniqlashga va uni sezgirligini aniqlash uchun ishlatiladi.

Davosi: 1. Etiologik yalliglanishga karshi dorilar.

2. Organizmda boshqa kasallikni davolash.

3. Jinsiy alokani tula davolashgacha tuxtatish.

Maslahat: jinsiy a'zolarini kaliy permaganatining kam eritmasida yeki romashka dimlamasida kuniga 3 marta yuvish. Agar yiringli ajralma bulsa, margansovka – romashka 1: 6000 eritmasi bilan yeki 0,5 % rivanol eritmasi bilan 3-4 marta yuvish kerak. Antibakterial preparatlarda xlorfilipt bilan yuvish. Mazlar oblepix va askorbin ishlatiladi. Surunkali stadiyada estrogenlar qinga tampon xolida kuyiladi. Bakterial kolpit davosi gigienik talablariga rioya qilish (tanani toza tutish, jinsiy organlarni va oraliqni toza tutish (dieta/ovkatlanish, uglevod, vitamanga boy meva – sabzavotlar bo'yirish kerak). Takrorlanuvchi vulvaginitda 6-8 yoshdan boshlab qinga estrogen gormonlar bor mazlar ishlatiladi. Follikulin 500 yed. lanolin 30 g, 10 kun ishlatiladi. Yana vaginal shamlar (follikulin 500 yed. bornaya kislota 0.1, maslo kakao 0,5 gr, 1 ml yegli eritmada (kurs) 5-7 kun

Kandidoz – (kandidamikoz) – qin shillik parda infeksiyasi bo`lib, bachadon bo`yni va vulvaga tarkaladi. Kasallikni kandida zamburuglari chakiradi. Kasallik gormonlar buzilishlar oksillar, yoglar, uglevodlar, vitaminlar metabolizm buzilganda va surunkali kasalliklar (diabet, tuberkulez, salpingoofarit) bilan kasallangan bemorlarda Kichik chanoq a`zolarining nospesifik infeksiyon kasalliklari.

Kichik chanoq a`zolarining nospesifik infeksiyon kasalliklariga endo – miometriya, bachadon naylari, tuxumdon, chanoq qorin pardasi yalliglanishi kiradi. Bu organlarning yalliglanishi aloxida xolda klinik praktikada kam uchraydi.

Ko`perman (1988) yalliglanish protsesslari o`rta ogir va ogir (peritonit, kichik chanoqda shish) darajaga bo`lishni taklif qiladi. Yalliglanish sabablari gonokokk, xlamidin, streptokokk, stafilokokk mikoplazmalar, ichak taekchasi, protelalar, enterekokklar va boshqalar.

E N D O M Y e T R I T.

Bachadon ichki qavati yalliglanishi, asosan uning (usuvchi, kambial) qavati yalliglanadi.

Utkir endometrit: u aortadan, tug`ruqdan va diagnostik manipulyatsiyadan so`ng paydo bo`ladi. Uni yuqorida aytib utilgan mikroorganizmlar chakiradi, ko`p xollarda ular assotsiatsiyasi uchraydi. Xlamidiy va genital herpes keyingi xollarda uchraydi.

Etiologik prinsipiga kura endometritlar spetsifik va nespesifik (Bodyajina V.I. 1976 y) endometritlarga bulinadi. Spetsifik sil, gonoreya, aktinamikoz chakirgan endometritlar kiradi. Mikrob florasining evolyusiyasi, mikroorganizmning nerv, endokrin va boshqa sistemalarining kam simptomli endometriyning rivojlanishiga katta rol uynaydi.

Yalliglanish endometriyning pastki qavati muskul qavatini xam jalb qilishi mumqin. Yalliglanish reaksiyasi mikrotsirkulyatsiyaning buzilishi bilan xarakterlanadi. Miometriyda shish, neytrofil infiltratsiya kuzatiladi. Agar anaerob flora kushilsa miometriyning nekrotik destruksiyasi kuzatiladi.

KLINIKA: kasallik infeksiya tushgandan so`ng 3-4 kunida boshlanadi. Tana temperaturasi kutariladi, puls tezlashadi, leykotsitoz, SOE ko`payadi. Bachadon biroz kattalashadi, og`riqli bo`ladi. Ajralma seroz – yiringli bo`lib ko`p vakt mobaynida shillik – qonsimon bo`lib turadi. Kasallik 8-10 kun davom etib, yaxshi davolanmasa yarim utkir yeki surunkali formaga o`tadi. Agar antibiotiklar kullanilsa kasal yengil yeki abortiv formada o`tadi.

SURUNKALI ENDOMETRIT

Surunkali endometritning kelib chikishi ko`p yillar mobaynida muxokama kilinib kelinadi. Utkir endometritning surunkali formaga utishi shubxali xisoblanadi. Surunkali endometrit 0,2 – 66 % ga uchrab, o`rtacha 14 % uchraydi. Xar xil % uchrashiga sabab diagnoz kuyishda morfologik kriteriyalarning xar xilligidadir. Keyingi yillarda SE ko`p uchrayapti. U abortlar, VMK, endoskopik tekshirish usullarining ko`payishi bilan boglanadi. Surunkali endometrit utkir endometritning oxirigacha davolanmaganlikdan kelib chiqib, u bachadondan qon ketganda, bachadon ichiga kilingan manipulyatsiyalardan keyin paydo bo`ladi. Kam xollarda surunkali endometrit kechki abortda yuldosh koldigi kolganda yeki kesar – kesishdan so`ng chok koldigi bo`lganda. Ko`p SE latent kechadi va infeksiyaning klinik belgilari bulmaydi. Oddiy bakteriologik usul bilan infeksiyon agent xamma payt aniqlanmaydi, uni aniqlash uchun immunotsitoximik usul ishlatiladi.



Острый катаральный
сальпингит.
1 — маточная труба.



Нормальный маточный
полость.
1 — маточная труба; 2 — маточная труба; 3 — маточная труба.



SE ning kuyidagi morfologik variantlari bor atrofik, bunda bez atrofiyasi, stroma fibrozi, limfoid elementlari infiltratsiyasi uchraydi. Kistoz agar fibroz to`qima bezning chikish kanalini kisib, bez ajratmasining tuplanuviga olib keladi va kista hosil bo`ladi. SE ning spesifik makroskopik uzgarishi bulmaydi. Uning yuzasida seroz gemorragik va yiringli ajralma kuzatiladi. Endometrit kalinlashib o`nga kirganda ko`p material olinadi. Kam xollarda fibroz chandik hosil bo`lib bepustlikka olib keladi. Diagnoz kuyish uchun gistologik kriteriya limfoid elementlaridan, plazmatik kletkalar, leykotsitlardan hosil bo`lgan infiltrat bo`lib xisoblanadi.

Spiral arteriyalar sklerozi endometriyaning chukur va yuza bo`limlarida kuzatiladi. SE ning kuzgatuvchi morfologlar SE plazmatik xujayralarni albatta bo`lishini kuzatganlar. Plazmatik kletkalar bu V – limfotsitlarning yalliglanish regulyatsiyasi, shu bilan regeneratsiyasi xamma organda gormonal, immun, endokrin faktorlar bilan amalga oshiriladi.

Morfologik va funksional endometriydagi uzgarishlar MNS patologik afferentatsiyasiga olib keladi. Gipotalamo – gipofizar sistema uzgarishi sababli tuxumdon endokrin funksiyasi kamayadi va ko`p xollarda ovulyatsiya protsessi buziladi.

KLINIKA: Kasallik klinikasi endometriya patologik uzgarishlar sukurligi va davomiyligining uzida aks ettiriladi. Endometriyning transformatsiyasi yetarli bo`lmagani uchun deskvamatsiya va regeneratsiya protsesslari buziladi va shu sababli menstruatsiya oldi va keyingi qon ketishlarga sabab bo`ladi. Hayz o`rtasida qon ketish ovulyatsiya davrida qon tomirlari o`tkazuvchanligi oshishi sabab bo`ladi.

Qon ketish sabablaridan biri bachadon muskulaturasining kiskarishi buzilishi va trombotsitlarning agregasion xossasi uzgarishidir. Qon ketishdan tashqari bu kasallarda sekretor funksiyasi buziladi

(serz, seroz – yiringli ajralmalar keladi). Doimiy shikoyatlari qov ustida og`riq bachadonning biroz kattalashuvi va kattiklashuvi aniqlanadi. SE chatishish bo`ladi, leqin endometriydagi uzgarishlar implantatsiyaga va tuxum xujayralarining rivojlanishiga tusqinlik qiladi. Bu homila tushishiga va bepustlikka olib keladi. Aniq informatsiya olish uchun bachadondan 8 – 1 % kuni kirma olish kerak.

DAVOSI: Utkir davrda mikroblar sezgirligiga karab polusintetik penisillin, kanamisin, gentamisin buyuriladi. Dori lozasi va davomiyligi kasallik ogiriligiga karab buyuriladi. Ko`p xollarda anaerob kushilishi sababli metranidazol buyuriladi. Infuzion, desansibilizatsiyalovchi, umumiy kuvvat dorilar buyuriladi. SE kompleks davo ( umumiy kuvvat, sedativ, desenbiyalovchi, vitaminlar) qo`llaniladi. Fizioterapiik davolash gemodinamikani, tuxumdon shishini endometriya reseptorlari aktivligini oshiradi. Endometriya uziga antibiotiklar yuborish yuqori natija beradi. Bachadon ichi dializi yaxshi natija beradi, buning uchun dimeksid, lidaza, novokain, dimedrol ishlatiladi.

Bachadon qon ketishiga karshi gemostazdan tashqari aminokapron kislotasi ishlatiladi. U 3-5 ml 5-7 kun ishlatiladi. Xlamidiy ko`p uchrashish uchun tetrasiklin buyuriladi. Antibiotiklar kasallik kuziganda buyuriladi. FTD SE davosida asosiy urinni egallaydi. U kasallik davomiyligini, kasal yoshi, tuxumdon funksiyasiga karab buyuriladi. (Strugaskiy V.M. 1980 y.). SE va salpingoofaritda UZI impulsiv rejimda, 35 yeshdan katta bulsa, elektrofarez rux va yod bilan buyuriladi. Kurort davo effektivligidir.

SAL PINGOOFARIT

Jinsiy yullar yalliglanishida asosiy urinni egallab, bepustlikka taxlid soluvchi kasallikdir. Nospesifik SO patogen va shartli patogen mikroorganizmlar chakiradi: stafilakokk, streptokokk, esherixi, enterokokk, xlamidiy, anaeroblar. Ko`p xollarda aralash infeksiya chakiradi.

Yalliglanish bachadon naylari shilimshik qavatidan boshlanib, bu yerda giperemiya, mikrotsirkulyatsiya buzilishi, ekssudatsiya va perivaskulyar infiltrat hosil bo`ladi. Keyinchalik bachadon naylari muskul qavatiga utib kalinlashadi, uzunlashadi, og`riqli bo`ladi. Salpingin va ofarit bir xil patogenez va klinik kartinasi bor, shuning uchun salpingoofarit deb yuritiladi.

Nay ajralmalari bilan mikroblar qorin bushligi tomonga karab chiqib nay seroz qavatini va qorin pardasining yalliglanishiga olib keladi. Ovulyatsiyadan so`ng follikulaning granulez pardasi yalliglanadi. Ampulyar kismi yepilib kolsa xaltasimon « shish » ( gidro – piosalpinks ) paydo bo`ladi.

UTKIR SALPINGOOFARIT

(1982 y.) kursatishi bo'yicha kuyidagi stadiyaga bulinadi..

Utkir endometrit va salpingit chanoq qorin pardasi yalliglanishi bilan.

Utkir endometrit va salpingit chanoq pardasi yalliglanishisiz.

USO bachadon nayi oklyuziya va tubovarial shish bo'ladi.

Tubovarial shish yerilishi.

Utkir SO kartinasida 2 faza bor:

Toksik xarakteridagi, bunda aerob flora ko'p bo'ladi.

Aerob floraga anaeroblar qo'shilib kasallikni ogirlashtiradi va asoratga olib keladi.

Aynan 2 fazada tubovarial shish paydo bo'lib, uning perforatsiyasi kuzatilishi mumkin.

KLINIKA: Tana xarorati kutariladi, umumiy axvoli yomonlashadi, qorinda kuchli og'riq paydo bo'ladi, yiringli protsesslarida sovuk kotish kuzatiladi, diuretik belgilar paydo bo'ladi. Kasallikning 1 kunida qorinda kattik og'riq, muskul ximoyasi fenomenni bo'ladi. Vaginal kurganda bachadon ortiklari kattalashadi, shishgan, xarakati kamaygan bo'ladi. Leykotsitoz, globulin fraksiyasi ko'paygan, SOE usishi, S – reaktiv oksil ko'payganligi kayd etiladi. Kuchli intoksikatsiyadan nerv va qon tomirlari sistemasida uzgarishlar bo'ladi. Utkir yalliglanish yaxshi davolansa butunlay davolanadi, yeki yarim utkir yeki surunkali formasiga utishi mumkin.

Tashxisini kuyishda anamneziga, shikoyatlariga, ob'ektiv tekshirish UZI va laparoskopiya natijasiga asoslanadi. Bachadon naylarining utkir yalliglanishlarida servikal kanal mikroflorasini tekshirish unchalik katta ahamiyatga ega emas, chunki bu mikroflora eksudatsiyadan va bachadon naylari to'qimasidan fark qiladi. Laparoskopiya vaktida olingan eksudatning mikroskopik va bakteriologik tekshiruvi esa to'g'ri ma'lumotga ega kildiradi.

DAVOSI: SO utkir boskichida davo fakat shifoxonada olib boriladi. Bu yerda kasalga fizik va asabiy osoyishtalik sharoiti yaratilib, yengil va tez xazm bo'ladigan taomlar va kerakli miqdorda suyoqlik tavsiya kilinadi va ichaklar va siydik ajratish a'zolari faoliyatini nazorat qiladi.

SO davolashda antibiotiklar asosiy urinni egallaydi. Ularni kullanilgandan natija kasallik chakiruvchi mikrobnig xususiyatlariga va uning shu antibiotikka ta'sirchanligiga bog'liq. Qo'llaniladigan antimikrob dori yalliglanish uchogida maksimal miqdorda bulinishi ta'minlanishi shart. Yarim parchalanish davri juda uzak bo'lgan antibiotiklarni kullash zarur. Kasallikning ogir klinik kechishida, yalliglanish jaraenining tarkalishida, gramm (-) va gramm (+) floranig birga uchrashishida, anaerob flora bo'lishi xavfida bir necha antibiotik kushib kullash kerak. Klindamisin bilan xloro finikalni, gentamisin bilan levomisitinni, linkamisin bilan birga kullash tavsiya kilinadi. Agar utkir SO kasalligida mikroblar kushilmasi (assotsiatsiyasi) (streptokokk, stafilokokk, entereo bakteriyalar yeki anaerob (bakterioidlar, pentostreptokokklar, pentokokklar) aniqlansa davoni 20 mln. – 30 mln yed. penisillin bilan birga aminoglikoidlar (kanamisin 0,5 m/o kuniga 2 marta yeki gentamisin 1 mg/kg vena ichiga kuniga 3 marta) kullashdan boshlash kerak. 72 soat davomida natija bermasa kleondomisin 600 mg. Dan kuniga 4 marta vena ichiga, tana xarorati normallashib, qorin parda kuzgaluvchanligi yo'qolganicha kullash kerak. Anaerob flora borligi extimoli bo'lganda obligat anaeroblarga bakteriotsid ta'sir kiluvchi metranidazol qo'llaniladi. Ogir xollarda metranidazol 1 – 1,5 g sutkada 5 ml/ minutiga tezlik bilan 5-8 kun, uncha ogir bo'lmagan xollarda ichiga kuniga 400 – 500 mg – 3 maxal beriladi.

Zaxarlanish belgilari kuchli namoen bo'lgan xollarda infuzion davo: 5 % glyoqoza, poliglyuqin, reopoliglyuqin, gemodez, oksil preparatlari parenteral qo'llaniladi. (suyoqlikning umumiy miqdori 2 – 2,5 l/sutkada). Zarur bulsa infuzion davo kushib ishlatiladi. Vitaminlar, KSS – sirka ishkoriy xolatini normallashtiruvchi dorilar (4 –5 % bikorbonat natriy 500 – 100,0 ml miqdorda) kullash kerak. Antigistamin dorilar xam tavsiya kilinadi. (suprastin, dimedrol, fizik davolash usullaridan qov ustiga muz kuyish azaldan qo'llaniladi. Sovuk muz soxa terisidagi reseptorlarga ta'sir qilish natijasida og'riq kamayadi, yalliglanish jaraeni qon sizish kamayadi. Muz xalta 2 soatga yarim soatlik tanaffus bilan kuyiladi.

Laparoskopiya yaxshi natija beradi, chunki chanoq a'zolari xolati kurilgan bo'lgan patologik uzgarishlarga karab bachadon naylarini izotonik suyoqlik bilan antibiotiklar va antiseptiklar kuyib yuvish

yangi hosil bo'lgan nozik chandiklarni ajratish ayniksa fimbrial bo'lim va tuxumdonning chandiklaridan ajratish mumkin. Chanoq bushligida yiring bulsa, u surib olinib antiseptik va antibiotikli suyo'qlik bilan yuviladi.

Chet ellik mualliflarning ta'kidlashicha, davolashning bu usuli ko'p xollarda bachadon naylari va tuxumdonlar faoliyatini tiklashga, shu bilan birga reproduktiv faoliyatining saklanishiga kafolat beradi. Yiring olinib, kichik chanoq organlari sanatsiya kilingach, yaxshi klinik natija kuzatiladi. Orqa gumbazdan punksiya kilib, « tubovarial o'sma » dan yiringli suyo'qlik olinib, shu igna orqali antibiotiklar yuborish xam yaxshi natija beradi. Ayrim xollarda bu usul operativ davolashdan saklashga sharoit yaratadi. Leqin Kravpolskiy V.I. va Kulaqov V.I. (1984 y.) ta'kidlashicha ortiklarda yiringli uzgarish bulsa, ularni jarroxlik yo'li bilan olib tashlanadi.

Yarim utkir boskichda autogemoterapiya, aloe, fizioterapiya, UF nurlari, dorilar elektrofarezi (kaliy, magniy, rux, vibromassaj, UZI ni kullash).

Amaliy mashg'ulot №6

Bachadon miomasi. Endometrioz. Bachadon yaxshi sifatli o'smalari

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -5soat	Talabalar soni: 18
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashgulot
Reja	Ginekologik kasallik orasida endometrioz 8-30% hollarda uchraydi. Endometrioz uzining asoratlari bilan axamiyatga ega ayniksa bepustlik, algodismenoreya va nogironlikga olib kelishi. Shuning uchun endometrioz kasalligiga olib keluvchi sabablarni uz vaktida aniqlab bartaraf qilish muxim axamiyatga ega.
Mavzuning maqsadi: - Mioma va Endometrioz etiologiyasi, - patogenezi, - tasnifi, - klinikasi, - tashxisi, - oldini olish va davolash prinstiplarini o'rganish.	
Mavzuning vazifasi- 1. Mioma va Endometrioz etiopatogenezi uргatish 2. Mioma va Endometrioz tasnifi xakida ma'lumot berish 3. Mioma va Endometrioz klinikasi va diagnostika usullarini uргatish 4. Mioma va Endometriozni davolash prinstiplari xakida ma'lumot berish	
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali, ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	kompyuter, multimedia, slaydlar, mavzuga oid bemorlar va boshqalar
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat:savol-javob.

1.2. amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	16. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi. 17. Talabalarni mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi 18. Davomatni nazorat qiladi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Fanni o'rganishda faoydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalaniladi. 3. Slaydlar, multimediyalardan foydalaniladi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi. 2. Mustaqil ish beradi. 3. Uyga vazifa beradi.	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

Talabalar egallashi zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar:

1. anamnez yigish
2. tashqi ko'rish
3. qin kuzgularida ko'rish
4. qin orqali bimanual ko'rish.

Foydalanadigan interaktiv usullar

«O'rgimchak to'ri» o'yini.

11. Talabalar darsga tayyorlanishlari uchun bir oz vaqt beriladi.
12. Talabalar stol atrofida yig'iladilar.
13. Qatnashchilardan biri kalavani oladi va uchini ochib boshqa bir qatnashchiga beradi. Ipni ushlagan qatnashchiga savol beriladi.
14. Savolga to'liq va to'g'ri javob berayotganligi tekshirib turiladi. Keyin kalavani uchi yana boshqa qatnashchilarga uzatilaverilib, o'rgimchak uyasi hosil bo'ladi.
15. Barcha qatnashchilar savollarga javob berib bo'lgach, kalavani uchi yana savol bergan talabaga qaytarib beriladi. Shunday tarzda o'yin yana qaytadan boshlanishi mumkin.

Ogohlantirish: Har bir talaba berayotgan savollarga to'liq va to'g'ri javob olishlari shart.

«Stol ustida ruchka» o'yini.

1. Assistent o'tilgan mavzu yuzasidan savol tuzadi (o'rtacha har bir talabaga 2-3 tadan).
2. Talabalar stol atrofida yig'iladi.

3. Stol o'rtasida ruchka qo'yiladi va soat strelkasi bo'yicha aylantiriladi.
4. Ruchka qaysi talabaga kelib to'xtasa, assistent o'sha talabaga savol beradi.
5. Savolga javob bergan talaba yana ruchkani aylantiradi va savollar tugagunicha o'yin davom ettiriladi.

MAVZU BAYONI

Endometrioiz deb, bachadon shilliq qavati (endometriyning) hujayrasining bachadondan tashqarida joylashib, taraqqiy qilishiga aytiladi. Endometrioiz o'zgarishi bo'lgan erdan to'qimani olib, mikroskop ostida qaralsa, kesqin chegaralangan, mayda-mayda pufakchaga o'xshash bo'shliq yoki ari uyinini eslatadigan alomatlar ko'riladi. Pufakchalar ichida shilimshiq modda yoki qoramtiroq parda bilan qoplangan, gistologik tuzilishi bilan xuddi bachadon bo'shlig'i shilliq qavatining tuzilishiga o'xshaydi.

Endometrioiz joylashgan o'chog'ida proliferatsiya, sekrestiya yoki hayz ko'rganda ajraladigan qonga o'xshash qon quyilish belgilari kuzatiladi, ya'ni bachadon shilliq qavatidagi tuxumdondan ajralib chiqadigan steroid va gonadotrop gormonlar ta'sirida bo'ladigan stiklik o'zgarishlarga o'xshash alomatlar kuzatiladi.

Endometrioizlar esa o'z atrofida joylashgan to'qimalarga o'sib kirish xususiyatiga ega. Bu bilan to'qimalarga proteolitik ta'sir qilib ularni parchalab, undan ham chuqurroqdagi qismlarni zararlantirishi mumkin. Endometrioiz chegarasi notekis bo'lib, u seroz, mushak va shilliq qavatlarga, teriga, suyak usti pardasiga, xatto suyak to'qimasiga ham o'sib kiradi, endometrioiz pufakchasi yorilganda a'zomning hamma qismlariga qon, limfa yo'llari orqali tarqalishi kuzatiladi. Ginekologik kasallik orasida endometrioiz 8-30% hollarda uchraydi. Endometrioizning kelib chiqish sabablari:

1. 1896 yili Likhengauzer – tug'ma embrionlarning qoldiklaridan tashqil bo'lishini ta'rifladi.
2. 1896 yili Ivanov, qorin pardasining mezoteliy qavatida endometrioiz shakllanishi ta'rifladi.
3. Implantatsion nazariya.
4. Migratsion nazariya.
5. Immunologik nazariya.
6. Starsteva taklifi bo'yicha T-limfositlar xos hujayralarning qon orqali tarqalishi.
7. Gormonlar nazariyasi - bu nazariya tarafdorlari estrogen moddasini tajribada ko'p miqdorla yuborib endometrioiz kasalligini paydo qilganlar.

Endometrioizning yuzaga kelishi va rivojlanish nazariyasi

1. Embrional nazariya: bu nazariyaga asosan endometroid geterotopiyalar paramezoneftral (Myuller) yullari yoki embrional qoldiq hujayralaridan rivojlanadi (bularndan keyinchalik jinsiy a'zolar va endometriy vujudga keladi). Bu nazariyani isbotlashda V.P. Baskaqov 1979 yili "Endometrioizning bolalar va o'smirlarda (12-13 yosh), rivojlanishi va jinsiy a'zolar nuqsonlari bilan qo'shilib kelishi" haqida aytib o'tgan.

2. Implantatsion nazariya bo'yicha. Bachadon shilliq qavatining hujayralari hayz davrida hamda ginekologik muolajalar vaqtida jinsiy a'zolar yaqinidagi to'qima va a'zolariga tarqalishi mumkin, ya'ni ginekologik tashxis vaqtida, bachadon naylariga xavo yuborilganda, eroziyani elektrokoagulyatsiya qilinganda. Endometrioizni to'g'ri ichak va bachadonning mushak qatlamida, bachadon keng boylamining orqa tomonida ko'proq uchrashi bu nazariyaning to'g'riligini isbotlaydi.

3. Metaplastik nazariya - endometrioizning yuzaga kelishida metaplastizyaga uchragan qorin pardasi mezoteliysi turadi (Mayer).

4. Endometrioiz paydo bo'lishida irsiy omilning ham ahamiyati bor.

5. Neyro-endokrin nazariyasiga asosan gipotalamo-gipofizar-tuxumdon sistemasidagi bog'liqlikning buzilishi, tuxumdon ish faoliyatining o'zgarishi natijasida follikullar etilishining sekinlashishi organizmda estrogen gormonlarning kamayishiga sabab bo'ladi, ovulyatsiyaning kechikishiga va sariq tana faoliyati sustlashishiga olib keladi. Organizmda nisbiy estrogenemiya rivojlanadi, bu esa o'z navbatida endometrioiz

yuzaga kelishiga sababchi bo'ladi. (A.N Strijakov 1977, 86 yy.).

6. Immunologik nazariya - endometriozi autoimmunologik kasallik ekanligi ta'kidlanadi: T-hujayra immuniteti pasayib, V-limfositlar sistemasining aktivligi oshishi, immunoglobulin G va A ko'payib, endometriozi to'qimalariga nisbatan autoantitannalar paydo bo'lganligi

aniqlangan. (N.V. Starsteva, 1983). T-limfositlar kamayishi bilan ularning restseptor apparati o'zgaradi, T-supressorlar va T-limfositlarning xelper omilni ishlab chiqarishi pasayadi (L.Ya. Suprin.).

Jinsiy a'zolaridan tashqarida rivojlangan endometriozi 5% hollarda uchraydi, bunda ko'proq to'g'ri ichakda, tashxirdan keyingi chandiqlarda, qindik sohasidagi endometriozi kuzatiladi.

1. Kasallikning klinik manzarasi, endometriozi qaysi sohada joylashganligiga bog'liqdir. Endometriozi asosiy va doimiy belgilaridan biri – og'riqdir.

Bemor qorinning pastki sohasida va belida kuchsiz, uzoq davom etadigan og'riqlar kuchayganidan shikoyat qiladi, hayz stikli davrida og'riqlar kuchayganligidan shikoyat qiladi. Og'riq hayz kunlaridan oldin paydo bo'lib, kuchayib hayz kunlari va undan keyin ham bemorni bezovta qiladi. Bu og'riqlar endometriozi o'chog'idagi bez to'qimalarning bo'rtishi, to'qimalarning ichi berk bo'shliqlarida suyuqlikning to'planishi natijasida kelib chiqadi.

2. Bachadon endometriozi hayz stiklining buzilishiga, qo'shni a'zolaridan – to'g'ri ichak, siydik chiqarish yo'llari faoliyatining buzilishiga olib keladi. Shunga ko'ra ayol siyish vaqtida og'riqlar bo'lishidan, tez-tez siyishidan shikoyat qiladi. Hayz stiklining buzilishi hayz stiklidan 3-4 kun oldin va hayz tamom bo'lishidan keyin yana 3-4 kungacha oz miqdorda qoramtir rangda qon ketishi, hayz ko'rish davri 10 kun va undan ko'proq davom etib, ajralgan qonning miqdori ko'p bo'lishi va og'riqlar bilan kechishi adenomioz kasalligiga xos belgilar hisoblanadi.

3. Hayz vaqtida ko'p qon ketishiga asosiy sabablar: 1) tuxumdon faoliyatining buzilishi (anovulyatsiya); 2) bachadon mushaklarining qisqarish xususiyatining buzilishi; 3) qon ketadigan yuzaning kattalashganligi natijasidir.

Endometriozi bilan kasallangan a'zo, hayz ko'rish oldidan kattalashganini va hayzdan so'ng esa yana oldingi hajmda bo'lishi kuzatiladi. Kasallangan bemorlarda ovulyatsiya jarayonining bo'lmasligi tufayli, sekretor fazaning etarlicha rivojlanmaganligi, kichik chanoq bo'shlig'idagi a'zolarida ko'pincha yallig'lanish alomatlari bilan birgalikda kechganligidan chandiqlar paydo bo'lishi.

4. Bepushtlik - ichki va tashqi endometriozi belgilaridan biri. Buning sabablari: anovulyatsiya, sekretor fazaning etarlicha rivojlanmaganligi, kichik chanoq bo'shlig'idagi a'zolarida ko'pincha yallig'lanish alomatlaridir.

Ko'pincha endometriozi to'qimalari qonga so'rilishi natijasida hayz vaqtida tana haroratining ko'tarilishi kuzatiladi.

Endometriozi kasalligida chandiqlarning rivojlanishi sababli 52,6% holatda bachadonning kichik chanoqda joylashishi va uning harakati buziladi.

Endometriozi klinik kechishiga qarab engil, o'rta va og'ir darajalari kuzatiladi. Kasallik engil darajada kechganda bemor shikoyat qilmasligi ham mumkin. Kasallikning klinik belgilari unchalik ko'zga tashlanmaydi. Kasallik o'rta og'irlikda kechganda endometriozi belgilari ko'zga yaqqol tashlanadi. Kasallikning og'ir darajasida bemorning axvoli ancha og'ir bo'lib, kasallik uzoq vaqt davom etadi, qayta-qayta xuruj qiladi.

Asosiy tashxis, kasallikning rivojlanish tarixiga, uning klinik belgilariga, qin orqali tekshirib, bachadon bo'shlig'ini qirib gistologik tekshirishdan so'ng, gisteroskopiya, laparoskopiya, ultratovush, gisterosalpingografiya (bachadonni va bachadon naychalarini rentgenda ko'rish) va boshqa usullarga asoslanib qo'yiladi.

Jinsiy a'zolarining tashqi endometriozi, qorin bo'shlig'idan tashqarida joylashgan endometriozi.

1. Qin endometriozi – ko'pincha, bachadon bo'yni endometriozi bilan birgalikda uchraydi, endometriozi tugunchalari dumaloq va noto'g'ri shakldagi ko'kimtir rangda bo'lib, hayz ko'rganda bu tugunchalardan

ham qon ajralib chiqadi.

2. Bachadon bo'yni endometriozi so'ngi yillarda ko'p uchramokda. Bu asosan eroziyalarni davolashda diatermokoagulyastiyani keng qo'llanilishi sababli rivojlanib, hosil bo'lgan yara yuzasiga hayz qoni orqali ajralib chiqqan endometriy hujayralarining joylashib o'sishi natijasida kelib chiqadi. Bu holat diatermokoagulyastiyani hayzning ikkinchi yarmida bajarilganda sodir bo'ladi. Chunki diatermokoagulyastiyadan keyin hosil bo'lgan o'lik to'qima ajralib tushgandan so'ng, tozalanayotgan yara yuzasi ochilib qolganligi tufayli, hali bitib ulgurmasdan, ikkinchi marta hayz kunlari to'g'ri kelgandagina endometriozi rivojlanadi. Bachadon bo'yni endometriozi sun'iy abortda, bachadon shilliq qavatini diagnostik maqsadda tozalanganda, bachadon bo'yni shikastlanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Endometriozi o'choqlari qizil rangda bo'lib, hayzdan 1-2 kun oldin ko'kimsiz rangga aylanadi va hajmi kattalashadi. Hayzdan oldin va keyin qonning kam miqdorda surtilib kelishi bachadon bo'yni kanalining yuqori qismi shilliq qavatining shikastlanishidan darak beradi. Endometriozi psevdoroziya va surunkali endostervitga ham o'xshashi mumkin.

3. Bachadon naylari endometriozi. Bu kasallik bachadon va tuxumdon endometriozi bilan birgalikda uchraydi. Endometriozi tugunchalari bachadon naychasining seroz va seroz usti qavatida joylashib, ular juda ham kichik bo'ladi.

Klinik belgilari bachadon va tuxumdon endometriozi belgilariga o'xshash bo'ladi.

4. Tuxumdon endometriozi - dastlab tuxumdon yuzasida ko'pgina mayda endometriozi tugunchalari rivojlanadi so'ngra bu tugunchalar yorilib, hammasi tuxumdonda yagona bo'shliq hosil qiladi, bu bo'shliqqa qoramtir quyruq qon yig'ilib, tuxumdon hajmi kattalashadi va kistaga aylanadi. Kistalar bir yoki ikki tomonlama bo'lib 0,5-10 sm gacha boradi. Kistalar ichidagi gemorragik suyuqlik to'q jigarrangda bo'lganligi tufayli shokoladsimon kista nomi bilan yuritiladi. Shu suyuqlikning to'planish jarayonida endometriozi kistalari yorilishi mumkin, bunda qorinda qattiq og'riq paydo bo'lishiga, bu esa qorin bo'shlig'ida tuxumdon atrofida chandiqlar hosil bo'lishiga olib keladi.

Tuxumdon endometriozi tarqalish darajasiga qarab 4 ga bo'linadi.

I - darajasida mayda nuqtasimon endometriozi o'choqlari tuxumdon tashqi yuzasida va qorin pardasining to'g'ri ichak va bachadon orasidagi chuqurligida kuzatiladi.

II - darajasida tuxumdonning bir tomonlama kistasi holida uchraydi, hajmi 5-6 sm, kichik chanoq qorin pardasida nuqtasimon endometriozi o'choqlari va bachadon ortiqlari atrofida chandiqlar hosil bo'lishi kuzatiladi.

III - darajasida - endometriozi kistalari ikki tomonlama joylashib, hajmi 5-6 sm va undan katta bo'ladi endometriozi o'choqlari bachadon va bachadon ortiqlarining seroz qavatiga, kichik chanoq qorin pardasiga tarqalgan chandiqlar hosil qiladi.

IV - darajasida tuxumdonning ikki tomonlama shikastlanishiga qo'shni a'zolarining shikastlanishi qo'shiladi. Asosiy klinik ko'rinishi og'riq bo'lib, bepustlik alomatlari kuzatiladi.

Og'riq tarqalish darajasiga qarab har xil bo'ladi. Ayniqsa og'riq hayzdan oldin va hayz vaqtida kuchayib, to'g'ri ichak va bel, dumg'aza sohasida ko'proq bezovta qiladi. Ko'pchilik hollarda og'riqning kuchayishi, ko'ngil aynishi, qusish bilan birga kuzatiladi. Qin orqali ko'rilganda bachadon ortiqlari sohasida kam harakatchan, tarang, elastik xolatdagi bachadon bilan qo'shilgan, chegarasi va hajmi aniq bo'lmagan o'sma aniqlanadi.

Tuxumdon endometriozi kechishi uzoq vaqt davom etib, kuchli og'riqqa sabab bo'ladi, ko'pchilik hollarda ayollar ish qobiliyatini pasaytiradi.

BACHADON BO'YNI ORQASI ENDOMETRIOZI

Bu asosan bachadon bo'yni orqa yuzasida va dumg'azag' bachadon boylamlari birikkan sohada rivojlanadi. Tarqalish darajasiga qarab 4 ga bo'linadi:

- 1.-Endometriozi o'chog'i to'g'ri ichak va qin oralig'idagi yog' to'qimasining qatlamlari atrofida joylashadi.
- 2.-Endometriozi bachadon bo'yniga va qin devorlariga tarqaladi.
- 3.-Jarayon to'g'ri ichak seroz qavatiga va bachadon dumg'aza boylamiga o'tadi.
- 4.-Jarayon to'g'ri ichakning shilliq qavatiga, to'g'ri ichak va bachadon oralig'idagi bo'shliqqa tarqalib,

juda ko'p chandiqlar hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Qin orqali ko'rilganda bachadan bo'yni yuqori qismining orqasida qattiq, notekis, harakatsiz tugunchalar aniqlanib, ularni paypaslaganda qattiq og'riq seziladi. Tugunchalar hayz boshlanishidan oldin kattalashganligini aniqlash mumkin.

Asosiy belgisim- doimiy og'riq bo'lib, bu og'riq hayzdan oldin va hayz vaqtida kuchayadi. Og'riq dumg'aza sohasiga, to'g'ri ichakka, qin sohasiga tarqaladi.

BACHADON TANASINING ENDOMETRIOZI- ADENOMIOZ

Asosan 40-50 yoshdagi ayollarda uchraydi. Bachadon adenomiozi sun'iy abortlardan keyin, gisterografiya, davolash gidrotubastiyasi, biopsiya olish va boshqa muolajalardan keyin rivojlanadi.

Adenomioz tarqalish darajasiga qarab 4 ga bo'linadi.

1.-Endometriozi bachadon shilliq qavatining bazal qismida joylashadi. 2. Jarayon miometriy qavatiga tarqalgan (50-rasm).

3. Bachadonning hamma qavatlariga jarayon tarqalgan (51-rasm).

4. Jarayon parietal qorin pardasi va qo'shni a'zolariga tarqalgan.

2,3,4 darajalarida bachadon endometriozi mushak tolalarining giperplaziyasi kuzatilib, bu bachadon hajmining kattalashuviga olib keladi. Og'riq va hayz vaqtida qon ko'p ajralib, hayz stiklining uzoq davom etishiga olib keladi.

Ayniqsa endometriozi bachadonning hamma qavatlariga tarqalgan bo'lsa (52-rasm), kuchli og'riq kuzatiladi va hayzdan oldin bachadonning kattalashganligi aniqlanadi. Endometriozi hayz stiklining buzilishi har xil, xususan giperpolimenoreya metrorragiya hamda hayzdan oldin va undan keyin 3-4 kun qonni surtilib kelishi kuzatiladi. Ko'pchilik bemorlarda qorinning pastida doimiy og'riq seziladi, tez-tez siyish va hayzdan oldin og'riq bo'lishi kuzatiladi.

Endometriozi kasalligiga tashxis qo'yish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Qin orqali tekshirish, qin orqali hayz stikli dinamikada, ya'ni vaqti - vaqti bilan ko'riladi, bachadon o'smalarining hayzdan oldin va hayz vaqtida kattalashganligi aniqlanadi.

2. Kolposkopiya usulidan foydalanilganda bachadon bo'ynidagi boshqa o'zgarishlar bilan taqqoslanadi.

3. Mo'ljalli biopsiya va gistologik tekshirish usuli endometriozi aniq tashxislashda katta rol o'ynaydi.

4. Diagnostika maqsadida bachadon bo'shlig'idan va bo'ynidan qirma olish.

5. Gisterosalpingografiyada 33-80% hollarda to'g'ri tashxis qo'yish mumkin (G.M. Saveleva) Bu usul hayz stiklining 5-7 kuni amalga oshiriladi. Kontrast modda yuborilganda «qontura orqasi soyasi»ni hosil qiladi.

6. Gisteroskopiya-hayz stiklining 5-7 kunida qo'llaniladi. Och pushti shilliq qavatda to'q qizil rangli nuqtalarni ko'rish mumkin.

7. Ultratovush yordamida tekshirish-bachadon devorida mayda kistali

o'zgarishlar ko'rinadi.

8. Laparoskopiya.

9. Rektomanoskopiya-endometriozi o'choqlari to'g'ri ichakda joylashganda yoki yo'g'on ichakka yaqin joylashganda qo'llaniladi.

DAVOLASH.

Bemorlarni davolash uchun bemorning yoshini, jarayonning qaerga joylashganligi, tarqalish darajasi, jarayon joylashgan erdagi atrof to'qimalarning yallig'lanish alomatlari bor yoki yo'qligi hisobga olinadi.

Reproduktiv eshidagi ayollarda homilador bo'lish uchun quyidagi uslublar qo'llaniladi:

1. Prostoglandinsintetazaning ingibitorlari (indometastin, metindol, naprosin).

2. Organizmning immunologik xususiyatlarini oshirish uchun -immunokorrektorlar.

3. Gormonlar bilan davolash, ya'ni endometriozi o'choqlaridagi stikli o'zgarishlar so'ndiriladi.

4. Yallig'lanish alomatlarini davolash.

5. Trankvilizatorlar (tazepam va b.).

6. Sistemli enzimoterapiyasi (vobenzim).

7. Jarroxlik uslubi bilan davolash

Gormonlardan asosan progestinlar tavsiya qilinadi (progesteron, 17 - OPK, depo-provera, depostat, orgametril, dyufaston, norkolut, astetomeprogenal va boshqalar. Sintetik progestinlar 5-kundan to 25-ko'ngacha 1tabl.dan ichiladi, dyufaston kuniga 3 tabl.dan 3 oy davomida, keyin 3 oyligida 2 tabl.dan buyuriladi. Davolashni 3 oydan 6 oygacha, 1-2 yilgacha davom ettirish mumkin. 17 OPK 12,5 %-2,0 6 oy davomida 1 haftada 1 marta.

Estrogen-gestagen repatlardan mikrogenon, anovlar,marvelon, rigevidon, diane-35; antiestrogenlardan esa- tamoksifen, toremifen; anabolik steroidlardan- retabolil ko'llaniladi.

Gonadoliberinlar agonistlari - endometriozi qonservativ davolashda keng qo'llaniladi (zoladeks, dekapeptil, nafarelin, buserelin). Bu vositalar har kuni buro'nga tomiziladi eki teri ostiga in'ekstiya kilinadi, undan tashqari bu vositalarni qorin oldiga depo in'ekstiya qilish ham mumkin. Gonadoliberinlar agonistlari ta'sirining juda qisqaligi tufayli ularni premenopauzada yoki jarroxlik davolashdan oldin qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Endometriozi davolash va homiladorlikning oldini olish maqsadida 38-50 yoshgacha bo'lgan ayollarga norkolut 1 tabletkadan hayz davrining 5-kunidan 25-kunigacha berish mumkin. 48-50 yoshdan kattalarga-erkaklar gormonlari: testosteron propionat 2, 5 % yoki 5% - 1,0 m/o, metiltestosteron, sustanon-250.

Adenomiozning I-II darajasida qonservativ davolanilsa, III-IV darajasidagi kasallanishida esa, jarroxlik uslubi qo'llaniladi (52 rasm). Jarroxlik uslubida davolash asosan gormonlar bilan davolashning nafi bo'lmay,ayollarda hayz stikli buzilib qon ko'p ketib, kamqonlik rivojlangan bo'lsagina qo'llaniladi shundan keyin esa gormonlar bilan davolashni davom ettirish zarur, aks holda kasallik yana qaytalashi mumkin.

FIZIOTERAPEVTIK DAVOLASH.

- 1.Sulfat magniy bilan elektroforez.20 martagacha qilinadi.
- 2.Kaliy yoddan 5%,10%,33% dan elektroforez yoki 1%-50ml klizmada yuborish.
- 3.Amidopirin yoki novokain bilan elektroforez,10-20 marta.
- 4.Elektroforez, hayzning birinchi yarmida 40% Mis sulfat bilan va hayzning ikkinchi yarmida 4% Rux bilan qilinadi.
- 5.Tripsin, ximotripsin bilan elektrofarez
- 6.Qorin pastki qismiga Solkoseril bilan ultratovush qilinadi.
- 7.Magnit maydoni qo'llaniladi.
- 8.Rodon vannasi tavsiya qilinadi.

Profilaktikasi

1. Tashviqot va targ'ibot ishlari
2. Kontrastektiv vositalar va moddalarni keng qo'llash, abortlarning oldini olish .
3. Davolash va diagnostik muolajalarni hayz stikliga ahamiyat bergan holda bajarish lozim.

«Endometriozi»

Maqsad: talabalarga bemorni ob'ektiv va sub'ektiv ma'lumotlarga asosan diagnoz qo'yish, kasallik og'irlik darajasini baholash va davolash taktikasini tanlashni o'rgatish.

Ta'minlanish: kushetka, qin ko'zgulari, ginekologik kreslo, steril qo'lqop, tonometr.

1. Ayol ginekologik kresloda oyoqlarini chanoq-son va tizza bo'g'imida bukilgan holda yotibdi.
2. Shikoyatlari: hayzning buzilishi, og'irqli hayz kelishi, bepustlik.
3. Kasallik anamnezi: bir yil davomida o'zini kasal deb hisoblaydi hayz kelishi nomuntazam, ko'p kun, ko'p miqdorda.

4. Hayot anamnezi: hayz kelishi, 17 yoshdan, 3-4 kundan, xar 28 kunda, jinsiy hayoti 19 yoshdan, ginekologik kasalliklari – surunkali adneksit. Irsiyatga moyilligi yo'q, zararli odatlari yo'q.
5. Umumiy ko'ruv: bemorning ahvoli qoniqarli, o'zgarishsiz
6. Qorni ko'ruvda: qorin pastida og'riq yoki deyarli o'zgarishsiz.
7. Dastlabki diagnoz: shikoyatlari, hayot va kasallik anamnezi hamda lokal status va ob'ektiv ma'lumotlarga asoslanib qo'yiladi.
 Qon umumiy analizi: o'zgarishsiz
 UTT: endometriyning qalinlashishi.
 GSG: qontur orti soyalari aniqlanadi.
 Ko'zgularida ko'ruv: qo'ng'irsimon hosila aniqlanadi.
 Qin orqali tekshiruv: hayz kunlari bachadon kattalashgan.
1. Klinik diagnozni qo'yish va asoslash: dastlabki diagnoz va klinik –instrumental tekshiruvlarga asoslanib qo'yiladi
2. Asoratlari: bepushtlik
3. Differensial diagnostika: bachadon o'smalari, bachadondan disfunktsional qon ketish, jinsiy a'zolarining yallig'lanish kasalliklari.
4. Operativ davolash:
 Endometriy o'choqlarini laparoskopiya usulida kuydirish, bachadon amputastiyasi.
 Jarrohlikdan keyingi davrda:
 Organizmning buzilgan faoliyatini tiklash
 Reabilitastion terapiya
 Qonservativ gormonoterapiya
5. Profilaktika: dispanser hisobiga olish, jinsiy a'zolar yallig'lanishi kasalliklarini davolash, ginekologik muolajalarni, hayz stiklini hisobga olgan holda o'tkazish.

Amaliy ko'nikma. Endometriozi klinikasini va tashxislashni bilish, kasalni tekshirishni, tashxisni differentsiastiya qilishni, to'g'ri davolash usulini tanlashni, operativ davolashga ko'rsatmani va shoshilinch yordam choralarini tanlashni bilish kerak. Dori vositalarining (qon to'xtatuvchi, og'riq qoldiruvchi) restseptlarini yozishni bilish kerak

2. mashg'ulotning xronologik xaritasi

№	Mashg'ulot bosqichlari	Mashg'ulot shakli	Davomiy ligi	
1.	O'qituvchining kirish so'zi (mavzuni asoslash)			
2.	Amaliy mashg'ulot mavzusini muxokama qilish, yangi pedagogik texnologiyalar (kichik guruxlar, munozara-baxs, vaziyatli masala, «qorbo'ron», «aylana stol» va x.k.), shuningdek, ko'rgazmali materiallar (slayd, audio-video kasseta, mulyaj, fantom, EKG, rentgenogramma va x.k.)ni qo'llagan xolda talabalarning dastlabki bilim darajasini tekshirish.	So'rov, tushuntirish		
3.	Muxokamaga yakun yasash			
4.	Talabalarga mashg'ulotning amaliy qismini bajarish uchun topshiriq berish. Topshiriqlarni bajarish tartibi bo'yicha ko'rstamalar va tushuntirish berish. Mustaqil kurastiya			
5.	Talabalarga mashg'ulotning amaliy qismini	Kasallik tarixi,		

	o'qituvchi yordamida egallashi (tematik bemor kurastiyasi)	ishbilarmon o'yinlar, Klinik vaziyatli masalalar		
6.	Tematik bemorni laboratoriya, instumental tekshiruvlaridan olingan natijalarini taxlili, differentsial diagnostika, davolash va sog'lomlashtirish rejasini tuzish, restseptlar yozish va xakozo.	Klinik-laborator anjomlar bilan ishlash		
7.	Talabalarni o'zlashtirgan nazariy bilimlarini va amaliy ish natijalarini muxokama qilish, mustaxkamlash va mashg'ulot maqsadiga erishilganlik darajasini xisobga olgan xolda gurux faoliyatini baxolash.	Og'zaki so'rov, munozara baxs, amaliy ish natijalarini tekshirish.		
8.	Ushbu mashg'ulot bo'yicha o'qituvchining xulosasi, xar bir talaba faoliyatini 100 ballik tizim bo'yicha baxolash va e'lon qilish. Keyingi darsga tayyorlanish uchun talabalarga vazifa berish savollar to'plami.	Axborot, mustakil tayyorlanish uchun savollar		

Foydalanadigan interaktiv usul


«Zaqovat» o'yini

1. Talabalar darsga tayyorlanishlari uchun bir oz vaqt beriladi.
2. Talabalar stol atrofida yig'iladilar.
3. Qatnashchilardan biri kalavani oladi va uchini ochib boshqa bir qatnashchiga beradi. Ipni ushlagan qatnashchiga savol beriladi.
4. Savolga to'liq va to'g'ri javob berayotganligi tekshirib turiladi. Keyin kalavani uchi yana boshqa qatnashchilarga uzatilaverilib, o'rgimchak uyasi hosil bo'ladi.
5. Barcha qatnashchilar savollarga javob berib bo'lgach, kalavani uchi yana savol bergan talabaga qaytarib beriladi. Shunday tarzda o'yin yana qaytadan boshlanishi mumqin.

Ogohlantirish: Har bir talaba berayotgan savollarga to'liq va to'g'ri javob olishlari shart.

Bachadonning xavfsiz o'smalari.

Bachadon miomasi-yaxshi sifatli o'sma bo'lib, mushak to'qimasidan rivojlanadi. Ko'pincha reproduktiv davrda, 30 yoshdan cho'ng uchraydi (15-17%). Mioma bu kapsulaga uralgan tugun bo'lib uning ulchamlari turlichadir.



Bachadon miomasi

Bachadon miomasi miometriyning yaxshi sifatli o'smasi xisoblanib, "Bachadon miomasi" atamasi kasallik morfogenezinini ifodalaydi. Mushak va qo'shuvchi to'qima elementlari nisbatiga karab o'sma gistologik tuzulishini ifodolovchi "fibromioma", "fibroma", "mioma" atamalari farklanadi.

Ayollar ginekologik kasalliklarining 10-12% ni fibromioma tashqil qiladi. 95% xollarda bachadon tanasi, 5% xollarda bachadon bo'yni zararlanadi. Fibromioma sillik mushak to'qimasidan rivojlanadi. Ko'p xollarda fibromioma mushak to'qima elementlaridan (80%) iborat bo'lib, qo'shuvchi to'qima o'smaning ozrok kismini (15-20%) ni tashqil qiladi. O'sma yadrosi sillik mushak elementlaridan hosil bo'lib, keyinchalik ushish xarakteri aralash bo'lib, fibromioma hosil bo'ladi.

Miomalar kichik va katta (7kg va undan ortik) ulchamda bo'lib, ko'pincha ko'p sonli o'smalar kurinishida uchraydi. O'sma qonsistensiyasi, shakli va rangi turli xilda bo'ladi. Miomaning pushti rangda bo'lishi mushak tolalari miqdoriga va rangiga bog'liq bo'ladi. O'smada mushak tolalari kancha ko'p bulsa, u shuncha yumshok bo'ladi.

Bachadon miomasi klassifikatsiyasi:

Fibromatoz tugunning ushish joyiga karab fibromiomaning kuyidagi turlari tafovut etiladi:

1. Subseroz (qorin parda osti) tugunlar 16,8% uchraydi.
2. Interstisial (devor ichi) tugunlar 43% uchraydi.
3. Submukoz tugunlar (shillik osti) 20% uchraydi.
4. Atipik formalar – bo'yni orti miomasi.
5. Qorin parda usti miomasi.
 - boylamlararo fibromioma
 - servikal mioma

Shikoyatlar va simptomlari:

Bemor shikoyatlari kuyidagilarga bog'liq: o'sma lokalizatsiyasi va ulchamiga, miomatoz tugunlardagi ikkilamchi uzgarishlarga, kasallik davomiyligiga, ovkatlanishdagi uzgarishlarga, va x.k.

Bachadon fibromiomasining asosiy va ilk belgisi bo'lib menstrual funksiyaning buzilishi, bachadondan qon ketishlar (meno va metrorragiyalar kurinishida) va kam miqdordagi qonli ajralmalar xisoblanadi.

Qon ketishlar ko'pincha siklik bo'ladi. Ular uzayishi va kuchayishi ba'zida ular fonida ikkilamchi anemiya rivojlanadi.

Og'riqlar nerv oxirlarining kisilishi va o'sma nekroziga bog'liq.

- Xolsizlik
- Ish kobiliyatining pasayishi
- Umumiy xolsizlik

Klinika:

- Simptomli
- Simptomsiz
- Klinik belgilar miomatoz tugunning lokalizatsiyasiga bog'liq.

Miomatoz tugunlar joylashishi mumkin:

- Bachadon tanasi soxasida-95%
- Bachadon bo'yni soxasida-5%

Diagnostika:

- Bimanual tekshirish
- GSG, gisteroskopiya
- Bachadon bushligini zondlash
- UTT

Dif. diagnostika:

- Bachadon raki va sarkoma bilan
- Tuxumdonlar o'smalari bilan
- Homiladorlik bilan

Davolash:

- Qonservativ (simptomatik, gormonal)

- Operativ

Qonservativ davolashga kursatmalar

1. mioma ulchamlari homiladorlikning 12 xaftaligidan katta bulmasa
2. agar mioma kushni organlarni kismagan bulsa
3. anemiyaga olib keluvchi qon ketish bulmasa

Operativ davolashga kursatmalar:

Anemiyaga olib keluvchi menorrhagiya, tez usishi, miomaning yirik ulchamli bo`lishi(14 xaftadan katta). Yakkol ifodalangan og`riq sindromi. Xavfli o`smaga utib ketish gumoni bulsa.

Bachadonning submukoz miomasi. Kushni organlar funksiyasining yakkol buzilishi.

Operatsiyalar bulinadi:

1. radikal (bachadonning qin usti amputatsiyasi; bachadon ekstirpatsiyasi)
- qonservativ (tugish va menstrual funksiyani saklash maqsadida miomatoz tugunlarni kirish).


Patogenez.

Xozirgi kunda mioma rivojlanishida nafakat jinsiy gormonlar sintezi, almashinuvining buzilishi balki, miometriyning reseptor apparati xolati va estrogen reseptorlarning gestagen-reseptorlardan ustunligi xam muxim rol uynashi tasdiklangan. Bachadon miomasi etiologiyasi va patogenezi to`g`risidagi mavjud fikr muloxazalar orasida giperesterogeniya yetakchi urinni egallamokda. Leqin qonda esterogenlarning yuqori miqdorida bo`lishi va progesteron tankislik xolati mioma rivojlanishining doimiy faktori xisoblanmaydi.

Ma`lumki ovulyator siklda homila rivojlanishi bilan birga miomalar xam rivojlanishi mumqin. Shuni xisobga olgan xolda bachadon miomasi patogenezi nafakat jinsiy gormonlar metabolizmi, sintezi va nisbatlarning buzilishlari balki miometriya reseptor apparatning xolati ya`ni gestogen reseptorlarga nisbatan esterogen reseptorlar aktivligining yuqoriligi xam muxim ahamiyatga ega ekan.

Xolinergik innervatsiyaning maxalliy buzilishlari va qon tomir uzamida jinsiy garmonlar miqdorining oshishi ya`ni maxalliy gipergormonemiya mioma patogenezga asosiy ahamiyat kasb etadi.

Jaxon soglikni saklash tashqiloti (VOZ) tasnifiga kura leyomiomalar (fibromiomalar) ning kuyidagi kurinishlari farklanadi.



Oddiy leyomioma (fibromioma) - sillik mushak xujayralar bilan turli miqdordagi qo`shuvchi to`qimadan iborat yaxshi sifatli o`sma. Miotsitlar-o`smaning rivojlanish manbasi xisoblanadi. Makroskopik kurganda o`sma aniq chegaraning zich qonsistensiya tugun bo`lib, uni zichlashgan va bir muncha sklerozlangan miometriy qavati urab turadi. Qaysi kim bu kapsula to`g`risida fikr yuritishga olib keladi. Mikroskopik qon tomirlar va uzgarmagan epiteliy kurinishi uziga e`tiborni karatadi.

Miomalar mikrostrukturasi uning yeshiga (ya'ni muddatiga karab) uzgarib boradi. "Yosh" usuvchi tugunlarda atrof to'qimalar chegarasidagi reaktiv uzgarishlar kuchsiz ifodalangan va miomatoz tugun aniq chegaralanmagan (xuddi infiltrativ usishga o'xshash).

Vakt utishi bilan stroma kattalashib o'sma asta seqin fibromioma tuzilishini egallab, aniq chegaralangan tugun kurinishida bo'ladi. Mioma stromasi va qon tomirlar devorlari gialinozga aylanadi. Distrofik jaraenlar kay darajada ifodalanishi va involyutiv uzgarishlarga karab mushak xujayrasi yadrosi piknozi bo'lib, natijada shakli uzgargan xujayralar va sitoplazma vakuolizatsiyasi kuzatiladi. Shunday kilib tugundagi degenerativ jaraenlar o'sma strukturasiidagi polimorfizmni ta'minlaydi. Buni keyin chalik bo'ladigan kataplaziya va yemon sifatli o'smaga aylanishi bilan bog'liq bo'lgan polimorfizmdan farklash zarur.

Proliferatsiyalanuvchi (xujayrali) leyomioma - shakllangan o'smaning ko'prok periferiyasida, ba'zida asosida proliferatsiya uchoklari bo'lishi bilan xarakterlanuvchi o'sma. Proliferatsiya uchoklari tomirlar atrofida sinusoydal tipda kuzatiladi. Usish uchoklarida oksidlanish-kaytarilish fermentlari va ishkoriy fosfataza miqdorining uzgarishi kuzatiladi. Mushak to'qima va tomir adventisial qavatidan proliferatsiyalanuvchi xujayra elementlari farklanadi. Avvaliga bu soxalar muvt kurinishda bo'lib keyinchalik sillik mushakli bitishmalar hosil bo'lib ular usib o'smaning atrofida to'qimalarga qo'shilib ketadi. Bachadon miomasining ushbu varianti yumaloq shakldagi mushak xujayralaridan iborat bo'ladi. O'sma maydonining bir kismida xujayra miqdori oshganligi sababli, miomaning bu kurinishi xujayrali mioma deyiladi. Xujayrali mioma uchun kichik ulchamda bo'lish xarakterli bo'lib distrofik uzgarishlarining bulmasligi o'smaning yetarli darajada oziklanishini ya'ni tez usishini ta'minlovchi qon tomirlar sistemasi yaxshi rivojlanganligini dalolat beradi. Mikroskopik tekshirganda proliferatsiyalangan bachadon miomasi odatdagi mushaklari orasida yumaloq shakldagi yirik yadroli sillik mushak xujayralari tuplami aniqlanadi. Xujayralar glikogenga boy bo'ladi. Turgun xujayra polimorfizmi, miotik aktivlikni oshishi kuzatiladi. To'g'ri mitoz kechganda metafaza, anafaza (yakka xolda) ustunlik qiladi. Patologik mitozlar (k-mitoz, metafaza, ana va telofazada xromosomalar bulmasligi) xam kuzatiladi. Xujayrali leyomioma ultrastrukturasi tekshirilganda sillik mushak xujayralari sitoplazmasida miofilamentlar, mitoxondriyalar va erqin ribosomalar miqdorining yuqori bo'lishi aniqlangan. Ayrim xujayralarda perinukliar bushlik kengayganligi kuzatiladi. Yana farklovchi xususiyatlaridan biri sezilarli miqdorda pinotsitoz pufakchalari bo'lishida (Pinotsitoz aktivligi ko'prok ifodalangan) Sillik mushak xujayrasi, diffuz joylashgan xramatin va 1-2 ta yadrochadagi iborat yirik oval yadroga ega. Yadro qonturlari nisbatan to'g'ri. Shuni aytib utish joyizki, populyatsiyada yuqori aktivlikka ega xujayralar (odatdagi leyomiomalar bilan solishtirganda) bilan bir katorda distrofiya belgilariga ega xujayra elementlari (mitoxond usishi, endoplazmatik tur elementlarining buzilishlari) xam uchraydi.

Leyomioblastoma (epitelial leyomioma) -sillik mushak to'qimasidan rivojlanuvchi, kam uchraydigan yaxshi sifatli o'sma. O'sma xujayralarning tomirlar atrofida gurux bo'lishi, o'sma uchun xarakterli xususiyatdir. Eitelial leyomioma kelib chikishi tomir devoridan perisitlar usishi bilan bog'liq bo'lib, shuning uchun uni angileyomioma deb xisoblashadi.

Metastazlanuvchi leyomioma (tomir ichi leyomiomatozi) - yaxshi sifatli o'smaga xos barcha gistologik belgilarga ega o'sma xisoblanib, leqin tomir bushlikga metastazlar va residivlar beradi. Shunday kilib miometriyaning yaxshi sifatli o'smalari tuzilish xarakterli, tipi va biologik usish xususiyatiga kura xilma-xildir. Ushbu o'smalarining yetakchi xarakteristikasi, sillik mushak xujayralarining funksional xolati, ularning proliferatsiyalanish darajasi, differensiyalanishi va atipizmi xisoblanadi.

Proliferatsiyalanuvchi leyomioma uchun shakllangan o'smaning periferiyasida (ba'zida asosida) proliferatsiya uchoklari bo'lishi xarakterli. Proliferativ uzgarishlar bilan birga tugun markazining shishuvi, kislotali va neytral mukopolisaxaritlar yigilishi va yumaloq xujayrali infiltratsiya uchrashi mumqin. PM-mushak tolasi xujayrasi atipik bulmasada morfogenetik kursatkichlar ustunligi tufayli miometriyani xakikiy yaxshi sifatli o'smasi xisoblanadi.

Malignizatsiyalanuvchi leyomioma (mioma sarkoma oldi belgilari bilan). Ko'plab atipik sillik mushak xujayralari proliferatsiya uchoklari bo'lishi bilan xarakterlanib, qaysikim bu xakikiy

malignizatsiyaga utish etapi xisoblanadi. Mikroskopik tekshiruvda yadrolar giperxromatozi, xujayra va yadrolari bir xil bo'lmagan multisentrik uchoklar topiladi. Mitoz kurinishdagi atipik xujayralar uchrashi mumkin.

Oddiy miomada mitoz bulmaydi, proliferatsiyalanuvchi va sarkoma oldi miomalarda yuqorida aytib utilganidek mitotik aktivlik yuqori bo'ladi. Leqin normal va patologik mitozlar nisbati bir xil emas. Proliferatsiyalanuvchi miomada patologik mitozlar 25 % dan oshmaydi. Sarkoma oldi miomada 75% ni tashqil qiladi.

Fibromatoz tugunning usish joyiga karab fibromiomalarning kuyidagi turlari farklanadi.

1. Subseroz (Qorin parda ostidagi) tugunlar, o'sma bachadon seroz qavati ostida usadi 16,8 % xolda uchraydi.
2. Interstisial (devor bo'ylab) tugunlar. Miomatoz tugun butun bachadon devori bo'ylab usishi – 43 %
3. Submukoz (shillik osti) tugunlar. Miomatoz tugun bachadon bushligida usishi – 20 %
4. Atipik formalari
 - bachadon bo'yni orti miomasi
 - qorin parda usti miomasi
 - boylam orasidagi fibromioma
 - servikal mioma

Klinika

Bachadon miomasining klinikasi xar xil kechadi. Ayrim kasallarda u ogir xarakterli kechib, ayolni astenizatsiya va nevrotizatsiyagacha olib keladi. (Ye.I. Vasilenko 1990). Bemorlarning shikoyati o'smaning joylashuvi va kattaligi, miomatoz tugundagi ikkilamchi uzgarishlar, kasallikning davomiyligi, o'sma oziklanishdagi uzgarishlar kabi ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Kasallik simptomatikasi qaysi bir omilning ustunligiga karab ifodalanadi.

Kasallikning asosiy va erta simptomi-hayz siklining buzilishi, menova metroragiya kurinishidagi bachadondan qon ketishlar va uzok vakt davomida oz-oz miqdorda qonda ajralmalar kelishi xisoblanadi.

Qon ketishlar sababi bemor qonida estrogenlarning uzok vakt yuqori bo'lishi natijasidagi bachadonning qon bilan tulishuvi, endometrinig giperplaziyasi va polipozi xisoblanadi. Bular neyrogumoral buzilishlar (klimatrik davrdagi ayollarda kuzatilib) bilan xam bog'liq bo'lishi mumkin va qon stazi endometriy oziklanishini buzilishi va tomirlar devori o'tkazuvchanligining oshishi bilan xarakterlanadi.

Yana bachadon qon ketishlari yuzaga kelishiga chanoq organlaridagi yalliglanish jaraenlari, endometriozi, endometriy yuzasining kalinlashuvi gemokoagulyatsiyaning buzilishi va boshqalar xam sabab bo'lishi mumkin. Bachadondan qon ketishlar miomatoz tugunning bachadondagi joylashuviga xam bog'liq bo'lib interstisial va asosan submukoz joylashuvda kuzatilishi mumkin.



Bachadon fibromioma klinikasida og'riq simptomi ko'p uchraydi. Og'riq qorin pastida va bel dumgaza soxasida bo'lib, ba'zan oeklarda tarkaladi. Og'riq doimiy bo'ladi va ba'zi xollarda utkir xarakterda bo'ladi. Tulgoksimon og'riqlar (tuguluvchi miomada) xam kuzatiladi.

Og'riq sezgisi yuzaga kelishi sabablari xilma xil bo'lib fibromatoz tugundagi distrofik va nekrotik uzgarishlar, o'smaning joylashgan joyi va kattaligi, nerv va tomirlarning buzilishi va yana kushni kichik chanoq a'zolaridagi patologik uzgarishlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Subseroz tugun oyokchasi buralib kolganda og'riq sexzgisiga qorin parda ta'sirlanish simptomlari kushiladi.

Kushni organlar funksiyasining buzilishining bachadon miomasini klinikasida muxim ahamiyatga ega. Turli avtorlarining ma'lumotlariga asosan bu simptomarining uchrash chastotasi 65 % dan 20,8 % gacha uzgarib turadi. Ko'pincha siydik ajralishining ko'payishi, kam xolda siydik ajralishi og'riqli bo'lishi va kiyinlashuvi kabi dizurik buzilishlar kuzatiladi. Ko'p xolda yuqoridagi shikoyatlarning birgalikda uchrashi bachadon fibromioma uchun xarakterli bo'ladi. Yakka xolda og'riq simptomi 31,9 % bemorlarda, og'riq bachadondan qon ketishlar bilan birga 23,2 % bemorlarda, qon ketishlar 14,3 % bemorlarda kuzatiladi.

Diagnostika.

Reproduktiv sistema a'zolari - bachadonda patologik uzgarishlar tarkalishini va xarakterini aniqlash maqsadida anamnez yigilib, bimanual-rektovaginal ko'rish, qorin bushligi exografiyasi va kompyuter tomografiyasi o'tkazish, gisteroskopiya va bachadondan diagnostik kirma olib uning morfalogiyasining an



Sharsimon, ovoit yeki noto'g'ri shaklda bachadon bilan chambarchas bog'liqlik va zich qonsistensiya o'smaning yetakchi belgilaridan xisoblanadi. Postmenopauzadagi miometriyning exografik kartinasi uchun diffuz fibroz atrofik jaraenlari xisobidan exogenlikning oshishi xarakterli xisoblanadi. Vaskulyarizatsiya va mushak komponenti yakkol ustunligi bo'lgan tugun uchun normal miometriy bilan kieslaganda gipoexogenlik xos bo'ladi. Nekrozli va kistozli uzgarishlar diagnostikasi miomatoz tugundagi gipo- va anexogen zonalar topilishiga asoslanadi.

Kalsinozlangan degenerativ uzgarishlar uchun distal akustik effektning yutilishi bilan giperexogenlik to'g'ri keladi. Ko'pchilik tekshiruvchilar bachadon miomasi va sarkomasi exografik ifodalanishning tulik identifikligini kursatadilar. Miomatoz bachadonda akustik kuchayish belgilarisiz exogenlik pasaygan zonalar bo'lishi va yana o'smada kistoz degeniratsiya borligi va uning menopauza davrida kattalashuvi sarkoma to'g'risida shubxalanishiga asos buluvchi belgilar xisoblanadi. Leqin ushbu manzara miomatoz tugunda ikkilamchi uzgarishlar yakkol ifodalanganda xam kuzatilishi mumqin. Yaxshi va yemon sifatli o'smalar gemodinamikasi uziga xos xususiyatga ega. Solit o'smalar neovaskulyarizatsiyasiga olib keluvchi yangi qon tomir kapilyarlari produksiya jaraeni - angiogenezni indusirlaydi. Fakat o'smadagi angiogenez boshqa tipdagi angiogenezdan vaktidagi nisbat bilan farkanadi. O'smadagi angiogenez uz-uzidan chegaralanmasdan balki o'sma tomirlari chegaralanmasdan usib kachonki o'sma radikal olib tashlango'ngacha davom etadi. O'smada tomir xajmining oshishiga moyillik bo'lib, qaysikim (erta stadiyalarida) o'sma ogirligining 50% tashqil qilishi mumqin. Vakt utishi bilan o'sma uzining xususiy kapilyarlarini bosa boshlaydi. O'sma usishi bilan ekstrovasulyar bosim osishi sababli kapilyarlar bosilib o'sma markazida mikrotsirkulyatsiya tuxtab keyinchalik markaziy nekroz rivojlanadi. Bosilish effekti mitoz aktivatsiyasiga asoslangan bo'ladi. Bundan tashqari endotelial xujayralar struktur transformatsiyasi va bazal membrana butunligi buzulishi sababli yuzaga keladigan qon tomirlar o'tkazuvchanligining oshishi xam ruy beradi. Yangi kapilyarlar o'tkazuvchanligining oshishi ko'pchilik o'smalarda limfa tomirlarining bulmasligi tufayli vujudga keladi. O'sma kapilyarlari differensiyalashmagan va yetilmagan bo'libularda sillik mushak xujayralari bulmaydi. O'sma tomirlarida elastiklikning yo'qolish sababli vazokonstriktorlar ta'siriga nisbatan javob reaksiyasi sust bo'ladi. O'sma yemon sifatli usganda tomir rezistentligining past bo'lishi qon tomirlarining sillik mushaklarida maxrum bo'lgan, sinusoyitlar yeki keng kapilyarlarga aylanishi bilan bog'liq bo'ladi. Yaxshi va yemon sifatli o'smalarning xilma xil angiogen tabiati shuni kursatadiki, o'sma ichidagi qon okimi tomirlar endotelial xujayralari aktivligi bilan korrelyatsiyalanadi. Vaskulyarizatsiya darajasi o'sma usishini aniqlaydi.

Ichki jinsiy a'zolar o'sma kasalliklari erta diagnostikasida va ularning yemon sifatli o'smaga aylanish darajasining baxolash maqsadida rangli doplerografik manzaralar yuqori sezgirlikni, spesifiklikva musbat prognozni kursatadi. Tuxumdon va bachadondan usuvchi yaxshi sifatli o'smalar vaskulyarizatsiyasida ishtirok etuvchi tomirlar bachadon va tuxumdon arteriyalari terminal tarmogining bevosita davomi xisoblanadi. Bu tomirlardagi qon okimining doplerografik xarakteristikasi-qon okimida doimiy diastolik komponent borligi bu bachadon arteriyalariga nisbatan yuqori ifodalangan qon okimi seqinlashagligi va rezistentlik Indeksining baland bo'lishi

xisoblanadi. Katta ulchamdagi bachadon miomasi bor bemorda reografik ma'lumotlar variabilligi kuzatilib, tomirlar yakkol asimetriyasi, arterial yetishmovchilik, venoz dimlanish tomir sistemasining funksional buzilganligini kursatadi. Bachadon miomasi bo'lgan bemorlarda bachadon arteriyasi shuningdek miomatoz tugunlari tomirlari miometriyaning uzgarmagan tomirlari bilan solishtirilganda rezistentlik kursatgichlarini pasayib ketganligi kuzatiladi. Tomir rezistentligining pasayishi quyidagicha tushuntiriladi. Miomatoz tugunda estrogenlar qonsentratsiyasi va uning reseptorlari miqdorining oshishi bachadon devori tomirlari vazodilyatatsiyasiga olib keladi. Zamonaviy ma'lumotlarga kura miomatoz tugun qon bilan ta'minlanishining o'sma ichi vizualizatsiya chastotasi katta xilma xillik bilan xarakterlanadi: 54 % dan 100 % gacha transvaginal rangli doplerografiyada 87 % xollarda miomatoz tugundagi qon okimi aniqlanadi. Bunda o'sma markazida aniq ifodalangan signallar 36 % kuzatuvlarda aniqlanib kolgan xollarda nuktali signallar bo'ladi. Rangli doplerografiya ko'pchilik tekshiruvchilar tomonidan miomani qonservativ davolashda gono-dotropinrilizing gormon agonistlariga effektivligini baxolashda foydalaniladi. Olingan ma'lumotlariga kura davolash davrida bachadon tomir rezistentligi oshganligi aniqlangan. Davolashgacha bachadon arteriyalari rezistent indeksiya o'rtacha 0,52 miomatoz tugun yirik arteriyalarida 0,48 bo'ladi. Davolashdan keyin esa 0,92 va 0,91 bo'ladi.

Bachadon yemon sifatli o'smalarning doplerografik manzarasida ko'plab kichik, juda ingichka anomal shakldagi va anomal joylashgan tomirlar, o'sma to'qimasi chegarasida xaotik tashlanish kayt kilinadi. Bu tomirlarda qon okimi tomir karshiligi juda past bo'lishi (0,40), yuqori tezlikda (-41 sm/s) va turli yunalishda bo'lishi bilan xarakterlanadi. Qon okimi ifodalananihi yakkol rangli signallar va "mozaikali" shakldagi manzara bilan farkanadi.

Ko'pchilik avtorlar ma'lumotlariga kura bachadon sarkomasi rezistentlik indeksi o'rtacha $0,37 \pm 0,08$ ni tashqil kilib miomada $0,59 \pm 0,08$ gacha bo'ladi. (norma $0,90 \pm 0,02$). Shuni aytib utish kerakki rangli doplerografik rejimda o'sma ichi qon okimi vizualizatsiyasi fakatgina 30 % kuzatuvlarda aniqlanadi. Avtorlarning fikricha rangli doplerografik tekshiruv yerdamida bachadon miomasi va sarkomasining kiesiy tashxislash kriteriysi bo'lib, o'sma ichi va o'sma atrofi qon okimi past rezistentlik kursatkichi bo'lgan tomirlarning xaotik tashlanishli, ingichka, noregulyar vizualizatsiyasi xisoblanadi.

DAVOLASH.

Bu patologiya yuqori chastotaga uchrab (20-30%) ayolning umumiy sogligiga va reproduktiv sistemasiga salbiy ta'siri tufayli bachadon miomasi bo'lgan bemorlarni davolash zamonaviy genekologiya aktual muammolardan biri bo'lib kolmokda. (Adamyan. L.V. 1990 y)

Ye.M. Vixlyayeva va L.N. Vasilevskaya (1991 y.) G.A.Palladi va avtor. (1986 y.) Ob'ektiv tekshiruv ma'lumotlari va anamnezda quyidagi uziga xos xususiyatlari bo'lgan ayollarning mioma rivojlanish xavfi bo'lgan guruxga kiritadilar. Irsiy moyillik - yaqin karindoshlariga bachadon miomasi, boshqa jinsiy a'zolar o'smalari va mastopatiyasi bulsa. Menarxedan boshlab shuningdek jinsiy infantilizm bilan bog'liq menstrual siklning buzilishi davoga berilmaydigan va asosan uglevod lipid va boshqa modda almashinuvining buzilishlari (Semizlik prediabet, diabet) bilan birga uchrovchi menstrual funksiya buzilishlari.



Gipotalamo-gipofizar-tuxumdon-sistemi-funksiyasi dezorganizatsiyasi bilan birga bog'liq menstrual va reproduktiv funksiya buzilishlari (bepushtlik, homiladorlikning barvakt tuxtashi). Tuxumdon funksiyasi buzilishi (monofazali menstrual sikl, ikki fazali sikl sarik tana funksiyani yetishmovchiligi bilan) ga olib keluvchi residivlovchi ichki jinsiy a'zolar yalliglanish kasalliklari sun'iy abortlar bachadon shillik qavatini ko'p marta kirish natijasida bachadon yalliglanish kasalliklarida va endometriy reseptor aparatidagi uzgarishlar. Tuxumdon va boshqa ichki sekresiya bezlari funksiyasining buzilishlariga olib keluvchi ekstragenital kasalliklari.

Kasallikning patogenetik asoslangan davolash qonsepsiyasi kombinatsiyalangan xirurgik va medikamentoz ta'siri xisoblanadi. Shuning uchun xam yangi operativ texnologiyalar bo'lishiga karamasdan gormonal terapiya uz ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Qonservativ davo maqsadi mioma ulchamlari yeki klinik simp-tomlari ogirligini kamaytirishdan iborat bo'ladi. Qonservativ terapiya ta'siri miomatoz tugun usishini tuxtatish va atrofiya jaraenlarini kuchaytirishga karatilgan. Miomatoz tugun interstisial va subseroz (keng asosda) joylashganda, o'sma kattaligi 12 xaftalik homiladorlikdagi bachadon kattaligidan oshmaganda, meno va metroragiya bo'lmaganda nooperativ davoga kursatma xisoblanadi. Xirurgik davoga karshi kursatma bo'lgan ekstragenital kasalliklari bulsa, shoshilinch operatsiyaga tayerlov davrida qonservativ davo o'tkaziladi. Qonservativ terapiya yutuklari bachadon miomasi erta diagnostikasi va uz vaktida davo choralarini boshlashga bog'liq.

Qonservativ davoga karshi kursatma.

1. Miomatoz tugunli bachadon kattaligi 12 xaftalik homiladorlik ulchamidan katta bo'lishi.
2. Submukoz joylashganda, shuningdek interstisial formasi sentripetal usganda.
3. Bachadon miomasi tuxumdon o'smalari va adenomioz bilan birgalikda kelganda.
4. Bachadon sarkomasi yuzaga kelishida shubxa uygotuvchi tez usish xollarida.
5. Anemiyaga olib keluvchi menorrageiyalar

Qonservativ terapiyaning asosi bo'lgan gormonal preparatlarini kullashga karshi kursatma bo'lib xisoblanadi:

Anamneziga tromboemboliya va trombofelibitlar bo'lishi venalarning varikoz kengashi gipertenziya anamnezida yemon sifatli o'smalar bilan operatsiyalar o'tkazilgan bulsa.

Qonservativ davodan oldin submukoz formadagi bachadon miomasi, tugunli formadagi adenomioz, tuxumdon o'smasi va boshqa kurinishdagi davoga karshi kursatma xisoblangan patologik jaraenlar bor yo'qligini aniqlovchi tekshiruv usullari o'tkazilishi shart.

Davolash kompleks xolda bo'lish kerak, u mioma patogenezi va yuzaga kelish sababini aniqlovi neyroendokrin buzilishlarini korreksiyalash, kasallikning ogir ketishini simptomlar yuzaga kelishini ta'minlovchi ginekologik va ekstragenital kasalliklar terapiyasiga karatilgan bo'lishi kerak.

Bachadon miomasi rivojlanishi bilan menstruatsiya vaktidagi qon yo'qotishlar xam oshib boradi.

Bachadon kiskarish kobilyatining pasayishi endometriyning funksional qavati kuchishi jaraenining buzilishi, mioma anovulyatsiya bilan birgalikda kechsa yeki sarik tana yetishmovchiligi, endometriy giperplaziyasi va poliplari bilan kechuvchi menstrual sikllar menorrageiyalari sababi bo'lishi mumqin. Bachadon miomasi bilan birgalikda kechuvchi surunkali bazal endometritda xam funksional qavat deskvamatsiyasidan keyin komayuvchi yuza regeneratsiyasining seqinlashuvi xisobidan xam menorrageiya kelib chikishini unutmaslik kerak. Qonni sistematik tekshirish shart bo'lib, agar gemoglobin va eritrotsitlar miqdori kamaygan bulsa anemiyaga karshi davo o'tkaziladi. Temir preparatlari buyuriladi. Menorrageiyalarda uterotonik preparatlar xam buyurilib qaysi kim xar doim xam effektiv ta'sir kuzatilmaydi.

Agar menorrageiya bachadon miomasi bilan birgalikda kechuvchi endometriy giperplaziyasi sababli bulsa davolash ushbu jaraenga olib keluvchi patologiyani yo'qotishga karatilgan bo'ladi. Mioma endometriy giperplaziyasi etiologiyasi va patogenezi birta bo'lganda mavjud xolatga karab davo olib boriladi.

Bemorning yeshi va qo`shilib kelgan patologiya xarakterga karab gestogenlar yeki estrogen-gestogen preparatlari bilan davo olib boriladi.

Tez-tez takrorlanuvchi kuchli menstrual qon yo`qotishlar ko`pincha interstisial yeki submukoz miomalarning shillik osti qavatiga usib kirishi bilan bog`liq bo`ladi. Bunday xol xirurgik davo uchun kursatma bo`ladi.

Kompleks qonservativ terapiya sistemasiga organizmga ko`p kirrali ta`sir kursatuvchi vitaminlar xam kushiladi. Vitaminga boy ozik ovkat maxsulotlari (toza meva va sabzavotlar) buyurilib, kishda va erta baxorda sintetik preparatlar kompleksi buyuriladi. Kompleksga V guruxdagi (V1,V6,V15,) vitaminlar, askorbin kislotasi buyurilib bular tuxumdon va buyrak usti bezi steroidogeneziga ta`sir kursatadi. Vitamin Ye gipotalamogipofizar sistema funksiyasining buzilishlarida qo`llaniladi. Vitamin A effektor organlarining esterogenga sezgirligini kamaytiradi va neyroendokrin sistema ko`p zvenolariga regulatsiyalovchi ta`sir kursatish kabi muxim xususiyatga ega. Retinol asetat (Vit. A) 150000-200000 XB drajelar kurinishida menstrual siklning 5- kunidan 25- kunigacha xar kuni 6-12 oy mobaynida buyuriladi. (Kurs dozasi 1.800000-2.400000 XB).

Bachadon miomasi bor bemorlarda ko`p xollarda lipiz almashinuvi buzilishi belgilari kuzatilganligi sababli qonservativ terapiya kompleksida ovkat rejimi korreksiyasida e`tibor beriladi. Ko`pchilik bemorlarda xususan premenopauzal yeshda tana massasining oshishi aniqlangan. Ovkati rasionida organizm uchun zarur bo`lgan barcha ingredientlar bo`lishi kerak. Tez xazm buluvchi uglevodlar va xayvon yeglari cheklanib rasionga tuyinmagan yeg kislotalari saklovchi usimlik moylari, meva va sabzavot sharbatlari kushiladi.

Qonservativ terapiya samaradorligi ko`p jixatdan mavjud ekstragenetal (Xazm sistemasini, gepatobilyar sistema, endokrin buzilishlar) kasalliklarini davolashga bog`liq bo`ladi. Uzoq yillar davomida bachadon miomasida fizioterapiyani kullash xavfli bo`lib xisoblangan. Klinik tajribalar asosan neyroendokrin buzilishlar va yalliglanish kasalliklari fonida rivojlangan bachadon miomasida fizioterapiyani kullash imqoniyati borligini kursatdi.

Masalan mioma bilan kechuvi salpingooforitda rux, mis, kaliyo-dit va proteolitik fermentlar bilan elektroforez, ultratovush terapiya va boshk. kullanilishi mumkin. Neyroendokrin buzilishlar fonida rivojlangan miomada bo`yin-yuz va endonazal ionogalvanizatsiyaning gonodotropinlar ajralishga tormozlovchi ta`siridan samarali foydalaniladi. Bundan tashqari nerv, endokrin va tomir sistemasining ijobiy ta`sir kursatuvchi balneologik faktorlar jumladan yodbromli va radonli vannalar (suvning xarorati 35-36 gradus, kunora, xammasi bo`lib 10-12 muolaja) qo`llaniladi.

Bachadon miomasi asosiy terapiyasi gormonlar xisoblanadi. Bunday gestogen ta`siridagi preparatlar (norkolut, turinal, 17 -OPK) qo`llaniladi. Gestogen xususiyatga ega pregnin (17 a etinil testosteron) xam qo`llaniladi.

Gestogenlarning o`smaga karshi ta`siri o`sma xujayralarning mitotik aktivlikni pasaytirib, usishini tuxtatishdan iborat bo`ladi. Gestogenlar reproduktiv va premenopauzal yeshdagi bemorlarda buyuriladi. Norkolut keng foydalanilib, menstrual sikl saklanganda siklning 16-kunidan 25-kunigacha 10mg/sutka yeki 5-kunidan 25-kunigacha 5 mg/ sut 4-6 oy mobaynida buyuriladi.

G.A. Palladi va avtor (1986y) norkolutni menstrual siklning 16 kunidan 26 kunigacha 5 mgdan 6 oy mobaynida kullaganida yaxshi samara beradi. (Kurs dozasi 300 mg) Avtorlar 62,7% bemorlarda o`sma usishdan tuxtaganligining, 30 % ida o`sma ulchamlari kichrayganligi va 7,2 % bemorlarda o`sma usishga davom etganligini aniqlaganlar.

Premenopauzal yeshdagi ayollarga norkolut tuxtovsiz rejimda 5-10 mg/sutkadan 3 oy mobaynida beriladi. Reproduktiv yeshdagi bemorlarda pregnin siklik sxemada siklning 16- kunidan 26- kunigacha 0,02g (2 tabletka) dan kuniga uz maxal 3 oy mobaynida buyuriladi.

Yuqori gestogen effektga ega 17-OPK menstrual sikl saklangan ayollarga siklning 14-17-21-kunlari 125 mg yeki 250 mg dozada 6 oy mobaynida beriladi. Bu preparatni mushak ichiga kullash nokulayliklari tugdiradi. Bundan tashqari preparatni kullaganda ba`zida uzoq vakt jinsiy a`zoldan qonli ajralma kelishi kuzatiladi.

Yu.D. Landexovskiyning (1986)y klinik materiallari progesteron reseptorlari miqdori bachadon kattaligi bilan teskari boglanishda ekanligini kursatadi. O'sma usishi ulchamiga karab avval miometriyda keyin miomatoz tugunida progesteron reseptorlari miqdori kamayadi. Bu mioma ulchami 8 xaftalik homiladorlikdan oshmaganda gestogenlarning o'sma usishini tuxtatish effekti sezilarli darajada yuqori ekanligini tasdiklaydi.

Reproduktiv yeshda kichik ulchamdagi bachadon miomalarda (6-7) xaftalik homiladorlik ulchamigacha) qonservativ terapiyada kombinatsiyalashgan esterogen –gestogen preparatlari (triiregol, trizistom, marvelon, trikvilar va boshk.) kulanilib ular gonodotrop gormonlar sintezi va ajralib chikishishini tuxtatib kuyadi. Bu esa ovulyatsiyani tuxtatib miomatoz tugun va bachadonda proliferativ jaraenlarni yo`qolishiga olib keladi.

Preparatlar siklik rejimda menstrual siklning 5- kunidan 25 -kunigacha xar kuni bir tabletkadan kabul kilinadi. Uch oydan keyin dvavolash natijalari qontrol kilinib keyin shu davo kursi yana davom ettiriladi. (3 oy). Kombinatsiyalashgan preparatlarini kullash ko`pincha o'sma usish stabilizatsiyasiga kam xolda o'sma ulchamlarininng bir oz kichrayishiga olib keladi.

Gondotrop rilizin-gormonlar antonistlarini kullash bachadon mio-masi qonservativ terapiyasida yangi prinsipial usul xisoblanadi. Ma'lumki bachadon miomasi giperesterogeniya, progesteron tankislik xolati, gipergonodotropizm fonida rivojlanadi. Bu buzilishlar endometriy va sut bezlarida giperplastik jaraenlar bila birgalikda kechadi.

Postmenopauzal davrda kasallik regresga uchraydi. Qaysikim bu davrda qonda esterogenlar miqdorining tabiiy pasayishi va esterogen-progesteron nisbatining normallashuvi kuzatiladi. Sintetik a-GnRG adenogipofiz gonodotroflaridagi gonodoliberin reseptorlari bilan boglanib gonodotropinlar sekresiyasini tuxtatib (adenogipofiz desentizatsiya xoladi) u vaktinchalik farmakologik menopauza yuzaga kelishi ta'minlaydi. Bu esa a-GnRG ning kasallik terapiyasida kulanilishi ko`prok samara berishini kursatadi.

Vulva, qin leykoplakiyasi bor bo'lgan bemorlarni sinchqovlik bilan kuzatuvdan o'tkazish shart. Kraurozda avval gigienik parvarish tavsiya etiladi. Simptomatik vosita sifatida – 0.5% li prednizalon mazi yoki anesteziyal malxam kuyib nazorat kilinadi.

Rakka shubxa kilingan soxalar paydo bo'lsa, biopsiya olishga ko'rsatma xisoblanadi. Agar rak kasalligi isbotlansa vulvoektomiya kilinadi. Erta aniqlash, simptomatik davo;

- Keyingi etapda **Biopsiya** kilinadi, vulvoektomiya.

Bachadon bo'yni eroziyasi

«Eroziya» suzi lotin tilidan olingan bo'lib, erosio- yuza shilinish deyiladi, ya'ni epitelial koplam butunligining buzilishidir. Eroziya aniq ajralib turadigan qizgish rangdagi soxa bo'lib, uning kuyidagi turlari farklanadi.

Eroziya turlari:

- Chin eroziya
- Psevdoeroziya:
- papillyar;
- follikulyar
- Tugma eroziya

Chin eroziya epitelial koplamsiz soxalar bo'lib, qo'shuvchi to'qimasida yalliglanish protsessi bo'ladi. Stromasi - shishli, leykotsitli, limfotsitli infiltrat, tomirlari shishgan, qon bilan tulgan.

Psevdoeroziya

Psevdoeroziya – yoki eroziyaning 1 chi etap bitishidir. Makroskopik kurganda qinda qizil soxalar kurinadi. Mikroskopik kurganda – silindrik epiteliy kurinadi. Psevdoeroziyaning kuyidagi kurinishlari mavjud:

Papilyar psevdoeroziya – bunda qo'shuvchi to'qimada surgichlar paydo bo'ladi.

Follikulyar psevdoeroziyada – bezlar to'qima tubigacha usib kiradi.

Bachadon bo'yni eroziyasi bitishining 2- etapi yassi epiteliyning bitishi va ovula Naboti ning hosil bo'lishi xisoblanadi.

Tugma eroziyada – yalliglanish protsesslari bulmaydi.

Klinikasida qindan shillik-yiringli okchil ajraladi. Jinsiy xaetda yeki asboblar orqali kurganda qontakt qon ketishlar kuzatiladi.

Diagnostikasi qin oynalarda kurganda juda oson kuyiladi, unda qizargan soxalar kurinadi. Bundan tashqari usha qizargan soxadan biopsiya olib sitologik, gistologik kuriladi va kolposkopik biopsiya o'tkaziladi.

Davolashda asosiy kasallik ya'ni yalliglanish, gormonal yetishmovchilikka karshi davolanadi. Eroziya soxasi maxalliy davolanadi, fizioterapevtik muolajalar olib boriladi. Ular effekt bermaganda elektrokoagulyatsiya kilinadi.

Ektropion rak oldi kasalliklarning yana bir turi bo'lib, u bachadon bo'yni soxasida bo'ladi va tug'ruqdan va sun'iy abortlardan so'ng yirtilib, shillik qavat tashqariga chiqib qoladi. Qin orqali kurilganda qin kismida chandik seziladi va u uzok davom etib usti yaraga aylanadi.

Bachadon adenomasi

40 yoshdan yuqori ayollarda uchraydi. Makroskopik kurilganda bir necha millimetrdan 5-6 sm gacha oyokchali bachadon bushligiga karab usuvchi tugunlar kuriladi. Ular bachadon tanasi va bo'ynida joylashadi.

Endometriy polipi

Endometriy polipida qindan shillikli qon aralash okchilli ajralmalar ajraladi, asiklik hayz siklining buzilishi, qontakt qon ketishlar kuzatiladi. Polipning nekrozi va infisirlanishi xam uchrab turadi. Davolashda polipni kirib olinadi va gistologik tekshirishga yuborilishi kerak.

Endometriyning bezli gipertrofiyasi

Organizmدا esterogenlar miqdorining oshishi, uzoq vakt davomida esterogenlarning endometriyga ta'siri va tuxumdon gormoni ta'siri natijasida kelib chiqadi. Klinikasida ko'p qon ketish kuzatiladi. Diagnostikasida usha soxadan olingan bioptat gistologik tekshiriladi.

Davolashda bachadon ichi kirilib, progestagen gormonlar bilan davolanadi.

Bachadon va bachadon bo'yni raki

40-50 yoshdan va undan katta ayollarda uchraydi. Uning ekzofitli, endofitli, aralash formalari bor. Ekzofit formasi gulli karamni eslatadi va butun qinni egallaydi. Rakning bu kurinishida yemirilishdan kura proliferatsiya jarayonlari ustun turadi. Endofit formasi bachadon devorining ichiga karab usadi va rakning bu kurinishida yemirilish jarayonlari ustun turadi. Bachadon bo'yni bochka kurinishini olib, kratersimon yaralar paydo bo'lib, bachadon bo'ynidan asiklik qon ketishlar paydo bo'ladi.

Gistologik kurinishi bo'yicha yassi xujayrali va bezli rak tafovut kilinadi. Rak limfa yo'li bo'ylab tarkaladi. Klinikasida dastlab bemorlarni xech nima bezovta kilmaydi. Keyinchalik okchil va qontakt qon ketishlar kuzatiladi. Suvli okchil bu kasallikning signal simptomi xisoblanadi. Oxirgi stadiyalarda kushni organlarni kisib kuyishi natijasida dizuriya, ich tutilishi kabi simptomlar kuzatiladi.

Umumiy simptomlarga kuyidagilar kiradi: umumiy xolsizlik, og'riq, anemizatsiya, ishtaxasizlik, uykuning buzilishi, kaxeziya, isitma oxirgi stadiyalarda esa generalizatsiyali sepsis, peritonit, pionefroze xolatlari kushiladi.

Diagnostika kuyidagi usullarda olib boriladi:

- Qin oynalarida tekshirish
- Qin va to'g'ri ichak orqali tekshirish
- Sitologik tekshirish
- Kolposkopiya
- Nishonli biopsiya
- Gistologik tekshirish
- Shiller probasi
- Urologik tekshirish

Kuyidagi kasalliklar bilan dif.diagnostika o'tkaziladi:

- Bachadon bo'yni eroziyasi
- Yarali ektropion
- Tuberkulyoz
- Sifilis
- Yumshok shankr
- Bachadon tushishi

Bachadon bo'yni raki klassifikatsiyasi

T – birlamchi o'sma

T_{is} – preinvaziv rak (Ca in situ)

T₁ – bachadon bo'yni raki

T_{1a} – mikroinvaziv karsinoma (3 mm)

T_{1b} – invaziv karsinoma

T₂ – bachadon bo'yni chegarasidan chikkan rak

T_{2a} – qinga infiltrlangan rak

T_{2b} – parametriyga infiltrlangan rak

T₃ – qinning 1/3 kismi infiltrlangan raki

T_{3a} – qinning 1/3 kismi karsinomasi

T_{3b} – chanoq devorlariga tarkalgan karsinoma

T₄ – kichik chanoq chegarasidan chikkan rak

Bachadon bo`yni raqining xalkaro TNM klassifikatsiyasi (1985y)

N – chanoqning regionar limfa tugunlari

N₀ – metastaz yo`q

N₁ – metastaz bor

N₂ – metastazlar palpatsiyalanadi

N_x – limfa tugunlarni aniqlab bulmaydi

M – uzoklashgan metastazlar

M₁ – bor

M_x – tulik aniqlab bulmaydi

Kliniko-anatomik klassifikatsiya

Stadiya 0 – T_{is}

Stadiya I a – T_{1a}N₀M₀

Stadiya I b – T_{1b}N₀M₀

Stadiya II a – T_{2a}N₀M₀

Stadiya II b – T_{2b}N₀M₀

Stadiya III – T₃N₀M₀; T₁₋₃N₁M₀

Stadiya IV – T₄M₁

Davolash stadiyalar bo`yicha amalga oshiriladi:

I stadiyasida – kombinirlangan davo – operativ va nur terapiya o`tkaziladi.

Operativ davo – bachadon ekstirpatsiyasi, ortiklari va regionar limfa tugunlari (iliakal, gipogastral), kichik chanoq kletchatka va qinning yuqori 1/3 kismini olib tashlash bilan amalga oshiriladi.

II-III stadiyasida – rentgen-radiyli kushma nur terapiyasi yuboriladi.

IV stadiyasida – fakat simptomatik davo olib boriladi.

Davolash prinsipi mashhur olim N.P. Petrovning kuyida yezilgan suzlariga muvofik o`tkaziladi:

«Kichik raklar katta operatsiyani, kattalari esa palliativ yoki umuman xech kanda operatsiyani talab kilmaydi.»

Nurli terapiyaga kursatma:

- Rak jarayonining disseminatsiyasi
- Kichik chanoq bushligida yiringli jarayonlar
- Generalizatsiyalashgan infeksiya
- Qondagi uzgarishlar (leykopeniya)
- Jigarning ogir kasalliklari

Bachadon bo`yni raki davolash natijalari (1985y)

I stadiyada – 5 yil va undan ko`p soglom yurganlar – 78,1%

II stadiyada – 5 yil va undan ko`p soglom yurganlar – 57%

III stadiyada – 31%

IV stadiyada – 7,8%

Barcha stadiyalardan – 55%

Bachadon tanasi raki

50 yoshdan katta ayollarda uchraydi. Bachadon bo`yni rakidan 10 marta kam kuzatiladi.

2 xil turi bor:

- Chegaralangan
- Diffuz

Klinikasida qon ketish, sutli, yiringli, qonchil okchilning kelishi va og`riq (metastaz berganda) kuzatiladi va bu xolat juda sekin rivojlanadi. Bemorda shikoyatlar paydo bulguncha 2 yil o`tadi.

Ulim xolatlari kaxeksiya, metastazlar, sepsis, peritonitdan kelib chiqadi.

Bachadon tanasi raqining xalkaro TNM klassifikatsiyasi (1985 y)

T – birlamchi o`sma

T_{is} – preinvaziv karsinoma (Ca in situ)

T₀ – birlamchi o'sma aniqlanmaydi (kyuretajda kirib olib tashlanadi)

T₁ – karsinoma bachadon tanasida

T_{1a} – karsinoma 8 sm gacha

T_{1b} - karsinoma 8 sm dan yuqori

T₂ – karsinoma bachadon bo'yniga tarkaladi

T₃ - bachadondan tashqariga chiqadi

N – chanoq regionar limfa tugunlari

N₀ – regionar limfa tugunlarda metastazlar yo'q

N₁ - regionar limfa tugunlarda metastazlar bor

N_x - regionar limfa tugunlarda metastazlar aniqlanmaydi

M – uzoklashgan metastazlar

M₀ - uzoklashgan metastazlar yo'q

M₁ - uzoklashgan metastazlar bor

Kliniko-anatomik klassifikatsiya

Stadiya 0 – T_{is}

Stadiya I – T₁N₀M₀

Stadiya II – T₂N₀M₀

Stadiya III – T₃N₀M₀; T₁₋₃N₁M₀

Stadiya IV – T₄M₁

Amaliy mashg'ulot № 9

Bepushtlik. Kontrasepsiyaning gormonal va xirurgik usullari.

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -5soat	Talabalar soni: 18
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Reja	Bepushtlik ginekologiyada dolzarb muammolardan bo'lib hisoblanadi. Bepusht oilalarni zamonaviy tashhislash va davolash juftliklarni sog'lomlashtirish va homiladorlik, tug'ruq asoratlarning oldini olishga imqon beradi.
Mavzuning maqsadi: - Xavfli omillarni ishlab chiqishni bilish, - o'z vaqtida tashhislash, - tekshirish usullari hamda yosh oilalarda fertillik buzulishining oldini olish bo'yicha tadbirlarni o'tkazishni, - juftliklarda infertillikni aniqlashning oson va qulay usullarini qo'llashga o'rgatish.	
Mavzuning vazifasi- - -Mutaxassislikga qiziqish, insonparvarlik, ma'suliyat hissiyotlarini shakllantirish; -O'z bilim darajasini kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash talabalarni fikrlash qobiliyatini, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish; -Mavzuni o'rganish borasida talabalarni ijodiy yondoshishga yo'llash.	
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali, ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	kompyuter, multimedia, slaydlar, mavzuga oid bemorlar va boshqalar

Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og`zaki nazorat:savol-javob.

1.2. amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	22. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi. 23. Talabalarni mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi 24. Davomatni nazorat qiladi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Fanni o'rganishda faoydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalaniladi. 3. Slaydlar, multimediyalardan foydalaniladi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar Tomosha qiladilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi. 2. Mustaqil ish beradi. 3. Uyga vazifa beradi.	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

Talabalar egallashi zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar:

- ✓ Bepushtlikka havfli guruhlarini aniqlash va ularda profilaktik chora tadbirlarni olib borishi kerak;
- ✓ Shikoyatlari, analizi, umumiy klinik va ginekologik tekshirish asosida fertillik buzilishining tahminiy tashhisini qo'yish;
- ✓ Bepushtlikning turli shakllari o'rtasida taqqoslama tashhis o'tkazish;
- ✓ Qo'shimcha mutaxassislarni jalb qilib tekshirish rejasini tuzish;
- ✓ Ambulator davolash va kuzatish imqonini aniqlash;
- ✓ Har bir juftlikka individual yondoshishi va to'g'ri sog'lom hayot tarzi haqida maslaxatlar berish;
- ✓ Ambulator kartalar va barcha hisob-kitob hujjatlarini to'ldirish;

Laborator va asboblarni yordamida tekshirish natijalarini tahlil qilish

Foydalanadigan interaktiv usul

«Aukcion» o'yini

26. Talabalar darsga tayyorlanishlari uchun bir oz vaqt beriladi.
27. Talabalar stol atrofida yig'iladilar.
28. Qatnashchilardan biri kalavani oladi va uchini ochib boshqa bir qatnashchiga beradi. Ipni ushlagan qatnashchiga savol beriladi.
29. Savolga to'liq va to'g'ri javob berayotganligi tekshirib turiladi. Keyin kalavani uchi yana boshqa qatnashchilarga uzatilaverilib, o'rgimchak uyasi hosil bo'ladi.

30. Barcha qatnashchilar savollarga javob berib bo'lgach, kalavani uchi yana savol bergan talabaga qaytarib beriladi. Shunday tarzda o'yin yana qaytadan boshlanishi mumkin.

Ogohlantirish: Har bir talaba berayotgan savollarga to'liq va to'g'ri javob olishlari shart.

BEPUSHT NIKOH

Ginekologiya va reproduktologiyaning muhim muammolaridan biri bepust nikoh hisoblanadi. Oilaviy juftliklarning 15% tashqil etuvchi bepust nikoh JSSTning ma'lumotlariga ko'ra millionlab fuqarolarning farzandsiz kelajak, millat genofondining pasayishi va yo'qolish havfi muammolar bilan bogliqdir. Ehtimol, bu muammo tibbiyotdagi boshqa muammolardan dolzarbrokdir, chunki inson tug'ilgandan keyingina o'nga u yoki boshqa tibbiy yordam ko'rsatishning muhimligi va ahamiyati haqida so'z yuritish mumkin.

Bepust nikoh - er-xotinlarning muntazam jinsiy hayot kechirib, bo'yida bo'lishdan saqlanish vositalari (kontratsepsiya) dan fydalanmasdan bola tug'ish yoshida bo'la turib 12 oy mobaynida farzand ko'rmasligi (JSST).

Bepushtlik uchrash darajasi: Bepushtlik 10 dan 20 % oilalarda uchraydi. Bepushtlik birlamchi va ikkilamchi bo'ladi

Birlamchi va ikkilamchi bepustlik orasidagi fark:

Bepushtlik 1 lamchi va 2 lamchiga bulinadi. Bu kursatkich ayollarga xos bo'lib, qaysikim ayolda homiladorlik umuman bo'lmaganligi bu birlamchi homiladorlik. 2 lamchi bepustlik – bu 1 marta homilador bo'lgan. Homiladorlik nima bilan tugaganligidan (abort, tug'ruq, bola tashlash, bachadondan tashqari homiladorlik) kat'iy nazar.

Ayollar bepustligining etiologik omillari

Birlamchi omillar	Ikkilamchi omillar
Genital infantilizm, ayollar jinsiy a'zolari rivojlanish anomaliyalari Tuxumdonlar gormonal funktsiyasining bo'zilishi jinsiy bezlardagi funktsional etishmovchilik Homilador bo'lishga tusqinlik qiluvchi bachadon va bachadonga tegishli a'zolar o'sma kasalligi	Ayollar jinsiy a'zolarining yalliglanish kasalliklari, abortdan keyingi asoratlar, kontratseptivlar.Endokrin tizimi kasalliklari.Jinsiy a'zolar o'smalari. Bachadondan tashqari homiladorlik somatik kasalliklar (tuberkulyoz, qon kasalliklari va boshqalar).Qin, bachadon bo'yni travmatik jarohatlari.Surunkali intoksikatsiya (alkogol, nikotin, og'ir metall tuzlari va boshqalar).Ishlab chiqarish - kasbiy omillar (SVCh maydon, ionlovchi radiatsiyaning kichik dozalari).Sifatsiz ovqatlanish

Ayollar bepustligini sabablari:

- Ovulyastiya yo'qligi – 15 - 20%
- Bachadon ortiqlarining kasallanishi – 20 – 30 %
- Xar xil ginekologik kasalliklar - 15 – 25 %
- Immunologik bepustlik - 3 – 4 %
- Endokrin bepustlik.

2-jadval

Er-xotinlar bepustligini asosiy omillarining aniqlanish chastotasi	
Bepushtlik omillari	Bepushtlik chastotasi
Erkaklar	37%

Ayollar (jami)	82%
Shuningdek:	
- gormonal	56%
- bachadon bo'yni-qin	51%
- nay-peritonal	48%

Bepushtlik diagnostikasi

Bepusht nikoh diagnostikasida jinsiy juftlikning ikkalasini ham tekshirish ko'zda tutiladi, diagnostik tadbirlar ayollarda ham erkaklarda bepushtlikning barcha ehtimoliy omillarini aniqlash uchun to'liq o'tkazilishi lozim.

JSST tavsiyalariga ko'ra bepusht ayollarni tekshirishda quyidagilar aniqlanishi va bajarilishi lozim:

Anamnezni o'rganishda:

1. Oldingi homiladorliklar soni va yakuni: g'ayriixtiyoriy va sun'iy abortlar, jinoiy abortlar; bachadondan tashqari homiladorlik, yelbug'oz, tirik bolalarining soni, tug'ruq va abortdan keyingi asoratlari;
2. Birlamchi va ikkilamchi bepushtlikning davomiyligi;
3. Homiladorlikdan saqlanishda qo'llanilgan usullar va so'ngi homiladorlikdan keyin yoki birlamchi bepushtlik davrida ulardan foydalanish davomiyligi;
4. Tizimli kasalliklar: diabet, sil, qalqonsimon bez, buyrak usti po'stlog'i kasalliklari va boshqalar.
5. Medikamentoz davolanish, bu davolash usuli ovulyatsiya jarayonlariga - qisqa muddatli yoki uzoq salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, sitotoksik preparatlar va qorin bo'shligi a'zolari rentgenoterapiyasi, trankvilizatorlar kabi psixofarmakologik vositalar;
6. Bepushtlik vujudga kelishiga imqon tug'diruvchi jarrohlik amaliyotlari, appendektomiya, tuxumdonlarni ponasimon kesish, bachadon operatsiyalari va boshqalar, operatsiyadan keyingi davrning kechishi.
7. Kichik chanoq a'zolaridagi yallig'lanish jarayonlari va jinsiy yo'l orqali yuquvchi kasalliklar, qo'zg'atuvchi turi, davolanish davomiyligi va xarakteri;
8. Endometrioza kasalligi;
9. Qin ajrilmalari tabiati, tekshirish, davolash (qonservativ, krio yoki elektrokoagulyatsiya);
10. Sut bezlarida ajrilmalarning mavjudligi, ularning laktatsiya bilan bog'liqligi, davomiyligi;
11. Ishlab chiqarish omillari va atrof muhit-epidemik omillar;
12. Ichkilikka ruju qo'yish, toksik vositalarni qabul qilish chekish va boshqalar;
13. Birinchi va ikkinchi darajali qarindoshchilikdagi qarindoshlarni hisobga olgan holdagi irsiy kasalliklar;
14. Menstruatsiya va ovulyatsiya anamnezi-polimenoreya; dismenoreya; so'nggi hayz ko'rishning birinchi kuni;
15. Jinsiy funktsiya, jinsiy hayotdagi og'riqlar.

Ob'ektiv tekshiruv:

✓ bo'yi va tana vazni: turmushga chiqqandan keiin tana vaznining ortishi va boshqalar stress vaziyatlar, ob-havo o'zgarishlari;

- ✓ sut bezlarning rivojlanishi, galaktoreyaning mavjudligi;
- ✓ tuk bilan qoplanganlik va tukning taqsimlanish xarakteri;
- ✓ terining holati.

Organizm tizimlarini tekshirish:

1. ABni o'lchash;
2. Kalla suyagi va turk egarining rentgenogrammasi eki MRT;
3. Ko'z tubi va kuruv maydoni.

Ginekologik tekshiruvlar ma'lumotlari:

Ginekologik tekshiruvni o'tkazishda tekshiruv o'tkazish sanasiga mos keladigan hayz davrining kuni hisobga olinadi. Tashqi jinsiy a'zolarining rivojlanish darajasi va xususiyatlari, tuk bilan qoplanish xarakteri, qin, bachadon bo'yni, bachadon va o'nga tegishli a'zolar xususiyatlari, dumg'aza-bachadon boylamlari holati, servikal nay va qindagi ajralmalarning mavjudligi va tabiati baholanadi.

Kolposkopiya va mikrokolposkopiya bemorni birinchi tekshiruvda bajarilishi shart hisoblangan tekshirish usuli sanaladi, u bepustlikni chaqirishi va genitaliylarning surunkali infektsiyalari belgisi hisoblanishi mumkin bo'lgan kol'pit, tservitsit, endotservitsit va bachadon bo'yni eroziyasi belgilarini aniqlash imqonini beradi.

Tekshirishning laborator va instrumental usullari

Ayollarda bepustlikni to'g'ri tashhislashda tekshiruvning ko'shimcha laborator va instrumental usullarini bajarish muhim ahamiyatga ega. Ayollarni tekshirishning asosiy usullarini o'tkazish muddatlariga amal qilish bu tekshiruvlardagi soxta ijobiy va soxta salbiy natijalarning oldini olish imqonini beradi. JSST bepustlik bilan murojat etgan ayollarni laborator tekshirishda quyidagi davriylik va muddatlarga amal qilishini tavsiya etadi:

1. 2-3 sikl-funksional diagnostika testlari;
2. hayz siklining 3-5 kunida; hayz siklining o'rtasi va ikkinchi fazasidagi gormonal tekshiruvlar (LG, FSG, prolaktin, testosteron, DEA);
3. hayz siklining 6-8 kunida gisterosalpingografiya;
4. hayz siklining 8-14 kunida follikullar o'sishining UT-biometriyasi;
5. hayz siklining 12-14 kunida - immunologik testlar. Bepustlikning immun shakllari antispermal antitelalarning, immunologik qarama-qarshilikni taxmin qilish imqonini beruvchi testlardan biri - Sims-Xuner sinamasi yoki Shuvarskiy post koital test (PKT) sanaladi. Ushbu test antispermal antitelalar mavjudligi xolida, bilvosita fikr yuritish imqonini beradi. Spermatozoidlarga spetsifik antitelalarning mavjudligi immunologik buzilishlarning eng muhim klinik ko'rinishlaridan hisoblanadi. Ayollarda antispermal antitelalar (ACAT) qon zardobida, servikal nay shillig'ida va peritoneal suyuqlik tarkibida mavjud bo'lishi mumkin. Ularning aniqlanish chastotasi 5 dan 65% ni tashqil etadi. Er-xotin juftligini tekshirishda antispermal antitelalarni aniqlashni birinchi bosqichdayok va birinchi navbatda erkaklarda o'tkazish lozim, chunki ASATning eyakulyatda bo'lishi bepustlikning immun omilidan dalolat beradi.

Ayollarda servikal kanal shilligida ASAT ning aniqlanishi: ovulyatsiya oldi kunlari uch turdagi antitelalar IgG, IgA, IgM miqdorini aniqlash uchun servikal kanal shilligidan olinadi. IgG miqdori normada 14% dan, IgA - 15%; IgM - 6% dan ortmaydi.

6. Hayz siklining 18-kunida bachadon naylarining o'tkazuvchanligini aniqlash bilan laparoskopiya qilish;

7. Hayz tsiklining 19-24 kunida progesteron miqdorini aniqlash;
8. Hayz tsiklini boshlanishidan 2-3 kun oldin endometriy biopsiyasi.

Bepusht nikohdagi ayollarni kompleks klinik-laborator tekshirish **bepustlikning quyidagi sabablarini aniqlash** imqonini beradi:

- ✓ seksual disfunktsiya
- ✓ giperprolaktinemiya
- ✓ gipotalamo-gipofizar soxadagi organik kasalliklar amenoreya, estradiol miqdori normal bo'lgan amenoreya
- ✓ estradiol miqdori past bo'lgan amenoreya.
- ✓ oligomenoreya.
- ✓ nomuntazam hayz sikli va (yoki) anovulyatsiya.
- ✓ muntazam hayz siklida anovulyatsiya.
- ✓ jinsiy a'zolarining tug'ma nuqsonlari bachadon naylarining ikki tomonlama berqilishi.
- ✓ kichik chanoqdagi kasalliklar.

Bepushtlik Turlari.

Endokrin bepushtlik.

Endokrin bepushtlik – ovulyastiya prosesining buzilishi bilan xarakterlanadi. Endokrin bepushtlik 4 – 40 % uchraydi.

Sabablari:

- Lyutein fazasi yetishmovchiligi.
- Ovulyastiyalanmagan follikull lyuteinizastiyasi sindromi

Anovulyastiya

- Bepushtlikka olib keluvchi eng ko'p uchraydigan sabablaridan biridir. Surunkali anovulyastiya – patologik xolatning giterogen guruxi bo'lib, gipotalamo – gipofizar – tuxumdon sistemasida sikl jarayonlarning buzilishi bilan xarakterlanadi. Bu xolat uchun ko'pgina klinik, bioximik, morfologik buzilishlar xarakterlidir. Klinikasida DBKK, oligomenoreya, amenoreya, gallokeriya kuzatilishi yoki umuman kuzatilmaligi, girsutizm, virilizastiya bilan birga keladi. Anovulyastiyada androgenlar va LG ning qondagi miqdori normadagiday bo'lishi mumkin va shu miqdori yuqori darajaga yetishi mumkin. Tuxumdonni xajmi me'yoridan bir necha marotabagacha kattalashadi.

Anovulyastiyani davolash.

- Giperprolaktinemiya- dostineks, parlodel (1,25-2,5 mg/sutka agar prolaktin tarkibi norma bo'lsa. Keyin klofit (sxema 5 kundan 9 ko'ngacha siklda 5mg.dan) agar o'zgarish kuzatilmasa, dozani ko'tarish 10-15 mg/sutka gacha) XG (2000 – 3000 ME 2-4-6 kun bazal temperatura ko'tarilishi).
- Gipotalamo -gipofizar sistemasidagi buzilishlarda ("anovulyastiya , gestagen test + (klomifen, XG, pergonal) gestagen testida estrogen (-) xolatda (XG, pergonal yoki RGLG).
- Androgenemiya, tuxumdon funkstiyasini yetishmovchiligi bilan bog'liq bo'lsa: Shayed-5 mg (deksametozon (0,25 – 0,5 mg/sutka) + klofit + XG).
- Tuxumdon giperandrogenemiya estrogenlar ekskrestiyasi va tuxumdon polikistozida (gestogen + klomifen va agonist RGLG + XG).

Menstrual stikl lyutein fazasi yetishmovchiligi

Menstrual sikl lyutein faza yetishmovchiligi – bu tuxumdon funkstiyasining buzilishi bo'lib, tuxumdon sariq tana gipofunkstiyasi bilan xarakterlanadi. Progesteron sintezining yetishmovchiligi, endometriyning sekretor transformastiyasi yetishmovchiligiga olib kelishi, bachadon naylari funkstiyasi o'zgarishiga, urug'langan tuxum xujayra implantastiyasining buzilishiga, qaysiki bepushtlikka yoki homiladorlikning birinchi yarmida bola tashlash bilan namoyon bo'ladi.

Menstrual sikl follekulyar fazada progesteron ishlab chiqarilishi doim past darajada bo'ladi. Qonsentratsiyasining oshishi 1-2 kun ovulyastiyadan oldin va siklning lyutein fazaning 7-8 kunida eng yuqori qonsentrastiyaga yetadi.

LFE sabablari.

- Gipotalamo – gipofizar sistema disfunkstiyasi. Qaysikim fizik va psixik stresslardan travma, neyroinfeksiya va boshqalardan keyin vujudga keladi.
- Giperandrogenemiya tuxumdon, buyrak usti yoki aralash genezda.
- Funkstional giperprolaktinomiya. Gonodotrop gormon sekrestiyasiga va chiqishiga prolaktin yuqori qonsentrastiyasi ta'sir qilishi va tuxumdon speriodogenez ingibistiyasi natijasida LFE yuzaga kelishi mumkin.
- Bachadon ortiqlarining yallig'lanish prostessining cho'zilishi.
- Sariq tana patologiyasi. Peritonial suyuqlikda bioximik o'zgarishlar (prostoglandin va ular metabolitlari makrofas periksi doza tarkibi ko'tarilishi).
- Gipo yoki giperterioz.

LFE diagnostikasi:

- LFE asosiy simptomi bu bepushtlik yoki menstrual sikl boshlanishidan 4-5 kun oldin qonli ajralma kelishi. Tashxis ko'yishda quyidagilarga e'tibor beriladi.

- 1. Bazal temperaturani o'lchash. An'anaviy usul.
- Menstrual sikl davomiyligi bog'liq bo'lmagan xolda lyutein faza davomiyligi 11 – 14 kunni tashqil qiladi. LFE siklning ikkinchi faza qisqarishi bilan xarakterlanadi. Siklda bazal temperatura 2 faza orasida 0,6 S ni tashqil qiladi.

●3. UZI – follikulalar usishi, endometriyning qalinlashuvi menstrual sikl paytida ko'rinadi.

●5. Laparoskopiya - ovulyastiyadan keyin, bu paytda ovulyatsiyalangan follekula o'rnida «stigma» ko'rinadi, xol buki ovulyastiyani borligi sariq tanani to'liq funksiyasini bildirmaydi.

LFE davolash.

●Menstrual siklning ikkinchi fazasida. Menstrastiyadan 10 kun oldin progesteron eritmasi.

●XG – 2-4-6 kun bazal temperatura ko'tarilganida 1500 – 2000 ME.

●Kombinatsiyalangan estrogen - gestagen preparatlar rebaud – natija 2-3 kursda ma'lum bo'ladi.

●Klomifen oddiy sxema bo'yicha:

●siklni 5 kunida 9 kunigacha 50 mg agar natija bermasa, miqdorni 100-150 mg ko'tarish mumkin.

●Giperprolaktinemiya – davo paradel 2,5 – 7,5 mg dan sutkada 4 – 6 sikl davomida tavsiya etiladi.

●Giperandrogenemiya– Shayped-5 mg (prednizolon)0,5 mg/sutkada klomifen va vitaminli kompleks Vitarich 1 t -1 maxal bilan birga beriladi.

LFE profilaktikasi.

LFE rivojlanishiga sabab bo'lgan patologik xolatlarni bartaraf etish.

Nay peritoneal bepustlik va uning uchrashi?

Ayollar bepustligining orasida bu bepustlik 70 % ni tashqil qiladi.

Nay bepustligi – bu bachadon naylarining o'z funkstiyasini bajara olmasligi natijasida kelib chiqadi.

Sabablari:

- Bachadon naylari funkstiyasi buzilishi, infantilizm;
- Bachadon naylarining organiq buzilishi;
- Bachadon naylarining bo'lmasligi;

Nay bepustligi formalari:

Nay bepustligi asosan 2 ta formaga ega:

- Bachadon naylari funkstiyasi buzilishi;
- Bachadon naylarining organiq buzilishlari.

Funkstional buzilishlarga bachadon naylarning qisqaruvchanliginng o'zgarishi gipertonus, gipotonus diskoordinastiya kiradi.

Organiq buzilishlarga o'tkazuvchanlik buzilishi, spayka, sterilizastiya, perekrut va boshqalar.

Bachadon naylari fiziologiyasi.

Bachadon naylari murakkab neyro-gormonal regulyastiyaga ega bo'lib, uning funkstiyasi spermatoid va tuxum xujayrani qabul qilib, embrion va gametalar transporti va oziqlanishni ta'minlaydi.

Bepustlikni peritoneal formasi.


Bepustlikning peritoneal bu formasi jinsiy organlar yallig'lanishdan, jinsiy a'zolarida, kichik chanoq a'zolari va qorin bo'shlig'idagi operativ aralashuvlardan keyin kichik chanoqda chandiqli jarayon yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi.

Nay bepustligini diagnostikasi.

- Anamnez.
- Jinsiy organlar va sistemalardagi xronik yallig'lanish kasalliklar.
- Tug'ruqdan, abortdan va operastiyadan so'ng davrlari kechishini axamiyati.
- Algodismentoriyada. Chanoq og'riqlari sindromi va jinsiy aloqa paytidagi og'riqlar.
- Kontrastepstiyadan foydalanish v uning davomiyligi.

- Jinsiy aloka.
- GSG.
- Laporoskopiya.

1-rasm. Bachadon nayi o'tkazuvchanligining buzilishi



Bepushtlik peritoneal formasi, diagnostikasi.

Asosiy o'rinni anamnez yig'ish, o'tkazgan yallig'lanish kasalliklari, kichik chanoq organlari va qorin bo'shlig'ida bo'lgan operastiyalar va invaziv muolajalar o'tkazgan; GSG, gidrotubastiya, diagnostik qirishlar.

Funkstional nay bepushtligi davosi.

Davo maqsadida psixoterapiya, tinchlantiruvchi preparatlar, trankvilizator, spazmolitiklar (naprosin, idometastin) ishlatiladi. Bundan tashqari balneoterapiya – seravodorod vannalar yaxshi natija berishi ko'zda tutilgan.

Organik nay bepushtligi davosi.

- Operativ va qonservativ davo.
- Qonservativ terapiya, bachadon ortiqlari surunkali yallig'lanishlarida qo'llaniladi. Qon qonservativ davo qabul qilganda nayda qo'pol anatomo – funksional buzilishlar: diseprofik o'zgarishlar, shilliq va mushak qavatlarida qo'shuvchi to'qima rivojlanishi restesstor apparat buzilishiga olib keladi. Qonservativ davo natija bermaganligi 1,5 – 2 yil davomida xirurgik davolash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bepushtlikdagi peritoneal formasi davosi.

Bunda yallig'lanishga qarshi terapiya (prodignozin antibakterial preparatlar fizik omillar yaxshi natija berishi ko'zda tutilgan). Olingan davodan keyin 6-12 oy davomida homiladorlik bo'lmasa, laporoskopiya qilish tavsiya etiladi.

Nay bepushtligi profilaktikasi.

Jinsiy a'zolar yallig'lanish kasalliklarni o'z vaqtida davolash, tug'ruqni tabiiy yo'llar orqali rastial olib borish va tug'ruqdan keyingi davrning asoratli kechishini oldini olish, appendistitni o'z vaqtida diagnostika va davosi.

Bepushtlikka olib keluvchi ginekologik kasalliklar:

- Amenoreya
- Bachadon ichi sinexiyalari
- Bachadan bo'yni kasalliklari
- Immunologik
- Psixogen

Diagnostika.

- siklik o'zgarishlarning sub'ektiv xisssiyotlari.
- Funksional diagnostika testlari orqali tekshiriladi.
- Progesteron yoki progesteron-gestagenlar bilan gormonal sinamalar o'tkazish

- GSG va UZI bachadon shilliq qavatining yupqalashgan yoki bachadon ichi sinexiyalari mavjudligi ko'rinadi.
- Gisteroskopiya – sinexiyalar joylashgan joyi va xarakteri aniqlanadi.

Davosi.

Gisteroskopiya nazorati ostida sinexiyalarni parchalash, BIV qo'yish 2 – 3 menstrual siklda siklik gormonoterapiya buyurish.

Oqibati: ammenoreyaning bachadon formasida ayniqsa yomon va endometriyning bazal qavati zararlanish darajasi va chuqurligiga bog'lik.

Endometrioiz

● Endometrioiz – patologik prostess bo'lib qaysiki miometriyda va boshqa jinsiy organlar sistemasida va undan tashqarida o'choklar hosil bo'lishi, ular epitelial va stromol elementlardan tuzilishi bilan xarakterlanadi. Endometrioiz to'qimasida menstrual sikl fazalarida xos yaqqol o'zgarishlar kuzatiladi.

Patogeneiz:

Genital endometrioiz murakkab patogeneizga ega. Ilmiy tekshirishlarga asoslanib, kasallik irsiy xarakterga ega ekanligi. Endometrioiz rivojlanishida multifaktorial irsiyatiga ega.

Endometrioiz xar xil formalarida klinik kurinishlar:

- Kasallik uzoq cho'zilishi bilan, progress jarayoni bilan xarakterlanadi.
- Asosiy simptomlardan og'riq, menstruastiyadan oldingi kunlarda yoki menstruastiya paytida og'riq paydo bo'lishi yoki birdan kuchayishi; uzoq cho'zilgan yoki og'ir kechgan endometrioizda og'riq menstruastiya tugagandan keyin xam bezovta qiladi. Og'riq bachadon bo'yni qin qismida endometrioizga xarakterli emas.
- Kasallangan organ o'lchami kattalashuvi yoki menstruastiya paytida va oxirida endometrioizda ekstragenital o'choqlar kuzatiladi.

Endometrioiz xar xil formalarida klinik ko'rinishlar:

- Menstrual funksiya buzilishi xarakterli belgi bo'lib, bu oligomenoriya tipida kuzatiladi. Ichki va tashqi endometrioizda buzilishlar kuzatiladi menorragik pre va postmenstrual qonli ajralmalar menstruastiya ritmining buzilishi va boshqalar.
- Ichki va tashqi endometrioizda bepushtlik ko'p uchraydi. Sababi xar xil: anovulyastiya kichik chanoqda spaechnyy prostess, endometriyda uzgarishlar va boshqalar.

Nima uchun endometrioizda bepushtlik kuzatiladi.?

Agar endometrioiz o'choqlari bachadon naylarida tuxumdonda, kichik chanoq devorlarda joylashgan bo'lsa, stiklik qonli ajralmalar shu o'choqlardan qorin bo'shlig'iga tushadi va kichik chanoq organlari orasida spayka hosil bo'lishiga olib keladi. Bu o'zi bachadon naylari o'tkazuvchanligi buzadi, natijada bachadon naylariga tuxumdondan tuxum xujayra tutilishi kuzatilmaydi va spermatozoid bilan urug'lanish bo'lmaydi. Bundan tashqari endometrioizda tuxumdonda follekula yetilish jarayoni buziladi va ovulyastiya shu bilan sariq tana funksiyasi xam zararlanadi.

Endometrioizda maxsus modda ishlab chiqariladi, immunitet buziladi va maxsus xujayralar aktivlashtiriladi. (makrofinlar, leykositlar) ayrimlari spermatozond zararlanishini susaytiradi. Bu tuxum xujayra urug'lanishini qiyinlashtiradi va homiladorlikni normal rivojlanishiga qarshilik ko'rsatadi.

Bu faktorlar shuni ko'rsatadiki, endometrioiz 5 – 33 % bepushtlikka sabab bo'ladi.

Endometrioiz diagnostik usullari.

Tashxis asosan klinik simptomlarga qarab va ginekologik ko'ruvga asoslanadi. Endometrioiz kasalligi simptomlari ko'pgina jinsiy organ kasalliklari bilan o'xshashligi (yallig'lanish kasalliklari bachadon va tuxumdon o'smalari) tufayli diagnoz ko'yishda ko'pgina maxsus tekshirishlar (UZI diagnostika, laparaskopiya, GS va GSG) o'tkaziladi.

Diagnostika. Jinsiy organlar endometrioizni aniqlash qiyin masala xisoblanadi. Keyingi yillarda endoskopik usullarni ishlab chiqarilishi bu kasallik xaqidagi bilimlarning rivojlanishi bu kasallik diagnostikasini osonlashtirildi.

2-rasm. Bachadon endometriozi



Genital endometrioiz davosi.

Endometrioiz davosi kompleks ravishda differentsiyalashgan. E'tiborga olish kerak bo'ladi:

- Kasal yoshiga
- Reproduktiv funksiyaga munosabati
- Uchoq joylashganligi
- Jarayonning og'irlik darajasi.

Bizning mamlakatda dori preparatlarni siklik ravishda menstrual siklning 5 kunidan 25 kunigacha ichish va 7 kunlik interval bilan qo'llaniladi. Dori preparatlar qabul qilish davomiyligi endometrioiz joylashgan joyiga va tarqalishga bog'lik.

● Oxirgi paytda danazol yaqqol antigonadotropin ta'siriga ega. Bundan tashqari antiestrogen tamoksifen, qaysikim endometrioiz o'choqdagi xujayra stitoplazmasi estrogen resteptorlarni bloklaydi. Laporoskopiya kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, uzoq qabul qilingan tamoksifen preparati endometrioiz o'choqlar yo'nalishiga.

Kombinistiyalashgan terapiya

Kombinirlashgan terapiya tashqi endometrioizda 3 etapda:

- endometrioiz o'choqlari endokoagulyastiyasi, laparaskopiya paytida
- danazol qabul qilish gormonal terapiya – bilan 3 – 9 oy davomida 1 kunda 400 ml gacha. Novinet sxema bilan 3 – 4 oy davomida ichiladi
- takror laparaskopiya, qolgan endometrioiz o'choqlari endokoagulyastiyasi va homiladorlik bu terapiyadan so'ng 46 % ayollarda kuzatilgan.

Endometrioiz rivojlanishida immun sistemasidagi o'zgarishlarni e'tiborga olgan xolda immunomodulyatorlar qo'llaniladi.

Xirurgik davo:

Endometrioizda xirurgik davo adenomioz tugunli shaklida, adenomioz diffuz shakli mioma bilan birga kelishi, III daraja adenomiozda, tuxumdon endometrioiz kistalarida va tarqalgan retrostervikal endometrioizda qo'llaniladi. Taxisdan keyin 2-3 oy davomida gormonoterapiya qo'llaniladi. Restidivni oldini olish maqsadida.

servikal bepushtlik

Bachadon bo'yni kanali orqali spermatozoidlar bachadon bo'shlig'iga tushadi. Stervikal kanal o'tkazuvchanligi buzilishi chaqiriladi, tug'ma noto'g'ri rivojlanishi, yoki abort paytidagi va tug'ruq paytidagi travmalar, bepushtlikka sabab bo'ladi. Ayrim xollarda stervikal kanal shilliq moddasi, juda yuqori darajada uvishqoqlikka ega bo'lib, tarkibida antispermal antitelo, qaysiki spermatozoidlar xarakatini bloklaydi. Bu stervikal bepushtlik deyiladi.

Davosi.


Yallig'lanishga qarshi: tuxumdon funkstiyasini normolizastiyalash; 6 oy davomida prezervativ ko'llash – barerterapiya.

Anatomik o'zgarishlar kuzatilsa, ko'rsatma mionstruktiv plastik operastiya.

Immunologik bepushtlik

Immunologik bepushtlik – bunda ayol yoki erkak organizmida spermatozoidlarga karshi oqsil ishlab chiqariladi. Bu antitelalar spermatozoidlar xarakatini sustlashtiradi va tuxum xujayra urug'lanishiga yo'l ko'ymaydi. Antispermial antitelalar ayol qonida bachadon bo'yni shillig'i bachadon naylari sekretida bo'lishi mumkin.


3-rasm. Autoimmun antitelalar ta'sir mexanizmi



Bepusht ayollarni tekshirish usullari:

Bepusht bo'lgan ayollarni asosiy usullarni sistemali muddatda o'tkazish.

- 2-3 siklda funktsional diagnostik testlari;
- menstrual siklning 3-5 kunlari; siklning o'rtasida va 2 chi fazasida gormonal tekshirish. (LG, FSG, prolaktin, testosteron);
- menstrual siklning 6-8 kunlari GSG;



Bazal temperatura va uni o'lchash.

Bazal xaroratning grafigi olingan natijalar asosida tuziladi. Sariq tana gormoni ta'sirida bazal temperatura menstrual siklning o'rtasida 0,4 S oshadi (37S gacha va undan yuqori) va 12-14 kunlar xarorat shu me'yorda saklanadi. Menstruastiyadan 1-2 kun oldin 36S gacha pasayadi. Bu temperatura chizig'i 2 fazali nomlanib, normal ovulyastiyali menstrual sikldan dalolat beradi. Menstrual sikl davomida bazal temperatura 37S gacha saqlansa, bu monofazali (bir fazali) deb nomlanadi. Ovulyatsiya yo'qligidan bo'ladi.

Bazal temperatura va uni o'lchash.

Bazal temperatura - asosan to'g'ri ichakda (og'izda yoki qinda xam) o'lchanadi.

- Butun menstrual sikl davomida 1 soxada
- Ertalab uyqudan keyin joydan turmasdan
- 1 vaqtda
- birta gradusnik bilan 4-5 sm ga tug'ri ichakka kiritiladi
- 5-7 minut davomida
- 2-3 menstrual sikl davomida.

Gormonal tekshirish o'tkazishdan maqsad

Gormonal tekshirishlar nafakat tuxumdonlar funksiyasini baxolashda va turli gormonlarni qonsentrastiyasini aniqlashda, boshqa endokrin bezlarni (gipofiz, qalqonsimon bez, buyrak usti bezi) gormonlarni reproduktiv faoliyatga ta'sir etadi. Ayol organizmidagi shilliq prostess-larni inobatga olib, ayol organizmidagi qon analizi menstrual sikl 2-5 va 20-23 kunlari o'tkaziladi.

Bemorlarni gormonal tekshirishlarga tayyorlash.

Emotsional stabil, och qoringa qon olinadi, jinsiy aloqadan saqlanadi, tekshirishdan 2 hafta oldin antibiotiklar, antikoagulyantlar, sulfanilamid va antigistamin preparatlar, salistilatlar va gormonlar qabul qilinmaydi.

GSG (gisterosalpingografiya) — bachadon bo'shlig'i va bachadon naylari o'tkazuvchanligini rentgenologik tekshirish kontrast modda bilan GSG yordamida endometriydan poliqlar, shilliq osti miomasi bachadondagi nuqsonlar aniqlanadi

Ultratovushli monitoring

Ultratovushli monitoring— bu menstrual sikl davomida tuxumdonlarda va bachadonda bo'ladigan o'zgarishlarni UTT yordamida tekshirish.

Laparoskopiya va o'nga ko'rsatmalar:

Laparoskopiya — bu operatsiya bilan mikrokesmalar qorinda qilinib, maxsus optikali asbob yordamida qorin bo'shlig'i a'zolari ko'riladi.

Gisteroskopiya.

Gisteroskopiya — Optik apparat bilan bachadon bo'yni orqali kiritilib, bachadon bo'shligi tekshiriladi.

Endometriy biopsiyasi

Endometriy bo'lakchasi gistologik tekshiruv uchun olinadi .

Erkaklar bepushtligi

Spermaning fiziologik xususiyatlari o'zgaradi. Yallig'lanish kasalliklari, travmalar, fizik va ximik faktorlar ta'sirida sperma o'zgarib, bepushtlikka olib keladi.

Sperma xususiyatlari quyidagi xollarda o'zgaradi:

- Neyroendokrin buzilishlar;
- Alkogolizm;
- Morfinizm;
- Yallig'lanish kasalliklarida (orxit);
- Chandiqli o'zgarishlar;
- Uretraning rivojlanish nuqsonlari (gipospadiya, epispadiya);

Spermaning quyidagi o'zgarishlari bepushtlikka olib keladi:

- Azospermiya
- Nekrospermiya
- Aspermiya
- Sperma yo'qligi.

Soglom erkak spermogrammasi.

- Eyakulyat miqdori $\geq 2,0$ ml RN $7,2 \times 7,8$
- Spermiylar soni 1 ml $\geq 20 \times 10^6$ /ml
- Aktiv xarakatchan $\geq 25\%$
- Xarakatchan $\geq 50\%$
- Morfologik normal formalari $\geq 50\%$
- Aglyutinanlar yo'q.
- Agregatlar yo'q.
- Leykostitlar $1,0 \times 10^6$ /ml

● Eritrostitlar yoʻq.

Davolash:

Antispermial antitelar boʻlsa, glyo`qokortikoidlar ishlatiladi. Nospestifik davolash metodlariga klomifen, tamoksifen, menstrerolan, testosteron, gonadotropinlar kiradi.

● Varikostelda – tomirlar embolizatsiya qilinadi., Azospermiyada Miagra 1t- 1 maxal beriladi.
t.f.d.,

Ayollar bepushtligini davolash usullari

Bepushtlikda davolash usullarini tanlash va ularning izchilligini aniqlash har bir aniq holatda kasallikning davomiyligi, bachadon naylaridagi oʻzgarishlarning namoyon boʻlishi, bemorning yoshi va somatik holati kabi omillarga bogʻliq.

Bepushtlikning nay-peritonal shakllarini davolash

Bachadon naylarining organik shikastlanishidagi nay bepushtligini davolash ancha murakkab sanaladi. Qonservativ usullar ichida bugo`ngi kunda birinchi davolash usuliga yalligʻlanish jarayonining kuchayishi fonida oʻtkazilgan yalligʻlanishga qarshi kompleks davolash kiradi.

Oʻtkaziladigan davolash usuli yalligʻlanish jarayonini keyinchalik kompleks antibakterial va fizioterapiya, sanatoriya-kurort davolash usullari bilan koʻrsatmalar boʻyicha yalligʻlanish jarayonining zoʻrayish induktsiyasidan iborat. XX asrning 60 yillarida ginekologiya amaliyotiga tadbiriq etilgan rekonstruktiv nay mikroxirurgiyasi nay bepushtligini davolashdagi yangi, bosqich boʻlib qoldi, salpingostomatoplastika kabi jarroxlilik amaliyotlarini bajarish imqonini yaratdi. Endoskopik texnikaning takomillashuvi bu jarroxlilik amaliyotlarini kator holatlarda laparoskopiya paytida bajarish imqonini berdi. Ushbu usul kichik chanoq aʼzolarining boshqa patologiyasini ham tashhislash imqonini berdi: endometrioz, bachadon fibriomiyomasi, tuxumdonlarning kistali oʻsimtalari, tuxumdonlar polikistoz va boshqalar. Laparoskopiyada aniqlangan patologiyani bir vaqtning oʻzida xirurgik korreksiyalash imqoniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Bepushtlikning endokrin shakllarini davolash

Bepushtlikning endokrin shakllari bilan ogʻrigan bemorlarga tayinlanadigan davolash tadbirlari ovulyatsiya jarayonini gormonal boshqarish tizimining shikastlanish darajasi bilan belgilanadi. Aniqlangan darajadan kelib chikkan xolda bepushtlikning gormonal shakllari bilan ogʻrigan bemorlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1-guruh - juda ham polimorf, shartli ravishda umumiy nom "polikistoz tuxumdonlar sindromi" umumiy nay bilan yigʻilgan. Bu guruh uchun qonda LG miqdorining ortishi, FSG miqdorining normal yoki koʻtarilgan boʻlishi, LG va FSG nisbatining ortishi, estradiol darajasining normal yoki pasaygan darajasi.

Davolash individual tarzda tanlanishi va bir nechta bosqichlardan iborat boʻlishi mumkin.

A) Estrogen-gestagen dori vositalarini "rebaund-effekt" printsipi boʻyicha qoʻllash.

B) Tuxumdonlar funksiyasini bilvosita stimullovchi vositalar-klomifen-tsitrat (klostilbegit) ni qoʻllash. Giperandrogeniya mavjudligida deksametazon bilan birga tayinlanadi;

B) tuxumdonlar funksiyasini bevosita stimullovchi vositalar – metrodin XG-ni qoʻllash.

2-guruh - gipotalamo-gipofizar disfunktsiya bilan ogʻrigan bemorlar. Hayz siklining turli buzilishlari (lyutein faza yetishmovchiligi, anovulyator siklar yoki amenoreya), tuxumdonlardan estrogenlarning yakqol namoyon boʻlgan sekretsiyasi va prolaktin va gonadotropinlarning past darajasi kuzatiladigan ayollar. Ushbu guruh bemorlarida ovulyatsiyani stimullovchi preparatlarni qoʻllash izchilligi quyidagicha: gestogen-estrogen preparatlar, klomifentsitrat (klofit), turli birikmalarda-deksametazon, parlodel va/yoki XG bilan boʻlishi mumkin. Samara bermaganda - menopauzal gonadotropinlar, XG tavsiya etiladi.

3-guruh - gipotalamo-gipofizar yetishmovchiligi bilan ogʻrigan ayollar. Tuxumdonlar genezidagi estrogenlar kam yoki yoʻq boʻlgan amenoreyali ayollar; prolaktin miqdori oshmagan, gonadotropin miqdori

past yoki o'lchab bo'lmaydi. Faqat menopauzal gonadotropin XG yoki LG-RG analoglari bilan davolash mumkin.

4-guruh - tuxumdonlar yetishmovchiligi mavjud ayollar. Tuxumdonlarida estrogen ishlab chiqarilmaydigan, gonadotropinlar miqdori juda yuqori bo'lgan amenoreyali ayollar. Xozirgi ko'ngacha bu guruh ayollarida bepushtlikni davolash istikbolsiz sanaladi. "Quyilish" ko'rinishidagi sub'ektiv tuyg'ularni bartaraf etishi uchun o'rindosh gormonal terapiya ko'llaniladi.

5-guruh - Prolaktin miqdori yuqori bo'lgan ayollar. Bu guruh bir xil emas.

A) Gipotalamo-gipofizar sohada o'sma mavjud bo'lgan giperprolaktinemiya ayollar. Hayz siklida turli buzilishlar mavjud ayollar (lyutein faza yetishlovchiligi, anovulyator tsikllar yoki amenoreya), prolaktin miqdori yuqori, gipotalamo-gipofizar sohada o'sma mavjud bo'lgan ayollar. Ushbu guruh bemorlari o'rtasida gipofiz mikroadenomasi mavjud bemorlarni ajratish lozim, bu bemorlarni akusher-ginekolog, neyroxirurg va okulistning sinchqov nazorati ostida parlodel yoki norprolakt bilan davolash mumkin, shuningdek gipofiz makroadenomasi bilan og'rigan ayollarni ham ajratish lozim, bu bemorlarni neyroxirurg davolashi zarur, bunda yoki gipofiz radioterapiyasi o'tkaziladi, yoki o'sma olib tashlanadi;

B) Gipotalamo-gipofizar soxa shikastlanishsiz giperprolaktinemiya bemorlar. Tuxumdon genezidagi estrogenlar ishlab chiqarilishi aniq bo'lgan guruhdagi hayz sikli buzilgan, prolaktin miqdori yuqori bo'lgan ayollar. Bepushtlikning bu shaklini davolashda parlodel va norprolakt tanlanadi.

Immunologik bepushtlikni davolash servikal shillliqdagi immun to'siqni yengish uchun qondomterapiya, nospetsif qo'shimchalar desensibilizatsiya, ayrim immunsupressorlar va qo'shimcha reproduksiya usullari (er spermasi bilan sun'iy inseminatsiya (urug'lanish) qo'llaniladi).

Qo'shimcha reproduksiya usullari

Er-xotin bepushtligini davolashda konservativ davolash usullaridan foydalanish va zarur bo'lganda jarroxdik aralashuvi kutilgan natijani bermagan holatlarda yordamchi reproduksiya usullaridan foydalanish imqoniyatlari mavjud. Bu usullarga:

- ✓ sun'iy inseminatsiyalash (SI);
- ✓ er spermasi bilan (ESSI).
- ✓ donor spermasi bilan (DSSI)
- ✓ ekstrakorporal urug'lanish:
- ✓ embrion ko'chirib o'tkazish bilan (EKEU)
- ✓ ootsitlar donatsiyasi bilan (ODEU)
- ✓ surrogat onalik.

Bu usullardan foydalanish va qo'llash oilani rejalashtirish va reproduktologiya markazi mutaxassislari qo'lida, biroq amaliyotchi shifokorlar ushbu usullardan foydalanish imqoniyatlarini ularni qo'llashga bo'lgan ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni bilishlari zarur.

Sun'iy inseminatsiya (urug'lantirish) deb homiladorlik boshlanishi uchun uning jinsiy yo'llariga sperma ko'rinishidagi yot genetik materialni kiritishga aytiladi. Spermani kiritish usuliga qarab SUNing quyidagi usullari qo'llaniladi:

- ✓ qin usuli, sperma shprints yordamida qinning orqa gumbaziga kiritiladi.
- ✓ intratservikal usul, bunda sperma bo'yin kanaliga yuboriladi, qin tarkibi bilan qontaktida bo'lishidan saqlaniladi.
- ✓ bachadon usuli spermani bevosita bachadon bo'shlig'iga yuborishni mo'ljallaydi.
- ✓ transabdominal usul;
- ✓ bunda urug' plazmasidan ozod bo'lgan spermatozoidlarni bir yoki ikkita tuxum hujayra bilan bachadon naylari chuqurchasiga kiritiladi (GIFT).

Har bir usul ijobiy va salbiy tomonlarga ega. Qin usuli eng oddiy hisoblansada, qin tarkibi (RN, bakteriyalar va boshqalar) spermatozoidlarga noxush ta'sir ko'rsatadi, bu esa homiladorlik boshlanish imqoniyatlarini kamaytiradi.

Intratservikal usulda bachadon bo'yni shillig'ida antispermal antitelolar mavjudligi bilan bog'liq immunologik qarama-qarshilik rivojlanishi mumkin.

Spermani bachadonga kiritish infektsiya tushishiga imqon tug'dirishi mumkin, ko'pincha bachadonning og'riqli qisqarishlari bilan birga kechishi mumkin.

Eyakulyatni yaxshilash (qontsentratsiyani oshirish) uchun inseminatsiyadan oldin eyakulyatni fraktsiyalash tavsiya etiladi.

Er spermasi bilan inseminatsiyalashga ko'rsatma

Er spermasi bilan sun'iy inseminatsiyalash uretra gipospadiyasi, impotentsiya, eyakulyatsiyaning bo'lmasligi, spermatozoidlarning normal harakati saqlangan va ularda morfologik o'zgarishlar bo'lmagan holdagi oligospermিয়া qo'llaniladi. Bunday holatlarda eyakulyat (urug' suyuqligi) tsentrifugalanadi va spermatozoidlar bilan tuyintirilgan fraktsiya servikal kanalga yuboriladi. Bundan tashdari, bir nechta eyakulyatlar qontsentratlarini yig'ish mumkin, buning uchun esa murakkab moslama talab etilmaydi.

ESSI uchun ayolning turmush o'rtog'i spermasidan foydalanish mumkin, bu sperma sterilizatsiyadan oldin bevosita krioqonservatsiya uchun olingan, sitostatik dori vositalari bilan davolanish tayinlanishidan oldin yoki nurlantirishdan oldin olingan bo'lishi mumkin.

Bachadon bo'ynidagi anatomik-funksional, immunologik va yallig'lanishli o'zgarishlarning ayrim shakllari qayd etilgan ayollarda ESSI o'tkazishga ko'rsatma beriladi, chunki o'zgarishlarning bu shakllarida servikal antogonizm paydo bo'ladi. Vaginizm, chanoqson bo'g'implari kasalliklari ham er spermasi bilan inseminatsiyalashni o'tkazishga asos bo'lishi mumkin.

Donor spermasi bilan inseminatsiyalashga ko'rsatmalar

Donor spermasi bilan sun'iy inseminatsiyalash tibbiy ko'rsatmalar bo'yicha amalga oshirildi, bu ko'rsatmalar to'liq va nisbiy bo'lishi mumkin. To'liq ko'rsatmaga azospermিয়া kiradi, nisbiy ko'rsatmaga:

1. Spermatozoidlarning morfologik o'zgarishlari va ularning davolab bo'lmaydigan harakatining bo'zilishi bilan birgalikda oligospermিয়া va oligostenoterato-zospermিয়া;
2. Er-xotinlarning rezus-faktor bo'yicha to'g'ri kelmasligi;
3. Avloddan avlodga o'tishi mumkin bo'lgan irsiy kasalliklar.

DSSI o'tkazishga qarshi ko'rsatmalar ham mavjud. Muolajani narkoz ostida, er-xotinlarning inseminatsiyaga yozma tasdiqlangan roziligisiz, er-xotinlarni sinchqov tekshiruvdan o'tkazmasdan va ushbu muolajani o'tkazishga rad etib bo'lmaydigan ko'rsatmalar aniqlanmasdan, homiladorlikka biror-bir qarshi ko'rsatmalar bo'lganda, bepushtlikni davolash yoki operatsiya yo'li bilan bartaraf etish imqoni bo'lganda, bitta ayolda bir martadan ortiq (bola nobud bo'lgan holatlar bundan istisno) o'tkazish mumkin emas.

Ayolning nogiron bo'lib kolishiga imqon yaratuvchi yoki homiladorlik tug'ruq va uning hayotiga havf soluvchi umumiy kasalliklar SIga qarshi ko'rsatma hisoblanadi.

SI dan oldin 2-3 sikl davomida funksional diagnostika testlari bo'yicha tekshiruvdan o'tish yoki hayz siklining lyutein fazasi o'rtasida qondagi progesteron miqdorini aniqlash tavsiya etiladi.

Bu ovulyator sikllarining mavjudligini shuningdek ovulyatsiyadan oldingi kunlarni aniqlash imqonini beradi. Anovulyatsiya holatlarida SI o'tkazishdan oldin ovulyatsiya induktsiyasini o'tkazish imqoniyati aniqlanadi.

SI uchun vaqtni tayinlanishi

Ovulyatsiyaning aniq; sanasini aniqlashda noaniqliklar bo'lishi mumkinligi bois SI ni sikl mobaynida 3 marta o'tkazish tavsiya etiladi. 27 kunlik hayz siklida inseminatsiyani 11-kundan, 28 kunlik siklda - 13-kundan boshlab va 2 kun oralig'ida 2-3 marta takrorlash zarur.

Inseminatsiyadan keyin spermani ushlab qolish uchun 1 soat mobaynida yotish yoki bo'yin kalpokchasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Ekstrakorporal urug'lanish (EKU)

«Probirkadagi bolalar» kim? va qanaqa?

Bu embriondan rivojlangan bolalar, tuxum xujayra va spermatazoid «probirkada» uchrashib bo'lgusi onaga o'tkaziladi. Bu usul bilan bepushtlik bilan kurashilmokda. Professionallar bu usulni ekstrakorporal urug'lantirish (lot. extra — «tashqi», va corpus, *corporis* — «tana»); qisqa — ECU deb atashadi. ECU asosida tibbiyotda yangi yo'nalish paydo bo'ldi. Bu yo'nalish yordamchi reproduktiv texnologiyalar (YoRT).

Probirkada urug'lantirilgan bolalar oddiy bolalardan farq qilmaydi. Ular xam kutilgan bolalar, shuning uchun ularni ota-onasi sevib parvarishlaydi. Ular sog'lom bo'lishadi, agar kasal bo'lishsa, xuddi tengdoshlariday bo'ladi.

Ootsitlarning organizmdan tashqarida urug'lanishi, ularning eqilishi va bachadon bo'shlig'iga embrionlarning ko'chirilish. Bepushtlikni davolashda so'nggi yillarda ekstrakorporal urug'lanish (ECU) usuli keng tarqalmoqda. Hozirgi paytda yordamchi reproduksiyaning ushbu usulini qo'llash bo'yicha aniq ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar ishlab chiqilgan

ECU ga ko'rsatmalar:

1. Ayollar bepushtligi:

- ✓ mutloq nay bepushtligi yoki ularning berk bo'lishi;
- ✓ endometriozi terapiya samara bermaganda.
- ✓ endokrin bepushtlik (gormonoterapiya samara bermaganda);
- ✓ noaniq etiologiyali bepushtlik;
- ✓ tservikal faktor bilan bog'liq bepushtlik (bachadon ichi inseminatsiyasi bilan davolash muvoffakiyatsiz bo'lsa);
- ✓ tuxumdonlarning funksional yetishmovchiligi yoki yo'qligi bilan bog'liq;
- ✓ mutloq bepushtlik (gonadalar disgenезiyasi, vaqtdan avvalgi menopauza, rezistent tuxumdonlar), bu holatlarda ECU va ECU (embrion ko'chirib o'tkazish) da donor ootsitlaridan foydalaniladi.


2. Erkaklar bepushtligi: 1-2 darajali oligoastenozoospermia.

3. Aralash bepushtlik (qayd etilgan ayol va erkaklar bepushtligi shakllarining birga kelishi).

ECU ga qarshi ko'rsatma:

1. Homiladorlikni ko'tarishga qarshi ko'rsatma sanaladigan somatik va ruhiy kasalliklar (tor mutaxassislar xulosasi bo'yicha).
2. Tug'ma anomaliyalar: bir xil turdagi rivojlanish nuqsonlari bilan bolalarning takroriy tug'ilishi; oldin ham xromosoma anomaliyalari bilan bolaning tug'ilishi; ota-onalardan biridagi dominant irsiy kasalliklar.
3. Irsiy kasalliklar.
4. Bachadon va tuxumdonlarning giperplastik holatlari.
5. Bachadon rivojlanishidagi nuqsonlar.
6. Bachadon bo'shligi sinexiyasi.
7. ECU boskichlari.
8. Endokrinologik va exografik monitoring nazorati ostida superovulyatsiyani stimullash.
9. Exografiya nazorati ostida preovulyator follikullar aspiratsiyasi.
10. Tuxum hujayra va embrionlarni ekish.
11. Embrionlarni bachadon bo'shlig'iga ko'chirib o'tqazish.

11-rasm. Embrionni bachadon ichiga olib o'tkazish



Eku va uning etaplari

EKU – ekstrokorparal urug'lantirish. Tuxum xujayraning ayol organizmidan tashqarida – «probirkada» urug'lantirish.

Etaplari:

- Superovulyastiya indukstiyasi;
- Follekulyar punkstiyasi va tuxum xujayrani olish;
- Tuxum xujayrani urug'lantirish va embrionlar kultivastiyasi.
- Bachadon bo'shligiga embrionlarni o'tkazish.

Superovulyastiya indukstiyasi

Superovulyastiya indukstiyasi (tuxum xujayrani gormonal boshqarish) – bir menstrual sikl jarayonida bir nechta rivojlangan follikul va tuxum xujayra olinishi uchun o'tkaziladi. Xamma gap shundaki, xar bir sog'lom ayolning menstrual jarayoni xam pushtli emas. Normal gormonal rivojlanishda hosil bo'lgan folli-kulda yetilmagan tuxum xujayra bepusht yoki umuman tuxum xujayrasiz bo'lishi mumqin. Bunaqa xollar bo'lmasligi uchun superovulyastiya indukstiyasi o'tkazilmoqda.

Follikullar punksiyasi.

EKU rivojlanish jarayonida follikullar punkstiyasi va tuxum xujayra yig'ish qorin devorining oldingi tomondan o'tkazilgan (transabdominal) laporoskopiya orqali tekshiriladi.

EKU usulida bepushtlikni davolash kafolatlimi yoki nima uchun homiladorlik yuzaga kelmaydi.

1. Tuxum xujayra bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishi.
 - Stimulyastiya natijasida follikula yetilmasligi mumqin.
 - yetilgan follikulada tuxumxujayra saqlamasligi mumqin.
 - Tuxumxujayra sifatsiz bo'lishi mumqin.
 - Ba'zi muddatdan ilgari sipontan ovulyastiya yuz berishi mumqin va tuxumxujayra follikulani punksiya kilgo`nga qadar chiqib ketadi.
 - Kichik chanoqdagi chandiqli jarayonlar organlarning noto'g'ri joylashganligi follikula punksiyasiga texnik qarshilik ko'rsatishi mumqin.
2. Spermatozoidlar tuxum xujayralarini urug'lantirish qobiliyatiga ega bo'lmasligi mumqin.
3. Tuxum xujayra va spermatozoidlar normal ko'rinishga ega bo'lganligi bilan embrion rivojlanish yuz bermasligi mumqin.
4. Embrion normal rivojlanmaydi yoki bachadon bo'shlig'iga o'tkazilgandan keyin xam taraqqiyotning istalgan bosqichida rivojlanishdan to'xtashi mumqin.
5. Eku muolajasi embriologga va shifokorga bog'liq bo'lmagan xolda xam to'xtatilishi mumqin. Masalan mijozning kasalligi u shifokor muolajalarini bajarayotganda xatolikka yo'l qo'ysa va boshqalar.

Yordamchi reproduksiya usullaridan foydalanish sharofati bilan bugungi kun tibbiyoti erkaklar bepushtligining eng qiyin muammolarini ham xal etishga koldi.

REPRODUKTIV SALOMATLIKNI SAQLASH CHORALARI. OILANI REJALASHTIRISH. KONTRASEPSIYA.

Oxirgi o'n yilliklarda reproduktiv muammo barcha dunyo olimlari e'tibor markazini egallaydi. O'zbekiston respublikasida demografik xolat va oilani mustaxkamlash og'ir oddiy bo'lmagan muammo xisoblanib, bu masalaning echimini to'g'ri echilishi Davlatimiz kelgusi ravnaqiga asosiy o'rin to'tadi. Shu sababli oilani rejalashtirish va ayollar reproduktiv salomatligini saqlash asosiy o'ringa ega.

Salomatlik bu – jismonan, ruhan, sotsial muxitdagi to'liq unumdorligidir.

VOZ qonstitustiyasi e'lon qiladikim, «sog'lik – bu asosiy inson xuquqlaridan biri». Bu xuquq barcha ayollar uchun ta'minlanishi lozim, chunki ayol zoti axolining ko'p qismini tashqil etadi. Jamiyat ayollar sog'lig'ini investirlashi lozim. OON va dunyo banki tekshiruvlari shuni tasdiqlagankim ayol sog'ligini investirlash jamiyat eqonomik ravnaqiga olib keladi.

Qachon bolani oilada dunyoga keltirish va ularning sonini tanlash inson xuquqi xisoblanadi. Oilani rejalashtirish asosida odamlar va ularning oilasi va inson jamiyati bu xuquqdan foydalaniladi. Kontrastepstiv vositalarini va uning turlarini to'g'ri tanlash oilani rejalashtirish va sog'lom bola tug'ishga olib keladi. Kontrastepstiya vositasini kim tanlashi kerak degan savol tug'iladi. Ayol va uning turmush o'rtogi vosita turini tanlash xuquqiga ega. Tibbiyot xodimining vazifasi maslaxat berish to'g'ri tanlashga ko'maklashish.

Homiladorlikdan saqlovchi kontrastepstiv vositalar unumli va foydali bo'lishi lozim. XX asr oxirigacha homiladorlikdan saqlashning asosiy uslubi tibbiy abort xisoblangan. Abortga ko'rsatma bo'lib kelgan oilada juda yosh bola borligi yoki bola bo'lishini xoxlamaslik.

Bugungi kunda ushbu muammo yuzasidan O'zbekiston Respublikasida zamonaviy kontrastepstiya vositalarining barcha turlarini qo'llashi uchun sharoit yaratilgan va axolining tibbiy saviyasi oshirilgan.

Oila — asosiy madaniy boylik, bizning «qo'rg'on», suyanchiq, g'amxo'r va baxt bulog'i. Yosh oilalar kelishib sog'lom bolani dunyoga keltirish bilan birga uning kelgusini va yuqori samarali xayotini ta'minlash to'g'risida fikrlashadi.

Oilani rejalashtirishda va kelgusi avlodni bunyod etishda yoshlar aqlan yondashib kontrastepstiya vositalaridan foydalanishadi.

Dunyoda xar yili 50 mln abort qilinadi va onalar o'limi strukturasida kriminal abort asosiy o'rin egallaydi.

Homiladorlik profilaktikasi 100% ishonchli qo'llash uchun oddiy, arzon, qaytar jarayon va barcha ayollar qo'llashi mumkin bo'lishi maqsadga muvofiq.

Qadim zamonlardan beri istalmagan homiladorlikni oldini olish masalasi asosiy muammo bo'lib kelib, bu maqsadda jinsiy aloqadan saqlanib, tabiiy xayot tarzi buzilgan. Homiladorlik yuzaga kelishi mexanizmi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmay turib - istalmagan homiladorlikni oldini olish maqsadida turli uslublar qo'llanilgan. Shu asosida yangi va keng tarmoqli ilm yuzaga kelgan – kontrastepstiya.

Homiladorlikdan saqlanish uslublarining asosiy maqsadi erkak tuxum xujayrasining ayol tuxum xujayrasiga qo'shilmasligi va tuxumning keyingi rivojlanishini oldini olish xisoblanadi.

Kontrastepstiyaning quyidagi turlari mavjud:

1. Kombinastiyalashgan oral kontrastepstiya.
2. Oral kontrastepstiyalar, faqat progestinli, «mini-pili».
3. Uzoq muddatli gormonal kontrastepstiya (in'ekstion, implantastion, gormonal qin xalkasi).
4. Postkoital kontrastepstiya.

5. Bachadon ichi vositasi
6. Erkak va ayol prezervativlari.
7. Barerli kontrastepstiyalar (bachadon bo'yni qalpogi, qin diafragmasi).
8. Spermistidlar (aylanasimon, tabletkalar, pasta, malxamlar, jele, gubka, plenka).
9. Tabiiy turlari (kalendar, xaroratni o'lchash).
10. Jinsiy aloqani uzish (coitus interruptus).
11. Xirurgik sterilizastiya (vazektomiya, bachadon naylarini boylash).

Kontrastepstiya turini tanlash murakkab vazifa xisoblanadi. Bir ayol uchun unumli xisoblangan turi, boshqa ayol uchun zararli xisoblanishi mumkin. Ko'p davlatlarda shu bilan birgalikda bizning Respublikamizda kontrastepstiyani turini tanlash individual va oilani rejalashtirish mutaxassisi ishtirokida amalga oshiriladi. Oila jufti uning turini tanlashga asosiy rol o'ynaydi va qo'llash bo'yicha javobgar shaxs xisoblanadi.

Oral kontrastepstiya

Gormonal kontrastepstiya — bu ayol jinsiy gormonlarining sintetik turi xisoblanib — estrogen, progesteron va ularning hosilalaridan tuzilgan. Unumdorligi yuqori, ishonchli, qo'llanishi qulay, narxi xamyonbop. «Gormonal kontrastepstiya» termini Lyudvig Xaberbladt tomonidan 1912 yilda taklif etilib, bu olim eksperimental tarzda sariq tana ekstrakti ovulyastiyani to'xtatishini isbotlagan. 1939 yilda M.M. Zavodskoy ba'zi bir gormonlar ta'siri asosida gipofiz gonodotrop funktsiyasining pasayishini tasdiqladi.

Sintetik gestagenlar progestironga o'xshash ta'sirga ega bo'lib, progestagen yoki progestin deb ataladi. 1950- yillarda oral progestinlar kashfiyot etilib (noretinodrel, keyinchalik noretisteron), ximik tuzilishini Rasel Marker ochib berdi. Ko'p o'tmasdan birinchi marotiba gormonal preparat «Enovid» (AKSh)da ishlab chiqarildi, va dunyo bo'yicha tarqatildi. Shundan beri VOZ ko'rsatmalariga binoan dunyoda 70 lndan ortiq ayollar gormonal kontrastepstiyani qo'llaydi.

U davrda ishlab chiqilgan OK tarkibida gormonlar miqdori yuqori bo'lib – bu preparatlar birinchi avlodi xisoblanib: Enovid, Infekundin, Bisekurin.

Bugungi kunda OK tarkibini kam miqdorda 50 mkg dan kam etinilestradiol tashqil etadi. Progestagenlar miqdorini kamaytirish bilan birgalikda ularning sifati xam o'zgartirilgan. Bugungi kunda 500 dan ortiq OK ishlab chiqariladi.

Klassifikatsiya

Zamonaviy OK bo'linadi 2 guruxga: kombinastiyalashgan va monokomponentli (mini-pili). Kombinastiyalashgan OK bo'linadi:

Monofazali kombinastiyalashgan OK — xar bir tabletkada estrogen va gestagenlar mavjud bo'lib, estrogen va progestagen turi va miqdori bilan farqlanadi.

Ikkifazali kombinastiyalashgan OK — bu preparatlar doimiy esterogen dozasi va o'zgaruvchi progestagen hayz stikli fazasiga qarab.

Uchfazali kombinastiyalashgan OK — steroid gormonlarining hayz stikli fazasi qarab, miqdorining o'zgarishi bilan xarakterlanadi. 1 –fazada (1-6-ko'ngacha), erta va o'rta follikulyar faza, estrogen va gestagen kam miqdorda. Endometriyda fiziologik jarayon kechishini ta'minlaydi. LG qonstentrastiyasini oshirish va ovulyastiyani to'xtatish 2 – fazada (7-12 kun) xar 2 gormon yuqori dozada ta'minlangan.

3 - fazada steroid gormonlar (13-21 kun) sariq tana progesteron gormonining oshishi esterogen gormonining preovulyator fazada kamayishi bilan tuzilgan, xulosa qilib aytganda uchfazali OK fiziologik hayz ritmini takrorlaydi, gemotaz sistemasi lipidlar moda almashinuviga ta'siri kamayadi. Barcha reproduktiv ayollarga qo'llanishi mumkin.

OK ustuvorligi:

- Ishonchli istalmagan homiladorlikdan saqlanish.
- Ayollar uchun xavfsiz.

- Tuxumdon va endometriy raki profilaktikasi.
- Og'riqli hayzni davolaydi.
- Qon ketishni davolaydi.
- Qaytar jarayon.
- Qabul qilish oson.
- To'liq o'rganilgan
- Jinsiy organlar orqali yuqadigan infektsiyalar SPID ni oldini oladi.

OK kamchiliklari:

- Yurak – qon tomir kasalliklari asorati oshadi.
- Jigar o'smasi xavfi oshadi
- Kayfiyat o'zgarishi mumkin
- Xar kuni tabletka qabul qilishi kerak.
- Asoratlari (diareya, bosh og'rig'i, hayzaro qon ketish)
- Narxi qimmatligi

OK ta'sir mexanizmi

Ta'sir mexanizmi murakkab, preparat tarkibi bilan bog'liq. Estrogen-gestagen kontrastepstiyasi lio`liberinlarning dienstefal zonada ishlab chiqarishiga to'sqinlik qiladi. Gipofizda (FSG va LG) ishlab chiqarishi kamayadi, o'zaro ta'sirini tuxumdon resteporlarida oshirib tuxumdonda steroid gormonlari ishlab chiqarishini kamaytiradi va anovulyastiyani yuzaga keltiradi.

Kombinastiyalashgan gormonal kontrastepstiya nisbatan mikrodozali gestagenlarni qabul qilganda atigi 30% ayollarda anovulyastiya yuzaga keladi. Mini-pilining asosiy ta'sir mexanizmi bachadon bo'yni shillig'ini quyuqlashtiradi, bachadon nayi peristaltikasini oshirib tuxum xujayrasini transportirovkasi buziladi. Gipotalamo-gipofizar-tuxumdon sistemasi faoliyati seqinlashishi bilan sariq tana funkstional aktivligi pasayib endometriy gipoplaziyasi yuzaga keladi va tuxum xujayrasining endometriyga yopishish jarayoni buziladi.

Postkoital kontrastepstiya preparatlari, hayz stikli turli fazasida qo'llanilganligi asosida gestagenlarning follikul xolati va tuxumdon sariq tanasiga ta'sir qilib, bachadon naylari xarakati buziladi, shu bilan birga urug'langan xujayra o'sishini zaiflashtiradi.

Unumli nokontrastepstiv ta'siri.

KOK qabul qilgan ayollarda ko'krak bezi yaxshi sifatli o'smalari, endometriy raki, tuxumdon funkstional kistalari yuzaga kelishi xavfi kamayadi. Bundan tashqari ektopik homiladorlik kichik chanoq organlari yallig'lanish kasalliklari, hayz stiklining buzilishi muammolari va boshqa ginekologik kasalliklar foizi kamayadi.

Nokontrastepstiv negativ ta'siri.

Yurak qon tomir kasalliklari va ularning asorati bachadon bo'yni va tanasi raki birlamchi jigar raki yuzaga kelishi yuqori. KOK preparatlari jinsiy aloqa orqali yuqadigan kasalliklar xavfini oshiradi.

Fertil faoliyat tiklanishi.

Fertil faoliyat KOK preparatlarini qabul qilish to'xtalishidan so'ng, kelgusida oyda anovulyastiya kuzatilishi mumkin, davolashga muxtoj emas, yil oxirigacha ushbu faoliyat o'z-o'zidan tiklanadi.

Homiladorlik boshlanishida iste'mol qilgan taqdirda homilaga ziyon etkazmaydi.

35 yoshdan o'tgan ayollarning OK dan foydalanishi

35 yoshdan o'tgan sog'lom ayollar uchun kichik dozali KOK qo'llash qulay xisoblanadi. 45 yoshgacha zamonaviy KOK preparatlarini qo'llash mumkin. Kontrastepstiv xususiyatlardan tashqari ularning davolash unumi yuqori. KOK preparatlarini qo'llagan ayollarda suyaklar mo'rtligi, postmenopauzal davrda kam uchraydi.

Katta yoshli ayollar qo'llaydigan yaxshi alternativ KOK preparatlari tarkibida toza progestinlar bor — mini-pili, laktinet va b.

KOK preparatlarini qo'llashda absolyut qarshi ko'rsatmalar

- homiladorlik;

- tromboemboliya;
- gormonal o'smalar;
- jigar funktsiyasi buzilishining tug'ma nuqsonlari;
- jadallashgan jigar kasalliklari;
- giperlipoproteinemiya;
- miya – tomir kasalliklari;
- miokard infarkti (anamnezida);
- yurakning ishemik kasalligi.

Gormonal kontrastepsiya qo'llashni to'xtatishga ko'rsatma:

- homiladorlik;
- migren;
- qo'qqisdan ko'rish faoliyatining buzilishi;
- o'tkir tromboembolik asoratlari;
- sariqlik va o'tkir jigar kasalliklari;
- arterial qon bosimining oshishi;
- uzoq davom etgan immobilizatsiya;
- rejalashtirilgan kata xirurgik aralashuvlar;
- jadal tana vaznining oshishi;
- ovoz tonining o'zgarishi;
- bachadon miomasining kattalashishi.

Tarkibida faqat progestin saqlovchi preparatlar

KOK preparatlari ishlab chiqilgan vaqtdan 10 yildan so'ng, dunyo bozorida kichik dozali progestinlar ishlab chiqilib, tibbiyotga tadbiiq etildi. Kontrastektiv ta'siri perefirik maxalliy reproduktiv organlarga yo'naltirilgan bo'lib, boshqa organ sistemalarga nojo'ya ta'sir ko'rsatmaydi.

Bu preparatlar muntazam hayz stiklining 1-kunidan 1 tabletkadan qabul qilish tavsiya etiladi. Mini – pili bachadon bo'yni shillig'iga ta'sir qilib, uni quyugligini oshiradi va spertazoidni o'tishiga to'sqinlik qiladi. Tabletkadan ichilgandan so'ng 1 ikki soatda ta'siri namoyon bo'lib, 20-22 soat davom etadi. Shu bilan birga ular bachadon endometriysida morfologik va bioximik o'zgarishlarni vujudga keltiradi va ovulyatsiyani oldini oladi. Sarq tanaga lyuteolitik ta'sir ko'rsatib, amenoreya chaqiradi yoki hayz stiklini cho'zadi.

Emizuvchi ayollar uchun progestinlar 100 % unumli xisoblanadi. Laktatsiya jarayonini jadallashiradi va davomiyligini oshiradi.

Postkoital kontrastepsiya

Bugungi kunda bir marotiba ishlatiladigan kontrastektiv vositalarini yaratish dolzarb muammo xisoblanadi. Postkoital preparatlar bunyod bo'lishi prezervativ butunligi buzilgan xolatlarda, BIV ekspulsiya gormonal kontrastepsiyani ichmasdan qo'ygan xolatlarda, majburan yuzaga kelgan jinsiy aloqadan so'ng, homiladorlik yuzaga kelishi muammolarini echimini echadi. Postkoital kontrastepsiyaning ta'sir mexanizmi noritmik katta dozada gormonlarning ajralishi va normal hayz stiklida fiziologik gormonal o'zgarishlar desinxronizatsiyasi yuzaga kelishi xisoblanadi.

Bugungi kunda quyidagi turlari qo'llaniladi.

- kombinirlashtirilgan oral kontrastektivlar,
- progestagenlar,
- danazol,
- mefipriston (RU-486),
- BIV qo'yish.

«Postinor» 0,75 mg levonorgestrel tabletkasi jinsiy aloqadan so'ng 1 soat ichida qo'llaniladi, ta'siri 3 soat davom etadi. Hayz stikli davomida 4 tabletkadan ortiq qo'llash man etiladi, qon ketish xavfi kuchayishi sababli.

Uzoq muddatli kontrastektivlar

- Bu progestinli preparatlarning 6 xil turi mavjud:
- depo-provera, in'ekstion preparat, tarkibida medroksiprogesteron-astetat suyuq xolatda, ta'siroti 5 yil;
 - in'ekstion kontrasteptiv, tarkibida noretisteron-enantat, ta'siroti 3 oy;
 - in'ekstion mikrosferlar (noretindron), ta'siroti 6 oy;
 - norplant (levonorgestrel), implantant sifatida ta'siroti 5 yil;
 - biodegradantli implantantlar, tarkibida kapronor (levonorgestrel), ta'siroti 18 oy;
 - qin xalqasi, levonorgestrel, noretindron yoki progesteron saqllovchi, ta'siroti 1-6 oy.
- Ta'sir mexanizmi:**
- ovulyastiyani to'xtadi;
 - bachajon bo'yni shillig'ini quyuqlashtiradi;
 - endometriyda atrofik o'zgarishlar yuzaga keladi;
 - vaqtdan oldingi lyuteoliz.

VI. Muammoli vaziyatlar

1. Ayol 32-yoshda 6 mobaynida xayz kelmasligidan shikoyat kilib keldi. Anamnezida 2marta tukkan 2 marta abort kildirgan. Jinsiy xayot 19 yoshdan. BIV kuyilgan.
Kanday tekshirish usullari o'tkaziladi?
Sizning taktikangiz?
2. Bemor 31 yoshda bachadondan ko'p qon ketishiga hayz tutilib kolishidan keyin shikoyat kilib keldi. 3 oy oldin abort kildirgan, tekshirishda: bachadoni normadan kattarak, ortiklari palpatsiyada bilinmaydi qonli okmalari ko'p.
Tashxis. Tekshirish va davolash. Dif-diagnostika.
3. Qabul bo'limiga 18 yoshli qiz jinsiy yullardan qon ketishga shikoyat qilib keldi. Oxirgi hayz 17 kun oldin bo'lgan.
I. Bemorga taxminiy tashxis quying:
A. homilani o'z-o'zidan tushushi
B. yuvenil qon ketishi*
V. bachadon siptomli miomasi
G. jinsiy a'zolari o'tkir yallig'lanishi
D. tashqi jinsiy a'zolari jaroxati
II. Tug'ri davolash usullarini ko'rsating:
A. gormonal terapiya*
B. jarrohlik yo'li bilan davolash
V. umumiy quvvatlovchi terapiya
G. yallig'lanishga qarshi dovo choralari
D. bemor sog'lom
4. Bemor 38 yoshda hayz stiklini o'zgarganligiga, ko'p miqdorda kelishidan shikoyat qilib keldi. Bemorni P. V. ko'rganda bachadon 7-8 xaftalik homiladorlikkacha kattalashgan.
I. Taxminiy tashxis ko'ying:
A. homila tushish xafi
B. endostervistit
V. bachadon miomasi*
G. bachadon fibromiomasi
D. vulvovaginit
II. Qanday chora kuriladi:
A. stastanarga yotqizish*

- B. gormanal terapiya ko'laniladi*
- V. spazmatiklar qilish kerak
- G. operatsiya qilish kerak
- D. og'rik koldiruvchilar kilinadi

5. Bemor A. 14 yoshda ginekologik bo'limiga keyingi shikoyatlar bilan keldi: jinsiy a'zolaridan ko'p miqdorda qonli ajralmalar kelmokda. Anamnezidan: 3 oy oldin birinchi hayz stikli boshlangan, noregulyar kelgan, jinsiy alokada bo'lmagan.

I Taxminiy tashxis:

- A. yuvenil qon ketish*
- B. kolpit
- V. salpingooforit
- G. jinsiy a'zolari yallig'lanishi
- D. tuxumdon kistomasi

II. Qanday davo choralari o'tkaziladi:

- A. gormonal terapiya*
- B. stastianarga yotqiziladi*
- V. umumiy kuvatlovchilar*
- G. qon o'rnini bosuvchi suyo'qliklar*
- D. qon tuxtaturuvchilar kilinadi*

6. Bemor 31 yoshda. Jinsiy yo'llardan qon ketishidan, ko'ngil aynish, kayt qilishga shikoyat kilib keldi.

Anamnezida: yoshligida qizamik, suvchechak, yuqori nafas yo'llari katari bilan kasallangan. Hayz 12 yoshda boshlangan. Davom etishi 6-7 kun. xar 30 – 32 kunda bo'ladi. Oxirgi hayzi 8 dan 14. X. bo'lgan. Jinsiy xayot 20 yoshdan boshlangan. 6 ta xomiladorlik bo'lgan. 2 ta asoratsiz. Oxirgi 4 tasi tibbiy abort bilan tugagan.

1 oylik hayzning to'xtashidan keyin qonli laxtali ajralma paydo bo'lgan, 11 kun davom etgan. Bemorning umumiy axvoli qonikarli.

Qin ob'ektiv tekshirilganda: bachadon bo'yni silindrik shaklda, bachadon kattalashmagan. O'ng ortiklar kattalashgan, og'riqli. Ajralma qonli.

Sizning tashxisingiz:

Qanaqa qo'shimcha tekshirish usuli kullash kerak?

Davosi.

7. Bemor 49 yoshda. Jinsiy yo'llardan qon ketishi, ko'ngil aynishi, kunida 8-10 marta kayt qilish bilan shikoyat kilgan.

Anamnezida: tez-tez shamollash kasalliklari bilan kasallangan. Hayz sikli 13 yoshdan boshlangan. 4 – 5 kun davom etadi. Xar 28 kunda. Jinsiy xayoti 22 yoshdan boshlangan. 5 ta xomiladorlik. 4 ta tibbiy abort. Oxirgi aborti 2 oy oldin bo'lib, shu vakt ichida hayz siklining buzilishi kuzatiladi. Hayz 5 – 7 kun kech kelgan. Uzoq davom etgan 16 X. da qonli ajralma paydo bo'lgan va 22 X. da kuchaygan. Bachadon kiskartiruvchi preparatlar, qon to'xtaturuvchi prepatlar berilgan, natija bermagan.

Qin orqali tekshiruv: tashqi jinsiy a'zolar normada rivojlangan. Qin erqin. Bachadon bo'yni silindrik. Bachadon 6 – 7 xaftaga kattalashgan, kattiklashgan, sillik, og'riqsiz. Ortiklari palpatsiyada ko'lga unnamaydi.

Taxminiy tashxisingiz:

Qiyosiy tashxis:

Taktikangiz:

8. Ginekolog xuzuriga 23 yoshli xomilador ayol belida va qorinda og`riq borligidan , xamda qonli ajralma kelayotganidan shikoyat kilib keldi. Anamnezida 6 oy oldin bola tashlash bo`lgan Sizning taktikangiz ?

9. 30 yoshdagi ayol qorinning tinch pastki va yonbosh soxasida, og`riq, ko`ngil aynishi va kusishga shikoyat kilib keladi.

Anamnezidan: Menstrual funksiyasi uzgarishsiz, jinsiy xayot 22 yoshdan 3 marta homilador bo`lgan, 2 ta vaktida tugish va sun`iy abort bo`lgan. Ginekologik kasalliklardan ikki tomonlama adneksit bo`lgan va shu kasallik bilan bir necha marta stasionar davolash.

**Ko`rik:** A/D 110/70 mm s.u., puls 110 marta minutida. Tana xarorati 37,8 S. Tili kuruk,ok karash bilan koplagan. Korniy aylana shaklida, qorin oldingi devoridagi muskullari taranglashgan ko`prok o`ng tomonlari. Shyotqin – Blyuberg simptomi musbat.

RU: Bachadon bo`yni silindrik shaklida, bachadonning bugzi yopik, bachadon kattalashgan, normal kattiklikda chap tomondan 10x14 mm. hosila paypaslanadi. Yuzasi sillik, xarakatlari chegaralangan, og`riqli. To`g`ri ichak orqali tekshirilganda ma`lumotlari ushunday.

1. Sizning tashxisingiz?
2. Qaysi ma`lumotlar aniq shu kasallikni kursatadi?
3. Bu patologiyani qaysi kasalliklar bilan takkoshlash mumkin?
4. Kanday qo`shimcha tekshirish o`tkazish mumkin?
5. Shu vaziyatda sizning taktikangiz?
6. Operativ davolash xajmi.

10. 27-eshli bemor ayollar maslaxat xonasiga qin soxasida noxushlik, achishish, kichishishiga shikoyat kilib keldi. Uzini 5 kundan buen kasal deb xisoblaydi

Anamnezdan: hayz 13 yeshdan 3-4 kun sikl 30 kun,regulyar. Oxirgi hayz 2 xafta oldin. Jinsiy xaet 21 yeshdan, turmush 1, 2 xomidorlik. 1 tug`ruq, 2 abort(8 xafta). Tug`ruq va abort asorotsiz utgan.

Ob`ektiv: Umumiy axvoli qonikarli. Puls 66-ta. A/D 115/70 mm.sm.teng. tana xarorati 36.8. ichki organlar patologiyasiz. Korniy yumshok, palpatsiyada og`riqsiz. Ich ketishi va diurez normal.

Qin kuzgulari bilan kurganda: bachadon bo`yni shillik qavati giperemiyalangan,ok karashlar bilan qoplangan,ajralmalar tvorogsimon. Bachadon bo`yni sillindrnik.

P.V: qinda kirish erqin, bachadon bo`yni elastik, bo`g`iz yepik,bachadon normal kattalikda,kattik, xarakttchan, un tarafdan. Bachadon hosilalari ikki tomondan xam aniqlanmaydi va og`riqsiz

- 1.Sizning tashxisingiz:
- 2.Kanday qo`shimcha tekshirish usullarini o`tkazish zalur?
- 3.Davolash taktikasi?

11. Ginekologiya bo`limiga ayol jinsiy yullardan ajralma ajralishiga qorin pastida, belda og`riqdan shikoyat kilib keldi . 1ta tukkan 1 ta abort kilgan.

Kanday tekshirish usullari o`tkaziladi ?

Sizning taktikangiz ?

12. 35 yoshli bemor shifokorga jinsiy yo`llaridan qonli ajralmalar hayzdan oldin va keyin 3-4 kun davomida kelishi, hayz paytida og`riq bo`lishi, 5 yildan buyon bepustlikligi haqida murojaat qildi. Hayz 12 yoshdan xar 28 kunda 3-4 kundan og`riqsiz edi. Jinsiy hayoti 23 yoshdan, 6 marta homilador bo`lgan, tug`ruq-2, abort- 4. Oxirgi abortdan keyin bir necha marta antibakterial, fizioterapevtik davolash o`tkazgan. Bachadon naychalarni tekshirish uchun 5 marta gidrotubastiya kilingan..

Tashxis? Differentsial tashxis? Qanday tekshirish o'tkazish kerak?

13. 50 yoshli ayol jinsiy yullardan qon ketishi bilan shikoyat kilib keldi.

Anamnez: yoshligida kasal bo'lmagan. Hayzi 13 yoshdan xar 30 kunda 4-5 kundan keyingi 2 yilda hayz buzilgan. 7 -10 ko'ngacha chuzilib, hayz sikli orasida jinsiy yullardan qon ketadi. Oxirgi hayz ko'rishi 5/1, 13/1, 15/1 yana boshlandi. Ko'p miqdorda.

Bir yil avval bachadonni kirishgan – gistologik javobi: jelezisto kistoznaya giperplaziya ba'zi joylarda adenomatoz. 17 OPK olgan.

Maxsus tekshirish: tashqi jinsiy organlar uzgarishsiz, bachadon bo'yni gipertrofiyalangan, qon kelyapti. Bachadon 6-7 xaftagacha kattalashgan, sillik, normal qonsistensiyada, og'riqsiz. Bachadon uzgarmagan. Chap gumbazda kattik to'qima bilinadi. Chanoq devoriga bormaydi.

1. Qaysi kasallik xakida uylaysiz?

- Parametrit
- Bachadon bo'yni raki
- Endometriy raki
- Xorion epitelioma
- Adenomioz

2. Kasallikning qaysi boskichi.

- 1 boskichi
- 4 boskichi
- 2 boskichi
- 3 boskichi
- xorion epitelioma

3. Davosi kanday?

- Operativ davo
- Bachadon ekstirpatsiyasi
- Gormonal terapiya
- Simptomatik davo
- Nurli davo
- Ximiya terapiya.

14. 46-eshli ayol urologga tez-tez siyish bilan shikoyat kilib keldi. Bemor tekshirilganda siydik ajratish a'zolari patologiyasiz.

Anamnezdan: hayz 13 yeshdan, 3 kun, og'riqsiz. Oxirgi 2 yildan buen, hayz 7 kun ko'p miqdorda. Jinsiy xaet 18 yeshdan. Tug'ruq-1, med abort-1.

Ginekologik kasaliklardan: tug'ruqdan keyingi endometrit va bachadon miomasi bor.

Ob'ektiv: Umumiy axvoli qonikarli. Puls 68-ta. A/D 120/70 mm.sm.teng. tana xarorati 36.8. ichki organlar patologiyasiz. Korniy yumshok, og'riqsiz, qovdan 2 sm yuqorida kattik, xarakatchan hosila aniqlanadi. Tez-tez og'riqsiz siyish, Pasternatskiy simptomi ikki tondan manfiy, 2-3 kunlab kabziyat kuzatilgan.

P.V.: tashqiy jinsiy a'zolar normal rivojlangan. Qinga kirish erqin, bachadon bo'ynida oldingi tug'ruqdan bo'lgan yertilishlar chandigi bor. Servikal kanal shillik qavati tashqarida chikgan. Bachadon kattalashgan to 14 xafta homiladorlikgacha, ko'p miomotoz tugunchali, bachadoni oldingi devoridan 8 sm diametrli. Hosilalar aniqlanmaydi, og'riqsiz. Ajrilmalar shillikli, kam miqdorda.

1.Sizning tashxisingiz:

2.operatsiyaga kursatma?

15. Bemor 24 yoshda, ginekologiya bo'limiga jinsiy yullardan qon ketish va qorin pastida og'riq borligiga shikoyat kilib keldi.

Anamnezidadan hayzi og'riqli 3-4 kun davom etadi. Turmushi 1 chi, 20 yoshdan turmushga chikgan. 1 yildan keyin homilador bo'lgan. Oxirgi hayzi 2 oy oldin bo'lgan. Jinsiy yullardan qonli ajralma bir necha kundan beri bezovta qiladi. Ayollar maslaxatgoxiga murojaat kilgan va stasionar davolanishga yuborilgan.

Ob'ektiv – uzgarishsiz.

RU: qinga kirish erqin. Bachadon bo'yni silindrik, toza. Tashqi teshik yopik. Bachadon muloyim, xarakatchan, 8 xaftalikgacha kattalashgan. Bachadon ortiklari paypaslanmaydi. Ajralma ozgina qonli.

1. Sizni tashxisingiz _____
2. Kanday qo'shimcha tekshirish usullarni o'tkazish kerak _____
3. Ushbu xolda etiologik faktor nima _____
4. Xozirgi paytda sizning taktikangiz _____
5. Kanday asoratlar kutilishi mumqin _____
6. Siz kanday muolajalarni tavsiya etasiz _____

16. 46-eshli ayol urologga tez-tez siyish bilan shikoyat kilib keldi. Bemor tekshirilganda siydik ajratish a'zolari patologiyasiz.

Anamnezdan: hayz 13 yeshdan, 3 kun, og'riqsiz. Oxirgi 2 yildan buen, hayz 7 kun ko'p miqdorda. Jinsiy xaet 18 yeshdan. Tug'ruq-1, med abort-1.

Ginekologik kasaliklardan: tug'ruqdan keyingi endometrit va bachadon miomasi bor.

Ob'ektiv: Umumiy axvoli qonikarli. Puls 68-ta. A/D 120/70 mm.sm.teng. tana xarorati 36.8. ichki organlar patologiyasiz. Korniy yumshok, og'riqsiz, qovdan 2 sm yuqorida kattik, xarakatchan hosila aniqlanadi. Tez-tez og'riqsiz siyish, Pasternatskiy simptomi ikki tondan manfiy, 2-3 kunlab kabziyat kuzatilgan.

P.V.: tashqiy jinsiy a'zolar normal rivojlangan. Qinga kirish erqin, bachadon bo'ynida oldingi tug'ruqdan bo'lgan yertilishlar chandigi bor. Servikal kanal shillik qavati tashqarida chikgan. Bachadon kattalashgan to 14 xafta homiladorlikgacha, ko'p miomotoz tugunchali, bachadoni oldingi devoridan 8 sm diametrli. Hosilalar aniqlanmaydi, og'riqsiz. Ajralmalar shillikli, kam miqdorda.

1. Sizning tashxisingiz _____
2. Operatsiyaga kursatma _____

17. Bemor 28 yoshda – qorin pastida og'riq, jinsiy a'zolaridan qon ketish, okchil ajralishi va jinsiy alokadan keyin qon paydo bo'lish shikoyatlari bilan ayollar maslaxatgoxiga murojaat kildi.

Anamnezida: hayz 12 yoshdan 5-6 kun, xar 30 kunda og'riqsiz, turmushga 21 yoshdan chikkan, homiladorlik 3ta, tug'ruq I (4500,0) bachadon bo'yni va oraliqni chukur yirtilishi bilan asoratlangan. Bachadon bo'yni yarasi bilan kasallangan, vakt-vakti bilan okchil keladi, kushni a'zolarning faoliyati buzilmagan.

Uzini oxirgi bir necha oydan buyon kasal deb xisoblaydi. Hayz orasida qon ko'rishi, qontakt qon ketish va yiringli okchil kelishi kuzatiladi.

Ob'ektiv: Umumiy axvoli yaxshi. Teri va teri osti shillik pardasi pushti rang regionar limfa tugunchalar kattalashmagan. Tomir urishi 84 marotaba, AKB 110/75 mm. rt. sm. Yurak va upkada patologik uzgarishlar yo'q. Qorin yumshok, og'riqsiz, Pasternasskiy belgisi ikkala tomondan manfiy. Qin orqali kurganda bachadon bo'yni kattalashgan (gipertrofiya), ikki tomondan tug'ruqdan keyingi yirtilgan joy bor, kuzgular bilan kurganda servikal kanalning shillik qavati burtib chikkan. Bachadon bo'ynining oldingi labida xajmi 3x4 sm yara kurinadi va tegilganda qonaydi. Chiqindilar yiringli, bachadon xajmi normada, og'riqsiz. Bachadon ortiklari paypaslanmaydi atrofi og'riqsiz.

1.Taxminiy tashxis_____

1. Homiladorlik 8-9 xafta
2. Tug`ruqdan keyingi davr
3. Bachadon bo`yni yarasi
4. Endotservisit.
5. Bachadon ortiklarini yalliglanishi

2.Tashxis kuyish uchun kandy qo`shimcha tekshirish o`tkazish kerak_____

1. Orqa gumbaz punksiyasi
2. Kichik chanoq a`zolarining rengenografiyasi
3. Kolposkopiya
4. Bachadon UTT
5. Shiller probasi

3. Qaysi kasalliklar bilan differensial tashxis o`tkazish kerak_____

1. Zaxm yarasi
2. Banal yalliglanish
3. Endotservisit
4. Ektopik homiladorlik
5. Vulva leykoplaksiyasi.

4. Davolash jarayonida qaysi usullar qo`llaniladi_____+++

- | | |
|-----------------------------|-------|
| a) diatermokoagulyatsiya | a, v |
| b) elektrokanizatsiya | a, g |
| v) maxaliy davolash | b, v. |
| g) bachadon ekstirpatsiyasi | d, a |
| d) bachadon amputatsiyasi | d, b. |

18. Bemor 48 yoshda jinsiy yullardan qon kelishi bilan shikoyat kilib keldi. Hayzi 6 kun kech keldi.

Anamnezidan: hayzi 13 yoshdan xar 30 kunda, 3-4 kundan. Homilasi 4 ta, 2 ta tug`ruq, asoratsiz. Keyingi 2 yilda hayzi 4-5 kun kechiqib keladigan bo`lgan. 2 marta asiklik qon ketgan, gistologik tekshirishda endometriy polipi topilgan.

RV: jinsiy organlar to`g`ri rivojlangan, bachadon bo`yni silindrik shaklda. Bachadon 6 xaftagacha kattalashgan kattik, og`riqsiz. Bachadon ortiklari uzgarishsiz. Gumbazlarda infiltrat yo`q. Ajralmalar qonli.

1. Kandy taxliliy tashxis kuyish mumqin_____

- Bachadon miomasi
- Bachadon tanasi raki
- Disfunktional bachadondan qon ketish
- Tuliksiz abort
- Endometrio

2. Kerakli bo`lgan asosiy diagnostik usul_____

- Bazal temperaturani ulchash.
- GSG
- Gisteroskopiya
- UZI
- Gistologik tekshirish

3. Davosi nima _____
- Bachadonni kiskartiruvchi davolar.
 - Simptomatik davolash
 - Bachadonni kirish
 - Gormonal davo
 - Bachadon amputatsiyasi
4. Kanday gormonlar ishlatiladi _____
- Kombinatsiyalashgan OK
 - Esterogenlar
 - Progesteronlar
 - Gormonlar ishlatilmaydi.
 - Androgenlar

19. Bemor 31 yoshda. Jinsiy yo'llardan qon ketishidan shikoyat kilib keldi.

Anamnezida: yoshligida qizamik, suvchechak, yuqori nafas yo'llari katari bilan kasallangan. Hayz 12 yoshda boshlangan. Davom etishi 6-7 kun. xar 30 – 32 kunda bo'ladi. Oxirgi hayzi 8 dan 14. X. bo'lgan. Jinsiy xayot 20 yoshdan boshlangan. 6 ta homiladorlik bo'lgan. 2 ta asoratsiz. Oxirgi 4 tasi tibbiy abort bilan tugagan. 2 oylik hayzning to'xtashidan keyin qonli laxtali ajralma paydo bo'lgan, 11 kun davom etgan. Bemorning umumiy axvoli qonikarli. Qin ob'ektik tekshirilganda: bachadon bo'yni silindrik shaklda kattalashmagan. Ajralma qonli.

Sizning tashxisingiz _____

Davosi _____

20. Bemor 49 yoshda. Jinsiy yo'llardan qon ketishi bilan shikoyat qilgan.

Anamnezida: tez-tez shamollash kasalliklari bilan kasallangan. Hayz sikli 13 yoshdan boshlangan. 4 – 5 kun davom etadi. Xar 28 kunda. Jinsiy xayoti 22 yoshdan boshlangan. 5 ta homiladorlik. 4 ta tibbiy abort. Oxirgi ikki yil ichida hayz siklining buzilishi kuatiladi. Hayz 5 – 7 kun kech kelgan. Uzoq davom etgan 16 X. da qonli ajralma paydo bo'lgan va 22 X. da kuchaygan. Qonservativlar bachadon kiskartiruvchi preparatlar, qon to'xtatuvchi prepatlar berilgan, natija bermagan.

Qin orqali tekshiruv: tashqi jinsiy a'zolar norma rivojlangan. Qin erqin. Bachadon bo'yni silindrik. Bachadon 6 – 7 haftaga kattalashgan, kattiklashgan, sillik, og'riqsiz. Ortiklari palpatsiyada ko'lga unamaydi.

Taxminiy tashxisingiz _____

Kiyosiy tashx _____

Taktikangiz _____

21. Kabul bo'limiga 29 yoshdagi ayol murojaat kildi. Shikoyatlari umumiy xolsizlik, bosh aylanishi, qorin pastida og'riq, jinsiy alokadan keyin boshlangan.

Anamnezidan: homiladorligi –3ta, tug'ruq –2, 1 ta med.abort. Ginekologning oxirgi ko'rishida chap tuxumdon kistasi aniqlangan. Oxirgi hayzi 15 kun oldin.

Ob'ektiv xolati: umumiy axoli urti ogirlikda, teri va kurinadigan shillik qavatlari okish rangda, puls 108 marta 1min., A/k.b.-90/50 mm.sim.ust. Tana xarorati –36,8.

Qorin paypaslaganda og'riqli, Shetqin-Blyumberg belgisi ifodalanmagan musbat.

Qin orqali ko`rish: qorin devorining taranglashganligi uchun bachadon va bachadon ortiklari aniq paypaslash mumkin bulmadi. Qin gumbazlari osilgan.

Taxminiy tashxis.

1. Tuxumdon apopleksiyasi
2. kista oyokchasining buralib kolishi
3. utkir appedistit
4. bachadondan tashqari homiladorlik
5. surunkali adneksit xuruji.

Shifokor taktikasi:

- 1.Stationarga tezda yotqizish
- 2.Infuzion davolashni boshlash
- 3.kunduzgi stasionarda davolash
- 4.dispanser nazorat
- 5.Og`riqsizlantiruvchi vositalar, kardiotoniklar.

Stasionar sharoitida davolash.

1. Orqa gumbaz orqali punkstiya qilish
2. Xirurg maslaxati
3. gemotransfuziya
4. og`riqsizlantirish
5. UZI

22. Akusherlik kompleksining ginekologiya bo`limiga 31 yoshli ayol qorin pasti va bel soxasidagi orqa ichakka beruvchi og`riqlar, umumiy xolsilik, xushdan ketishiga shikoyat kilib murojaat kildi.

Anamnezidan: 5 yil mobaynida bepushtlik, bir necha marotaba jinsiy a`zolarining yalliglanishi tufayli davolangan.Oxirgi hayz uz vaktida surkaluvchi ajralma sifatida kelgan.

Ob`ektiv ko`rish: Axvoli ogir, teri va kurinadigan shillik qavatlari okargan, yopishkok ter bilan qoplangan.

Puls 110 marta 1 min. A/k.b. 80/45 mm.sim.ust. Tana xarorati 36,8. Qorin paypaslab kurilganda tarang.

Shetqin-Blyumberg belgisi musbat.

Qin orqali ko`rish: qorin devori tarangli tufayli jinsiy a`zolari paypaslash imqoni yo`q. Bachadon bo`yni ekskursiyasi og`riqli. Orqa gumbaz osilgan, kalpokcha belgisi aniqlanadi.

Taxminiy tashxis:

1. tuxumdon apopleksiyasi
2. utkir appedistit
3. bachadondan tashqari homiladorlik
4. surunkali adnesit xuruji
5. utkir parametrit

Shifokor taktikasi:

- 1.ambulator sharoitda davolash
2. kunduzgi stasionar sharoitida davolash
3. stationarga tezda yotqizish
4. infuzion davoni boshlash

6. terapevt maslaxati, UZI

Davolash:

1. xirurg maslaxati
2. orqa gumbaz orqali pnkstiya qilish, laparatomiya
3. og`riqsizlantiruvchi vositalar
4. kardiotoniklar
5. intensiv antibakterial davolash.

Reabilitatsiya:

1. ginekolog nazoratida bo'lish
2. kombinirlangan oral kontrastektivlar 6 oy davomida kabul qilish
3. EGK aniqlash
4. yalliglanishni davolash
5. xammasi to'g'ri

VII. NAZORAT TURLARI UCHUN SAVOLLAR

1. JORIY BAHOLASH

1 - M a v z u Ginekologik kasalliklarning diagnostikasi va umumiy simptomatologiyasi.

1. Tashqi jinsiy a'zolar anatomiyasi?
2. Ichki jinsiy a'zolar anatomiyasi?
3. Chanoq tubi muskullari qaysilar ?
4. Ginekologiyada asosiy tekshirish metodlari va ularning ahamiyati nimadan iborat?
5. Instrumental tekshirish usullari va ularning bajarilish texnikasini ayting.
6. KPI nima?
7. Ginekologiyada asosiy tekshirish metodlari va ularning ahamiyati nimadan iborat?
8. Instrumental tekshirish usullari va ularning bajarilish texnikasini ayting.
9. KPI nima?
10. Korachik simptomini izoxlang.

2 -M a v z u Normal hayz sikli va uning regulyatsiyasi. Hayz siklining buzilishi. Amenoreya. Gipomenstrual sindrom.

1. Hayz sikli nima ?
2. Bachadon sikli xakida ma'lumot bering.
3. Tuxumdon sikli xakida ma'lumot bering.
4. Hayz sikli buzilishi tasnifi?
5. Amenoreyaga ta'rif bering
6. Amenoreya sabablari?
7. Amenoreya simptom lari?
8. Amenoreyani tekshirish usullari?
9. Amenoreyani davolash usullari?

3 -M a v z u Disfunktsional bachadon qon ketishlar

1. BDKK nima ?
1. BDKK etiologik omillari?
2. BDKK patogenezi
3. Follikulning yetilishi va sho'nga bog'liq endometriyda morfologik uzgarishlar?
4. Qon ketish paydo bo'lishining mexanizmi ?
5. BDKK klinik variantlari, dif-diagnostika?
6. BDKK davolash turlari
7. Gormonal gemostaz va uning turlari.
8. Xirurgik davolashga kursatmalar.

4 -M a v z u : Homiladorlikning birinchi yarmida qon ketishlar b u y i ch a savollar:

1. Homiladorlikning 1- yarmida qon ketish sabablari

2. Ektolik homiladorlik . Klinika , tasnifi
3. Yelbugoz nima va uni sabablari .
4. Sun'iy abort turlari
5. Ektopik homiladorlikni medikamentoz davolash
6. Abortning klinik stadiyalari .
7. Buzilmagan naydagi homiladorlik klinik belgilari to'g'risida gapiring?
8. Buzilgan naydagi homiladorlik davosi xakida tushuncha bering?
9. Buzilgan naydagi homiladorlik operativ davosidan so'ng reproduktiv funksiyaning rehabilitatsiyasi xakida tushuncha bering?
10. Trofoblastik kasalliklar to'g'risida gapiring?
11. Yelbugoz etiologiyasi, patogenez, klinikasi va davosi xakida suzlang ?
12. Bachadondan tashqari homiladorlik nima?
13. Bachadondan tashqari homiladorlikni keltirib chiqaruvchi sabablari va kasallikning rivojlanish mexanizmi?
14. Bachadondan tashqari homiladorlik tasnifi?
15. Bachadon nayining rivojlanib boruvchi (uzilmagan) homiladorligi?
16. Bachadon nayidagi uzilgan homiladorlikning "nay yorilishi" turi, uning klinik kechishi?
17. Bachadondan tashqari homiladorlikni boshqa kasalliklardan farqi?
18. Bachadondan tashqari homiladorlikni davolash usullari?
19. Bachadondan tashqari homiladorlikni o'tkazgan ayollarni sog'lomlashtirish?
20. Bachadondan tashqari homiladorlikning oldini olish nimalardan yo'llari?

5- M a v z u. Ayollar jinsiy a'zolari spetsifik va nospesifik yalliglanish kasalliklari

1. Ayollar jinsiy a'zolari spetsifik yalliglanish kasalliklariga nimalar kiradi?
2. Ayollar jinsiy a'zolari nospesifik yalliglanish kasalliklariga nimalar kiradi?
3. Ayollar jinsiy a'zolari spetsifik yalliglanish kasalliklariga etiologiyasi, patogenez, klinikasi va davolash prinsiplariga nimalar kiradi?
4. Ayollar jinsiy a'zolari nospesifik yalliglanish kasalliklariga etiologiyasi, patogenez, klinikasi va davolash prinsiplariga nimalar kiradi?

6 – M a v z u. Bachadon yaxshi va yomon sifatli o'smalar

1. Bachadon yaxshi sifatli o'smalariga nimalar kiradi va uning kelib chikish teoriyalari.
2. Bachadon miomasining etiologiyasi va klinikasi xakida gapirib bering.
3. Bachadon miomasining qonservativ va operativ davosi xakida gapiring.
4. Reprodukativ yoshda bachadon miomasining davolash prinsiplari to'g'risida gapiring.
5. Bachadon endometriozi etiologiyasi va klinikasi xakida gapirib bering.
6. Bachadon endometriozi qonservativ va operativ davosi xakida gapiring.
7. Reprodukativ yoshda bachadon endometriozi qonservativ va operativ davosi xakida gapiring.

7- M a v z u. Tuxumdon yaxshi va yomon sifatli o'smalari mavzusi bo'yicha talabalar bilimni namunaviy baxolash mezonlari.

1. Ekstragenital endometriozi nima?
2. Genital endometriozi xillarini bilasizmi?
3. Adenomioz klinikasi qanday?
4. Tuxumdon endometriozi qanday aniqlanadi?
5. Endometriozi qaysi kasalliklarga o'xshaydi?
6. Davolash usullarini ayting.

7. Profilaktikasi nimadan iborat?

8- M a v z u. Ayollar jinsiy a`zolari rivojlanish anomaliyalari/ ayollar jinsiy a`zolari

1. Bachadonning bo`lmasligi nuksoni bor qiz bolalarni tekshirganda nimalar aniqlanadi?
2. Qin va bachadonning ikkiga ajralgan holati kachon vujudga keladi?
3. Qizlik pardasidagi nuqsonlarga nimalar kiradi?
4. Atreziyasi bo`lgan qiz bolalarda shikoyatlari kanday bo`ladi?
5. Atreziya xolati kuzatilganda qorin devori orqali paypaslab ko`rilganda nimalar aniqlanadi?
6. Soxta germafroditizm nima?
7. Bitta shoxli bachadon bo`lganda anus vaginalis dagi uzgarishni ayting?
8. Qin va bachadonning ikkiga ajralgan holatida taktikasi nimadan iborat?

9 - M a v z u. Bachadon bo`yni va tanasining fon va rak oldi, rak kasalliklari

1. Bachadon bo`yni va tanasining rak oldi kasalliklariga qaysi kasalliklar kiradi?
2. Leykoplakiya klinikasi ayting
3. Bachadon eroziyasi klinik turlarini ayting
4. psevdoroziyani davolash usullarini ayting
5. Ektropionga ta`rif bering
6. Ektropionni davolash usullarini ayting
7. Leykoplakiya davolash usullarini ayting
8. Bachadon bo`yni va tanasining rak oldi kasalliklarini diagnostikasini ayting.
9. Bachadon bo`yni va tanasining rak oldi kasalliklarini gormonal davolashga kursatma nimalardan iborat?
10. Bachadon tanasining rak kasalligini klinik belgilari nimalardan iborat?

10- M a v z u. Bepushtlik. Kontrasepsiyaning gormonal va xirurgik usullari mavzusi bo`yicha talabalar bilimni namunaviy baxolash mezonlari

1. Bepushtlik nima?
2. Bepushtlikning chastotasi;
3. Birlamchi va ikkilamchi bepushtlik nima?
4. Ayol bepushtligi;
5. Sabablari;
6. Erkaklar bepushtligi nima va uni sabablari;
7. Bepushtlikni diagnostikasi va davolash;
8. EKV tushunchasi kursatma va texnikasi.

2. ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI

1. Ginekologik kasalliklarninigi kelib chikishi.
2. Tuxumdon kistasi yorilganda kursatiladigan shoshilinch tibbiy yordam etaplarini aytib bering .
3. Boshlangan abortda kursatiladigan shoshilinch tibbiy yordam etaplarini aytib bering.
4. Chala abort bilan kelgan bemorga kursatiladigan shoshilinch tibbiy yordam etaplarini aytib bering.
5. Bachadon ichini kul bilan tekshirish operatsiyasi
6. Xayz stiklining buzilishi. Klassifikatsiyasi.
7. Chala abort bilan kelgan bemorga kursatiladigan shoshilinch tibbiy yordam etaplarini aytib bering.
8. Bachadon naylari o`tkazuvchanligini aniqlashda qullanilmaydigan usul
9. Qin ajralmalari
10. Bachadon bushligiga tashxis kuyish maqsadida kirishga karshi kursatmalar
11. Qin ajralmalarining
12. Tuxumdon gormonal faoliyatini kanday aniqlash mumqin

13. Ovulyatsiya paytida KPI
14. Qin surtmasi reaksiyasi
15. Ginekologiyada asosiy tekshirish metodlari va ularning ahamiyati nimadan iborat?
16. Instrumental tekshirish usullari va ularning bajarilish texnikasini ayting.
17. KPI nima?
18. Korachik simptomini izoxlang.
19. Ayollar jinsiy a'zolari spetsifik yalliglanish kasalliklariga nimalar kiradi?
20. Ayollar jinsiy a'zolari nospetsifik yalliglanish kasalliklariga nimalar kiradi?
21. Ayollar jinsiy a'zolari spetsifik yalliglanish kasalliklariga etiologiyasi, patogenez, klinikasi va davolash prinsiplariga nimalar kiradi?
22. Bachadondan tashqari homiladorlik nima?
23. Bachadondan tashqari homiladorlikni keltirib chiqaruvchi sabablari va kasallikning rivojlanish mexanizmi?
24. Bachadondan tashqari homiladorlik tasnifi?
25. Bachadon nayining rivojlanib boruvchi (uzilmagan) homiladorligi?
26. Bachadon nayidagi uzilgan xomiladorlikning "nay yorilishi" turi, uning klinik kechishi?
27. Bachadon nayidagi uzilgan homiladorlikning "nay aborti" turi, uning klinik kechishi?
28. Bachadondan tashqari homiladorlikni aniqlash usullari?
29. Bachadondan tashqari homiladorlikni boshqa kasalliklardan farqi?
30. Bachadondan tashqari homiladorlikni davolash usullari?
31. Bachadondan tashqari homiladorlikni o'tkazgan ayollarni sog'lomlashtirish?
32. Bachadondan tashqari homiladorlikning oldini olish nimalardan yo'llari
33. Follikulning yetilishi va shonga bog'liq endometriyda morfologik uzgarishlar?
34. Qon ketish paydo bo'lishining mexanizmi?
35. BDKK klinik variantlari, dif-dagnostika?
36. BDKK davolash turlari
37. Gormonal gemostaz va uning turlari.
38. Xirurgik davolashga kursatmalar.

VIII. IMTIXON SAVOLLARI

1. DBK klassifikatsiyasi
2. Gonoreya
3. Tuxumdon kistomasi (klinika, diagnostika va davolash)
4. Amenoreya (klassifikatsiyasi, klinika, diagnostika va davolash)
5. Bachadondan tashqari homiladorlik (klassifikatsiyasi, klinika, diagnostika va davolash)
6. Kista va kistomalarning differential diagnostikasi
7. Bachadon miomasi klassifikatsiyasi
8. Normal hayz sikli
9. Kolpitlar turlari (klinika, diagnostika va davolash)
10. Yuvenil qon ketishlari (klinika, diagnostika va davolash)
11. O'tkir salpingoofarit (klinika, diagnostika va davolash)
12. Tuxumdon o'smalarining necha xil oyoqchasi bo'ladi
13. Kista va kistomalar klassifikatsiyasi
14. Yo'ldagi abort (klinika, diagnostika va davolash)
